

O. HASANBOYEVA, J. HASANBOYEV,  
H. HOMIDOV

---

# PEDAGOGIKA TARIXI

---



TOSHKENT — 2004

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

*O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, H.Homidov*

# **PEDAGOGIKA TARIXI**

*Oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim  
bakalavriat yo'nalishi mutaxassisligi  
uchun darslik*

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2004

H 30  
74.03  
H 30

*Taqrizchilar:* Pedagogika fanlari doktori, professor  
**U. Mahkamov**  
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
**D. Abdurahmonova**

Hasanboyeva O. va boshq.

Pedagogika tarixi: Oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'nalishi mutaxassisligi uchun darslik. Mualliflar: O. Hasanboyeva, J. Hasanboyev, H. Homidov. — T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. 312 b.

Sarlavhada: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Pedagogika tarixi bo'lajak mutaxassislar kasbiy faoliyati qonun-qoidalari, usullari va vositalarining tarixiy taraqqiyoti bilan tanishtiradi.

Darslikda Markaziy Osiyo, Yevropa va boshqa mamlakatlardagi ilg'or pedagogik g'oyalar tahlil etilgan. Ayniqsa, milliy pedagogikaning o'ziga xos va mos xususiyatlari, bu boradagi qarashlar, ta'limotlar pedagog olimlarning asarlari misolida talqin etilgan.

Darslik o'n bobdan iborat bo'lib, boshlang'ich ta'lim mutaxassislarga hamda kasb-hunar kollejlari talabalariga mo'ljallangan.

BBK 74.03 я 73

H-H-H  $\frac{430200000 - 17}{M 352 (04) - 2004}$  qat'iy buyurtma, 2004

ISBN 5-635-02222-7

© "O'AJBNT" Markazi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004-y.

463513

---

## **I BOB. PEDAGOGIKA TARIXI FANINING PREDMETI, MAQSAD HAMDA VAZIFALARI**

Prezidentimiz I. Karimov O'zbekiston televideniyesi muxbirining savollariga bergan javoblarida: «Ilm-ma'rifatni e'zozlagan mamlakatda hech kim urush haqida bosh qotirmaydi. Chunki ilm-ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat, ilm-ma'rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi»<sup>1</sup>, - deya ta'kidlagan edi.

Islom Karimov orzu qilgan avlod O'zbekiston Respublikasining 12 yillik tarixida o'zini namoyon qila boshladi. Yangi avlodga O'zbekistonning istiqbol va istiqbol yo'lini ko'rsatuvchi omillardan biri o'zlikni anglashdir. Ular ajdodlarimizning fan va barkamol avlod tarbiyasiga qaratilgan g'oyalarini, qarashlarini, shuningdek, milliy va umumbashariy qadriyatlarni, xalq og'zaki ijodiyotidagi ilg'or g'oya va fikrlarni o'rganib, ularni ardoqlashlari lozim.

O'zbekiston xalqining o'zligini anglashga xizmat qiladigan fanlardan biri — pedagogika tarixidir.

Pedagogika tarixi kishilik jamiyatining taraqqiyot bosqichlarida yosh avlodni o'qitish, tarbiyalash tizimlarini, ularning qonun-qoidalarini, mutafakkir, ma'rifatparvar va pedagog olimlarning ta'lim-tarbiya, ma'rifatga doir g'oyalarini va ularning rivojlanishini mukammal o'rganadigan ijtimoiy fandır.

Pedagogika tarixi fani umumjahon, shu jumladan, O'rta Osiyo xalqlari tarixiy tajribasidagi ma'naviyat va ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarni o'zlashtirish uchun xizmat qiladi.

Pedagogika tarixi fani o'ziga xos ildizlarga ega:

---

<sup>1</sup>Karimov I. Barkamol avlod orzusi. T.: "Sharq", 1999, 57-bet .

— Ta'lim-tarbiya va ma'rifatga doir g'oyalarning falsafiy ildizlari: Pedagogika tarixi fani turli jamiyatlardagi mafkuraviy qarashlarga ko'ra o'zgarib, rivojlanib, ilg'or pedagogik fikr va g'oyalar miqdordan sifat o'zgarishlarga ega bo'lgan.

— Diniy-ma'naviy ildizlari: Inson kamolotidagi ma'naviyat haqida Qur'oni karim va shariat hukmlarida, Hadisi shariflarda esa ilmiy-nazariy bilimlarning tartib-qoidalari berilgan. Bu esa pedagogika tarixidagi ta'lim-tarbiya va ma'rifiy ishlarga yanada sayqal beradi.

Pedagogika tarixi fani falsafa, psixologiya, iqtisodiyot va ma'naviy-ma'rifiy fanlar tarkibida rivojlangan.

Pedagogika tarixi fani bo'lajak mutaxassislarda ma'naviy yuksak pedagogik g'oya va tushunchalarga tanqidiy munosabat, o'z faoliyatiga ijodiy yondashuvni tarbiyalaydi.

Pedagogika tarixi komil inson tarbiyasiga doir yig'ilgan tajribalardan iborat boy bir xazinadir. Har bir mutaxassis bu xazinadan ijodiy, tanqidiy va oqilona foydalanmog'i kerak.

Pedagogika tarixi darsligi O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi va Respublika ta'lim markazi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida yozildi.

### **Pedagogika tarixi fanining maqsad hamda vazifalari**

Kishilik jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti jarayonida inson kamolotining qonun-qoidalari, tartibi va vositalarini o'rganish, umumlashtirish davr talabidir. Pedagogika tarixi fanining maqsadi: Insoniyat mavjud ekan, uning ma'naviy taraqqiyotini ta'minlovchi ta'lim, tarbiya, ma'lumot kabi tushunchalar har bir ijtimoiy tuzumda mavjud bo'lib, u tafakkur tarixining qayta tug'ilishi va rivojlanishi bilan bog'liq holda pedagogika fanidagi yutuqlarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Pedagogika tarixi fanini o'zlashtirish ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan inson kamoloti haqidagi g'oyalarga ijodiy yondashgan holda o'rganish imkonini beradi.

Pedagogika tarixini o'rganish inson kamolotining xazinasini bo'lib, kishilik jamiyati taraqqiyotidagi tajribalarga suyanagan holda rivojlanib keldi.

Pedagogika tarixini o'rganish o'qituvchida pedagogik madaniyat, mahorat, tarixiy asarlarni tahlil qilish va munosabat bildirish malakalarini shakllantiradi.

Pedagogika tarixi ijtimoiy fan bo'lib, uning uslubiy asosi kishilik jamiyati taraqqiyotidagi milliy meros va qadriyatlar, qomusiy mutafakkirlarning inson kamoloti haqidagi asarlaridagi g'oyalar, ma'rifatparvar pedagoglarning ilmiy izlanishlari hisoblanadi.

O'z tarixini bilish har bir millat uchun farzdir. Chunki tarixni bilishga intilish inson aqli, farosatiga xos azaliy xususiyatdir. Shu sababdan, pedagog o'z kasb faoliyatining kelib chiqishini, undagi ma'naviy g'oyalarni pedagogika tarixi kursida o'rganadi.

Pedagogika tarixi yosh avlodning tarbiyasiga doir kishilik jamiyatining ijtimoiy-tarixiy bosqichlaridagi ta'lim-tarbiya tizimi, uning qonun-qoidalari, buyuk mutafakkirlar hamda pedagoglarning ta'lim-tarbiya va maorif sohasidagi g'oyalari va ularning rivojlanishini o'rganadigan fandir.

Pedagogika tarixi fani jahon va O'rta Osiyo xalqlari tarixidagi ma'naviyat va ta'lim-tarbiyaga doir fikrlarni o'rganishga xizmat qiladi. Bunda asosiy e'tibor ajdodlarimiz qoldirgan boy pedagogik meros va uning milliy asoslarini o'rganishga qaratilganidir. Pedagogika tarixiga kiritilgan g'oyalar bo'lajak o'qituvchiga bilim beribgina qolmay, balki ularda milliy iftixor va faxr hissini tarbiyalaydi. Yurtboshimiz I. Karimov aytganidek, «Xalqimizning tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosining o'zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim»<sup>1</sup>.

Ma'naviy istiqloq xazinasi — ajdodlarimiz yaratgan milliy merosimizni chuqur o'rganib, uni butun dunyo ko'z oldida namoyon qila bilishimiz kerak.

Hind mutafakkiri Robindranat Tagor aytganidek, «Har bir millat dunyo oldida o'z milliy mohiyatini namoyon etishga majburdir...».

Millat o'zida nimaiki yaxshi narsa bo'lsa, uni umumbashariyat mulkiga aylantirmog'i lozim. Olijanob ruh millat boyligi hamdir. Uning mulki esa xususiy tor manfaatlarni

---

<sup>1</sup> Karimov I. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. T.: "O'zbekiston", 85-bet.

engib borib, butun dunyoni o'z ma'naviy madaniyatida qatnashishga taklif eta bilishlikdadir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bo'lajak mutaxassislarni jamiyatda o'z o'rnini topa bilishiga keng imkoniyat yaratdi.

Mustaqillik davrida har bir inson o'z tarixini chuqur bilgandagina o'zligini anglay oladi. Tariximizda juda ko'p ta'lim-tarbiya tizimlari mavjud bo'lganligi tufayli mutaxassis o'sha davrdagi g'oya va ta'lim-tarbiya mazmunini tahlil qilib, uni ijodiy rivojlantirmog'i lozim. Prezidentimiz I. Karimov Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot masalasidir», degan fikrini ko'p mushohada qilib, shunday yozgan edi:

«Buyuk mutafakkirning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim, dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir...»<sup>1</sup>

O'tmish pedagog olimlardan qolgan pedagogik qadriyatlar yosh avlod tarbiyasiga dasturulamaldir.

Mustaqillik tufayli pedagogika tarixini o'rganishda yangi-yangi qirralar ochildi:

— pedagogik g'oyalarning rivojlanishida tarixiy izchillikni amalga oshirish;

— kadrlarning ma'naviy-g'oyaviy mafkurasini shakllantirishda pedagogik qadriyatlarga suyanish;

— ta'lim-tarbiya sohasidagi qadimgi meros va umumbashariy qadriyatlar, milliy urf-odat va an'analardan foydalanish.

Bular bo'lajak o'qituvchining pedagogik bilim va mahoratini oshirish imkonini yaratadi.

Har bir o'qituvchi, murabbiy, tarbiyachi, turli kasb egalari va ziyolilarda insonshunoslik va tarbiya-ta'limshunoslik borasida boy bilim, hayotiy malakalarni hosil qiladi. Pedagogika tarixi fani 1939 yildan boshlab, pedagogika oliy maktablarida o'qitilmoqda. Uning vazifalari:

— kishilik taraqqiyotidagi ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy rivojlanishi haqida ma'lumot berish;

---

<sup>1</sup>Karimov I. Barkamol avlod orzusi. T.: "Sharq", 1999, 1-bet.

— o‘tmishdagi ta’lim va tarbiya masalalarini, texnologiyasini hamda maktab tizimidagi yuksak g‘oya va tajribalarni ijodiy rivojlantirishni o‘rganish;

— bo‘ljak o‘qituvchilarni o‘quv-tarbiya yo‘li jarayonida buyuk mutafakkir olimlarning asarlaridagi pedagogik g‘oyalarni o‘rganish.

Pedagogika tarixi fani tarixiy taraqqiyot jarayonida xalqimiz yaratgan xalq pedagogik ijodini o‘rganish va unga amal qilish bilan rivojlanadi.

Pedagogika tarixi fanini quyidagi davrlarga bo‘lib o‘rganish nazarda tutiladi:

*1-bob. Pedagogika tarixi fanining predmeti, maqsad hamda vazifalari.*

*2-bob. Qadimgi davrdan VII asrgacha Markaziy Osiyo va Yunonistonda ta’lim-tarbiya va pedagogik g‘oyalar.*

*3-bob. VII–VIII asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogik fikrlar.*

*4-bob. Sharq uyg‘onish davrida ta’lim-tarbiya.*

*5-bob. Temuriylar saltanati davrida madaniyat va ta’lim-tarbiya (XIV–XV asrlar).*

*6-bob. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ta’lim-tarbiya.*

*7-bob. Turkistonda jadidchilik harakati va uning maorif rivojidagi o‘rni.*

*8-bob. Boshlang‘ich ta’lim fidoyilari.*

*9-bob. Chet el va Rossiyadagi ilg‘or boshlang‘ich ta’lim asoschilari.*

*10-bob. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi, uning istiqbol va istiqbol yo‘llari.*

Pedagogika tarixi fanini chuqur o‘rganish uchun u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator fanlar tizimini, birinchi navbatda, falsafa, psixologiya, anatomiya-fiziologiya, tarix, jamiyatshunoslik, adabiyot tarixi, maktab gigiyenasi va boshqalarni o‘rganish lozim.

### *Mustaqil ish*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodini va O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya masalalariga doir adabiyotlar ro‘yxatini tuzing.



---

## II BOB. QADIMGI DAVRDAN VII ASRGACHA MARKAZIY OSIYO VA YUNONISTONDA TA'LIM- TARBIYA VA PEDAGOGIK G'OYALAR

### Tarbiyaning paydo bo'lishi va tarixiy rivojlanishi

Tarbiya — ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun avvalo, tarbiyalanishi zarur. Abu Lays Samarqandiy «Bo'stonul-orifun» asarida tarbiya va tarbiyalashning ma'nosini ta'riflab: «Ey o'g'il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala, tarbiya ko'rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi», — degan edi. Ibn Sino ijodiyotida ham bu g'oya alohida o'rin tutadi. «Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo, o'zing amal qil», — deydi alloma. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Abu Rayhon Beruniyning hikmatlari, Ibn Sinoning «Tadbir-al-manozil», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» va boshqa asarlarida farzand ota-onaning baxti, uning to'g'ri tarbiyalanishi esa hammaning baxti, degan umumiy xulosa chiqariladi. O'tmishdagi mutafakkirlar tarbiya atamasining ma'nosini, tarbiyalashning mazmunini alohida bayon qilmagan bo'lsalar ham, o'z asarlarida tarbiyaning ma'lum qirralarini ifodalaganlar.

Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida tarbiyaning kuchi va sharofatini quyidagicha ta'riflaydi:

*Itka taallumda chu bo'ldi kamol,  
Sayd aning ag'zidan o'ldi halol,  
Olim ul itkim najasul ayn erur,  
O'g'ling jahl o'lsa, ajab shayn erur.*

(It o'rganish bilan komil bo'lgach, uning og'zi bilan tutgan ovini yeyish mumkin bo'ladi. Eng iflos maxluq hisoblangan it olim bo'lganida (ovlashni o'rganganida) o'g'lingning johil qolishi juda xunuk ishdirl).

Alisher Navoiy tarbiyaning asosiy belgilaridan biri, bolaga yaxshi ism qo'yish, ilmu adab o'rgatish, ota-onaga, umuman kattalarga hurmat hissini singdirishdan iboratligini uqtiradi. K.D.Ushinskiyning «Pedagogika adabiyotining foydasi» nomli risolasida: «Tarbiyalash ishi, shubhasiz, insonning aqliy va ongli faoliyatlaridan biridir: tarbiya tushunchasining o'zi tarixan vujudga kelgan va u tabiatda yo'q narsadir... Tarbiyalash faoliyati fikr yuritishni, haqiqatni anglashni ham o'rgatadi»,<sup>2</sup> deyilgan.

Mustaqil O'zbekistonimizda milliy mafkura yaratilmoqda va bu xayrli ish albatta, yosh avlod ongida milliy g'urur hamda iftixor tuyg'usini vujudga keltirishni talab qiladi. Bunga erishish, avvalo, tarbiyaga bog'liqdir. Har bir inson, xususan endigina hayotga qadam qo'ygan o'g'il-qiz har qanday maqsadga erishishi birinchi navbatda o'ziga, o'zining sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, ishdagi fidokorligiga va mehnatsevarligiga bog'liqligini anglashi kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir.

### **O'rta Osiyoda dastlabki tarbiya**

O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kelgan madaniy-ma'rifiy fikr va g'oyalarni, tarbiya masalalari bo'yicha xalq yaratgan juda ko'p manbalarni o'rganish nihoyasiga yetikilmagan. Hozir ularni mufassal o'rganish uchun mustaqil respublikamizda keng imkoniyat yaratildi. Bir qancha sharqshunos olimlarimiz Hindiston, Xitoy, Angliya, Fransiya va Arab mamlakatlaridagi talaygina qo'lyozmalarni o'rganishga muvassar bo'ldilar va hozir ham davom ettirmoqdalar. Jumladan, T.N.Qori-Niyoziy, H.Sulaymon, B.Ahmedov, S.G'aniyeva, O.Usmonov, N.Mallayev, F.Sulaymonova, Sh.Turdiyev, M.Xayrullayev, I. Mo'minov va boshqalarning bu sohadagi xizmatlari juda kattadir.

<sup>1</sup>Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T., 1993, 97-bet.

<sup>2</sup>Husanxo'jayev M. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya haqida. T., 1963, 130-bet.

Ibtidoiy davrdagi tarbiya asosan oilada, jamoa va mehnat maskanlarida kishilar orttirgan tajribalarni bolalarga o'rgatishdan iborat bo'lardi. Bolalarga o'rgatiladigan kundalik mehnat malakalari ularni yashash uchun kurashishga tayyorlar, aql-idrokli, odobli bo'lib o'sishlariga xizmat qilardi. Ming yillar mobaynida moddiy ne'matlar yaratish uchun hamkorlikda qilingan mehnat kishilar o'rtasidagi axloq-odob munosabatlarining me'yorini keltirib chiqardi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi kishilar mehnat jarayonida, borliqdagi narsalar va hodisalarga munosabatlari asosida o'z dunyoqarashlari va aqidalariga tayanib xalq og'zaki ijodi asarlarini yaratganlar. Ularning bir-biriga, atrof-muhitga, kasb-koriga munosabat borasidagi ilk fikr va tasavvurlar, mifologik asarlar timsoli bo'lmish — «Avesto»da ifodalangan Mitra, Ardivissura Anaxita, Varaxrana, Yima singari ma'buda va ma'budlar siymosi orqali ajdodlarimiz insonlarga yaxshilik qilish, yerlarni obod va serhosil etish, ekin ekish, daraxtlarni o'stirish uchun jamoa harakati xususidagi mulohazalarini mujassamlashtirganlar.

Quldorlik tuzumi davrida va feodalizmning boshlarida yaratilgan «To'maris», «Shiroq», «Er hubbi», «Chistoni elikbek», «Gershasp», «Siyovush», «Rustam» singari qator afsona va qahramonlik dostonlarida mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik, mustahkam e'tiqodlilik, el-yurt manfaati uchun fidoyilik kabi ijobiy fazilatlar tarannum etilgan va ana shunday fazilatlarga ega bo'lish zarurligi haqidagi g'oyalar targ'ib va tashviq qilingan. Muhimi shuki, mazkur asarlarda insonni yoshligidan aqliy va jismoniy jihatdan tarbiyalab, sabotmatonatli, xalq udumlariga, ajdodlar an'anasiga bo'ysunadigan, axloqan pok qilib kamol toptirish masalalariga alohida e'tibor berilgan. Qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalarining, shu jumladan, «Siyovush», «Zarina va Strianchiya», «Zariadr va Odatida» dostonlarining qimmatli, tarbiyaviy ahamiyati mashhur sharqshunoslardan Ye.E. Bertels, S.P. Tolstov, I.S. Braginskiy, V. Snesev, professor N.M. Mallayev va boshqalarning asarlarida alohida ta'riflangan. Haqiqatan, o'zbek xalq pedagogikasining ilk kurtaklari mazkur manbalarda ko'zga tashlanadi. Xalq pedagogikasidagi ta'lim va tarbiyaga doir fikrlar O'rta Osiyodagi barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak lirik she'rlar va qo'shiqlarda yaxshi ifodalangan.

Ma'lumki, turkiy xalqlarning o'zigagina xos qadimiy she'rlarning namunalari Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» (XI) kitobida keltirilgan. Muallif Sharqiy Turkistondan Kaspiy dengizi sohillarigacha bo'lgan hududlarda yashovchi turkiy xalqlarning lahjalariga xos so'z, atama va iboralarni sharhlar ekan, 300 dan ortiq qadimiy xalq qo'shiqlari, lirik she'rlari va hikmatlarini misol sifatida keltirgan. Ularda o'tgan ajdodlarimizning kasb-hunar, dehqonchilik, chorvachilik, tabiat manzarasi, fasllar, marosimlar haqidagi fikr-mulohazalari ifodalangan, ijtimoiy tuzumning illatlaridan, yomon kishilardan, zulm-zo'ravonliklardan nolishlari aks etgan, sevishganlarning ruhiy kechinmalari g'oyatda samimiy timsollar orqali tasvirlangan. Shuningdek, ota-bobolarimizning vatanparvarlik, chinakam do'stlik, mehnatsevarlik xususidagi qarashlari, insonni tarbiyalash haqidagi fikrlari ham yoritilgan. Qator she'rlarda yoshlar bir-biriga mehr-oqibatli, har qanday holatda ham xalq bilan birga bo'lishga, Vatan himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatishga, ulug'lar o'gitiga quloq solishga da'vat etiladi:

*Undab ulug' chaqirsa,  
Tezlik bilan yetib kel.  
Ochlikda birga bo'lgil,  
Ne holda bo'lsa, yurt, el.*

Qadimgi Yunonistonda mifologiya va xalq og'zaki ijodiyoti nihoyatda rivojlangan. Baxshilar qadimgi grek an'analarini uzluksiz davom ettirganlar, turli afsonalarga kuylar bastalab, bahodir va qahramonlarning madhini kuylar edilar. Gomer qadimgi grek afsonalari asosida ikkita doston yaratgan. «Iliada» va «Odisseya» deb nomlangan o'sha dostonlarda greklarning janglardagi jasoratlari, vatanparvarlik, jismoniy chiniqqanligi, mardlik fazilatlarini she'riy misralarda teran ifodalangan.

Qadimgi Yunonistonning ilk quldorlik davrida ikkita katta davlat — Afina va Sparta paydo bo'ldi, ularda o'ziga xos ta'lim-tarbiya tizimi ham vujudga keldi. Masalan, Afinada maktab tizimi uch turdagi maktablardan, ya'ni musiqa, gimnastika va gimnaziya maktablaridan iborat edi.

*Musiqa maktabi* xususiy maktab bo'lib, unda pul to'lab o'qitilar edi. Musiqa maktablarida faqat 7 yoshdan 16 yoshgacha

bo'lgan boy quldorlarning o'g'il bolalari o'qirdilar. Bu turdagi maktabda musiqiy tarbiya ham berilardi («muza» so'zidan olingan, qadimgi Yunonistonda «Muzi» — san'at, adabiyot va fan xudosi va homiysi). Musiqiy ta'limotning mazmuni xat-savod, adabiyot, hisob, deklamasiya, ashula va musiqa darslarini o'qitishdan iborat edi. *Gimnastik maktabi* — palestra (kurash maktabi) deyilardi. Bu ham ma'lum bir toifadagi kishilarga qarashli maktab bo'lib, unda 12 yoshga kirgan va ayni vaqtda musiqa maktabida o'qiyotgan o'g'il bolalar pul to'lab o'qir edilar. Bu turdagi maktabda o'smirlar yugurish, sakrash, disk irg'itish, nayza sanchish va kurash mashqini bajarardilar. Shu bilan birga, suzish mashqlarini ham o'tkazar edilar.

Gimnaziya davlatga qarashli maktab bo'lib, unda asosan, Afinadagi katta yer egalari — kiborlarga mansub nomdor oilalardan chiqqan, musiqa va gimnastika maktablarini tamomlagan aslzoda yoshlar o'qirdilar. Bunda ular 16 yoshdan 18 yoshgacha jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tarbiya olishlarini davom ettirar edilar. Bundan tashqari, aslzodalarni davlatni idora qilishga layoqatli qilib tayyorlash maqsadida ularga falsafiy ta'lim va siyosiy tarbiya berilar hamda notiqlik san'ati o'rgatilar edi. 18 yoshga to'lgan aslzodalar efebalar guruhiga mansub bo'lib, ular 20 yoshgacha maxsus harbiy tayyorgarlik ko'rar, ayni vaqtda ijtimoiy-siyosiy tarbiya ham olar edilar. Bu ta'lim-tarbiya tizimi faqat o'g'il bolalargagina tegishli edi. Qizlar esa yoshligidanoq uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanar edi. Sparta davlatida jismoniy kamolotga katta e'tibor berilib, ayollar ham bu ishga jalb etilgan. Chunki, sog'lom, baquvvat ayollargina sog'lom avlodni vujudga keltirishi mumkin edi. Qullarning bolalariga esa, ota-onalarining kasb-hunarleri o'rgatilgan.

### **Qadimgi Yunoniston faylasuf olimlarining pedagogik g'oyalari**

Qadimgi Yunonistonning mashhur faylasuflari Suqrot, Arastu, Demokrit va boshqalar o'z faoliyatlarida yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash vazifalariga ham jiddiy e'tibor berganlar.

**Platon** (eramizdan av. 427—343-y.) ob'ektiv idealizm nazariyasining asoschisidir. U «Ideyalar dunyosi» birlamchi,

his qilinadigan narsalar dunyosini ikkilamchi, deb hisoblagan. U g'oyalarni o'zgarmas, abadiy deb bilgan. «Siyosat» nomli asarida davlatning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani olg'a surdi. U ideal abstrakt davlatni 3 guruhga: faylasuflar (davlatni boshqaruvchilar), jangchilar (davlatni himoya qiluvchilar), hunarmand va dehqonlar (davlatni boquvchilar)ga bo'lgan va davlatni mustahkamlash, yuksak g'oyalarni amalga oshirishning birdan-bir vositasi tarbiya ekanligini qayd qilgan. Platon tarbiyaning maqsadi faylasuf va jangchilarga xizmat qilish ekanligini nazarda tutib, quyidagi pedagogik tizimni yaratgan.

## **7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun maktabgacha tarbiya**

Bolalar uch yoshgacha dastlab davlatning umumiy nazorati ostida tarbiyalanadilar. 3 yoshdan 7 yoshgacha esa maxsus tashkil qilingan bolalar maydonchalarida bolalarga beriladigan tarbiya har xil o'yinlar uyushtirish va himoya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar davlat tomonidan ochilgan boshlang'ich maktabda o'qish, yozish, hisob, ashula va musiqa ilmini o'rganar edi. 12 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalar esa gimnastik maktabda — palestrada o'qiydilar. Palestrani tamom qilgan yoshlar aqliy ta'limning ikkinchi bosqichiga o'tib, bunda arifmetika, geometriya va falakiyot fanlaridan saboq oladilar. Bu fanlar asosan harbiy ishda qo'llanilishi tufayli o'qitilar edi. 18 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan yigitlar efebga o'qib, unda harbiy-jismoniy tayyorgarlik oladilar. 20 yoshga to'lgan, ammo aqliy faoliyatga moyil bo'lmagan yigitlar harbiy xizmatga o'tadilar, aqliy faoliyatga layoqatli yigitlar 30 yoshgacha ta'limning uchinchi — yuqori bosqichida ilm oladilar. Bu bosqichda ular arifmetika, geometriya va falakiyotni chuqur va har tomonlama o'rganadilar. Shuningdek, musiqa nazariyasi va falsafa fani bilan shug'ullanadilar. Ta'limning uchinchi yuqori bosqichining maqsadi davlat xizmatiga layoqatli va to'la ma'lumotli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Ta'limning ana shu uchinchi bosqichida katta iste'dodli va qobiliyatli yigitlar o'qishni 5 yil (30 yoshdan 35 yoshgacha) davom ettirib, falsafiy tayyorgarlikni takomillashtiradilar, so'ngra ular 35 yoshdan 50 yoshgacha davlatni boshqaradilar. Yigitlar 20 yoshdan boshlab jangchilar qatoriga o'tkazilgan. Qobiliyatli yigitlar

30 yoshgacha falsafa, arifmetika, geometriya va falakiyotni, musiqa nazariyasini o'rganish bilan shug'ullangan. O'ta qobiliyatli esa 35 yoshgacha o'qishni davom ettirib, falsafa ilmini puxta o'rganib, 50 yoshgacha davlatni boshqarish huquqiga ega bo'lgan.

Platonning inson kamolotida ijtimoiy tarbiyaning roli va uning asosi maktabgacha tarbiyada vujudga kelishi haqidagi g'oyalari pedagogika fani taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

**Arastu** (eramizdan av. 384—322-y.). Eramizdan avvalgi VI asrda Yunoniston nihoyatda taraqqiy etgan mamlakat edi. O'sha jamiyatda yashagan Aristotel butun insoniyat madaniyati tarixining abadiy muammosi bo'lgan davlat tuzumi, uning xalq, fuqarolar haqidagi qonunlari inson baxt-saodatiga muvofiq bo'lishini orzu qildi. Uning falsafasi shunchalik boyki, unda davlat tuzumi, qonunlari, inson kamoloti masalalari ham atroflicha o'rin egallagan.

Arastuning yozishicha, davlatning bitta muhim vazifasi bor, ya'ni u hamma fuqarolariga bir xil tarbiya berilishini ta'minlashi lozim. Tarbiya xususiy tashabbus emas, balki davlatning eng dolzarb vazifasi bo'lmog'i lozim.

Arastu bolalarga ta'lim-tarbiya berishning ma'lum tizimi bo'lishi kerak, deb hisoblagan va birinchi bo'lib, bolalar yoshini davrlarga bo'lib o'rganib chiqqan. So'ngra, ta'lim-tarbiya tizimiga muvofiq, ana shu davrlarni quyidagicha tavsiya qilgan:

— har bir bola 7 yoshgacha oilada to'g'ri ovqatlanishi, jismonan chiniqishi va yaxshi odatlarni o'rganishi kerak;

— 7 yoshdan 14 yoshgacha davlat maktabida ta'lim olishi: gimnastika, o'qish, yozish, rasm chizish va musiqa fanlarini o'rganishi, aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan tarbiyalanishi lozim;

— 14 yoshdan 21 yoshgacha adabiyot, tarix, falsafa, matematika va falakiyotga doir bilimlarni o'zlashtirishi shart.

Arastuning fikricha, bolalar yoshini ana shu davrlarga bo'lish ularning tabiatiga juda mos keladi. Shuningdek, Arastu ta'lim bilan tarbiyaning birligini ta'minlash masalasiga ham jiddiy e'tibor berdi va uni keng ko'lamda yoritdi. U asosan o'zining falsafiy ta'limotida irodaviy faoliyatga asoslandi. Insonning irodasi undagi barcha ezgu xulq-atvorlarning

shakllanishi va rivojlanishi uchun zamin bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Qadimgi G'arb davlatlarida, shu jumladan, Afina va Spartada ham quldorlik jamiyati rivojlanib, aholining tabaqalanishiga olib keldi. Xalqning mol-mulki va nasl-nasabiga ko'ra tabaqalarga bo'linishi maktablarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada quyidagi ta'lim tizimi vujudga keldi:

Aholi tabaqalari	Maktabi	Ta'lim mazmuni
Erkin oilada tug'ilgan aholi Boy aslzodalar Imtiyozli kishilar	Pulli, xususiy boshlang'ich ta'lim Uy maktablari Grammatika	O'qish, yozish, hisob Lotin, grek tillari o'qitiladi, adabiyot, tarix Ritorika, falsafa, grek tili, huquqshunoslik, matematika va musiqa o'rgatiladi
Aslzodalar	Ritorlar	

### Qadimgi Rimda ta'lim-tarbiya

Qadimgi Rimda (eramizdan avvalgi II asr) grek madaniyati tez rivojlangan, grek tili aslzodalar tiliga aylangan. Xristian dini qabul qilingan. O'sha davrdan boshlab maktab va madaniyat diniy tus olgan.

**Mark Fabiy Kvintilian** (eramizning 42—118-yillari) Rim pedagoglarining eng mashhuri edi. Uning «Notiq tarbiyalash to'g'risida» nomli asarining anchagina qismi garchi bizgacha yetib kelmagan bo'lsa ham, ammo bu asarning saqlanib qolgan ba'zi parchalari Kvintilianing pedagogika sohasidagi asosiy qarashlari to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi. Kvintilian o'z zamonidagi Grek va Rim falsafiy va pedagogika adabiyoti bilan yaxshi tanish edi. Ayni vaqtda u Rimdagi ritorlar maktabining o'qituvchisi bo'lib ishlab, orttirgan katta tajribasini ham umumlashtirdi. Uning bu asari pedagogika tarixida birinchi marta maktab amaliyoti (praktikasi) bilan chambarchas bog'langan dastlabki asarning biridir.



Kvintilian bolalarning qobiliyatiga yuksak baho beradi. Uning fikricha, berahmlik va qobiliyatsizlik kamdan-kam uchraydigan hodisadir. Bola maktabda tarbiyalanmog'i lozim. O'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyotkorlik bilan va e'tibor berib muomala qilishi kerak. O'qituvchining o'zi o'qimishli bo'lishi, bolalarni sevishi, o'zini yaxshi tuta bilishi, bolalarni bo'lar-bo'lmasga mukofotlay bermasligi yoki jazolay bermasligi, o'z shogirdlari uchun o'rnak bo'lishi lozim. Har bir o'qituvchi o'qitishning hamma bosqichlarini o'tishi kerak. Chunonchi, yuqori turdagi maktab o'qituvchisi avvalo, boshlang'ich maktabda o'qituvchilik qilishi lozim.

Kvintilian o'zini «notiq tarbiyalovchi» kishi deb hisoblaganligi uchun ham bolaning nutqini o'stirishga katta e'tibor berdi. U bolalarning nutqi yoshlik chog'idanoq sof bo'lishi uchun kurashdi va shu sababli bolalarni uyda tarbiyalamoq uchun olinadigan enagalar va murabbiyalarning talaffuzi yaxshi bo'lishi kerak, deb uqtirdi. Kvintilian musiqiy ta'lim berish masalasiga ham bolaning nutqini yaxshilash nuqtai nazaridan qaradi. Musiqa va tilni o'rganish talaffuzning yaxshilanishiga yordam beradi, nutqning uslubini yaxshilaydi, uni ifodali nutqqa aylantiradi. Shuningdek, bolaning birga o'ynaydigan o'rtoqlarini ham tanlab olishni tavsiya qildi. Bundan tashqari, u ibratning tarbiyaviy rolini hisobga olib, bolalarning tevarak-atrofidagi kishilarning xatti-harakatini diqqat bilan kuzatib turish va yomon o'rtoqlarni esa undan chetlatish kerakligini aytdi. Bolani mantiqiy tafakkur qiladigan, muntazam va izchil fikr yuritadigan qilib tarbiyalash maqsadida matematika (arifmetika va geometriya) fanlarini o'rgatish zarur. Nazariy nasihatlar, taqlid va mashqlar o'qitish ishida katta rol o'ynashi kerak. Ayniqsa, bolaga bilim asoslarini mustahkam qilib berish, bu ishda shoshmaslik zarur.

Kvintilianning bu maslahatlari uning tajribakor o'qituvchi ekanligini ko'rsatadi. Uning Uyg'onish davrida yangidan kashf qilingan asarlarini ko'p pedagoglar qimmatbaho manba sifatida qiziqib o'qidilar.

Quldorlik tuzumi eramizning III asridan boshlab yemirila boshlaganligi natijasida maorif va pedagogika ilmi pasayib ketdi.

---

### III BOB.VII—VIII ASRLARDA MOVAROUNNAHRDA MADANIYAT VA PEDAGOGIK FIKRLAR

#### Xalq ogʻzaki ijodida tarbiya

Xalqimiz oʻz tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy ogʻzaki ijodiy meros yaratgan. Xalq ogʻzaki ijodida taʼlim-tarbiyaga oid ilgʻor pedagogik fikrlar ilgari surilgan.

Xalq ogʻzaki ijodiyoti asrlar boʻyi mehnat jarayonida insonning orzusi negizida shakllanib borgan barkamol insonga qaratilgan xalq ogʻzaki va yozma yodgorliklarida, yaʼni ertak, doston, qoʻshiq, topishmoq, tez aytish, masal, matal, maqol, rivoyat va hikoyatlarida oʻz aksini topgan.

Xalq ogʻzaki ijodiyoti asta-sekin keng tus olib, rivojlanib borgan. Shu zaylda insonlarda pedagogik madaniyat va merosga ixlos, intilish vujudga kelgan hamda unga amal qilina boshlangan.

Xalq ogʻzaki ijodiyotida avvalo, barkamol inson uchun ilm va hunar zarurligi taʼkidlanadi. «Boylikdan ilm afzal» ertagida ota bilan farzandlari oʻrtasida quyidagicha suhbat boʻlib oʻtadi:

Kenja oʻgʻil otasiga:

— Otajon, men davlat emas, ilm afzal deyman. Meni maktabga bering, oʻqiyman. Nasihatingizga amal qilaman. Koʻzingiz ochiqligida ilmli boʻlib qolay. Bari bir mol-davlat menga tegmaydi! — debdi.

Moʻysafidning dimogʻi chogʻ boʻlib:

— Barakallo, oʻgʻlim, — deb, oʻgʻlining peshonasidan oʻpibdi. Soʻng yana: — Menga mol-davlat tegmaydi, deganing nimasi? — deb soʻrabdi.

Shunda eshik orqasida akalari bilan otasining bahsu javoblarini tinglab turgan qizi:

— Ey, otam-qiblagohim, menga ruxsat bering, savolingizga javob berayin. Agar hurmatsizlik boʻlmasa, endi navbat meniki, — debdi.

Aka-ukalar bir-biriga qarab qolibdilar. Mo'ysafid xushvaqt bo'lib, navbatni qiziga beribdi:

— Qani, qizalog'im, senga navbat, gapir, bu so'roqqa sen nima deb javob qilasan?

Qizi gap boshlabdi:

— Ey, otajon, avvalambor shuni aytay, eng kenja o'g'lingizning bergan javobi to'g'ri javobdir. Davlat emas, ilm afzaldir. Lekin ilmning afzalligini aytolmadi. Negaki, kichik akalarim kattalariga taqlid qiladilar. Yaqinda katta akalarim maslahat qilib, otamdan so'ng mol-mulkni bo'lib olamiz, kichik ukalarga hech narsa bermaymiz, ular mehnatimizni qilib yuradi, deganlar. Kenja akam bu gapni eshitib, menga molu davlat tegmas ekan, o'qib bir kunimni ko'radigan bo'laman, deb o'ylab, ilm afzal deb to'g'ri aytyapti. Davlat bebaqo narsa, bugun bor, ertaga yo'q bo'lib ketadi. Davlat, albatta, shirin ko'rinadi, ammo azobi bisyordir. Kuningiz bitib qazo qilsangiz, akalarim davlat deb bir-biri bilan jiqqamusht bo'lishadi, narsalarimizni xomtalash qilishadi. Akalarimning yettovi davlat zo'r, dedilar. Bu noto'g'ri! Otaning moli farzandga sira buyurmaydi. Men bo'lsam ilmni afzal deb aytaman.

Xalq yaratgan hikoyalarda donishmandlik, aql va zakovat alohida o'rin egallaydi. «Non va Kitob» ertagidan:

— Hayotda eng zo'r ham, aziz ham sensan. Meni ham sen dunyoga keltirib, voyaga yetkazding. Shu boisdan bir umr senga ta'zim qilishni o'zim uchun burch deb bilaman, — dedi Aql Kitobga.

— O, do'stinam, menga kelganda zehningni jilovlay olmay sal bo'shatib yubording. Bilmasang bilib, qulog'ingga quyib ol. Mendan ham ko'ra azizroq narsa bor. Bu — Non! Men non oldida qarzdorman, — javob qildi Kitob.

— Non?! — taajjublandi Aql.

— Ha, Non mendan ulug'. Zero, och qoringa so'z kirmas. Sen rahmatni mendan avval Nonga ayt.

Xalqimiz yaratgan juda ko'p she'rlarda mehribonlik, mehmondo'stlik, shirinsuxanligu kamtarlik singari ezgu fazilatlar targ'ib qilinadi, kishilar saxiy bo'lishga, sofdillikka da'vat etiladi, kasb-hunar egallashga, ilm o'rganishga chorlanadi:

*Kulsa kishi yuzingga  
Ko'rklik bo'lib ko'ringil.  
Shirin, ochiq so'z so'yla,  
Yoqmoq uchun urungil.  
O'rgan uning bilimin,  
Borgil uning sari.  
Qutlug' ishga bo'ysungin,  
Kibrni quv nari.  
Olim kishin ezgu tutib, so'zin eshitib,  
Hunarini o'rganibon amal qilgin.*

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadim zamonlardan yaxshilikni yomonlikka, ma'rifatni jaholatga, nurni zulmatga qarama-qarshi qo'yib, hamisha ma'rifatu ziyoni, adolatu ezgulikni olqishlab kelgan. «Devonu lug'otit turk» kitobidagi she'rlarda baxillik, mol-dunyoga hirs qo'yish, o'zi och bo'la turib, saxiylik qilaman deyish, g'irromlik va hokazolar qattiq qoralangan, ota-ona, qo'ni-qo'shnilarning pandu nasihatlariga quloq solish, og'izdan yomon so'zlar chiqarmaslik, doimo kamtar, g'amginlarning dardiga malham bo'lishga undagan:

*Mehmon kelsa o'tkazgil,  
Hordiq olib tinch bo'lsin.  
Oti ham yorug'likda,  
Arpa, somonga to'ysin.  
Eshitib ota-onangning  
So'zlarini qadrla...*

Xullas, Mahmud Koshg'ariyning devonida ota-bobolarimizning inson xulqi, odobi, xatti-harakati, turmushdagi urinishlariga doir juda ko'p pand-nasihatlar, ma'rifiy fikrlar mujassamlangan.

O'rta Osiyo xalqlarining dastlabki yozma yodgorliklarida, masalan, «Avesto»da ajdodlarimizning qadimgi axloqiy-didaktik qarashlari, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari u yoki bu darajada o'z aksini topgan.

«Avesto» ta'limotiga ko'ra, ikki kuch: yaxshilik (yaxshilik kuchlari Axura-Mazda) va yomonlik (yomonlik kuchlari Angra-

Manyu) mavjud bo'lib, ular bir-birlariga abadiy murosasizdirlar. Yaxshilik kuchlarida insonlarni yuksak fazilatlariga asoslanib doimo insonga jismoniy, axloqiy, aqliy, tabiatni himoya qilish, go'zallikka doir juda ko'p muammolar mujassamlashgan. Jumladan, Zardo'sht munojotlarida Yazdondan yerda dehqonchiligu chorvachilikni rivojlantirish uchun bandalarining sog'lom, baquvvat bo'lishini ta'minlashi iltijo qilingan, yaxshi ish, yaxshi xulq, yaxshi odat ularda barqaror bo'lishi tilangan.

«Avesto»da oila gigiyenasi, atrof-muhitni, aholi yashaydigan joylarni toza tutish, ko'cha, hovli, suv havzalari, ariq va chashmalarni iflos qilmaslik haqida maxsus boblar mavjud. Chunonchi, ko'cha eshigi yoniga axlat to'plab qo'ygan xonadon sohibiga jamoaning hukmi bilan 25 darra, hovuz yoki chashmadan nopok ko'za yoki chelakda suv olgan shaxsga 5 darra urilgan. Chashmaning ustiga uch marta yomg'ir yog'ib o'tgach, u oldingidek odam va hayvonlar ichadigan suvga aylanadi, deb hisoblangan. Yerni iflos qilgan, uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar 40 qamchi urish jazosiga mahkum etilgan.

«Avesto»da bemorlarni davolashning ikki usuli ko'rsatilgan. Undagi oila, shaxsiy gigiyena hamda qiz va o'g'il bolalarni parvarishlash, tarbiyalash qoidalari haqidagi fir-k-mulohazalar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

### **Turkiy xalqlar yozma yodgorliklari tarixi va undagi ma'naviy tarbiya**

Turkiy xalqlar tili, yozuvi va adabiyotini o'rganish uchun eng nodir manba — O'rxun-Enasoy yozuv yodgorliklari qadimgi ajdodlarimizning ta'lim va tarbiya haqidagi fikrlari tarixini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Ular orasida «To'nyuquq bitigi» (712—716-yillarda yozilgan) hamda «Kul tigin bitigi» (732 yilda yozilgan) ayniqsa qimmatlidir. Har ikki bitik — taxta toshlarga o'yib yozilgan va o'sha tarixiy shaxslarning qabrlari ustiga yodgorlik sifatida o'rnatilgan.

Mazkur yodgorliklarda, bir tomondan, bizga turk xoqonligining paydo bo'lishi, mustahkamlanishi, atrofdagi elatlardan himoya qilinishi, hududini kengaytirish uchun olib borilgan kurashlar haqida batafsil ma'lumotlar bor. Ana shu jangu

jadallarning tafsilotlarida xalqning hamjihatligi, birligi, mardligi yoritilgan, kishilar jasoratga, vatan yo'lida fidoyilik ko'rsatishga chaqirilgan. To'nyuquq faoliyati hushyorlikka, tadbirkorlikka, bilimdonlikka, el-yurt uchun, vatan himoyasi uchun jonni fido qilishga chaqirsa, Kul tiginning hayoti mustaqillikni, O'rta hokimiyatning butunligini saqlab qolish yo'lidagi shijoati va matonati vatanparvarlik hissini tarbiyalaydi. Mazkur bitiklardagi: «Ilmsiz kishining so'ziga ishonib, unga yaqinlashib ko'p kishi o'ldi», «Uy-dunyogagina qaraydigan, ko'ziga faqat mol-mulk ko'rinadigan beklar, sizlar gumrohsizlar», «Undan keyin tangrim yorlaqasin, baxtim bor uchun, nasibam bor uchun, o'layotgan xalqni tiriltirib, tarbiyat qildim, yalang'och xalqni kiyimlik qildim, kambag'al xalqni boy qildim», kabi jumlar hamon o'zining tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Umuman, O'rxun-Enasoy yozuvlarida turkiy xalqlarning o'ziga xos jasurligi, matonati, yer yuzida yaxshilik urug'ini ko'paytirish, yurtining daxlsizligi yo'lidagi jonbozligi sezilib turadi. Olim N. Rahmonov «Bitiklar olamida» asarida O'zbekistonda ham mazkur bitiklar yuzasidan birmuncha ishlar amalga oshirilgani haqida yozadi. 1941-yilda O. Sharofiddinov tuzgan «O'zbek adabiyoti tarixi» xrestomatiyasida, «O'zbek adabiyoti» kitobining birinchi jildida (1959) ayrim bitiklarning hozirgi o'zbek tilidagi tavsifi berilgan. 1964-yilda T. Salimov Kul tigin bitiktoshining o'zbek tiliga tarjimasini berdi. 1972-yilda filologiya fanlari doktori A. P. Qayumov «Qadimiyat obidalari» kitobida boshqa bitiklar tarjimasini bilan bir qatorda Kul tigin bitiklarining tarjimasini ham berdi.

G'. Abdurahmonov va professor A. Rustamovlar ham barcha yirik O'rxun bitiklarini o'zbek tiliga ag'dardilar.

Kul tigin bitiktoshi marmarga o'yilgan bo'lib, qalinligi qirq bir santimetr, balandligi uch metru o'n besh santimetr, tub qismining qalinligi bir metru yigirma to'rt santimetr bo'lib, yuqoriga torayib borgan. Marmar taxtaning o'rtasiga besh burchakli qalqon shaklida balandligi oltmish to'rt santimetr, kengligi qirq santimetrli lavha o'rnatilgan. Lavhada arxar surati tasvirlangan xoqonlik tamg'asi naqsh qilingan. Orqa tomoniga bitiktoshning o'rnatilish tarixi xitoy yozuvida bitilgan. Bitiktoshning yuz tomoniga qirq satr, o'ng va chap tomonlariga o'n uch satrdan yozuv bitilgan.

Mehnatsevarlik g'oyasining ulug'lanishi Irq bitigining asosiy mavzularidan biridir. Agar odam o'z mehnatidan mamnun bo'lsa, bu yaxshi fazilat. Mana o'sha epizod: «Kambag'al odamning o'g'li ishlashga bordi, xursand bo'lib kelar der, shunday bilinglar: yaxshidir bu» (30). Irq bitigidagi bunday realistik sahnalar qadimgi turkiy adabiyotida mif va folklorni chetlab o'tolmagan. Zotan, mifologik obrazlar atrof-dunyoning real xususiyatlarini aks ettiradi. Irq bitigi qadimgi turkiy adabiyotning o'ziga xos alohida bir bosqichi bo'lib, uning yuksak badiiyati, chuqur falsafiy g'oya bilan sug'orilganligi qadimgi turk davrida katta adabiy muhit bo'lganidan dalolat beradi. Shu boisdan yozma adabiyot ma'lum bir yo'nalishga tushib olgan edi, deb taxmin qilishimiz mumkin.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar o'rxun alifbosidan tashqari, uyg'ur yozuvida, qisman monaviy, braxmon, sug'd va suryoniy yozuvlarida ham bitilgan.

Qadimgi turkiyning o'rxun yozuvida bitilgan yirik namunalari quyidagilardir: Kul tigin bitiktoshi, Bilga xoqon bitiktoshi, To'nyuquq bitiktoshi. Kuli chur bitiktoshi. Kuli chur bitiktoshi arxeolog V.L.Kotvich tomonidan 1912-yilda Mo'g'ulistonda Ulan-Bator yaqinidagi Ixe-Xushotu manzilidan topilgan. Bitiktoshning balandligi bir metr, qalinligi to'qson santimetr bo'lgan marmar toshga yigirma to'qqiz satr yozilgan. Bitiktoshning chetlari nurab ketgan. Matnni birinchi bo'lib sharqshunos olim A.N.Samoylovich tarjima qilgan.

Bitiktosh Bilga xoqon va To'nyuquqning zamondoshi hamda tardush xalqining yo'lboshchisi Kuli churga bag'ishlangan. Bitiktoshda Kuli churning tabg'achlar, arablar, to'quz o'g'uzlar, qarluqlar bilan qilgan janglari va turli yurishlari tasvirlangan. Kuli churning vafot etgan yili bitiktoshda ko'rsatilmagan, faqat sakson yil yashaganligi aytib o'tilgan.

O'rxun daryosi bo'yidan yana bir bitiktosh topilib, uni Ungin bitiktoshi deb atadilar. Bitiktoshning o'n ikki satri yaxshi saqlangan, yetti satrida o'chib ketgan joylari bor. Bitiktoshni birinchi marta V.V.Radlov nemis tiliga tarjima qilgan. Uning fikricha, bitiktosh Qutlug' xoqonga — Ikkinchi turk xoqonligi-ning asoschisiga bag'ishlangan. Qutlug' xoqon 692-yilda vafot etgan. Bitiktoshda turkiy qo'shinlarning Qutlug' xoqon, Bilga xoqon va Kul tigin boshchiligidagi kurashlari hikoya qilinadi.

O'rxun bitiklari ichida Kul tigin, Bilga xoqon, To'nyuquq bitiklari badiiy asarning o'ziga xos nodir namunalari hisoblanadi.

Kul tigin bitiktoshi Bilga xoqon bitiktoshidan bir kilometr shimoli-sharqdan topilgan hamda shikastlanmay, yaxshi saqlangani uchun ko'p tadqiqotchilar tomonidan o'qilgan va ko'p tillarga tarjima qilingan. V.Tomson o'rxun harflarini ana shu Kul tigin bitiktoshiga asoslanib deshifrovka qilgach, V.V.Radlov mazkur bitiklarni nemis tiliga tarjima qildi. 1896 yilda esa V.Tomson ham o'z transkripsiyasi asosida mazkur bitikni fransuz tiliga, 1897-yilda P.M.Melioranskiy esa rus tiliga (Melioranskiy mazkur bitik yuzasidan magistrlik dissertasiyasi himoya qilgan) o'girdi. Bu yozuvlarni o'zbek tiliga N.Rahmonov tarjima qilgan.

### **Islom dini va hadislarda ta'lim-tarbiya**

Islom dinining rivojlanishida payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ga Ollohning kalomi «Qur'on» nozil bo'lgan.

VIII asrda O'rta Osiyo arab xalifaligi tomonidan bosib olindi va bu yerdagi xalqlarga islom dini zo'rlik bilan qabul qildirildi.

O'rta Osiyo yerlarini egallash harakati 704-yilda Qutayba ibn Muslim Xuroson noibi etib tayinlanganidan so'ng avj oldi. U 705-yildan boshlab O'rta Osiyo hududiga bostirib kirib, birin-ketin Buxoro, Samarqand, So'g'd, Farg'ona, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini egalladi. Arablarning yashashi uchun Afrosiyob qisman bo'shatib berildi. Arab zodagonlari katta-katta o'ljalar talab qilib, xalqni anchagina og'ir ahvolga soldi. Arablarning islomlashtirish siyosati xususan, xalq o'rtasida islom dinini yoyish va unga itoat ettirishda ko'proq namoyon bo'ldi. Arab bosqinchilari islom dinini tarqatish uchun xalqqa soliqlarni joriy etdilar. Odamlar o'z daromadining 1/10 qismini ularga soliq sifatida to'lashga majbur bo'ldilar.

Arablar O'rta Osiyoda ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yovuzliklarni amalga oshirdilar. Shular haqida Beruniy «Osorul boqiya...» nomli asarida juda ko'p va aniq ma'lumotlarni yozgan.

Arablar O'rta Osiyo xalqlarini islom diniga bo'ysundirish maqsadida ularni arab tilida o'qish va yozishga majbur etgan,



deyarli har bir xonadonga bittadan arab oilasini joylashtirgan. Bunday oilalar o'sha xonadonda uning egasi va farzandlari arab tilini va islom dini ibodatlarini to'la o'rgangunicha yashagan. Arablar tashkil etgan masjid va madrasalarda asosan «Qur'oni karim», «ash-Shurut», «Haftiyak», «Aqoid» kabi kitoblar mutolaa qilingan.

«Aqoid» risolasi Ahmad ibn Muhammad Abu Ja'far Tahoviy (858—933) qalamiga mansubdir.

Tahoviy fozil zotlardan bo'lib, ilmu ma'rifatga doir juda ko'p asarlar yaratgan. Masalan, «Ahkom ul-Qur'on», «Muxtasar» (islom huquqshunosligi), «ash-Shurut», «Tarix», «Ixtiloful ulamo», «Aqoid» va boshqalar ana shular jumlasidandir.

«Aqoid» islomning asoslarini o'rgatuvchi eng muhim diniy fanlardan biridir. Bu fan orqali Ollohning zoti va sifatleri, tavhid, dunyo va oxirat to'g'risidagi islomiy ta'limot g'oyalari, gunoh va savob, jannat va do'zax, ilohiy kitoblar va payg'ambarlarga qanday munosabatda bo'lish qoidalari, xullas, har bir mo'min-musulmon uchun eng zarur diniy ma'lumotlar talqin etiladi.

### **Sharq mashoyixlari ta'limotida ta'lim-tarbiya sirlari**

IX—XIII asrlarda O'rta Osiyodagi musulmonlar yashaydigan hududlarda diniy-falsafiy oqim — tasavvuf, so'fiylik ta'limoti keng tarqaldi. Qur'on aqidalariga o'ta sadoqatli ilk so'fiylik namoyandalari Robiya Adaviya, Ibrohim Adham, Habib Ajaliy, Abu Yazid (Boyazid), Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulloh Rometoniy (Azizon), Abdulxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Junayd Bag'dodiy, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Xoja Ahrori Valiy kabi yirik olim va mutafakkirlar ana shu oqimga mansub edilar.

So'fiylik ta'limotining nazariy jihati Olloh ishqi uchun fidoyilik bo'lsa, amaliyoti esa unga sadoqatlilikdir.

Abu Hamid G'azzoliy ta'limoticha, so'fiylik — hamma vaqt xudoga sig'inuvchi kishilar bilan totuv yashash, nihoyatda muloyim muomalada bo'lish, o'z manfaatiga berilib, o'z yukini o'zgalar gardaniga yuklamaslikdir.

So'fiylik qonun-qoidasiga ko'ra, kambag'allik uning husni, sabr-toqat uning bezagi, qanoat uning oti, ishonish esa uning fazilatidir'.

Soʻfiylikda ruhiy kamolotga erishishning asosiy yoʻllari 4 bosqichdan iborat boʻlgan va bular: shariat, tariqat, maʼrifat, haqiqat bosqichlaridir.

Movarounnahrda soʻfiylik gʻoyalarining tarqalishi Yusuf Hamadoniy maktabidan boshlangan. Abdulholiq Gʻijduvoni va Xoja Ahmad Yassaviy Yusuf Hamadoniyning izdoshlari, soʻfiylik oqimidagi turli yoʻnalishlarning yirik vakillaridir.

Soʻfiylikning ikkinchi maktabi Ahmad Yassaviydan boshlangan. Sulaymon Boqirgʻoniy va Said Ato Yassaviy uning shogirdlaridandir.

XV asrda Movarounnahrda soʻfiylikning yangi oqimi Naqshbandiya tariqati paydo boʻlgan. Bu tariqatda soʻfiylarni darveshlikdan mehnat qilishga va Oллоhga sodiq boʻlishga daʼvat etiladi.

### **XOJA ABDULXOLIQ GʻIJDUVONIY**

*(1103—1179)*

Xoja Abdulxoliq 1103-yili Gʻijduvonda tavallud topib, 1179-yilda oʻz vatanida vafot etgan. U Sharq falsafiy tasavvuf tarixida oʻziga xos nufuzga ega boʻlgan. Gʻijduvoniyni taʼlimoti tasavvuf silsilalaridan biri — Xojagon (Xojalar) halqasida shakllangan. Biroq, Gʻijduvoni faqat Xojagon silsilasining emas, balki keyinchalik shu halqada paydo boʻlib, olamshumul ravnaq topgan Naqshbandiya silsilasining ham asoschilaridandir. Tasavvuf tarixida naqshbandiylikni Xojagon shajarasining shoxchasi degan qarash ham bor. Gʻijduvoniyni moʻtabar kitoblarda «shayxushshuyux» (shayxlar shayxi) deb ham taʼriflanadi. Bu ulugʻvor unvon Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar tomonidan Xoja Gʻijduvoni singari pirlarga nisbatangina qoʻllanilgan.

Gʻijduvoniyan «Risolai sohibiya», «Risolai Hazrati Abu Yusuf Hamadoniy», «Maqomati Xoja Yusuf Hamadoniy» kabi asarlar yodgorlik boʻlib qolgan.

Jahon xoʻjalari sarvari qanday karomat va fazilatlar sohibi edi? Ushbu savolga javob berishda mavlono Abdurahmon Jomiyning «Nafaxotul uns min hazorotul quds» hamda Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat min shamoyimud futuvvat» asarlariga tayaniladi. Asl manbalarning kafolat berishicha, «alarning ravishi tariqatda hujjatdur». Bu bahoni tushunish

uchun tariqat nimaligini qisqacha izohlash shart. Ma'lumki, islom ta'limotiga ko'ra, insonning ma'naviy-ruhiy kamolotga erishishi shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlaridan iboratdir. Islom yoxud xudojo'ylik yo'liga kirgan kishi, ya'ni yo'lovchi, izlovchi mana shu bosqichlarni bosib o'tishi zarur. Bu uchala bosqich bir-birini qat'iy taqozo etadi.

Shariatsiz tariqatga kirib bo'lmaydi va tariqatsiz haqiqatga erishilmaydi. Tariqat shariat qonun-qoidalarini bajarish va Olloh muhabbatiga muayassar bo'lish yo'lidir. Shariat — nazariya, tariqat — amaliyotdir. Haqiqat — maqsad, tariqat — uslub, faoliyat shaklidir. Ta'limotda: «shariat yong'oqning po'chog'i bo'lsa, tariqat po'choq ichidagi po'stloqdir, haqiqat esa po'stloq ichidagi mag'iz», «shariat — yer, tariqat mazkur yerda ungan daraxt, haqiqat esa shu daraxtning mevasi», «tariqat — fano, ya'ni o'zidan kechish, haqiqat — baqo, ya'ni botil (buzilgan, behuda ishlardan kechib haq ishlarga bog'lanmoq), «shariat — qonun, tariqat — yo'l». «Qonun» vujud va qalbni tarbiyalaydi. «Yo'l» ko'ngilni poklab, ruhni nurlantiradi» kabi turfa ta'riflar ham mavjud.

G'ijduvoniyning insoniyatga ibrat bo'lgan fazilatlaridan yana biri shuki, G'ijduvoniy «pok ravishlarin ag'yor ko'zidan yashiribturular». Bundan shu narsa anglashiladiki, odam faqat o'z aybini yashirib yurmasdan, pok xislatni ham pinhon tutgani ma'qul. Bu, birinchidan, pokiza, siyratni yomon ko'zdan asrash, ikkinchidan, dushmanning boshqalar g'ashini qo'zg'atmaslik, uchinchidan, kamtarlik, ya'ni o'z fazilatini ko'z-ko'z qilib, maqtanishdan saqlanish uchun zarur.

Naqshbandiya ta'limotidagi «botinon haq birla, zohiran xalq birla» bo'lmoq ravishi hamda xufiya zikr usuli G'ijduvoniyning «pok ravishini ag'yor ko'zidan yashirish» fazilatidan vujudga kelgan. Mavlaviyya sulukidagi oshkora ovoz chiqarib zikr tushish, zikri samo bu uslubga muvofiq kelmas edi. G'ijduvoniy jahriya usulidagi bunday zikrning ofatidan ogohlantiradi:

*Ey' so'fi sof, ki kuni mayli samo',  
Hosil zi samo' chun nifoq astu vido'.  
Yo tarki samo' kun, ki sof gardi,  
Yo on, ki hayoti dili xud soz vido'.*

---

<sup>1</sup> **Jumaboyev Y.** O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. T., "O'zbekiston", 1980, 40-bet.

Ma'nosi: «Ey soflikni shior etgan so'fiy, zikri samo usulini ixtiyor yetgan ekansan, hushyor va ogoh bo'lgilki, samo zikridan nifoq, nizo, ajralish, hayrbod hosili unadi. Vaholanki, so'fiy zikrining asl mohiyati-muddaosi qarama-qarshilik, yakkalanish va bo'linish emas. Aksincha, murosayu madora, vahdat — birlashishdir. Shuning uchun yo zikri samoni tark etgilkim, to g'ururdan poklangaysan. Yoki o'z hayotingu diling bilan vidolashaver».

G'ijduvoniyning bu sabog'i tasavvuf tarixidagi talablardan chiqarilgan oqilona xulosadir. Bu fikrga mashhur Mansur Hallojning ayanchli qismati dalil bo'la oladi. Ma'lumki, Mansur Halloj «Anal haq» — (Men — xudoman) deya baralla aytgani uchun dorga osilgan. Navoiyning izohlashicha, Mansur Hallojning ustodi Abu Amir binni Usmon Makiy tavid ilmida o'ziga xos yangicha ma'no kashf etgan. U ma'no nihoyatda nozik va so'zi yashirin bo'lgan. Mansur olib oshkor etgan. Ma'no benihoya nozikligidan el uni tushunmagan va Mansurni halok qilgan. Aslida uning «Men — haqman» deganida «Men — haq bilan birgaman» degan nozik ma'no mujassamlangan edi. Ammo bu nazokatni zikri samo saqlayolmas edi. Shuning uchun Xoja Ali Rometoniy: «Agar yer yuzida Abdulxoliq farzandlaridan biri bo'lsa erdi, Mansur hargiz dor ostiga bormag'ay erdi», deya xufya zikrning afzalligiga imon keltiradi.

G'ijduvoniyy va Naqshbandiya tariqatlarida ikkita bir-biriga yaqin shior bor. Masalan, G'ijduvoniyy «Xush dar dam» shiorida Insonning ichidan chiqadigan har bir nafas ogohlikdir va bu huzur-halovat yuzasidan yaxshi, g'aflat unga hech yo'l topmasligi kerak, ya'ni har bir narsa yo o'lim, yo hayot davomiyligini belgilaydi. Ularning bu tariqatida ilm insonni ma'rifat va adablikka chorlaydi.

*Ey, ilm dengiziga kirmay, buloq  
sohilida qolgan kishi,  
Dengizda farog'at bor, sohilda  
esa baxtsizlik.  
Dunyoning mavjlanishiga xush nazar  
bilan boqma,  
Har ikki nafas o'rtasida dengizdan ogoh bo'!*

Xoja Abdulxoliqning yozishlaricha, «Yigirma ikki yoshimda uygʻoq qalblarimning xojasi — Xojai Xizir alayhissalom meni shayxi rabboniy Yusuf Hamadoniy qoʻliga topshirdilar va meni tarbiyat qilishga valiyat etdilar, ular Movarounnahrda ekanlar, men ularning xizmatlarida boʻldim va koʻp foydali amallarni oʻzlashtirib oldim». Gʻijduvoniylar tariqat oqibatida nasihatnomalar bitdilar. Uning «Fasl ul-habib» kitobidan axloq-odobga doir ayrim namunalarini keltiramiz:

«Vasiyat qilurman men senga ey farzand, barcha holatda ilm, amal va taqvoda boʻl, ilm, amal, sunnat va jamiyatni mahkam tut. Shuhrat qidirmagil, shuhrat oftobdir. Mansabda oʻtirma, doimo panada boʻl. Oz soʻzla, oz ye, oz uxla. Ahli ayolingga ehtiyot boʻl.

*Dunyo ahli bilan magʻrurlanma.  
Libosing oddiy, doʻsting darvesh.  
Dastmoyang fiqh (huquq) ilmi,  
Uying masjid va munising haq  
Subhona va taʼolo boʻlsin.*

Abdulxoliq Gʻijduvoniylarning ikkinchi shiori «Nazar ba qadam» deyilgan boʻlib, unda Nazaring doimo panjalaring ustida boʻlsin, toki, keraksiz joyga tushmasin, deyiladi.

Bu tariqatni Abdurahmon Jomiy «Tuhfat ul-ahror» kitobida «Nazar ba qadam»ni nazm bilan shunday taʼriflagan:

*Hushyorliksiz biror nafas ham olmagan,  
Nazari qadamdan oʻzga yerda boʻlmagan,  
U oʻzligidan surʼat bilan safarga,  
Yaʼni uzoqqa ketmagan.  
Har bir qadami nazoratdan xoli boʻlmagan.*

Gʻijduvoniylarning keyingi shiori: «Safar dar vatan» deb nomlanadi.

Buning maʼnosi shuki, odamning tabiatida safar qilish ehtiyoji bor. Safarning 4 ta ibtidosi mavjuddir, — deb yozgan edi alloma:

Safar qilib biror azizning xizmatida bo'ladiganlar. Umuman safar qilishni xohlamovchilar. Doimiy safar qiluvchilar. Safarda bo'lish bu yurakka sayqal berish va uni tozalashdir.

### AHMAD YASSAVIY

Islom olamining tasavvuf shoiri va dinu shariat peshvosi Xoja Ahmad Yassaviy XI asrning o'rtalarida Sayramda Ibrohim ota oilasida dunyoga keladi. U go'dakligidayoq onasidan, 7 yasharliligida otasidan ajraladi. Uni bobosi Arslon bobo (Arslonbobo) tarbiyalaydi. Balog'atga yetgach, u otasi Shayx Ibrohimning murid — xalifalaridan biri Muso Shayxning qizi Oyshaga uylanadi. Uning Ibrohim otli o'g'li, Gafhari Shahnoz otli qizi bo'lgan. Ahmad dastlab Yassida o'qiydi, so'ngra bobosining tavsiyasi bilan Buxoroga borib, madrasada tahsil ko'radi. Bu yerda u fiqh ilmining ustozini Shayxulislom, tasavvuf falsafasining donishmandi Yusuf Hamadoniydan ta'lim olgan.

Ustozini asl Eronning Hamadon viloyatidan bo'lgan Yusuf Eron va Hindistonda o'qiydi. Imom G'azzoliyning ustozini Shayx Abu Ali Faryumadiydan ta'lim oladi. So'ngra Xurosonu Movarounnahrda kelib, Marv, Samarqand, Hirot, Balx, Buxoro shaharlarida faoliyat ko'rsatadi. Umrining oxirida Marv safarida Bomiyonda vafot etadi, shogirdlari jasadini Marvga olib, dafn etadilar.

Ahmad Yassaviy ustozini vafotidan keyin bir oz vaqt Buxoroda uning ishini davom ettiradi. Yassaviy faoliyatining dastlabki yillaridayoq o'z dunyoqarashini xalq orasida kengroq yoyish maqsadida turkiy qo'shiqlarga yaqin she'rlar ijod qila boshlaydi. Keyinchalik, Yassiga qaytib, ko'plab tarafdorlar, shogirdlar orttiradi. Rivoyatlarga ko'ra, Ahmad Yassaviy 63 yoshga, ya'ni Payg'ambar yoshiga kirgach, yer ostiga — yerto'laga kirib, umrini toat-ibodat, xudo yo'lida riyozatda o'tkazib, 125 yoki 133 yoshida, 1166—1167 yillar orasida vafot etgan. Sharqda o'tgan aksariyat xudojo'y, haq yo'lida fidoyi so'fi — donishmandlarning 100-120-yil umr ko'rganlarini inobatga olsak, Yassaviyning shuncha yoshga kirgani ham ayni haqiqatdir.

Bizga qadar Yassaviydan «Devoni hikmat» nomli she'rlar kitobi saqlanib qolgan. Bu asar hamma zamonlarda, barcha turkiyzabon avlodlarga manzur va maqbul bo'lib kelgan. Zeroki,

u insonni asl komillikka eltadigan din, imon, xudo yoʻlida fidoyilik, eʼtiqodda sobitlik, halollik, poklikni targʻib-tashviq etdi. Kishilarni asl maqsad — Xudoga erishmoq payida mashaqqat — riyozat chekmoqqa, maʼrifat kasb etmoqqa, islomiy va dunyoviy ahkomlarni egallamoqqa chorladi. Filologiya fanlari doktori Ergash Rustamov Xoja Ahmad Yassaviy Masjidi peshtoqiga hazrati Rasulullohning «Talabul ilmi farizatun ala kulli musulmin va muslimatin» — «ilm olish har bir muslim va muslima uchun farz», degan hadis bitilganini qayd etgan. Yassaviy hikmatlarida toʻgʻrilik, mehnatsevarlik, moʻminlarga mehribon boʻlish, insof, muruvvat gʻoyalarini ilgari surgan. Ayrim hikmatlarda biz ijtimoiy adolatsizlikka qarshi keskin fikrlarni, dilozor, muftxoʻr boʻlmaslikka daʼvatni koʻramiz. Ayni paytda, Yassaviy nodonlik, jaholat va razolatni qattiq qoralagan. Shuning uchun ham oʻtmishda Yassaviy hikmatlari singari uning shaxsiyati, shuhrati ham Turkistonda keng tarqalgan. Xalq orasida Yassaviyni donishmand, bashoratchi va nozik bin alloma — Hakim sifatida vasf etuvchi koʻplab rivoyatlar yaratilgan.

Ahmad Yassaviy yaratgan oʻlmas hikmatlarini devon tariqasida kelajak avlodga meros qoldirdi. XI—XII asrlarda Xurosonu Movarounnahrda yuz bergan qahatchilik, oʻzaro urushlarning asoratlari tanqid etiladi: adolat, insof, rahmshafqat oʻrnini diyonatsizlik, takabburlik egallaganidan noliydi, himoyasiz qolgan xalqqa hamdardlik izhor etadi. Bu hikmatlarda maʼnaviyat haqidagi fikrlar teran ifodalanadi.

*Ahli dunyo xalqimizda saxovat yoʻq,  
Podsholarda, vazirlarda adolat yoʻq.  
Darvishlarni duosida ijobat yoʻq.  
Turluk bala xalq ustiga yogʻdi, doʻstlar.*

Yassaviy hikmatlarida jaholat va razolatni qoralash, nodonlik, doʻstlikka xiloflik qilish, manmanlikni ham tanqid qiladi:

*Duo qiling, nodonlarning yuzin koʻrmay,  
Haq taolo rafiq boʻlsa, birdam turmay.  
Bemor boʻlsa, nodonlarni holin soʻrmay,  
Nodonlardin yuz ming jafu koʻrdum mano.*

*Ayo do'stlar nodon birla ulfat bo'lub,  
Bag'rim kuyub, jondan to'yub, o'ldim mano.  
To'g'ri aytsam egri yo'lg'a bo'yin to'lg'ar,  
Qonlar yutub, g'am zahrig'a to'y dum mano.  
Qayda ko'rsang ko'ngli sinuq malham bo'lg'il,  
Andoq mazlum yo'lda qolsa hamdam bo'lg'il.  
Ummat bo'lsang g'ariblarg'a tobe' bo'lg'il,  
Oyat, hadis har kim aytsa, some' bo'lg'il.*

Shoir bir talay hikmatlarda kishilarni qadrdon, halolu pok, ilm-donishli, diyonatli, imon-e'tiqodli, rahm-shafqatli bo'lishga da'vat etadi.

*Sunnat ermish kofir bo'lsa, berma ozor,  
Ko'ngli qottig' dilozordan xudo bezor.*

Sabru qanoat, javonmardlik, ezgu maqsad yo'lida fidoiylik qilmoq ham haqiqiy oshiqning fazilati: u yo'ldan ozgan gumrohlarni yo'lga solmog'i darkor. E'tiborlisi shundaki, har bir so'z, ibora nihoyatda sodda, ayni paytda mazmuni nafis, undan kuzatilgan g'oyaviy niyat umumbashariy mohiyatga molikdir.

*Nafsdan kechib, qanoatni pasha qilg'on,  
Har ne topsa, rozi bo'lib, bo'yin sung'on.  
Yaxshilarga xizmat qilib, duo olg'on,  
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo'q.*

Mutakkabir, manmanlikka berilgan odamni, o'z qadrini bilmagan, o'zgalar qadrini e'zozlamaganlarni inson sifatida sanab bo'lmaydi:

*Hayfi odam o'z qadrini o'zi bilmas,  
Manmanlik qib yaxshilarni ko'zga ilmas.*

Bu dunyoda kimda-kim nafsning gapiga kirsas, nafs yo'lida yugurib-elsa, oxir-oqibat rasvo bo'lur:

*Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur,  
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib, gumro bo'lur.*



*Nafsing seni oxir damda gado qilg'ay,  
Din uyini g'orat qilib, ado qilg'ay.  
Oqil ersang nafsi baddin bo'lg'il bezor.*

Haqiqatda ham oriflikning asosiy belgisi, komillikka erishmoqning yo'li ikki nafsdan ham parhezkorlik, saxovatpeshalik, juvonmardlik, haqqo'ylikdir.

Hikmatlarda yolg'onchilik, ikki yuzlamachilik, tovlamachilik, hirs, ta'magirlik singari chin oshiqqa, oriflarga nomunosib g'ayriinsoniy xislatlar la'natlanadi, munofiqlar qoralanadi.

*To'g'ri yurgan oshiqlardan xudo rozi,  
Oshiq ishi oson emas, qilma bozi.  
Yolg'onchilar oshiq men, der, Oллоh qozi,  
Imonini puchak pulga sotar ermish.*

«Devoni hikmat» tarkibidagi quyidagi fikrlar kitobdagi butun axloqiy, ma'rifiy, ishqiy, insoniy mulohazalarning umumlashma yakuniga o'xshab ko'rinadi, chunki bu baytlarda komil inson uchun majburiy bo'lgan barcha farz va sunnatlar g'oyatda ixcham tarzda o'z ifodasini topgan.

*Xayru sano qilg'onlar, yetim ko'nglin olg'onlar,  
Chahor yorlar hamrohi kavsar labinda ko'rdim.  
Andog' olim joyini dorussalomda ko'rdim.  
Mufti bo'lg'on olimlar, nohaq fatvo berganlar,  
Andog' mufti joyini sirot ko'frugda ko'rdim.*

Ahmad Yassaviy hikmatlari nafaqat g'oyaviy jihatdan, balki badiiylik nuqtai nazaridan ham XII asr turkiy she'riyatning mumtozidir. Bundan tashqari, biz hikmatlarda Fir'avn, Qorun, Faridun, Muso, Iso, Vomiq, Uzro, Yusuf, Farhod, Majnun, Od, Shaddod, Mansur, Shibli, Boyazid, Junayd, Zunnun, Ya'qub, Zulayho, Zol, Rustam singari o'nlab afsonaviy, tarixiy nomlar bilan bog'liq rivoyatlar, naqlar, hikoyat va masallarga ishoralarni ko'ramiz. Shuningdek, puli sirot, obi kavsar, salsabil, mahshargoh, arafot, arasot va boshqa atamalar Rasululloh, sahobalar, chahoryorlarning faoliyatlariga doir tafsilotlar haqidagi qaydlarga ham duch

kelamiz. Ular kitobxonni o'ylashga, fikr yuritishga undaydi, tafakkur qirralarini charxlashga yordam beradi:

*Yunusdek ham daryo ichra baliq bo'lsam,  
Yusufdek ham quduq ichra vatan qilsam,  
Yoqubdek ham Yusuf uchun ko'p yig'lasam,  
Bu ish birla, yorab, seni topg'aymu men?  
Ma'rufdek ham ushbu yo'lga qadam qo'ysam,  
Mansurdek ham jondan kechib dorga qo'nsam,  
Dor uzra shavqlanibon haqni aysam,  
Bu ish birla, yorab, seni topg'aymu men?*

Ko'rinib turibdiki, Yassaviy hikmatlarida insoniyat paydo bo'lgandan buyongi tarixiy haqiqat, afsonalar, rivoyatlar, turli diniy arboblarning, diniy-falsafiy oqimlar asoschilarining hayoti, turmush tarzi, komillik yo'lidagi tutgan sa'yiharakatlari g'oyatda nafis, tadrijiy ravishda o'z aksini topgan. Bunday hikmatlarni o'qiganda bizning bilimimiz chuqurlashadi, imonimiz but bo'ladi, hayotga va oxiratga qarashimiz teranlashadi, Ollohga erishmoq izmida riyozat chekmoq mashaqqatlarini his etamiz. Bu baytlardagi har bir so'z, ibora, hatto izofa zamirida nozik nuqtalar qat-qat bo'lib yotibdi.

Yassaviy millatidan qat'i nazar, har bir odamni hurmatlash kerakligini uqtiradi:

*Oqil ersang eranlarga xizmat qilg'il,  
Amri ma'ruf qilg'onlarni izzat qilg'il.*

Shoirning «Devoni hikmat» nomli asari falsafa, pedagogika, ruhshunoslik, mantiq, adabiyot fanlarining rivojida alohida o'rin egallaydi. Umuman, Yassaviyning barkamol inson haqidagi g'oyalari yosh avlodni tarbiyalashda muhim dastur sifatida xizmat qiladi.

### *Mustaqil ish*

Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» kitobini o'qib tahlil qiling.

## NOSIR XISRAV

(1044—1088)

Ma'rifatparvar adib, otashqalb shoir va olim, atoqli davlat arbobi Nosir Xisrav hozirgi Tojikistonning Qubodiyon shahrida tug'ilgan. Balx va Marv madrasalarida ta'lim olgan. Saljuqiylar saltanatida 20 yil soliq yig'uvchilar idorasiga boshchilik qilgan. Arab mamlakatlarida 7 yil safarda yurgan adib to'rt marta haj safarini ado etgan. Umrining oxirgi yillarini tog'li Badaxshonda o'tkazib, Yumg'on qishlog'ida vafot etgan.

Nosir Xisrav naqqosh, olim, shoir, yozuvchi sifatida katta meros qoldirgan. Adibning «Saodatnoma», «Ro'shnoinoma», «Safarnoma», «Musofirlarning yo'l ozuqasi», «Birodarlar xoni», «Vajhidin», «Kushoish va rahoish» asarlari, arab va fors tillaridagi she'rlari Sharqdagi ilm ahli orasida juda mashhurdir. Mazkur asarlarda, xususan «Saodatnoma»da ilm-ma'rifat saodatning kaliti, dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar jamiyatning moddiy ne'matlarini yaratuvchilar sifatida ta'riflangan. «Hunarmanddan yaxshi kasb yo'q jahonda» kabi ibratli misralar muallifining ilm o'rganish yo'lida chekkan zahmatlari ham ibratlidir:

*Bilim qidirishga urdim boshimni,  
Bekor o'tkazmadim umrimni bir dam.  
Qaydaki eshitsam ilmu donishni  
Eshigi tagida o'tirdim mahkam.*

Nosir Xisrav 15 yil davomida g'orni maskan qilib Yumg'on qishlog'ida maktabdor bo'lgan. Tabiatan xushxat va xushxon adib o'quvchilarga bir vaqtning o'zida yozishni va ovoz chiqarib o'qishni mashq qildirgan. Manbalarda qayd etilishicha, Nosir Xisravning talabalari xushnafas va Qur'onni shirin ovoz bilan qiroat qiladigan bo'lib chiqar ekan. Shoir asarlarida kattalarga izzat, kichiklarga shafqat, ota-onaga xizmat, do'stlik, har bir ishni ilm va aql-zakovatga suyangan holda bajarishga da'vat, jaholat va razolatni la'natlash g'oyalari kuchlidir. Ayniqsa, ilm olishning zarurligi alohida ta'kidlangan:

*Kimki shogirdligidan chin dildan shod,  
Bir kun o'zi ham bo'lg'usi ustod.*

*Ilm birla yetish mumkin birodar,  
Zarradan tortib to quyoshga qadar.*

Nosir Xisravning hunar egallash, ilm o'rganish yo'lidagi sabot va matonati, muallimlik faoliyati, adolat uchun kurash yo'lidagi mardonaligi hamisha ibratlidir.

### **Bahouddin Naqshband ta'lim-tarbiya haqida**

Islom dunyosidagi eng mo'tabar shaxslardan biri Bahouddin Naqshbanddir. Sayyid Muhammad Ibn Sayyid Jaloliddin Naqshband 1318 yilda Buxoroda tug'ilgan. Go'daklik chog'idayoq atrofdagi odamlarni hayratda qoldirgan, chunonchi kelayotgan odamni bir qarashda to'xtatib qo'ygan. U yetti yoshidayoq Qur'oni karimni to'liq yod olgan. Ustozi Samosiy bergan ilmlar Bahouddinga olam sirlarini bilish, dunyo eshigini ochish kaliti sifatida xizmat qilgan.

Bahouddin yoshligidayoq pokiza, odobli, ustozlariga mehribon va zukko bo'lgan. Xalq orasida u ustozlarining bomdod namozi uchun kerakli tahorat suvini, ya'ni obdastani eshik orqasida tong otguncha bag'riga bosib o'tirib, tanasining harorati bilan isitganligi haqidagi rivoyat mavjud.

Bahouddin 11 yoshida Ahmad Yassaviyning hikmatlarini, shayx Azizon (Rometoniy) risolalarini o'rgangan.

Sayyid Mir Kulol yosh Bahouddinga zikr qilish sirlarini o'rgatgan va Bahouddin yosh bo'lishiga qaramay, halol mehnat qilish har bir inson uchun zarurligini anglagan. Ruhiiy mo'jiza va karomatlar ko'rsatish bilan birga hunar o'rgangan, ya'ni qalin ipakli mato — kimxob to'qish bilan tirikchilik qilgan.

XIV asrdan keyin O'rta Osiyoda Xoja Bahouddin asos solgan Naqshbandiya tariqati shakllandi va rivoj topdi. Xoja Ahrori Valiy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ham ana shu tariqatga mansub edilar.

Bahouddin butun hayoti va faoliyatini islom dinini targ'ib qilishga qaratgan buyuk shaxs sifatida «Bahouddin Balogardon», «Devonai Bahouddin», «Shayx Bahouddin», «Hazrati Eshon», «Xojai buzurg» kabi nomlar bilan insoniyat tarixida barhayot qolgan.

Bahouddin Naqshbandning ta'lim-tarbiya haqidagi fikr-mulohazalari va pandu nasihatlari g'oyat qimmatlidir. U barkamol

insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta'kidlab shunday degan edi: «Adab xulqni chiroyli qilish, soʻz va feʼlni soz qilishdir... Adab saqlash — muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urugʻi hamdir. Agar adabdan ozgina nuqsonga yoʻl qoʻysang ham, nimaiki qilsang ham beadablik koʻrinadi. Odam oʻzini bir xil sifat va koʻrinishda olib yurishi lozim, toki odamlarda unga tasarruf (taʼsir qilish) taʼmasi paydo boʻlmasin».

Naqshbandiy doʻstlik va oʻrtoqlikka katta eʼtibor bergan va agar doʻst aybiga boqsak, doʻstsiz qolamiz, hech kim dunyoda beayb emas, degan purhikmat satrlarini qoldirib ketgan. U shuningdek, yaxshilikka chorlovchi fikrlarni ham bayon etgan: «Niyat — kasb qilib topadigan narsa emas, balki u gʻayb olamidandir. Niyating haqiqati ixtiyor ostida emas. Agar niyat yoʻq boʻlsa, umid natija bermaydi». «Sabr va chidamda nogʻora kabi boʻlmoq lozimki, u qanchalik shapaloq yemasin, biroq oʻz adabiga xilof ovoz chiqarmaydi».

Buyuk mutafakkir mehnat va hunarga alohida eʼtibor bergan. Madrasaga qabul qilinadigan bolalardan eng oldin: «Siz qanday hunarni bilasiz?» — deb soʻragan. Hunar bilmaganlarni biror hunarni egallashga, soʻngra islom ilmini oʻrganishga daʼvat etgan. Bu haqda u shunday yozgan:

*Dengizdan hamisha izlamagil dur,  
Odamga bir hunar bas, ezgu turur.*

Naqshbandiy Bahouddinning taxallusi boʻlib, matoga naqsh (gul) bosuvchi kasbini bildiradi. Binobarin, Naqshband oʻzining mato toʻqiydigan doʻkoni borligini ham yozgan. Mazkur soʻzning ramziy maʼnosi muridning qalbiga Ollloh muhabbatini naqsh etishni anglatadi. Naqshbandiya suluki qoʻl mehnati bilan shugʻullanishni, ter toʻkib hayot kechirishni targʻib qiladi. Bahouddin Naqshbandning: «dil ba yor, dastr ba kor», degan shiori gʻoyat mashhurdir.

Bahouddin Naqshband inson aqlini, idroki va qobiliyatini oʻstirish zarurligini alohida taʼkidlaydi: «Kamolotda inson ahlining yoʻli shunday: bu yoʻlning chaqalogʻini tariqat beshigiga belaydilar va tarbiyat koʻkrigidan sut emizadilar, shunday qilib, visol chegarasiga yetkazadilar, soʻng biror usul bilan ularni oʻzlikdan qaytaradilar. Ular Ollohdan fayz oladilar va voyaga yetadilar».

Bahouddin Naqshbandning ijodi har bir oʻquvchi va talabani yaxshi yoʻllarga boshlovchi muqaddas bilim xazinasidir.

## IV BOB. SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA TA'LIM- TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

### Uyg'onish davridagi ijtimoiy va madaniy taraqqiyot

Beshinchi asr oxiriga kelib Rim imperiyasi qulaydi. Shundan so'ng mamlakatda siyosiy-iqtisodiy tushkunlik yuz beradi. O'rta ustda Yevropada ijtimoiy, madaniy taraqqiyot, din ta'siri nihoyatda kuchaydi. Din ilm-fan va ma'naviyat taraqqiyotida yangi bir ijobiy ta'sir bo'ldi. Ayniqsa, VII—XIII asrlarda Sharqda aniq fanlarning taraqqiyotida katta yutuqlarga erishildi. Madaniyat va ma'rifat markazlaridan biri O'rta Osiyoda yashagan xalqlar juda qadim zamonlardan beri Xitoy, Hindiston bilan savdo, siyosiy va madaniy aloqa qilib turar edilar.

Osiyoda fan va madaniyat juda og'ir tarixiy sharoitda — xalq ommasining mahalliy va chet el zolimlariga qarshi olib borgan kurashlari sharoitida taraqqiy etdi.

VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida arablar juda katta hududning Hindistonning shimoliy g'arbidan tortib, Afrikaning shimoliy qing'oqlarigacha bo'lgan yerlarni bosib oldilar va katta davlat xalifalik tuzdilar. Bu xalifalikning poytaxti Bag'dod shahri edi. Arablar hukmronligining birinchi davrlarida bosib olingan yerlardagi xalqlarning madaniy meroslarini va fan urfoblarini yo'qotish siyosati yurgizildi. O'rta Osiyo xalqlarining fan va madaniyati arab ko'rsatmalari asosida rivojlantirildi.

IX asr oxirlariga kelib, sinfiy kurashlar ma'lum xalqlarning ozodlik harakatlari tufayli O'rta Osiyoda mahalliy feodal aristokratlaridan chiqqan Somoniylar (874—999-y.y.) hukmronligi o'rnatildi. Somoniylar davlatining poytaxti — Buxoro edi. O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy aloqalar, insonlarning ma'naviyati hamda salomatligi olimlarni ijodiy izlanishlarga yo'naltirdi.

Savdo va tashqi aloqalarni mustahkamlash uchun karvonlarning kechalari cho'llarda kezishlari va ularni adashmay

yurishlarida sharq, g'arb, shimol va janub tomonlarni bilish, yulduzlardan aniqlash, qutb yulduzidan yo'lni aniqlash kabi ehtiyojlar tug'ildi. Natijada astronomiya, matematika, tibbiyot hamda ijtimoiy fanlar rivojlana boshladi. Bu fanlarni markazlashtirish maqsadida Ma'mun hukmronligi davrida Bag'dod shahrida «Baut ul-hukma» («Donishmandlar uyi») tashkil etildi. Uning huzurida kutubxona va observatoriya tashkil etildi. Bu «Donishmandlar uyi»ga bir qancha mamlakatlardan iste'dodli olimlar chaqirildi. Bu ilm maskaniga Ma'mun buyrug'iga binoan Xorazmdan Muhammad ibn Muso Xorazmiy ham taklif qilindi. O'rta asrlarda fan va madaniyat taraqqiyotida al-Xorazmiy, al-Forobiy, al-Beruniy, Ibn Sino, Ahmad binni Muhammad Farg'oniy, Umar Xayyom va boshqalar faol qatnashdilar.

IX–XII asrlarda O'rta Osiyoda arab istilosidan so'ng juda ham ko'p shahar va qishloqlar vayrona holda bo'lib, xalqlarni islom dinini o'rganishga va unga amal qilishga da'vat etilar edi. Beruniyning «Osorul boqiya...» asarida arab istilosidan so'nggi manzara shunday ta'riflangan, «Qutayba Xorazm yozuvini, rivoyatlarini yaxshi bilgan, xorazmliklardagi mavjud ilmlarni o'rgatuvchi kishilarni qiyratgan va ularga turli yo'sinda azob bergan». Qutayba Xorazm xattotlarini yo'qotdi, ruhoniylarni qirdi, ularning kitoblarini va o'rama xatlarini o'tda kuydirdi'. Bunday qabih ishlar xalq madaniyatiga bir zanjir bo'lib qolmadi. Asta-sekin O'rta Osiyoda madaniy hayot vaziyati vujudga keldi. Ayniqsa, Xuroson va Movarounnahrning madaniy hayotida quyidagi o'zgarishlar ro'y berdi:

Arab tili faqat musulmon aqidalariga mos bo'lib qolmay, balki fors, xorazm, so'g'd aslzodalari doirasida ham qo'llana boshlandi. Olimlar arab grafikasini o'zlashtirib, fors-tojik tillarida yoza boshladilar. Ilm-fanni o'rganishga alohida e'tibor berildi. Buxoro amiri saroyida kutubxonaning tashkil etilishi madaniy hayotning yuksalishiga yordam berdi.

Sharq uyg'onish davri madaniyati fanlarning rivojlanishi, qomusiy olim, mutafakkirlar yetishib chiqishi bilan butun kishilik jamiyati rivojlanishining yuksak bosqichi bo'ldi. O'sha davrda ijodkor olim, ma'rifatparvar shoir va pedagoglardan al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Zamaxshariy, Abdushukr Balxiy, Ahmad Yugnakiy va boshqalar g'oyat samarali faoliyat ko'rsatdilar.

## **Abu Abdulloh al-Xorazmiyning pedagogik qarashlari**

Buyuk olim, al-jabr fanining otasi Abu Abdulloh Muhammad Muso al-Xorazmiy 783-yilda Xorazmning Qiyot mavzeida tug'ilgan. Uning yoshligi va ilm olishi asosan Marv va Qiyot shaharlarida o'tgan. Xorazmiy Abu Bakr ar-Roziydan tabobat va kimyo, Abu Nasr Forobiydan falsafa, Abbos ibn Muhammad Ibn Kasir al-Farg'oniydan ilmi nujum, geografiya, riyoziyot va boshqa fanlarni o'rgangan. U Xurosonda yashab, vazir Abdul Hasan al-Utbiy huzurida kotib bo'lib xizmat qilgan. O'sha davr olim ijodining cho'qqisi edi.

Xorazmiyning falsafiy dunyoqarashi o'sha davrda keng tarqalgan qadimgi yunon falsafa va madaniyatiga mansub edi. Unda dunyoga munosabatning shakllanishida Sharq faylasuflari Yoqub ibn Ishoq, al-Kindiy, Forobiy va Roziyning ta'siri kuchli bo'lgan.

Xorazmiy «Al-jabr va Al-muqobala» («Tenglamalar va qarshilantirish»), «Hisob al-hind» («Hind hisobi»), «Kitob surat al-arz» («Yer surati haqida kitob»), «Kitob at-tarix» («Tarix kitobi»), «Kitob al-amal bir usturlabat» («Usturlab — Yulduzlarning harakatini kuzatish») nomli asarlar yaratgan.

Xorazmiy o'zining falsafiy-ma'rifiy qarashlarini «Mifotihal ulum» («Ilmlarning kalitlari») nomli asarida bayon etgan. Ana shu asarni akademik I.Yu.Krachkovskiy, «o'sha davr bilimlarining barcha sohalarini o'z ichiga oluvchi izohli terminologik lug'at bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega», deb ta'riflagan.

G.Sarbon mazkur asarni o'rta asrlardagi fanlarni va madaniyatni o'rganish uchun asosiy manbalardan biri, deb hisoblagan.

Xorazmiy o'zining «Al-jabr va Al-muqobala» nomli asari bilan matematika faniga asos soldi. Shu bilan birga u «Astronomiya jadvali», «Quyosh soatlari to'g'risida» kabi risolalar ham yozgan. Xorazmiyning ta'lim borasidagi fikrlari har bir fanning qonun-qoidalarini va ularni o'qitish yo'llarini asoslagani bilan muhimdir. Bu haqda olimning o'zi shunday deb yozgan: «Men arifmetikaning sodda va murakkab

---

<sup>1</sup> O'zbekiston xalqlari tarixi. T.: "Fan", 1992, 99-bet.



masalalarini o'z ichiga olgan «Al-jabr vaal-muqobala» kitobini yozdim. Chunki vasiyatnoma yozish, huquq ishlari, savdo-sotiq, ariq qazish, geometrik hisoblashlar uchun juda zarur deb hisobladim».

Xorazmiyning yirik asari «Kitob al-Muxtasar»dir. Bu asar uch bo'limdan iboratdir.

1-bo'lim algebra masalalariga bag'ishlanadi.

2-bo'limda geometriyani o'rganishga doir masalalar va algebraning ba'zi bir tadbirlari bayon etilgan.

3-bo'limi esa meros bo'lish hisoblashlariga bag'ishlangan.

Bu kitob asosan, 1- va 2-darajali tenglamalarni «Al-jabr va Al-muqobala» metodi bilan yechishga bag'ishlanadi. Bu ikkala usuldan foydalanib, 1-darajali tenglamalarning yechishi ko'rsatilgan va bunga quyidagicha ta'rif berilgan: tenglamalarni yechish uchun ishlatiladigan amallar «al-jabr» va «al-muqobala» deb aytiladi.

Al-Xorazmiyning umuman fan va madaniyat tarixida juda katta ahamiyat kasb etgan asari arifmetikadir. Bu kitob orqali o'nli sanoq tartibi O'rta Sharq mamlakatlariga, Yevropaga tarqala boshlagan. Bu sanoq tartibi o'sha davrda hukm surayotgan harfli sanoq tartiblar, rim sanoq tartibiga nisbatan juda mukammallashgan bo'lib, turmush ehtiyojlari uchun tez orada qabul qilina boshlagan qulay sanoq tartibi edi.

Xorazmiy o'zining arifmetikasida hindlarning to'qqiz raqami 1,2,3,4,5,6,7,8,9 va nol yordami, ya'ni o'nli pozitsion tartib bilan istalgan 0 son va qisqacha ifodalanishini bayon etish maqsadida yozgan edi. Shu bilan birga risolada sonlarni ko'paytirish, qo'shish va ayirish hamda bo'lishning oson yo'llari qayd qilinadi.

Xorazmiyning arifmetikasi matematika va sanoq tartibi tarixida yangi bir davr ochdi. Xorazmiy IX asrning 20-yillarida «Zij» («Astronomik jadvallar»)ni tuzib chiqdi. Bu asar matni ko'p tillarga tarjima qilinib, fan olamida foydalanilmoqda.

Asar Sharq va G'arbda astronomiya fanidan asosiy asar bo'lib xizmat qildi. Xorazmiy «Torolyabiya» («Asturlob») va «Quyosh soati» haqida ham asarlar yozgan edi. Xorazmiy o'rta osiyolik olimlar Muhammad Kosir, Farg'oniy, Ahmad Marvaziy kabilar hamkorligida Meridian yoyini hisoblashda ilmiy kuzatishlar olib borganlar.

Ularning ta'limotiga ko'ra, meridianning bir gradusli yoyi uzunligini qayta-qayta o'lchash vositasida 111815 m ekanligi topilgan.

Al-Xorazmiy Yevropa va Sharqda falsafiy falakiyot va matematika bilimlari sohasida yangi davrning boshlovchisidir.

### **ABU NASR FOROBIY**

(873—950)

Sharq mamlakatlarida Forobiyni ulug'lab «Al Muallim as soniy», ya'ni Aristoteldan keyingi ikkinchi muallim, deb ataganlar.

Buyuk olimga bunday baho berish bejiz emas, albatta, u fanning hamma sohalarini o'rganishga alohida e'tibor berdi. Tarixshunos olimlarning taxminicha, Forobiy dunyo tillaridan 70 tasini bilgan. Til inson kamolotining, aqliy yetukligining asosi bo'lganligi sababli, u fanlarni tartiblashda tilni eng birinchi fanlar qatoriga qo'ydi. U har bir inson ahliga murojaat qilib, ayniqsa, ota-ona va ustoz-murabbiylarga qarata shunday degan edi: «Qanday qilib ta'lim berish yoki ta'lim olish, qanday qilib o'z fikrini ifodalash, bayon qilish, so'rash va javob berish masalasiga kelganimizda, fanlar ichidagi eng birinchi fan — til haqidagi fandir... ikkinchi fan grammatika... uchinchi fan mantiq, to'rtinchi fan poetikadir, deb tasdiqlayman». Forobiyning til va uni o'rganishdagi g'oyalarni amalga oshirish mustaqil O'zbekistonni butun dunyo bilan hamjihat bo'lgan davrida ayniqsa, zarurdir. Forobiy ijodiyoti jarayonida juda ko'p asarlar yaratdi. Uning ijodini o'rganish bilan mashg'ul bo'lgan tadqiqotchilar Forobiyning 130 ta asar yozganligini ta'kidlaydilar.

Ularning 17 tasi turli olimlarning falsafiy asarlariga yozilgan sharh, 60 tasi alohida kitob, 5 tasi bir qancha maqolalarni o'z ichiga olgan majmualar hisoblanadi.

Uni «Aflotun qonunlarining mohiyati», «Siyosat va madaniyat», «Fozil shahar aholisining axloqiy qarashlari», «Ilmlar majmuasi» kabi yirik asarlari mavjud.

Forobiyning har bir asaridagi asosiy g'oya inson kamoloti, uning yuksak axloqiyligidir. Uning fikricha, aqliy bilimni peshlash, axloqiy barkamollikni tarbiyalaydi: inson yuksak

kamolotga erishuv yo'lida harakat qilganidek, aqliy bilimga ham harakat qilsa, hech shubhasiz, o'zi intilayotgan so'nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi. Baxt-saodat insonga osonlikcha berilmaydi. Baxt va mazmunli hayot uchun, dastlab, yoshligidan boshlab ilm-hikmatni o'rganmog'i lozim. Buning uchun sog'-salomat va odob-axloqli bo'lishi, so'zining uddasidan chiqishi, yomon ishlardan o'zini saqlashi, har qanday xiyonat, makr-hiyaladan uzoq yurishini ta'kidlaydi.

Forobiyning fikricha, baxt — bu ezgulikdir. Insoniy ezguliklar — xayrli narsalarga go'zallik, bilimdonlik, shu bilan birga yaxshilik bilan bog'liq bo'lgan hamma fazilatlarini kiritgan edi. Forobiy inson kamoloti uchun hamjihat jamoat, axloqiy munosabatlari sog'lom bo'lgan oila zarur deb hisoblaydi. Uning fikricha, «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashashi, oliy darajadagi etuklikka erishmog'i uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi va ularga ega bo'lishi uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj sezadi».

Aflotun har bir jamoada guruh xoini yoki oilada ota-onani mensimaydigan kimsalarni jazolash kerak degan edi. Forobiy bu g'oyalarni rivojlantirib, bunday noqobil insonlarni jinoyatchi, deb tushundi. Hokimiyat vakillari bunday odamlarni jinoyatiga qarab, tayoq bilan urib yoki jarima solishlari kerak degan edi.

Forobiyning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasiga ko'ra, olam yagona mavjudotdan iborat. Olloh hamma narsaning ibtidosi, barcha vujudlar undan emanatsiya asosida kelib chiqadi, buning so'nggi pog'onasi materiyadir.

Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida insonga bilim va tarbiya berishni asoslagan. U inson — aqlli mavjudot deyilganda, uning aqlli bo'lishga layoqatliliigi, lekin yomon xatti-harakatlarga ham qobilligi tushunilishini ham uqtirgan. Insonlarga doimo bilim va tarbiya berishni zarur deb hisoblagan. Forobiy o'zining ideal jamoasida odamlarni turli belgilariga qarab guruhlariga bo'lgan. Kishilarning diniy maqsadiga emas, balki tabiiy xususiyatlariga, avvalo, aqliy iqtidorlariga hamda ilmlarni o'rganish va hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga katta ahamiyat bergan.

Forobiy falsafasida insonparvarlik g'oyalari alohida o'rin olgan. Uning fikricha, har qanday feodal zulm, urushlar

bartaraf bo'lgan taqdirda hamma millatlar tinch, ozod, xushchaqchaq, baxtiyor hayot kechirishlari mumkin. Kishilar o'rtasida samimiy do'stlik, hamkorlik ularning kundalik hayotining mazmundor bo'lishiga yordam beradi.

### **Forobiyning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari**

Forobiy zamonasining peshqadam bilimdoni sifatida tinimsiz ilm o'rgangan, ijod etgan, ayni paytda muallimlik ham qilgan. Masalan, Abu Sirojiddindan astronomiya va matematikani o'rganib, unga mantiqdan dars bergan. Forobiy oliy madrasalarda talabalarni o'qitib, kamtarona hayot kechirgan. Forobiy o'qitishning mazmuni va qonun-qoidalarini o'zining amaliy faoliyatida sinab ko'rgan. U insonning baxt-saodatga erishishi uchun zarur bilimlarni o'rganadigan fanlarni etika va siyosiy guruhlariga ajratgan. Etika — axloqshunoslikdan iboratligini, siyosiy fanlar esa davlatshunoslik, psixologiya, pedagogika muammolarini o'z ichiga olishini, ana shunday bilimlarni o'rganish insonni xushaxloq, sadoqatli, aql-idrokli qilishini ta'kidlagan. Bilimsiz, o'z holicha yashab yuravergan kishi oldiga qo'yilgan maqsadlariga erisha olmasligini uqtirgan. Forobiyning fikricha, har bir shaxs munosib odam bo'lishi uchun ta'lim va tarbiya orqali kishilar bilan muloqotni, axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni o'rganadi.

Forobiy bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida «qattiq» yoki «yumshoq» usullardan foydalanish kerak, deb hisoblagan:

tarbiyalanuvchilar o'qish va o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi;

tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lishsa, qattiq usul qo'llanishi lozim.

Forobiy fanlarni tavsiflash bilan birga, ularni qanday o'rganish masalasiga alohida to'xtalgan. Uning fikricha, har bir fanni o'rganuvchi oldida o'zini shu ilmni o'zlashtirishga shayligi, so'ngra haqiqatni izlashi va o'zining salomatligiga, odob-axloqiga jiddiy e'tibor berishi lozim. Kimki ilmu hikmatni o'rganishni istasa, bu ishni yoshligidan boshlashi, salomatligining yaxshi bo'lishiga intilishi, axloqli, odobli bo'lishi, so'zining uddasidan chiqishi, yomon ishlardan

saqlanishi, xiyonat va makr-hiylalardan uzoq yurishi kerak. Forobiy didaktik qarashlarida ustoz-o'qituvchining mas'uliyatini alohida ifodalaydi. «Ustoz, — deydi u, — shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim, chunki ortiqcha zulm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu ustoz o'ta yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi».

Forobiyning ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari avvalo, Olohni bilishga, insoniyat yaratgan ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan. U ta'lim-tarbiyaning vosita va usullarini asoslab bergan. Olimning o'qitishga doir g'oyalari o'zidan keyingi asarlarida ta'lim-tarbiya va inson kamoloti xususida fikr-mulohazalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### **Forobiyning axloqiy qarashlari**

Forobiyning axloqiy qarashlari ham g'oyat qimmatlidir. U qomusiy bilimlar sohibi sifatida bu muammoni ilmiy nuqtai nazardan asoslashga intiladi. U o'zining «Fozil shahar kishilarining axloqiy qarashlari», «Ruhiiy madaniyat haqida risola» asarlarida insonni barkamol va baxt-saodatli bo'lishi uchun avvalo, yuksak axloqli bo'lishi zarurligini alohida ta'kidlagan. Professor Y.Jumaboyev o'z tadqiqotlarida Forobiyning axloqiy g'oyalarini har tomonlama o'rganib, xulosa sifatida shunday yozadi: «Axloqiy tarbiya masalalarini va etikaning nazariy muammolarini ishlab chiqish — mutafakkir ijtimoiy qarashlarining eng muhim qismidir»<sup>1</sup>. Forobiyning fikricha, etika insonlardagi xatti-harakatlarning asosiy me'yorlari va qoidalarini o'rgansa, siyosiy fan butun jamiyatdagi jami a'zolarining odob-axloqini, xatti-harakatini boshqarish haqida bilim beradi.

Forobiy axloqni ikki guruhga bo'lgan edi: ezgulik — yaxshi sifatlarga va yovuzlik yoki yomon sifatlarga ajratgan. Insonning eng olijanob fazilati baxtga intilishdir. Olimning talqinicha, asosiy baxt — shu dunyoda, haqiqiy hayot sharoitida

---

<sup>1</sup> Jumaboyev Y. O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. T.: 1980, 95-bet.

erishiladigan baxtdir. Chinakam baxtga erishish kishilardan yuksak axloqiy munosabatni, hamkorlik va o'zaro yordamni, ahil-inoq yashashni talab qiladi.

Forobiy axloqiy fazilatni o'zlashtirish va shakllantirish masalasini tahlil qilishda Aristotelning g'oyalariga tayanib quyidagilarni yozgan: «Arastu axloqiy fazilatlarini qanday o'zlashtirish mumkinligini tushuntiradi: 1. Adolatli, pok, jasur bo'lishga odatla-nish, shu bilan birga yomon qiliqlardan qutulish uchun ham ma'lum muddat o'tishi kerak. Bu vaqt davomida inson o'zining yomon qiliqlaridan voz kecha oladi. 2. Agar odamda tug'ma, kuchli g'urur tuyg'ulari bo'lmasa, u holda o'sha odam o'z ruhini mashq ila tarbiyalashi zarur». Arastu aytadiki, tarbiyali odamlar o'z ruhlarini doimo quvonish, ortiqcha kulish, qattiq xafa bo'lish, ortiqcha qayg'urish kabi holatlardan saqlay olishlari kerak.

Forobiy rahbarlar uchun zarur turli fazilatlarini tushuntiradi. Eng birinchi fazilat — ochiqko'ngillik, ikkinchisi mehr-shafqat, uchinchisi — kelajagi porloqlik, to'rtinchisi obro'-e'tibor qozonish...

... Donishmand kishilar ayrim narsalarni kuzatishlari paytidagina ahamiyatga molik fikrlar va mulohazalarga tayanadigan tug'ma qobiliyatli odamlar emas, balki tajriba orqali haqiqatga yetishgan oqil insonlardir.

... Jasurlik, qo'rqqoqlik yoki inson tabiatining boshqa biror jihati muhokama qilinsa, doimo har kim o'z fikrini bildiradi.

Alloma: agar inson o'z maqsadiga erishib, hurmatga sazovor bo'lsayu, ammo maqsadga egrilik bilan erishsa, bu ham zararli hisoblanadi, deb tushuntiradi. Eng yaxshisi — maqsadga chiroyli va pokiza yo'l bilan erishishdir.

Aflotun esli odamga foydali ish sifatida yomonlikka yaqinlashib, unga tobe bo'lib qolmaslik uchun uni tushunish, unga nisbatan o'z hushyorligini oshirish zarurligini eslatadi. U mayxo'rlik bilan bog'liq misolni keltiradi. Aflotun sog' odamning mastlarga yaqin bo'lishi, ularning dasturxonida birga bo'lib turishi, mastlikdagi bema'nigarchiliklardan, qabih ishlardan o'zini himoya eta bilishi zarurligini tushuntiradi. Nimjon odam kosalab ichib, o'zini kuchli faraz qilib, o'zining kuchini ko'rsatish uchun shovqin-to'polon va urushni tusab qoladi, ammo behol bo'lib kuchdan ayriladi. Ichuvchi odam bilan yana boshqa ko'p savdolar sodir bo'ladi.

Yaxshi fazilatlarga erishmoqchi bo'lgan odam, yaxshi xislatlarga qarshi turgan (o'zidagi) illatlarni yo'q qilishga intilishi zarur. Chunki yaxshi fazilatlarga erishish qiyin. Odam faqat illatlardan forig' bo'lgandan so'nggina yaxshi fazilatlarga erisha oladi. So'ngra u har bir inson tabiatiga ma'lum bir xislat to'g'ri kelishini aytadi. Sohibi qonun, har bir ayrim sharoitda odamlarga va o'ziga maqbul yoxud nomaqbul qaror chiqarish uchun, bu qaror yo'qolib ketmasligi uchun shu narsalarni (*ya'ni insondagi bu xususiyatlarni – tarj.*) bilishi kerak. Agar biror qaror noo'rin chiqarilsa, bu holda u yo'qolib ketadi va undan nom-nishon qolmaydi.

Forobiyning inson kamolotiga doir g'oyalari asrlar osha o'z qimmatini saqlab keldi. Uning axloqiy g'oyalari hozirgacha yoshlar uchun boy meros bo'lib xizmat qilmoqda.

### **Forobiy hikmatlaridan**

... Har bir kishi boshqasiga uning yashashi uchun zarur bo'lgan narsaning bir ulushini yetkazib beradigan joyda bir-biriga ko'maklashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina inson shunday kamolotga yetishishi mumkinki, u o'z tabiatiga ko'ra ana shunday kamolotga munosibdir. Bunday jamiyat barcha a'zolarining faoliyati jam bo'lib, har bir kishi yashashi va kamolotga erishishi uchun nimaga muhtoj bo'lsa, shularning hammasini yetkazib beradi.

Shu sababli inson individlari ko'payishib, dunyoning odamlar yashaydigan qismiga o'rnashadi, buning natijasida esa insonlar jamiyatlari paydo bo'ladi.

\* \* \*

O'z tabiatiga ko'ra har bir inson shunday tuzilganki, u o'zining yashashi va oliy kamolotga erishish uchun ko'p buyumlarga muhtoj bo'lib, bu buyumlarni u yolg'iz o'zi o'ziga yetkazib berolmaydi va ularga erishish uchun inson kishilarning qandaydir hamjihat bo'lishiga muhtojki, har biri alohida tarzda unga muhtojlik sezib turgan bu kishilarning har biri narsalarning jamidan biron-bir buyumni yetkazib beradi.

\* \* \*

Barcha hayvonlardan inson o'z alohida xossalari bilan farq qiladi, chunki unda jon bor, ana shu jondan kuch paydo bo'lib, bu kuch tana a'zolari vositasi bilan harakat qiladi va bundan tashqari unda shunday kuch borki, bu kuch tana a'zolari vositasisiz harakat qiladi: bu kuch aqlidir.

Aql faqat insongagina xos bo'lgan tug'ma quvvat, ruhiy kuch bilan bog'liqdir.

\* \* \*

Inson yuksak kamolotga erishuv yo'lida harakat qilganidek, aqliy bilishga ham harakat qilsa, hech shubhasiz o'zi intilayotgan so'nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi.

\* \* \*

Baxt — kishi o'zi uchun izlaydigan ne'matdir: biri boshqa narsaga erishish uchun kishi aslo va hech qachon baxt sari intilmaydi, binobarin (baxtning) narigi tomonida ham inson erisha olmaydigan hech qanday muhimroq narsa yo'q.

\* \* \*

«Munosib inson» bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa bu — kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir...

\* \* \*

Ustozga kelganda, u shogirdiga juda qattiq zug'um ham, haddan tashqari ko'p yon berishga ham intilmasligi lozim, chunki ortiqcha zug'um shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu, shogird ustozning juda ham yumshoqligini payqab qolsa, bu holda unda ustozni mensimaslikka va undan hamda u beradigan bilimdan sovlashga olib keladi.



Kishining fe'l-atvoriga qarab tarbiya «qattiq» va «yumshoq» usullar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Tarbiyachining asosiy vazifasi shogirdlarini (ya'ni xalqni) baxtga erishish yo'llarini izlashga tayyorlashdan iboratdir. Bordiyu tarbiyalanuvchilar fan va hunar o'rganishga moyillik bildirsalar, ularga nisbatan «yumshoq» usul qo'llaniladi, aksincha, mabodo ular o'zboshimcha va itoatsiz bo'lsalar, ularga nisbatan «qattiq» usul qo'llanishi mumkin.

### *Mustaqil ish*

Forobiyning hikmatlarini o'rganib tahlil qiling.

### **ABU RAYHON BERUNIYNING MA'RIFIY QARASHLARI**

(973—1048)

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi, beqiyos aql-zakovat sohibi Beruniy fanlarning va ijtimoiy hayotning juda ko'p jiddiy muammolarini to'g'ri hal qilib, shular asosida ko'plab ilmiy asarlar yaratgan ulkan donishmanddir. U falsafa, ijtimoiyot, tarix va boshqa fanlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Abu Rayhon ibn Ahmad Beruniy 973-yilda O'rta Osiyoning yirik madaniyat markazi — Xorazmning Kot (hozirgi Beruniy shahri) atrofida tug'ildi. U o'z yurtida tahsil ko'rgan. Bir necha tillarni va falsafa, falakiyot ilmi, matematika fanlarini mukammal o'rgangan, botanika, mineralogiya va boshqa tabiiy fanlarga ham qiziqqan. Beruniy Markaziy osiyolik buyuk matematik va falakiyotshunos olim Abu Nasr Ibn Iroqni ustoz deb bilgan. U yoshlik chog'idanoq fanda, ayniqsa, falakiyot ilmida katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Masalan, 16 yoshida mustaqil holda falakiyotshunoslikka oid kuzatishlar olib borgan va ma'lum natijaga erishgan. 21 yoshida esa o'zi yasagan asbob yordamida ekliztikaning ekvatorga og'ish burchagini aniqlagan.

995-yilda Kot shahri Gurgonj amiri Ma'mun I tomonidan bosib olindi. Xorazmda hukmronlik qilayotgan afrig'iyalar

sulolasi qulatilib, shahar vayron qilindi. Bunday sharoit Beruniyni vatanini tashlab ketishga majbur etgan. U panoh qidirib avval Rayga (hozirgi Tehron tarkibida), so'ngra Jurdonga boradi. Jurdon hokimi Qobus ibn Vashmgir Beruniyni olim sifatida g'oyat qadrlagan. Bir rivoyatga ko'ra, u Beruniyni katta mansabga taklif qilganida Beruniy bu mansab o'zini ilm-fandan chetlatib qo'yishini aytib, taklifni qabul qilmagan.

Jurjonda Beruniy o'zining mashhur «Al-osorul boqiya an il qurun ul holiya» nomli («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») asarini yozadi. Unda yunonlar, forslar, arablar, so'g'diylar, xorazmliklar va boshqa xalqlarning taqvim tizimi mufassal bayon qilingan. Shuningdek, falakiyot va matematikaga oid masalalarga ham katta e'tibor berilgan. O'rtasiyoning tarixi va madaniyati haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

1004-yilda Beruniy o'z vataniga qaytib, Urganchda ilm-fanga homiylik qilayotgan Xorazmshoh Ma'mun II (1009—1017) atrofida mashhur olimlar, jumladan, Sino, Beruniyning ustozlari Abu Nasr ibn Iroq, tabib Abu Sahl Masixiyalar safiga qo'shiladi. Ular fanning turli sohalarida ish olib boradilar. Beruniy ana shu ilmiy doirada muhim rol o'ynagan. 1017-yilda Xorazm Ibn Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olindi. U qurol kuchi bilan yirik saltanat barpo qiladi, o'z poytaxti G'aznaga Xorazmshoh saroyidagi olimlar bilan birga Beruniyni ham olib ketadi.

Mahmud G'aznaviy o'z atrofida shoir, yozuvchi va olimlarni to'plab, ularni davlat homiyligiga oladi. Beruniy turmush ziddiyatlari va qiyinchiliklariga qaramay, ilmiy izlanishlarini to'xtatmagan, fanning turli sohalarini bo'yicha katta natijalarga erishgan.

To'xtovsiz urushlar natijasida Mahmud G'aznaviy Shimoliy Hindistonni bosib olib, uning aholisini qirg'in qildi. Beruniy bu harbiy yurishlarda sultonga hamrohlik qilishga majbur bo'ldi. Buyuk olim o'n uch yil davomida Hindistonda bo'lib, uning tarixi, madaniyati va fanini o'rgandi. U qadimiy hind tili — sanskritni o'zlashtirib, shu tilga bir necha qadimgi yunon mumtoz asarlarini, shu jumladan, Yevklidning «Negizlar»i va Ptolemeyning «Almagesta», o'zining astrolyabiy haqidagi risolasini tarjima qilgan.

Beruniy hindlarning hayotini sinchkovlik bilan kuzatdi va ularning adabiyotini, madaniy boyligini mukammal o'rganib, «Hindiston» asarini yaratdi. Unda shu mamlakatning falsafasi, tarixi, geografiyasi, aholisining etnik tarkibi, urf-odati, e'tiqodlari haqida boy ma'lumotlar to'plangan. «Hindiston» butun o'rta asr fanidagi mislsiz asardir. Shu asar orqali Beruniy ko'z oldimizda faqat tarixchi, geograf, falakiyotshunos, lingvist va faylasuf olim sifatidagina emas, buyuk insonparvar pedagog irqiy va diniy xurofotlarga qarshi kurashgan ma'rifatparvar sifatida ham gavdalanadi.

Abu Rayhon Beruniy 1048-yilda vafot etdi. U o'zidan keyingi avlodlarga g'oyat boy ilmiy meros qoldirdi. O'rta asr arab tarixchisi va geografi Yoqut Hamaviyning (XIII asr) yozishicha, Beruniy falakiyotshunoslik, mantiq, falsafa va boshqa fanlar bo'yicha yozgan asarlari nomlarining o'zi oltmish sahifani tashkil qilgan. Uning turli hajmdagi 150 ta asarlari hozirgi kunda aniqlangan, lekin shulardan 30 tasigina bizgacha yetib kelgan. Ulug' olimning turli fanlarga doir asarlari orasida uning ijtimoiy ta'limotlari, dunyoqarashi ifodalangan asarlari alohida o'rin tutadi. Masalan, «Kitob fi axborotil mubayyizot vilqaromita» («Oq kiyimliklar va karomatiylar xabarlar haqida kitob»), «Kitobul maqolot val-arz vad-diyonot» («Maqolalar, e'tiqodlar va dinlar haqida kitob»), «Geodeziya», «Mineralogiya» asarlari ana shular jumlasidandir.

### **Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari**

Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari muayyan diniy cheklanishlariga qaramay, o'sha paytdagi hukmron islom aqidalaridan birmuncha yuqori turardi. U fanning qaysi sohasiga murojaat etsa, uning mustaqil mavjudligini tushunishdan kelib chiqdi. Olim «Mineralogiya» nomli asarida inson yer yuzidagi barcha mavjudotlarga qaraganda mas'uliyatliroq vazifalarni bajarishi kerakligini quyidagicha ifodalaydi: «Inson tabiatning eng oliy zoti kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi... Insonga katta sharaf ko'rsatilgan — unga aql-zakovat va kuch armug'on etilgan. Shu sababdan, insonning ma'naviy qiyofasi uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi uchun u yuksak axloqli, bilimli, ma'rifatli bo'lmog'i darkor».

Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashida odam tanasidagi a'zolarning bir-biriga zidligi, ularda bir-biridan farq qiluvchi turli-tuman xatti-harakat va fe'l-atvor mavjudligi asoslangan. «Odam, — deydi Beruniy, — tabiati jihatidan bir-biriga zid a'zolar qo'shilmasidan tarkib topgan murakkab tanaga ega va shuning uchun uning holati o'z fe'l-atvoriga ko'ra xilma-xil bo'ladi. Beruniyning fikricha, odamlarning qiyofasi bir-biriga o'xshasa-da, ular ayni chog'da bir-biridan farq qiladi. Bu farq ularning mijozi, fe'l-atvori va tabiiy xususiyatlarida namoyon bo'ladi».

Beruniy irqiy tafovutlaridan qat'i nazar, odamlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikning kuchi insoniyat baxt-saodatining poydevori, deb hisobladi. U jamoatchilik, axloq-odob, go'zallik qoidalariga rioya qilish har bir odamning burchi ekanini ta'kidladi.

Beruniy o'z asarlarida ta'limning ko'rgazmaliligi, izchil, maqsadga muvofiq bo'lishi kerakligini, shaxsning barkamolligi, kishilar o'rtasidagi ijobiy axloqiy munosabatlar va olijanoblik kabi yuksak fazilatlarining mohiyatini asoslab bergan.

Beruniy o'z dunyoqarashida xudoga ishonish har bir musulmonning vazifasi, deb tushungan va olijanob insonning burchi islom qonun-qoidalariga rioya etishdangina iborat emas, balki yaxshilik qilishdan ham iboratligini uqtirgan. «Yaxshilik qilish, — degan edi Beruniy, — umuman hammaga va xususan o'z qarindoshlariga zaiflik chog'ida — yaxshi istak bilan, iloji bo'lganda esa amaliy ish bilan yaxshilik tilashdir».

Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida kishilarga beg'araz xizmat qilib, yordam ko'rsatish, odamlar o'rtasida kelishmovchiliklarni vujudga keltiradigan pul va molu dunyo nafsini tiyish haqidagi g'oyalar alohida o'rin olgan.

Beruniy ilm-fanning muxlisi va buyuk homiysi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashiga bog'liq, odamlarning baxti esa uning ma'rifatida deb bilgan. Ma'rifat dushmanlariga, yomon urf-odatlariga, adolatsizlikka qarshi bo'lgan.

### **Beruniy odob-axloq haqida**

Inson kamoloti tarbiyasi masalasi o'tmishdagi faylasuf-mutafakkirlar ijodida ma'lum darajada ifodalangan bo'lsa-da,

Beruniy uni yanada rivojlantirgan va to'g'ri asoslagan. U insonning kamolotga erishuvi tajribaga tayanuvchi aql-idrokka amal qilishdan boshlanishini, inson tashqi dunyoni bilishga qobilligini, shu asosda bilim olishni, haqiqatni izlashini, haqiqat esa uning to'g'ri his-tuyg'ularini taqozo etishini va shularning hammasi inson shaxsi kamol topishining bosh yo'li ekanini bayon qilgan. Shuningdek, inson katta nuqsonlardan doimo yiroq bo'lishi zarurligini, bunday nuqsonlar bilimsizlik, yolg'onchilik, molu dunyoga hirs qo'yish, munofiqlik, xushomadgo'ylik, nafsni tiymaslikdan iboratligini uqtirgan.

Olim inson axloqini shakllantiruvchi vosita mehnat, deb hisoblaydi. Uning fikricha, aql-idrok va mehnatning jamlanishigina kishilarning to'g'ri hayoti va pok axloqini belgilab beradi. U o'zining «Metereologiya», «Feruza», «100 hikmat», «Ayol makri» va bir qator yozgan hikmatlar, naqllar va she'rlarida axloqiy tarbiyaning bosh mezonini mehnat tarbiyasi ekanini asoslab berdi.

Mehnat inson qalbida muruvvat hissini uyg'otadi. Beruniyning muruvvat haqidagi g'oyasida xayrixoh bo'lishlik, halol, haqgo'y va boylik orttirishga intilmaydigan o'z mehnati hamda o'zgalarning mehnatini hurmatlaydigan sifatlarni nazarda tutgan edi. Beruniy bolalarni axloqiy barkamolligi va yomon fazilatlaridan saqlashda quyidagi tarbiya usullarini olg'a surgan edi:

1. O'rnak olish. Donishmand va olimlar xulqlaridan o'rnak olish yaxshi xulqni rivojlantiradi, yomon odatlarni yo'q qiladi. U ko'proq ota-onalarni farzandlariga o'rnak bo'lishga chorlaydi.

2. Pand va nasihat. Beruniy pand-nasihat orqali bolalardagi ayrim nuqsonlarni anglatish zarur, deb hisobladi va u quyidagi fikrlarni bayon qildi: «Odamlar o'rgangan, odatlangan va ko'pchilikka ma'qul bo'lgan narsaga qarshilik ko'rsatmasdan o'rganish kerak». Yaxshi xulqlar yaxshilik alomatidir, yomon xulqlardan bolalarni saqlamoq lozim. Ayniqsa, maqtanish, buzuq niyatlilik, chaqimchilik, besabrlik, nafs balosi, yolg'onchilik va boshqalar.

Beruniy yolg'on doim rostdan yengiladi, degan edi. Shuning uchun rostgo'ylik fazilatini hamma o'ziga mujassam qilishni orzu qilgan. Lekin u o'zini naqllaridan birida shunday yozgan edi: yolg'onchilikka shu qadar o'rganganlar borki, ulardan nogahon: — Rost gapirib qo'yishdan qo'rqmasam

yo'q der edim, — degan javob eshitasiz. Bunday kishilar adolatdan chetga chiqib, o'zlarini xavfga tashlagan bo'ladilar. Rostgo'ylik barkamol insonning yuksak fazilatidir.

### **Beruniyning didaktik g'oyalari**

Nihoyatda keng bilimli va o'tkir mushohadali, ilmning turli sohalarini mukammal egallagan Beruniy yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash masalalariga ham jiddiy e'tibor bergan. U pedagogika bo'yicha maxsus asar yozmagan bo'lsa-da, falsafa, psixologiya, ijtimoiy masalalarni tahlil qilishda ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat va odob-axloq haqidagi fikrlarini asosli ravishda bayon etgan. U eng avval, insonning baxti va fazilati ilmdadir, degan g'oyani ilgari surgan.

Beruniy ilmlar insonning ehtiyojidan paydo bo'lganini aytib, ularni quyidagicha ta'riflagan: «**Musiq**a — insonga kuchli ta'sir etib, yoqimli kayfiyat bag'ishlaydi; **til** — nutqning tarozisi va muomala qurolidir; **geodeziya** — harakatsiz yulduz va quyosh orqali shaharlarning joylashishini mukammal o'rgatadi; **geologiya**, **geografiya** va **gidrologiya** — yer haqidagi fanlardir; **geometriya** — jismlarning shakllarini, **falakiyot** — koinot sirlarini, **mineralogiya** — javohir va la'llarni o'rgatadi; **dorishunoslik** — tibbiyot ilmlaridan xabardor qiladi. Beruniy fanlarni ta'riflash bilan birga ularni o'qitishning quyidagi muammolarini bayon etgan:

Ta'limda o'quvchini zeriktirmaslik uchun o'rganiladigan fanlarni almashtirib turish kerak. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va u «Har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor» deyilganidek, ularga qiziqadi va o'qishni istaydi. Bir xil narsaning bayoni bolani charchatadi va xotirasida hech nimani saqlay olmaydi. Beruniy ilmni quyidagi uch yo'l bilan hosil bo'lishini alohida uqtirgan:

1. Har bir ilm va san'atning borib taqaladigan boshlanish joyi bor. Shuni to'g'ri boshlash zarur.

2. Ilm boshlanish joyiga yaqinlashgan sari to o'ziga borib yetguncha soddalashtirib borish.

3. Ilm o'rganish vaqt va sabrni talab etadi. Shoshilish kerak emas.

Beruniy ilm ahlini hurmat qilinsagina, ilmlar yanada rivojlanib ketishini qayta-qayta uqtirgan edi. O'zi esa juda ko'p olim va podshohlarga saboq ham bergan. Beruniyning tolmas zakovatidan Sulton Mas'ud ham bahra olgan, ya'ni undan falakiyotshunoslik ilmini o'rgangan. Beruniy tahlilidagi darsliklar g'oyat tushunarli, sodda bo'lib, ilmga cheksiz muhabbat uyg'otgan.

Beruniy sulton Mas'udga bolalar uchun kitoblar yaratishda quyidagilarga e'tibor berish zarurligini aytgan:

1. Kitob yozgan muallif uni o'qishli qilib yoza bilishi kerak.
2. Bunday kitoblar ko'p ilmlarni o'zida jamlagan va mutolaa uchun qulay, yengil o'qiladigan bo'lishi lozim.
3. Hozirgi munajjmlarning kitob bitishlarida boshqa usul va iboralarni qo'llash zarur.

Beruniy «Hindiston» nomli asarida hindlarning urf-odatlarini bilan birga, ularning o'qitish usullari haqida ham qimmatli ma'lumotlarni keltirgan.

Beruniy ilmsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'lishini, yolg'on xuddi suv yuzidagi ko'pikdek yo'q bo'lib ketishini ta'kidlab, ana shu fikrlarning to'g'riligini qator asarlarida turli voqea va hodisalarni bayon qilish orqali isbotlagan.

Beruniyning fikricha, insonlar hayotidagi zarurat va ehtiyojlar ularda ilm olish uchun talablarni keltirib chiqardi. Shu talablarga ko'ra, ilm har xil tarmoqlarga bo'linadi. Ilm insonga boylik orttirish uchun emas, balki o'zi qiziqqan va zarur narsalarni bilish uchun kerak.

Beruniy ilmni keyingi avlodlarga yetkazuvchi vosita til, deb hisoblagan va uning ahamiyatini asoslab bergan. «Til — so'zlovchining istagini eshituvchiga yetkazadigan tarjimondir... Agar insondagi so'zlash quvvati hamma joyga shamol singari yoyilmaganda va zamonlarga narsalar singari o'tuvchi xat yozish san'atini keltirib chiqarmaganda o'tmish zamon xabarlarini keyingi avlod qayerdan bilar edi», deb yozgan.

Beruniy xat yozish tarixini quyidagicha bayon etgan: Islomshunos allomalar dastlabki paytlarda islom qoidalarini oshlangan terilarga yozganlar. Masalan, haybarli yahudiylar bilan tuzilgan shartnoma, payg'ambarning Eron podshohi Xisravga yozgan maktublari ham shunday terilarga yozilgan.

Shunga o'xshash, Qur'on va Tavrot ham kiyik terisiga yozilgan edi. Asl qog'ozni samarqandlik bir asir olingan olim kashf etgan».

Beruniy «Hindiston» asarida kishilarning xatlariga quyidagicha munosabat bildirgan edi. Hindlarning xatlari eskirib unutilgan, hech bir kishi bunga ahamiyat bermagan. Nihoyat, ular savodsiz bo'lib qolganlar. Natijada ular ilmdan uzoqlashganlar. Oqibatda V'yosa ibn Paroshara ular ishlashayotgan ellikta harfni ijod etgan. Ularga «akshara» deb nom berganlar. Asezas va hikmat (dunyoda) ni abadiy qoldirish uchun oltita raqam shaklini ko'rsatdi. Bu Bani Isroilning hukmronlik davriga to'g'ri kelgan edi. Keyinroq Komush va Lgenon haligi harflarni yunonlarga olib keldi. Ular unga 4 harf qo'shib, jami 20 harfga yetkazgan. Olim Simonides bu harflarga yana 4 harf qo'shdi. Afinaliklar esa 24 ta harfdan foydalanganlar. Hindlarda (alifbeda) harflarning soni ancha ko'pdir.

## HINDISTON

(Parcha)

Bu kitob bahslashish va tortishish kitobi emas, shuning uchun bu kitobda dushmanlar isbotini keltirmayman va haqiqatdan chetga chiqqanlarga qarshilik ko'rsatmayman. Bu faqatgina bayon qilish kitobidir, xolos.

... Ilm esa jasad tabiatini o'z holiga qo'yib, quyoyosh tutqunidan yoki bulutdan tozalanganidek, nafs (jon) ni qorong'ulikdan tozalaydi.

... Aql esa hech qachon vaqt va zamonga boylanmay, narsalarning haqiqatini bila oladi; o'tmish va kelajakdagi narsalar ham unga barobardir. Aqlning eng yaqin yordamchisi fikr va tabiat, eng uzoq yordamchisi beshta sezgidir. Sezgilar bilinganlardan bir bo'lagini fikrga yetkazsa, fikr uni sezgi yanglishlaridan tozalab, aqlga topshiradi. Aql uni umumiy (ilm) ga aylantiradi va buni nafsga bildiradi, nafs shu yo'l bilan olimlikka aylanadi.

... Ilm uch yo'lning biri bilan hosil bo'ladi. U yo'llarning biri shuki, ilm ilhom bilan zamonsiz fursat o'tmay, balki tug'ilib, beshikka belash bilanoq hosil bo'ladi... Ikkinchi yo'l shuki, ilm birozgina vaqtdan keyin ilhom bilan hosil bo'ladi.



Masalan, Barlhim bolalari balog'atga yetgach, ilm ularga ilhom tariqasida berilgan edi... Uchinchi yo'l shuki, ilm o'rganish orqali bir qancha vaqtdan keyin hosil bo'ladi. Bu xuddi boshqa hamma odamlar balog'atga yetganlarida ta'lim olib, ilmga ega bo'lganlariga o'xshaydi.

Ilm orqali xalosga yetishish faqatgina yomonlikdan tiyilish bilangina vujudga keladi. Yomonlikning shoxobchalari ko'p bo'lsa ham ularning asosi tama, g'azab va ilmsizlikdir.

... Yana, boshqa quvvatlarni qo'yib, aqlga mos keladigan nutq quvvatini egallash bilan ham ilm hosil bo'ladi.

... Yaxshi xulq, din talab etadigan xulqlar bo'lib, shoxobchalari ko'p bo'lsa ham, ularning fikricha, asl va asosi ko'p ma'nolarni o'z ichiga olgan birmuncha ishlardan iboratdir. Ular: 1) o'ldirmaslik; 2) yolg'on gapirmaslik; 3) o'g'rilik qilmaslik; 4) zino qilmaslik; 5) mol yig'maslik; 6) doimo pok va toza bo'lish; 7) hamisha ro'za tutib, o'zini qiynash; 8) Tangrini poklab va ulug'lab, uning ibodatiga yopishish...

Ilmlar ko'pdir. Ular zamon iqboli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahillarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. Ayniqsa, hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi... Hukmronning ilm ahlini ko'proq maqtab, ulardan xursand bo'lishi ham ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Demak, odamlarning qalbi buni sevish uchun va uning teskarisiga esa nafrat bildirishi uchun yaratilgandir.

... Maktab bolalari daftarlarini qora qilib, eniga emas, bo'yiga oq narsa bilan chapdan o'ngga qaratib yozadilar, go'yo shoir mana shu she'rni hindlarga qarata aytganday:

*Qog'ozi ko'mirdan bo'lib, qalami  
oq yozgan kitobni ko'ring,  
U qorong'i kecha yuziga yorug' kunduzni  
yozib, uni yoritmoqchi bo'ladi,  
Lekin tugal yorita olmaydi.*

∴ Hindlar kitob ismini uning avvali boshlanishiga yozmay, oxiri va tugallashiga yozadilar...

## ABU ALI IBN SINO

(980—1037)

To'la nomi Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Hasan ibn Ali ibn Sinodir. Uning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (976—997) davrida Buxoro tomonga ko'chib keladi va o'sha atrofdagi Rometan qishlog'iga amaldor etib tayinlanadi. Keyin u Afshona (hozirgi Buxoro viloyatining Rometan tumanida) qishlog'ida istiqomat qiladi va shu yerlik Sitora ismli qizga uylanadi. Uning ikki o'g'li bo'lib, kattasi Husayn (Ibn Sinoning bolalikdagi ismi) 980-yilda dunyoga kelgan.

Husayn 5 yoshga kirgach, uning oilasi poytaxt — Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradilar. Ibn Sino avval Qur'on va adab, u vaqtlarda savodli kishi bilishi zarur bo'lgan til qoidalari bayon, maoniy, aruz va qofiya darslarini o'qiydi va 10 yoshga yetar-yetmas bu fanlarni to'liq o'zlashtiradi. Ayni vaqtda arifmetika va algebra bilan ham shug'ullanadi. Bulardan tashqari, uyida Abu Abdulloh Notiliy rahbarligida mantiq, geometriya va falakiyotshunoslik fanlarini ham o'qiydi. Shu bilan birga, Ibn Sino tabiiy fanlar bilan ham jiddiy shug'ullanadi, xususan tabobatni sevib o'rganadi. U o'zining tug'ma iste'dodi va favqulodda mehnatsevarligi tufayli darslarni osonlik bilan o'zlashtirgan. Hatto, muallimlari bilmagan narsalarni ham kitobdan mustaqil o'qib o'rgangan. Ayniqsa, tibbiyotni mukammal egallay boshlagan. «Tib ilmi, — deb yozadi Ibn Sino o'z tarjimai holida, qiyin ilmlardan emas, shuning uchun men qisqa bir muddatda bu fanda juda ilg'orlab ketdim, endi, hatto bilimdon tabiblar ham kelib huzurimda tib ilmidan dars ola boshladilar. Kasallarni ham ko'ra boshladim va (shu yo'sinda) orttirgan tajribalarim natijasida muolaja eshiklari menga shu qadar (keng) ochilib ketdiki, uni tasvirlashdan o'jizman».

Ibn Sino 17 yoshidayoq Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida dong chiqardi. O'sha kezlarda Somoniylar davlatining boshlig'i Nuh ibn Mansur kasal bo'lib, saroy tabiblari uni davolashdan o'jiz edilar. Buxoroda yangi chiqqan yosh tabibning ovozi saroyga yetib borgach, uni amirni davolashga taklif qilganlar va u boshqa tabiblar bilan birgalikda tez fursatda bemorni oyoqqa turg'azgan. Buning evaziga Ibn Sino saroy

kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan. Bu kutubxona o'sha vaqtda O'rta va Yaqin Sharqda eng katta, boy kutubxonalardan sanalgan. Bir necha yil davomida kechakunduz tinmay mutolaa qilish natijasida Ibn Sino o'z bilim doirasini mislsiz darajada kengaytirganki, o'sha paytda shu qadar bilimga ega bo'lgan boshqa biron kishini topish mushkul bo'lgan.

Ibn Sino mantiq, tabiiyot, tabobat va boshqa fanlarni chuqur o'zlashtirgach, o'sha davr falsafasining asosiy qismlaridan biri — metafizikani o'rganishga kirishgan. Biroq yosh olim bu fanning ayrim tomonlarini o'zlashtirishga Forobiy tomonidan Aristotelning metafizikasiga yozilgan sharhni mutolaa qilgandan keyingina muvaffaq bo'lgan.

999-yilda Qoraxoniylar Buxoroni zabt etib, Somoniylar davlatini qulatdi. Shuningdek, ayrim feodal hukmronlarning o'zaro urushlari davom etar va bu voqealar Buxoroda ilmiy ishlar bilan xotirjam shug'ullanishga imkon bermasdi. Buning ustiga 1002-yilda Ibn Sinoning otasi vafot etadi. Oqibatda yosh olim o'z yurti Buxoroni tark etib, Xorazm (Urganch)ga ketadi.

Xorazm ham O'rta Osiyoning qadimiy boy va madaniy viloyatlaridan biri bo'lib, XI asr boshlarida u yerda ilmiy hayot ancha rivojlangan edi. Xorazmshohlar Ali ibn Ma'mun (997—1009) va Ma'mun ibn Ma'mun (1009—1017)lar davrida Urganchda anchagina taniqli olimlar yashar va ijod etardi. Yirik matematik va falakiyotshunos Abu Nasr ibn Iroq (Beruniyning ustози), atoqli tabib va faylasuflar Abu Sahl Masixiy, Abul Xayr Xammor va nihoyat, buyuk Abu Rayhon Beruniy shular jumlasidandir.

O'z siyosatida ko'proq mutaassib ruhoniylarga tayanadigan va har qanday hur fikrni bo'g'uvchi G'azna hukmdori Sulton Mahmud Xorazm yerlarini o'z davlatiga qo'shib olish uchun harakat qiladi. Unga tobe bo'lishni istamagan Ibn Sino taxminan 1010—1011-yillarda Xorazmdan maxfiy ravishda chiqib, Xuroson tomon yo'l oladi va Kaspiy dengizining janubiy-sharqidagi Gurgon amirligiga boradi. U erda Abu Ubayd Juzjoniy bilan tanishadi, shundan boshlab u yigit Ibn Sinoga eng yaqin va sodiq shogird bo'lib qoladi va ustozining oxirgi nafasigacha undan ajralmaydi.

1014-yilda Ibn Sino Gurgonni ham tark etadi va bir qancha vaqt Ray hamda Qazvin shaharlarida turganidan keyin

Hamadonga keladi va buvayhiylar hukmdori Shamsud davla (997—1021) xizmatiga kiradi. Oldin saroy tabibi bo'lib ishlaydi, so'ngra vazirlik mansabiga ko'tariladi. Davlat ishlari bilan band bo'lishiga qaramay, ilmiy ishlarini davom ettiradi va qator asarlar yaratadi, o'zining mashhur asari «Kitobul-shifo»ni ham shu yerda yozishga kirishadi. 1023-yilda Isfahonga ko'chadi va «Kitobul-shifo»ning qolgan qismlarini yozadi. Yana boshqa bir necha asarlari qatorida falsafiy «Donishnoma» kitobini yaratadi.

Juzjoniyning ta'riflashicha, ibn Sino jismoniy jihatdan ham juda baquvvat kishi bo'lgan. Biroq shaharma-shahar darbadarlikda yurish, kechalari uxlamasdan tinimsiz ishlash va bir necha bor ta'qib ostiga olinishi, hatto hibsdan ham yotishi olimning salomatligiga salbiy ta'sir etmay qolmagan. U yo'g'on ichakda bo'ladigan qulunj kasalligiga chalinib qolgan. Buning ustiga tutqanoqqa ham yo'liqqan. Shular natijasida u 1037-yilning iyunida 57 yoshida Hamadonda vafot etgan.

Ibn Sino haqiqiy alloma olim sifatida o'z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatli shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda ibn Sinoning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan bo'lsa ham, uzoq vaqt o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan va bizgacha faqat 240 ta asari yetib kelgan.

Ibn Sinoning ijodiy faoliyati o'zbek olimlari U.Karimov, S.Rahimov, A.Qayumov, A.Irisov, Y.Jumaboyev, I.Mo'minov va boshqalar tomonidan chuqur o'rganilib, asarlari nashr ettirilgan.

### **Ibn Sinoning ijtimoiy-falsafiy qarashlari**

Ibn Sinoning falsafiy qarashlarining takomillashuviga qadimgi grek olimlarining falsafiy ta'limotlari ijobiy ta'sir etgan. Sharqshunoslarning fikricha, Ibn Sino Arastuning butun asarlarini arab tiliga tarjima qilib, chuqur o'rganib, hatto uning ta'limotiga qarama-qarshi fikrlarni bayon etib, ularni asoslagan. Arastu ta'limotining ba'zi jihatlarini tanqid ham qilgan.

Al-Kindi, Zakariyo, ar-Roziy, Forobiy, Beruniy kabi mutafakkirlarning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari ibn Sinoning dunyoqarashida muayyan rol o'ynagan.

Olimning falsafaga bag'ishlangan eng yirik va muhim asari «Kitobul-shifo»dir. Uni o'z davrining falsafiy qomusi desa bo'ladi. Bu asar inson ruhiyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, u 4 qismdan iborat: 1) mantiq; 2) tabiiy fanlar; 3) matematika; 4) metafizika yoki ilohiyot.

Uning «Mantiq» qismi 9 bobdan iborat:

1. Mantiqqa muqaddima.
2. Al-Maqulot — kategoriyalar.
3. Al-Iborot — interpretatsiya.
4. Al-Qiyos — sillogizm.
5. Al-Burhon — isbot, dalil.
6. Al-Jadal — dialektika.
7. As-Safsata — sofistika.
8. Al-Xitoba — ritorika.
9. Ash-she'r — poetika<sup>1</sup>.

Shu tariqa «Kitob ul-shifo»ning tabiiy fanlar qismi 8 bobdan iborat bo'lib, bunda falsafaning asosiy qismi bo'lgan tabiatdagi hodisalarni, ya'ni osmon va olam, borliq va buzilish, ta'sir va ta'sirlanish, jon haqida, o'simliklar, hayvonlar to'g'risida ilmiy muammolarni asoslab bergan.

Kitobning 3-qismi «Matematika» bo'lib, unga bag'ishlab 4 kitobni hadya etadi.

1. Geometriya ilmining o'qitish usullari.
2. Arifmetika.
3. Musiqa.
4. Ilm al-falaq, ya'ni astrologiya.

Ibn Sino ilohiyot ilmiga bir asar bag'ishlagan edi.

Falsafaga oid ikkinchi asari «Kitob un-najot» bo'lib, unda «Kitob ul-shifo»ning mazmuni qisqacha bayon etilgan. Ibn Sinoning eng so'nggi yirik falsafiy «Al-Ishorat va vat tanbihot» («Ishoralar va tanbehlar») nomli asarida falsafaning asosiy masalalari qisqa iboralarda ifodalangan.

Allomaning tibbiyot sohasidagi xizmatlari ayniqsa buyukdir. U eng qadimgi fanlardan biri — tibbiyotning ming yillik rivojini yakunlagan va uni yangi, yuqori bosqichga ko'targan. Hatto bu fanning keyingi asrlarda erishgan qator yutuqlarini ham

---

<sup>1</sup> Irisov A. Abu Ali ibn Sino. "Fan", 1980, 173-174-betlar.

oldindan ko'ra bilgan. Olimning bizgacha yetib kelgan tibbiy asarlaridan biri «Urjuza fit tibb», («Tibbiy urjuza»). Ibn Sino tabobat ilmini o'rganuvchilarga mo'ljallangan darslik sifatida tuzgan bu asarini she'r bilan yozgan. To'qqizta tabiiy doston shaklidagi bu asarning o'zbekcha tarjimai 1972-yili Toshkentda bosilib chiqdi.

«Adviyat al-qalbiya» («Yurak dorilari»), «Kitob al-qonun fittibb» («Tib qonunlari kitobi») va hokazolardan iborat.

«Tib qonunlari kitobi» ko'p o'tmay Yevropaga ham etib keladi. XII asrdayoq Gerard uni arabchadan lotin tiliga tarjima qiladi va shundan keyin Yevropa universitetlarida tibbiyot fani ibn Sinoning ana shu asari bo'yicha o'qitila boshlaydi. Mazkur asar o'zining asosiy qo'llanma va darslik sifatidagi qimmatini 500 yildan ortiqroq vaqtgacha saqlab qoldi.

### **Ibn Sino axloqiy tarbiya haqida**

Ibn Sino axloq to'g'risidagi fikrlarida axloqiy fazilatlarni ulug'ladi va axloqiy illatlarni, yomonlikni keskin qoraladi. U insonlarning kundalik amaliy ishlaridagi eng zarur axloqiy munosabatlarga, kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik, to'g'rilik, sofdillik kabi xulqiy qoidalarga alohida e'tibor bergan. Insonning kishilar orasida o'zini tutishi, oila a'zolarining o'zaro aloqalari, jamiyat turli tabaqalarining munosabatlari ibn Sino asarlarida maxsus yoritilgan.

«**Tib qonuni**». Bu asar 1012–1023-yillarda yozilgan. U besh kitobdan iborat bo'lib, unda bola tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. Har bir narsani bilish — uning sabablarini, aksar unda shunday sabablar bo'lsa, tib hamda asoslarini o'rganish bilan hosil bo'ladi...

Bolalarning chaqaloqlikdan o'sish yoshigacha bo'lgan mijozlari issiqligi jihatdan mo'tadilga yaqin bo'lib, ho'lligi jihatidan mo'tadildan ortiqdir...

Jismoniy mashq qilish ketma-ket chuqur nafas olishga majbur qiladigan ixtiyoriy harakatdir...

Me'yoriy sur'atda va o'z vaqtida jismoniy mashq bilan shug'ullanuvchi odam buzilgan xiltlar tufayli kelgan narsalarning davosiga muhtoj bo'lmaydi...

Yetti omildan foydalanish sog'liqni saqlaydi:

1. Mijozni mo'tadil tutish.

2. Yeyiladigan va ichiladigan narsalarni (ovqatni) tanlash.
3. Badanni tuklardan tozalash.
4. Burunga tortiladigan havoni yetarli va yaxshi tortish.
5. Qaddi-qomatni to'g'ri tutish.
6. Kiyimlarni qulay kiyish.
7. Jismoniy va ruhiy harakatlarni me'yorlash.

Qadimgi odamlar o'z hayotlarida har qanday zararli narsalarni iste'mol qilishdan saqlanganlar, ertalab faqat go'sht, kechqurun esa non iste'mol qilish bilan qanoatlanganlar...

Ovqatlanishda odatdagi rejimga (tartibga) rioya qilish kerak...

Ovozni yo'qotmaslik, nafas olish organini ishdan chiqarmaslik uchun, avvalo, o'qishni past ovoz bilan, keyin kuchli ovoz bilan o'qish ham uzoq davom etmasligi kerak...

Bola 6 yoshga to'lishi bilan uni o'qituvchi tarbiyasiga berish...

Yosh bolaga may ichirish loyullab yonib turgan olovga quruq o'tin tashlashdir...

Agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. G'azab kuchli qizdiradi, qayg'u kuchli ozdiradi, hafsalasizlik nafsoniy quvvatni bo'shashtirib, mijozni beg'amlikka moyil qiladi. Xulqning mo'tadilligi natijasida ham nafs, ham badan sog'lom bo'ladi...

### **Ibn Sinoning didaktik qarashlari**

Olim ta'lim va tarbiya masalalariga jiddiy va ijodiy yondashgan. Olimning bolani tarbiyalash va o'qitish haqidagi ko'p fikrlari o'zining chuqurligi, insonparvarligi va teranligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Ibn Sino o'zining o'rta asr «yetti ozod san'ati» tizimidan farq qiladigan tarbiya tizimiga odob, falakiyotshunoslik, tibbiyot, mantiq, falsafa, tabiatshunoslik, til va uning grammatikasi, musulmon qonunshunosligi fanlarini kiritgan. U tavsiya qilgan ta'lim va tarbiya tizimi quyidagilarni o'z ichiga olgan:

1. Aqliy tarbiya.
2. Jismoniy sog'lomlashtirish (davoflash) tarbiyasi.
3. Estetik tarbiya.
4. Axloqiy tarbiya.
5. Mehnat tarbiyasi (hunar o'rgatish).

Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash masalasiga katta ahamiyat berib, «Tadbir ul manozil» asarining maxsus bo'limini ana shu masalaga bag'ishlagan. Kitobning «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» bo'limida bolani maktabga jalb qilish haqida to'xtalgan. Uning ta'kidlashicha, maktabga barcha kishilarning bolalari jalb etilishi va hamma bolalar birga o'qitilishi hamda tarbiyalanishi lozim. U bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan, bolani maktabda jamoa bilan o'qitishning foydasini quyidagicha ifodalagan:

1. Agar bolalar birga o'qisa, zerikmaydi, ularda fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o'qishning yaxshilanishiga yordam beradi.

2. O'zaro suhbatda bolalar bir-birlariga kitobdan o'qib olganlarini, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar.

3. Bolalar birga to'planganlarida bir-birlarini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-birlariga yordamlashadilar, bir-birlaridan yaxshi odatlarni o'rganadilar.

Ibn Sino 14 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'qitish dasturiga alohida ahamiyat bergan. Bunday bolalarga Qur'on, til va uning grammatikasini, she'rning tuzilishini o'rgatish, ular bilan mazmundor axloqiy suhbatlar o'tkazish, badantarbiyani amalga oshirish, ularga hunar o'rgatish kerak, deb ta'kidlagan.

Ayrim ko'ngillariga yoqadigan narsalar bilan shug'ullanish uchun ham bo'sh vaqtlari qolishi kerak. Ko'ngillariga yoqadigan narsalar bilan shug'ullanish deganda, har xil o'yinlarni nazarda tutgan. Bu yoshga mo'ljallangan jismoniy tarbiya tadbirlariga piyoda saf tortib yurish, sakrash, otda chopish, to'p o'ynash, kurash, qilichbozlik va boshqalarni kiritgan.

Ibn Sino o'zining «Donishnoma» asariga qadimiy hikmat fanlaridan beshtasini kiritib, mohiyati va mazmunini asoslab bergan edi:

1. **Mantiq** — bilimlarning tarozusi.
2. **Fizika** — bu hisga aloqador harakat hamda o'zgarishga doir bilim.
3. **Koinotning tuzilishi va joylashuvi to'g'risidagi bilim.**
4. **Musiqiy bilim** — tovushlarning ohangdorligi va nohangdorligi haqidagi bilim.



Tabiatdan tashqari bo'lgan narsalar to'g'risidagi bilimlar.

O'qitish jarayonida har bir fandan foydalanishda unda berilgan narsalarning isbotini topa olmasang, unda aytilgan fikrlarni ham rad etma, taxmin qilib xulosa chiqarma, kitob va aqlingga murojaat qil, degan edi «Donishnoma» kitobining yakunida.

Ibn Sino o'qitish jarayoniga katta ahamiyat bergan va uni tubandagi tarzda tashkil qilinishi zarur, deb hisoblagan:

1. Bolani birdan kitobga jalb qilib qo'ymaslik kerak.

2. O'qitish asta-sekin, osondan qiyinga o'tish yo'li bilan olib borilishi lozim.

3. O'quvchilar bilan amalga oshiriladigan tarbiya ularning yoshiga mos bo'lishi shart.

4. O'qitish jamoa tarzida uyushtirilishi darkor.

5. O'qitish bolaning mayli va qobiliyatini hisobga olgan holda olib borilishi kerak.

6. O'qitish jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borilishi zarur.

Ibn Sino tarbiya masalalari ifodalangan asarlarida o'qituvchining roliga katta e'tibor bilan qaragan. Tarbiyachi tanlashni muhim masala deb hisoblagan. U bola 6 yoshga to'lishi bilan uni o'qituvchining tarbiyasiga berishni tavsiya qiladi. Tarbiyachi «Rostgo'y, dono, odil, ozoda kiyinadigan, xushmuomala» bo'lishi zarurligini uqtiradi va yosh avlodni o'qitadigan hamda tarbiyalaydigan kishilar oldiga bir qancha talablar qo'ygan. Uning fikricha:

1. Tarbiyachi bolalar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak.

2. Muallim o'quvchilar ta'limni qanday o'zlashtirayotganini kuzatib borishi zarur.

3. O'qitish jarayonida muallim har xil usullarni qo'llashi darkor.

4. Tarbiyachi o'quvchining xotirasi va boshqa aqliy qobiliyatini bilishi lozim.

5. Tarbiyachi bolalarni tarbiyalashda tegishli jazo choralari qo'llashi, o'tilganlarni takrorlashga majbur qilish orqali ularni fanga qiziqtirishi kerak.

6. Tarbiyachi o'z fikrini o'quvchiga bayon qilishdan oldin undan masalaning mohiyatiga o'zi tushunib olishi, keyin uni qisqa, aniq, adabiy tilda tushuntirishi, bunda ko'p gapirishdan qochishi lozim.

7. Har bir fikr haqiqat bilan tasdiqlanishi, bolalarda hissiyot uyg'otadigan bo'lishi zarur.

Ibn Sinoning fan va ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari uning ana shu masalalar bo'yicha chuqur bilim va katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi. Mazkur fikrlarda Ibn Sinoning nazariy bilimlarni o'rgatishni amaliyot bilan birga olib borishga alohida e'tibor bergani diqqatga sazovordir.

Ibn Sinoning axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari juda qimmatlidir. U axloq ilmini yanada rivojlantirgan. U «Aksomul ulum val ahliya» nomli asarida quyidagicha ta'riflagan: «Bu fan kishiga uning axloqi qanday bo'lishi kerakligini va nimaga intilishi lozimligini o'rgatadi...» Shuningdek, u yana boshqa asarlarida axloq insonning o'zini-o'zi reflekslashi haqidagi fan ekanligini va u xulq-atvorni o'rgatishini ta'kidlaydi. Ibn Sino axloqni ikki qismga: «yaxshilik» va «yomonlik»ka bo'ladi. Yaxshilikning bosh mezoni adolat deb uqtirgan. Adolatni esa insonning ruhiy holati bilan bog'langan holda quyidagi 3 qismga ajratgan:

1. Instinkt vositasi bilan paydo bo'ladigan sezgi istagi. Bunga jinsiy sezgi, orzu-havas, yaxshi ovqat va kiyim-kechak kabilar kiradi.

2. Qahr-g'azab va boshqa kuchli ruhiy sezgilar vositasi bilan paydo bo'ladigan istak. Bunga: tushunib yetmaslik, g'am-hasrat, nafrat, ichiqoralik, ko'ra olmaslik, baxillik, rashk kabilar kiradi.

3. Oqilona istak va mayl. Bunga kamtarlik, adolatlilik, umumiy yuksak insoniy fazilatlar kiradi.

Ibn Sino tarbiya masalalaridagi axloqiy tarbiyaga alohida o'rin ajratgan. Uning fikricha: «Agar inson aqliy va jismoniy jihatdan qanchalik yetuk bo'lsa ham, undagi bilim axloq me'yorlariga mos bo'lmasa, u kishi jamiyatning haqiqiy a'zosi bo'la olmaydi». Olim axloqiylik ko'proq vatanparvarlikda o'z aksini topadi deb tushungan.

U ona-Vatani — Turonni Hind, Eron va Chin kabi yirik davlatlardan ortiq hisoblab, unga xizmat qilishni o'z burchi deb bilgan. Vatanning fani, madaniyatini yuksaltirishga ulkan hissa qo'shgan.

Ibn Sinoning «Salamon va Ibsol», «Xay' ibn Yaqzon» falsafiy qissalarida axloqiy fazilatlar tasviri alohida o'rin egallaydi.

Pokiza xulq — odamiylik javhari, kishini inson sifatida ulug'laydi, tuban axloq esa odam umrining zavolidir. Ibn Sino odamlarni do'stlik, o'zaro chinakam axloqiy munosabatda bo'lishga chaqirgan: «Ey, birodarlar! Haqiqatni ochib tashlanglar, bir-biringiz bilan samimiy do'st bo'linglar. Har biringiz o'z birodaringiz uchun xolis dilingizdagi pardalarni ochib tashlanglar...»

Ibn Sinoning axloq to'g'risidagi hikmatlaridan umuman quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

- Ota-onani hurmatlash zarur.
- Ota-onalarni g'animat tutish kerak.
- Har kim o'z qadriga loyiq gaplarnigina aytishi, tilini saqlashi, gapirganida qo'lini silkitmasligi lozim.
- Odamlarning saxiyligidan ta'ma qilmaslik kerak.
- Pastkashdan vafo kutmaslik lozim.

Ibn Sino axloq haqidagi nasihatlarini quyidagicha yakunlagan: «Nasihat bobida uch mingta so'z yozdim, uch mingtadan uch kalimani tanlab oldim. Bu uchtdan ikkitasini esda saqla va birini unutib yubor: Xudoni va o'lim haqligini yodingda tut, qilmagan kamchiliklaringni unutib yubor».

Ibn Sino insonning sabrli va har qanday qiyinchilikka chidamli bo'lishining oqibati ularni yuksak axloqiylik va baxtga yetaklaydi, deb uqtirgan.

Mutafakkirning ayloq va axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari yosh avlodni baxtli inson qilib tarbiyalash uchun bir dastur sifatidagi qimmatini saqlab kelmoqda.

Ibn Sino oila tarbiyasi masalalari bo'yicha maxsus «Tadbir al-manozil» nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan va o'zining ta'lim-tarbiya haqidagi har tomonlama mukammal mulohazalarini bayon qilgan.

Asarning «Muqoyasa dar axloq» bobida ota-onalar va tarbiyachilarga quyidagicha maslahatlar berilgan: Ota-ona bolalarni tarbiyalashda ularga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishlari kerak. Ayniqsa, bolaning xulqidagi kamchiliklari uning shaxsiyatiga tegmasdan bartaraf etilishi lozim. Asarning eng katta bobi oila va ota-onalarning tarbiyadagi faoliyatini sharhlashga bag'ishlanib, bu xususda bir mutafakkir sifatida yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan Ibn Sinoning uqtirishicha, oila tarbiyasi ham amaliy, ham nazariy ish ekanligini ota-onalar

yaxshi bilishlari zarur. Ota-ona bola tarbiyasida turli usullardan foydalansa, oila baxtli bo'ladi. Shuning uchun «Nasihat yo'li» bobida ota-onalarning vazifalari ifodalanib, bu vazifalarni bajarish uchun ota va onada qanday fazilatlar bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

Onalar fazilati hamda burchlari haqida kitobning alohida bobida fikr yuritilgan.

Xotinlarning yaxshi fazilatlari:

1. Xotin kishi bilimli bo'lsin. U dinga ishonsin. Uyatchan, sharmu hayoli, iboli, tabiatan jasur, o'z erini qattiq sevadigan, tug'ish va bola tarbiyasi haqida o'ylaydigan bo'lishi, ezma bo'lmasligi va o'z eriga bo'ysunishi, to'g'ri, kamtar, farosatli bo'lishi kerak. O'z vazifasi va burchini anglashi, tejamkor, eri bilan itoatkorona muomalada bo'lishi, uni hurmat qilishi lozim<sup>1</sup>.

Ibn Sino o'zining ilmiy va badiiy asarlari, serqirra amaliy faoliyati bilan jahon madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk siymolardandir. Uning «Al Qonun», «Donishnoma», to'qqizta dostonidan iborat «Urjuza fit tibt» va boshqa asarlarida o'z aksini topgan, bayon etilgan ta'lim va tarbiyaga, axloq-odobga doir fikrlari badiiy asarlari tarkibidagi yuksak g'oyalar, hikmatlar yo'g'rilgan pandlar hamma zamonlarda ham komil inson tarbiyasida asqotgan.

### TADBIR AL-MANOZIL

*(«Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash»)*

Agar o'quvchi birga o'qisa, u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o'qishni yaxshilashga yordam beradi.

O'zaro suhbatda o'quvchilar bir-biriga kitobdan o'qib olganlarini, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar.

Bolalar birga to'planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, yaxshi odoblarni qabul qiladilar.

---

<sup>1</sup> Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'limi va tarbiya haqida. T.: 1967, 93-bet.

... Agar sendagi yomon xususiyatni do'sting o'z vaqtida ko'rsatib, uni tuzatishga yordam bermasa, sendagi bu yomon xususiyat hozircha kichik bo'lsa-da, u keyinchalik odat tusiga kirib qolishi mumkinki, uni tuzatish qiyin bo'lib qoladi...

... U (davlat boshlig'i) o'zidagi butun kamchiliklarni tuzatishi kerak, toki birorta dog' qolmasin. Buning uchun «Tadbiri manzil»dan foydalanish kerakki, unda tarbiyaning to'g'ri usullari ko'rsatilgan.

... Siz gaplashish, fikr olishda xayrixohlik, talablarga rioya qilgan holda ish ko'rsangiz, yo'ldan adashmaysiz va to'siqlarga duch kelmaysiz.

... Inson o'z badanidagi yaraga qanday ehtiyotlik bilan muomala qilib, yara qonini sekinlik bilan yuvsa, nasihat oluvchi kishiga ham shunday muomala munosib bo'lishi lozim.

... Biz amaldorlar, o'ziga tinch oila farzandlarining ozmunchasini uchratmadikki, ular ota boyligi, davlatga mag'rur bo'lib, bir kasb-korni o'zlashtirishga kirishgan bo'lsin va shu yo'sinda o'z ma'naviy takomiliga erishgan bo'lsin.

## RO'DAKIY TA'LIM-TARBIYA HAQIDA

(858-941)

X–XII asrlarda O'rta Osiyoda markazlashgan davlatlarning paydo bo'lishi va asta-sekin ravnaq topishi natijasida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo ham rivojlandi, madaniy hayot, ilm-fan gurkirab taraqqiy etdi. Somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar hamda xorazmshohlar davrida hukmron doiralarning bevosita homiyligi tufayli forsiy va turkiy tillar hamda shu tillardagi badiiy adabiyot o'zining yuksak rivojlanish pallasiga yetdi.

Mahalliy zodagonlar san'at va adabiyotni rivojlantirishga ham alohida ahamiyat berdilar. Chunki ular ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini yaxshi anglar edilar. O'sha davrdagi Xuroson va Movarounnahr xalqlari adabiyoti forsiy, arab va turkiy tillarda yaratildi. Forsiy tildagi adabiyot mavzu doirasi nuqtai nazaridan ham, g'oyaviy yo'nalishi, timsollar tizimi, san'atkorlik jihatidan ham yangi taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarildi. Ko'plab dostonlar, qissalar, sarguzasht romanlar, hikoyatlar to'plamlari, she'rlar devoni, maxsus qasidalar

yaratildi. Adabiyotda vatanparvarlik, insonparvarlik, ilm-fanni, kasb-hunarni, ma'rifatni targ'ib qilish yetakchi g'oyaga aylandi. Firdavsiy, Nosir Xisrav, Unsuriy, Farruhiy, Anvari, Abushukur Balxiy, Nizomiy, Xoqoniy, Nizomulmulk, Kaykovus, Asadi Tusiy va boshqalar forsiy til va undagi adabiyotning ravnaqiga katta hissa qo'shdilar. Ro'dakiy forsiy til va undagi adabiyotning asoschisidir.

Sharq adabiyotida «shoirlarning Odam atosi» deb nom olgan Abu Abdullo Ro'dakiy hozirgi Tojikistonning Panjakent tumaniga qarashli Panjrudak qishlog'ida tug'ilgan. Dastlabki ma'lumotni o'z qishlog'ida olgan. Keyin Samarqandda o'qigan, madrasani xatm qilgan. Tabiatan musiqa va she'riyatga mayli kuchli bo'lgan yosh Ro'dakiy mashshoq, hofiz va shoir sifatida shuhrat qozona boshlagan. Uning ovozasini eshitgan somoniy hukmdorlari Buxoroga taklif etib, saroy shoiri va olimlariga sardor — malikushshuaro qilib tayinlaydilar. Murodiy, Daqiqiy, Abushukur Balxiy singari o'nlab ijodkorlar qurshovida ijod ishlariga sho'ng'ib ketadi. Shoir somoniylarning barcha urushlariyu bazmlarida qatnashadi, qaynoq hayot qo'ynida bo'ladi. 70-yillarga kelib somoniy feodallar o'rtasida o'zaro kelishmovchilik, saroy atrofida fitna-ig'volar kuchayadi. Ro'dakiy bunday sharoitdan bezib, qishlog'iga keladi, shu yerda vafot etadi.

O'tmishdagi tazkiranavislar Ro'dakiyning yettita doston va katta she'rlar devoni yaratganini, uning asarlari 300 ming baytdan ziyod ekanligini yozganlar.

Ro'dakiy o'zini ilmiy va badiiy ijodiyoti bilan fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U she'riyatida tibbiyot, falakiyot, adabiyot, musiqa, handasa fanlari bilan yosh avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor berdi.

U bir ruboiysida odamlarni ezgulikka chaqirib, shunday yozgan:

*Shu oddiy ko'z bilan boqmag'il, balki  
Bilim ko'zi bilan boqqil jahonga.  
Jahon daryo erur, yaxshi ishingdan  
Kema yasab o'tgin nari tomonga.*

Boshqa bir baytida esa atrofdagi voqelikni sezgirlik bilan kuzatishni, inson kamoloti uchun hayotiy tajribalar muhimligini

uqtiradi: chunki hayotiy tajriba — ilm, kishini eng murakkab masalalarni hal etishga o'rgatgan.

*Har kishi olmasa hayotdan ta'lim,  
Unga o'rgatolmas hech bir muallim.*

Shoir inson kamoloti bilan bog'liq juda ko'p masalalar axloqiy, aqliy, jismoniy, mehnat tarbiyasi islomiy farz va sunnatlarni bajarish va boshqalar xususida bir mutafakkir sifatida fikr yuritadi. «To'rt narsa, ya'ni chiniqqan — sog'lom a'zo, yaxshi xulq, yaxshi nom, ilm kishilardan g'am-hasratni aritadi», deydi Ro'dakiy. San'atkor ilmni «dunyodagi barcha boyliklarning eng a'losi», deb ta'riflagan. Agar moddiy ne'matlar insonning yashashi va jismoniy kamolotini ta'minlasa, ruhiy kamolot va ma'naviy balog'at uchun esa ilmiy zamin lozim. «Oltin, yer va boylik tufayli tanam orom oldi, qalbim esa ilmu ma'rifatdan yuksaldi».

Ro'dakiy oilada bola tarbiyasi, yosh avlod kamolotida otanonaning burchi haqida ham muhim fikrlarni ilgari surgan. Chunonchi, bir ruboysida zamonasidagi aksariyat odamlar, hatto, ma'rifatli zotlar ham farzandlarining tarbiyasiga e'tiborsizlik bilan qarab «donishmandning bolasi johil» bo'lib qolayotganidan afsuslanadi.

Ro'dakiy bir qator she'rlarida mardligu jasoratni, shirinsuxanligu mehribonlikni targ'ib qilgan, badqahr, bag'ritosh, takabbur, ziqna odamlarni qattiq tanqid qilgan. Shoir nazarida «Qoqilganni suyab qo'ygan» odamlargina mard hisoblanadi. Ro'dakiy turli irq va e'tiqoddagi xalqlar, elatlarning birligi, hamkorligi, bir-biri bilan hamjihatligi, do'stligini kuylagan san'atkordir:

*Jahonning shodligi yig'ilsa butun,  
Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.*

Bundan tashqari, Ro'dakiyning insof, adolat, rahmdillik, mehnatsevarlik haqidagi quyma baytlari ham borki, ular shoir ijodidagi ta'lim va tarbiyaviy fikrlarning yaxlit tizimini tashkil etadi.

### *Mustaqil ish*

Sh.Shomuhamedovning «Fors-tojik adabiyoti klassiklari» (1963-y.) kitobidan «Ro'dakiy» maqolasini o'rganing.

## FIRDAVSIY TARBIYA HAQIDA

(941—1025)

Abulqosim Firdavsiy Eronning Tabaron viloyatiga qarashli Boj qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga keladi. Xususiy muallim va madrasada ta'lim oladi. Yoshligidan qadimgi tarix, xalq og'zaki ijodiga qiziqib, noyob kitoblarni o'qib o'rganadi, folklor asarlarini notiqlar va baxshilar og'zidan yozib, to'plab yuradi. Otasi vafotidan so'ng u Tus shahri hokimining bog'iga bog'bon etib tayinlanadi va ana shu boqqa — ota kasbiga nisbat berilib «Firdavsiy» taxallusini oladi.

Somoniylar hokimiyat tepasiga kelgach, shoir Daqiqiyga qadimgi ajdodlar tarixi haqida «Shohnoma» yozishni topshiradilar. U ming baytdan iborat «Gushtasp va Arjasp» dostonini yozgach, fojiali halok bo'ladi. Shundan so'ng bu muhim vazifa Firdavsiyga yuklanadi. Firdavsiy 35 yil mehnat qilib, 60 ming baytdan iborat «Shohnoma»ni tugatadi.

Firdavsiy qator dostonlarida donishmand murabbiy, mehribon ustoz qiyofasini yaratdi, turli bilimlarni o'rganish, kasb egallash, harbiy hunarlarni bilish zarurligini uqtirdi. Uning ayrim dostonlarida bola tarbiyasi masalalariga ham alohida e'tibor berilgan. Zoli Zar, Rustam, Ano'shirvon, Humoy, Bahromi Cho'bina, Xisrav Parvizlar ota-onalari aqliy va jismoniy jihatdan to'g'ri tarbiyalaganliklari uchun tadbirkor, jasur qahramonlar bo'lib etishadilar. «Shohnoma» o'ziga xos pandnoma hamdir. Har bir doston xotimasidagi nasihatnomalar, aql haqidagi maxsus bob ana shu fikrning dalilidir:

*Hamisha aqlingni rahnamo etgil,  
Noloyiq ishlardan olisga ketgil.*

Bahrom Go'r dostonida shoir bolaning jismoniy jihatdan baquvvat, hunarmand qilib tarbiyalash haqida qimmatli fikrlarni bayon etgan:

*Hunar birla aqling birikkan hamon,  
Har ish bu jahonda yurishgay ravon.  
Mehnat tagidadir, ey oqil, har ganj,  
Ganj topmas hech kimsa tortmas esa ranj.*



Shoir yaxshilik, ahilligu do'stlik, rostgo'ylik, halollik, shirinsuxanligu mehribonlik, xalq, ona yurt, ota-ona nazdida fidoyi bo'lish haqida ham ko'plab ibratomuz mulohazalarni bayon etganki, ular barcha zamonlarda insonning kamoloti uchun xizmat qilib kelmoqda.

Firdavsiy xalqning qahramonligi va vatanparvarligini yuksak san'atkor sifatida o'zining ma'rifiy qarashlarida insonning ruhiyati masalasiga alohida ahamiyat bergan va uni turli holatlarda jozibali tasvirlagan. Insonning dard-hasratlari, iztiroblari yoki shodligi, ko'z yoshlari, quvonchlari shoir uchun tarbiyalovchi vosita sifatida xizmat qilgan. U bunday ruhiy kechinmalarni Rustam, Siyovush, Sudoba va boshqa bir qator timsollar orqali bayon etgan. «Shohnoma» asaridagi bosh qahramon uchun ikki narsa eng muqaddas bo'lib, bular **Vatan** va **xalqdir**. Firdavsiy el-yurtning barcha zodagonlarini bir yoqadan bosh chiqarib, hamkor va hamjihat bo'lishga, xalq boshiga kelgan ofat va hujumlarning barini daf etishga chorlaydi.

Mamlakatni dushmanga topshirgandan ko'ra hammamiz o'zimizni o'limga tikkanimiz yaxshiroqdir. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida didaktik nasihatlar ham alohida o'rin olgan.

«Insonni xayru saxovatli bo'lishga yetaklovchi kuch ilm va hunardir, — deydi shoir. — Ilmni insonga singdiruvchi narsa esa aqlidir». U aqlni quyidagicha ta'riflaydi:

*Aql bir tirik jon, bilmaydi zavol,  
Aql turmush asli, buni yodlab ol.  
Aql yo'l ko'rsatib dilni etar shod,  
Har nechuk ilmdan eshitsang, bir so'z.  
Uni tinmay o'rgan kechayu kunduz.*

Mehnat va hunarni yuksak baholagan, uni gavhardan ham yuqori qo'ygan shoir hunar va mehnatning chiroyi insonning aqli va axloqida deb hisoblaydi va doimo aql bilan ish qilish zarurligini uqtiradi. Aqlsiz harakatlar oqibatida axloqsizlik vujudga kelishi ko'ngilsiz holat deb ta'kidlaydi. Shuningdek, «Shoh-noma»da nojo'ya axloq nomuvofiq harakatlarning oqibati ham ko'rsatilgan. Kaykovusning o'zboshimchaligi el-yurt boshiga ko'p kulfatlar keltiradi. Jamshid manmanlik va kibru havoga berilgani uchun saltanatdan ajraladi:

*Manmanlik, takabbur keltirdi tashvish,  
Shundan so'ng orqaga ketaverdi ish.*

Firdavsiyning ta'biri bilan aytganda, ezgu niyat, yaxshilik kishining fazilatlarini to'ldiradi, uni barkamollashtiradi. Chin inson bo'lish baxt va sharafdir. Shu sababdan u: «Kel, jahonni yomonlarga topshirmaylik, hammamiz harakat qilib, qo'llarni yaxshilikka cho'zaylik, yaxshilik va yomonlik bir xil emas, yaxshilik yodgorlik bo'lib qoladi», deydi.

Firdavsiy yoshlarni tarbiyalash uchun boy meros qoldirgan adib. O'z zamonasidayoq buyuk olimlar uning ijodiyotiga katta baho bergan edilar: «Firdavsiy masnaviyda ustodi fandir».

*Alisher Navoiy.*

Firdavsiy she'riyatning «sultoni»dir, biz esa uning kamtarin muxlislarimiz.

*Anvari, (XII asr).*

### *Mustaqil ish*

H.Homidovning «Shohnoma»ning shuhrati» kitobini o'qib, tahlil qiling (T., «O'zbekiston», 1991).

## UNSURULMAOLIIY KAYKOVUS

Unsurulmaoliiy Kaykovus Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'ida yashagan Gilon qabilasidandir. U 1021 yoki 1022-yilda mayda feodal oilasida tug'ilgan va «Qobusnoma» asarini 1082–1083-yillarda yaratgan. Kaykovus uni o'z o'g'liga bag'ishlagan bo'lsa-da, ammo kitob yosh avlodni tarbiyalash, ularning kamolotini ta'minlashning muhim muammolariga doir ilk Sharq pandnomasidir.

«Qobusnoma»ning 44-bobidagi fikrlar bir-birini to'ldirib va rivojlantirib boradi. Mazkur asar o'tmishda maktab va madrasalarda «Guliston», «Bo'ston» kabi asarlar bilan bir qatorda darslik vazifasini o'tagan.

«Qobusnoma» mashhur shoir va tarjimon Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Uni taniqli olim

Subutoy Dolimov hozirgi o'zbek tilida so'z boshi, ayrim sharhlari va lug'ati bilan nashr ettirgan.

«Qobusnoma» qomusiy didaktik asar bo'lib, boshidan oxirigacha ta'lim-tarbiyadagi muammolarni hal qilishga qaratilgan. Asardagi bosh masala inson va uning kamol topishidir.

Kaykovus o'z farzandini barkamol, har tomonlama bilimdon, zakovatli va yuksak axloqli bo'lishini ta'minlash uchun inson tarbiyasiga zarur bo'lgan hamma tomonlarini asoslab beradi:

Ota-onaning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchi, farzandning ota-onalarga munosabati, ularni qadrlashi, insonlar orasidagi muomala, odob, ularning o'zaro axloqiy munosabatlari, ilm va bilimning inson uchun zarurligi, davlat rahbarlarining vazifasi, tijorat ishlari, xo'jalik yuritish, mehnat zavqi shu bilan birga inson uchun zararli hisoblangan ichish, so'kish, qo'pollik kabi yomon odatlardan saqlanishni ham bayon etadi: «Ey farzand, senga zamona sitamining qo'li yetmasdan burun hushing quloqi bila mening so'zimni eshitg'il va pandlar bila ikki jahonda yaxshi nom chiqarg'il. Mening so'zimni eshitmoqdan ibo qilmag'il. Agar mening so'zimni qabul qilib, undan bahra olsang, o'zgalar yanada qabul qilurlar va unga yarasha ish qilmoqni g'animat bilurlar», — deb yozgan edi Kaykovus.

Ota-ona haqini bilmak zikrida: — «Ey farzand, bilgilki, aql yuzasidan farzandiga ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdur, nedinkim uning asli ota va onadur. Ota va onani nima uchun hurmat qilurman deb ko'nglingga kelturmagil, bilgilki, ular sening uchun o'linga ham tayyor turadurlar.

Har farzandki, oqil va dono bo'lsa, hech vaqt ota-onaning mehr haqini ado qilmoqdan xoli bo'lmag'usidur.

... Ota-onaga izzat va hurmatni qancha ko'p qilsang, ularning seni haqingdagi duosi shuncha tezroq mustajob bo'lur.

Zinhor meros olmoq hirsu bila ota-onang o'limini tilamag'ilki, ularning rizqi bila sening rizqing yetishur» («Qobusnoma», Ogahiy tarjimasi, 30–31-betlar).

### **Hunar afzunlig'i. Baland qadr va oliyta'b bo'lmoq zikrida**

Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf yetkurmas...

Agar kishi har qanchaki oliy nasab va asl bo'lsa, ammo hunari bo'lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidin noumid bo'lur...

Barcha hunardan so'z hunari yaxshiroqdur, nedinkim... hamma maxluqotdan odam yaxshiroq yaraldi va o'zga jonivorlardan odam o'n daraja ziyodadur... Beshi tashida zohirdur, beshi ichida pinhondur... Ul pinhon narsalar: biri bir narsani yod olmoq, biri hamisha esda saqlamoq, biri tahayyul, biri tahavvur, biri takallum. Ammo ul beshalasi ham tashida zohirdur: bu zavq, ya'ni eshitmoq, ko'rmoq, hid bilmq, totmoq, siypalamoq, ya'ni sezuv...

Muloyim so'zga baxil bo'lmag'il, xalq muloyim so'z eshitmasa, mol va dunyoga mag'rur bo'lur (32-33-betlar).

### **Farzand parvarish qilmoq zikrida**

Ey farzand, agar farzanding bo'lsa, anga yaxshi ot qo'yg'il, nedinkim, otadan farzand xulqlaridan biri, unga yaxshi ot qo'ymoqdur. Yana biri uldurkim, farzandni oqil va mehribon doyalarga topshurg'aysan. Sunnat qilur vaqtida sunnat qilg'aysan hamda o'qishni o'rgatgaysan... unga hunar va kasb o'rgatgaysan (83-bet).

Farzandga adab, hunar o'rgatmakni meros deb bilg'il. Agar sen xoh unga adab o'rgatg'il, xoh o'rgatmag'il turmush mashaqqatlarining o'zi unga o'rgatur. Undoqkim debdurlar, otana tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur (85-bet).

### **Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq zikrida**

Kishi suxandon suxango'y notiq bo'lishi kerak. Ammo ey farzand, sen suxango'y bo'lg'il va lekin yolg'onchi bo'lmag'il, rostgo'ylikda o'zing shuhrat qozong'il, tokim biror vaqt zarurat yuzasidan yolg'on so'z desang qabul qilg'aylar. Har so'z desang ham rost degil va lekin yolg'onga o'xshag'on rostni demag'ilkim, rostga o'xshagan durug' durug'ga o'xshag'on rostdin yaxshidur, nedinkim ul durug' maqbul bo'lur, ammo ul rost maqbul bo'lmas (41-bet).

Har bir so'zni andisha bila boshlag'il, toki aytg'on so'zingdan pushaymon bo'lmag'aysan. Andishani ilgari tutmoq ham bir nav karomatdur. Har so'zni eshitishdan diltang

bo'lmag'il. Ul so'z ishingga xoh yarasun, xoh yaramasun, uni eshitg'il, to yuzingga so'z eshigi beklanmasun va foydasi favt bo'lmasin.

Sovuq so'zlik bo'lmag'il. Sovuq so'z bir tuxumdur, undan dushmanlik hosil bo'lur (45-bet).

Kaykovus o'z pandnomalarida oilaviy, ya'ni turmush muammolarini ham bayon etgan edi: Mol jam etmakdan g'ofil tutmag'il, toki halollik bila jam bo'lsun, u hamisha senga boqiy va yoqimli bo'ladi... Har narsa qo'lingga tushsa: bir tangadan ikki hissani o'z oilangga xarj etgil, bir hissani qarilig' va ojizlig' vaqting zaruriy ishlarga ehtiyot qilib qo'ygil.

Ey farzand, agar sen javonmardlardan insonparvar, saxiy harakat qilmoq tilasang insonga xos uch siyratga ega bo'lishing zarur: aql, rostlik va insonparvarlikdir. Bular seni yaxshi yo'lga boshlaydi.

Bu asarda ilm-fanni o'rganish, savodxonlik alohida o'rin egallaydi.

...Har kishi har ishni qo'lga olsa ul ishni yaxshi bilsin va uni ko'p mashq qilsin shunda bu ishdan ko'p manfaat ko'radi. Biroq odam naf va hunarni talab qilur. Kasb-hunarlar bag'oyat ko'pdir. Uni o'rganish uchun ilm darkor. Ilm sifati uch xildir: biror kasb-hunar bilan bog'langan ilm, tabiblik, munajjimlik, shoirlilik... ilm bilan bog'liq kasb-hunar, yer o'Ichovi, muzika asboblari ustida ishlash, binokorlik kabilar, bularni har birisida shunday qoida borki, agar uni sen tartibli chuqur bilmasang, har qanday ustomon desang ham nochordirsan, deyiladi. Har bir inson ilm o'rganish uchun ko'proq mashaqqat cheksin, chunki ilmi ahkom hukumlar, qonunlar, falsafa yaxshi ilmdur uni batamom bilib bo'lmaydi. Ahkom ilmi munajjim yulduzshunoslik va falakiyot, taqvim sayyoralarning harakati va joylashishini bildiruvchi fan, handasa geometriya kabi fanlarni o'rganishga imkon yaratadi. Ilmlarni chuqur o'rganib-da bir ish yurituvchi kotib bo'lsang yozma nutqni yaxshi egallag'il, xatni yaxshi bilg'il va ko'p yozmoqni odat qilg'il, toki yaxshiroq mohir bo'lsang.

Kaykovus yoshlarning ilm o'rganishiga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, ilm-fan insonni har tomonlama kamol toptiradi, ilmlarni o'rganish har bir yoshning vazifasi deb biladi.

### *Mustaqil ish*

Kaykovus «Qobusnoma»sini o'rganing.

## UMAR XAYYOM

(1048—1131)

G'iyosiddin Abdulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopur shahrida 1048-yil 18 mayda chodir (xayma) tikuvchi kosib oilasida tug'ildi.

Umar Xayyom yashagan davrdagi ijtimoiy va siyosiy taraqqiyot saljuqiylar hamda g'aznaviylar davlatining hukmronligiga to'g'ri keldi. U tug'ilgan Nishopur va Mashhadni o'z ichiga olgan Xurosonning katta qismi hozirgi vaqtda Eron hududida bo'lib, Xayyom davrida Xurosonning shimoliy qismida Ashxobod, Marv, g'arbida Hirot va Balx shaharlari joylashgan edi. III—VII asrlarda Xuroson sasoniylar Eron davlati ixtiyorida bo'lib, keyin arablarga o'tdi. IX asrgacha Xuroson bilan Movarounnahrning markazi Marv shahri bo'lgan. X asrda esa Xuroson va Movarounnahr somoniylar davlatiga kirdi. U o'z davrining qomusiy olimlaridan sanalardi. Shuning uchun ham u har doim insonni fan va madaniyatdan bahramand bo'lishini istardi.

Umar Xayyom va uning ijodiy dunyoqarashi ibn Sinoning falsafasiga yaqindir. Chunki Umar Xayyom o'ziga ibn Sinoni ustoz deb hisoblar edi. U Ibn Sino yozgan «Xutba» asarini 1079-yilda arabchadan forschaga tarjima qildi. U 1123 yilda ibn Sinoning «Kitob ash-shifo» asarini chuqur o'rganib chiqqan. Xayyom dunyo falsafasi bilan shug'ullansa-da, ruboiylar yozib, unda olam sirlari, inson kamolotini timsollar orqali ifodalaydi.

Umar Xayyom ruboiylarida yovuzlik, yomonlik singari inson tarbiyasiga tamoman zid illatlarni tanqid qilib, insonlar tarbiyasida yuksaklikni orzu qilgan edi.

Umar Xayyom ruboiylaridagi may badiiy timsol bo'lib, u orqali insonlar o'rtasidagi ijobiy, salbiy fazilatlarini kuylaydi:

*Ichkilik keksaygan boshni qilur xam,  
Maydan yechilmagan hiror tugun ham,  
Bir qultum may ichgan bo'lsaydi shayton  
Ming sajda qilardi odamga ul ham.*

Bunda u insonni nihoyatda ulug'laydi. U falsafiy qarashlarida materiyaning abadiyligi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi, o'lik va tirik tabiat o'tib bo'lmas chegaralarining yo'qligini e'tirof qilardi edi.

## Umar Xayyom didaktikasi

Umar Xayyom didaktikasida matematika ilmi rivojlantirilib, quyidagicha g'oyalar ishlab chiqilgan:

1. Miqdorlarni cheksiz ravishda bo'lish mumkinligi.  
2. To'g'ri chiziqni cheksizlikkacha davom ettirish mumkinligi.

3. Har qanday kesishuvchi ikki to'g'ri chiziq ochilib va kesilish burchagi uchidan uzoqlashgan sari uzoqlashib borishi.

4. Ikki yaqinlashuvchi to'g'ri chiziq kesishadi va boshqalar.

Yuqoridagi qoidalarni asoslab bergan Umar Xayyom Yevklid geometriyasidan farq qiladigan yangi geometriya — «Noyevklid geometriya»ga asos soldi.

Umar Xayyom algebra fanining rivojiga katta hissa qo'shib, tenglamalarni tavsiflashtirib berdi:

Son ildizga teng ( $X=a$ )

Son kvadratga teng ( $X^2=A$ )

Son kubga teng ( $X^3=a$ )

Ildizlar kvadratga teng ( $x^2=bx$ )

Kvadratlar kubga teng ( $ax^2=x^3$ )

Umar Xayyom tenglamalarning shakllari va ularning yechimini ham ifodalab bergan edi, shuningdek, u matematika, algebra, falakiyot fanlariga alohida e'tibor berib, bular insonning aqliy kamolotining asosi deb hisoblaydi:

*Kimki aqldan biror sabr bor,  
Umrin bir lahzasin o'tkazmas bekor...  
...«Ilohiyot ilmin o'rgan» dedi dil,  
Agar o'zing bilsang menga bayon qil.  
«Alf» degan edim «bas» dedi menga,  
«Bir harf ham yetadi» kim bo'lsa oqil.*

Umar Xayyom barkamol insonga xos axloqiy fazilatlarini o'z ruboiylarida aks ettirgan.

Umar Xayyomning ta'lim-tarbiyaga doir g'oyalarini quyidagicha tafsirlashtirdik:

*Ota-onaga muhabbat  
O'zaro munosabat  
Do'stlik va qarindoshlik*

*Mehnat va hunar  
Yomon va yaxshi harakatlar  
Savob va gunoh  
Yaxshilik  
Nafs balosi*

Ustod va shogird kabi nasihat usulidagi to'rtliklarni quyidagicha bayon etgan:

*Bu zamonda aqldan foyda yo'q zinhor,  
Aqlsiz kishiga jahon unumdor.  
Aqlimni olguvchi narsani keltir,  
Shunda zero, zamon menga bo'lgay yor.*

\* \* \*

*Har kim aql so'ziga solarkan quloq,  
Chindan oqibatida bu ho'kiz sog'moq!  
G'o'r aqling zo'r kelib may sotayapsan  
Ablahlik to'nini kiy, shu ma'qulroq!*

\* \* \*

*Dilim ilmlardan mahrum bo'lmabdi,  
Bir sir qolmadiki, mafhum bo'lmabdi.  
Tunu kun o'yladim yetmish ikki yil,  
Angladim— hech narsa ma'lum bo'lmabdi.*

\* \* \*

*Begona ham vafo qilsa, jigar menga,  
Qarindoshim jafu qilsa digar menga.  
Do'stlar inoqlikni qilsangiz odat,  
Tez-tez diydor ko'rib, o'zni aylang shod.*

\* \* \*

*Molu dunyo hasrati qilmasin afgor,  
Mangu yashar kishi qani qayda bor?*



*Bir necha nafasing tanda omonat,  
Omonatga omonat bo'lmoqlik darkor.*

\* \* \*

*Bozorda bir kulol ko'rsatib hunar,  
Bir bo'lak loyni tepib pishirar.  
Loy ingrab aytadi: «Hoy sekinroq tep,  
Men ham kulol edim sendek birodar».*

\* \* \*

*Bo'lgil doim oqil kishiga o'rtoq  
Noaqldan butkul qochaver yiroq.  
Dono senga zahar tutsa ham ichgil,  
Qo'l cho'zmagil sharbat tutsa ham ahmoq.*

Umar Xayyom ijodiy faoliyati, uni fanlarga qo'shgan hissasi va odob-axloqqa bag'ishlangan ruboiylari katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

*Hayotdan o'qigil jahon bahsini,  
Undan topajaksan jahon naqshini.  
Aqling elagidan o'tkazib bir-bir,  
O'zing ajratib ol yomon-yaxshini.*

### *Mustaqil ish*

Umar Xayyom ruboiylarini o'rganib tahlil qiling (Umar Xayyom. Ruboiylar. T., 1991).

## **YUSUF XOS HOJIB TA'LIM-TARBIYA HAQIDA**

Yusuf Xos Hojib XI asrda yashab ijod etgan buyuk olim, zabardast dostonnavis, tadbirkor davlat arbobidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi ma'lumotlar juda kam. 1070-yilda yozib tugatilgan va bizga qadar saqlanib kelgan «Qutadg'u bilig» dostonidagi ma'lumotlarga qaraganda, Yusuf Xos Hojib

1020-yilda Bolosog'unda tug'ilgan. U madrasada ta'lim olib zamonasidagi barcha bilimlarni puxta egallagan, qoraxoniylar hukmdori Bug'ra xon saroyida xos hojiblik mansabida ishlagan. Shoir umrining oxirgi yillari muhojirlik va zorlikda o'tgan.

Yusuf Xos Hojib fors va arab tilini, badiiy adabiyot, tarix, filolohiyot, geometriya, tabiiyot, geografiya fanlarini puxta o'rganib, o'z davrining ulug' donishmandlaridan bo'lib yetishgan.

Allomaning 73 bobdan iborat «Qutadg'u bilig» nomli asarida so'zlash odobi, ilm o'rganishning foydasi, olimlarning jamiyatdagi o'rnini, mehmondorchilikda o'zini tutishi, halollik, poklik, rostgo'ylik, mehr-oqibat, sadoqat, do'stlik, rahm-shafqat, adolat, imon, e'tiqod va qanoat, shuningdek, bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi to'g'risida qimmatli fikr-mulohazalar berilgan. Doston turkiy xalqlar adabiyotidagi ilk didaktik asardir. Undagi axloq-odob, ta'lim-tarbiya, ilm-hunar o'rganish, yoshlarni el-yurt xizmatiga safarbar etish xususidagi pandlar hamon o'z qimmatini saqlab kelmoqda. Yusuf xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarining boshidan oxirigacha komil inson tarbiyasi haqida fikr yuritilgan: dastavval, tarbiyaning boshi oiladan boshlanadi. Bunda otana bilan bolaning munosabatlari muhim o'rin egallaydi. Asardagi Ugdulmishday aqlli, bilimli, dono Komilning ota tarbiyasini, Oyto'ldi pandlari bilan bog'laydi. Ota-onaning tarbiyasini olgan farzand to'la ma'nodagi komil insondir. Asarda Kuntug'di bilan Elig Ugdulmishlarning monologi beriladi. Bunda otang o'lganda sen yosh bola eding, ammo o'zingdagi buncha san'at-hunarlarga qanday erishding deganda u:

Ey Elig, otaning olqishi o'g'ilga tegib turadi, otam menga ko'p ezgu duolar aytgan edi. Shularning madadi o'z kuchini ko'rsatdi, deb javob bergan edi.

Ota-onaning bola tarbiyasidagi e'tiborsizligini adib quyidagi misralarda bayon yetgan edi:

*Kimning o'g'il-qizi erka bo'lsa,  
Unga shu kishining o'zi mungli  
bo'lib yig'laydi.  
Ota bolani kichikligidan  
bebosh qilib qo'ysa,  
Bolada gunoh yo'q, barcha jafo  
otaning o'zida.*

*O'g'il-qizning xulqi-atvori yaramas bo'lsa,  
Bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi,  
undan boshqa emas.*

Ota-onaga ko'rsatilgan to'g'ri yo'llardan biri bilimdonlikdir. Bilimdonlik kishini har qanday noloyiq ishlardan saqlaydi. Bilimdon inson ko'p fanlardan xabardor bo'ladi. U yer-osmon sirlarini o'rganishga qodirdir.

Sen uni bilayin desang, handasa — geometriya fanini o'qi. Bu tufayli hisob eshigi ochiladi. Ko'paytirish va taqsimni o'qi, qusur kasr hisoblarni tugal bil. Tugulga tugal imtihon tadbir qo'lla. Yo taz'if karra, ko'paytirish bo'lsin, yo tasnif (bo'lish) taqsimlash bo'lsin o'zing yetarli bil... Yetti qavat falakni ich sirlarini yerda yotgan xas kabi yengil bilib ol. Tag'in istasang jabru muqobil algebra o'qi hamda Uqlidus eshigini tushunib qoq, ya'ni Yevklidning matematik nazariyasini chuqur bilgin. Shu sababdan o'qish-o'rganishga doir g'oyalari muhimdir.

*O'quv qut beradi, bilim sharaf-shon,  
Shu ikkov tufayli ulug'dur inson.*

... Donolik yo'li bilim olish, turli sohadagi ma'lumotlarni o'rganishdir. Bilimga erishib bo'lganlarning elga ham nafi ko'p tegadi. Tug'ilgan paytida uquvi bo'lmasa, uning tilaklari ham amalga oshmaydi.

*Bolam to'ssin desang donolik yo'lin,  
Kichiklikdan tegish bilimga qo'lin.*

Agar bola kichiklikdan bilim o'rgansa, uning idroki ham yaxshi bo'ladi, zakovati ortadi. Lekin bilim bilan uquv-idrok bir xil narsa emas. Uquv-idrok kishi miyasiga jo etilgan, boshning azizligi shundan.

Uquv-idrok kishi uchun kishanday gap. U yomon va yaramas ishlarga yaqin yo'latmaydi:

*Uquvli tirikdir, uquvsiz— o'lik,  
Kelu, ey uquvsiz, uquv ol ulig.*

Yusuf xos Hojib til bilishni muomala manbasi deb hisoblaydi. Uning nazarida faqat ikki toifa odam undan foydalana olmaydi, birinchisi tug'ma soqovlar, keyingisi esa bilimsiz kishilar. Bilimning so'zi oqib turgan suv kabidir.

Yusuf xos Hojib insonning ko'p so'zlashini odobsizlik va tarbiyasizlik alomati, deb hisobladi.

*Ko'p so'zda ortiq foyda ko'rmadim,  
Yana takror so'zlashdan naf topmadim.*

Yusuf xos Hojib axloq-odobga doir ta'limotni nasihatnomalari orqali bayon etgan. Mehribon kishi nima deydi, eshitgin, insonlikning bosh belgisi mehribonlikdir.

Kishilarning eng samimiysi mehribon kishilardir.

Zolimlik va zo'ravorlik o'rniga yaxshilik qil, qo'lingla in'om qilib, tilingla shirin so'zlab, xalqingni xursand qil. Ey, saxovatli ulus, baxil bo'lma, bu odatdan, saxovatli degan nom hech o'lmaydi, mangu qoladi. Adolat qil, qat'iy bo'l, zulmga yo'l berma. Tangrining toatini qil.

Sabr qilgan odam tilagiga yetadi, sabr bilan turgan kishi oqqush tutadi.

Men senga so'zlaganlarim ota vasiyatidir, sen bu so'zlarni unutma, dilingga joylab ol.

Shunday qilib, Yusuf xos Hojib atoqli olim-pedagog sifatida tarbiyadan ko'zlangan maqsadni aniq ifodalagan. Tarbiya kishini ezgulikka o'rgatmog'i kerak. Ezguning har ishi chiroyli, har bir qadami go'zal. Ezgulik aslo qarimaydi. Yomon yuzga kirsam ham ezgulik qila olmaydi. Ezgu har kuni yangidan-yangi tilak-istaklarga erishaveradi. Yomonlarning esa kundan-kunga obro'si ketadi.

Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» dostoni bilan pedagogika tarixida o'chmas iz qoldirgan.

### *Mustaqil ish*

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarini o'rganib, undan maktab hayotiga nimalarni olib kirish mumkinligini aniqlang.

## AHMAD YUGNAKIY

X asrda O'rta Osiyo xalqlarining hayotida iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan katta o'zgarishlar bo'ldi. Arab xalifaligining yemirilishi mustaqil davlatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Mamlakatning sharqiy qismida qoraxoniylar, Movarounnahrda somoniylar, g'arbiy tumanlarda esa g'aznaviylar davlati vujudga keldi.

O'rta Osiyo X—XI asrlarga kelib iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy tomondan rivojlana boshladi.

Qoraxoniylar davlati ma'muriy va xo'jalik ishlarini mustahkamlab olgach, fan va madaniyat taraqqiyotiga alohida e'tibor berdi. XII—XIII asrlarda yozilgan asarlarda adib va tarixchilar aniq hayotni ifodalashga, dunyoviy g'oyalarni targ'ib etishga intilganlar. Shu davrning eng hammabop asari Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni») edi.

Ahmad Yugnakiy XII asr oxiri va XIII asrning birinchi choragida yashab, ijod etgan turkigo'y shoirdir. U Samarqand atrofidagi Yugnakda adib Mahmud oilasida dunyoga kelgan. Shoirning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar juda kam. Ahmad Yugnakiyning faqat bizgacha yetib kelgan yagona asari «Hibatul haqoyiq»dir.

«Hibatul haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni») dostoni 14 bobdan iborat bo'lib, unda shoir Xudo, payg'ambar, to'rt xalifalar madhidan so'ng til odobi, sir saqlash, ilmning foydasi, saxiylik, kamtarlik, shukronalik, ta'zim-tavoze, insonparvarlik, kasb-korga mehr qo'yish, rizo va qanoat, halollik haqida pand-nasihatlarni berilgan. Ayni paytda, muallif johillik, dilozorlik, achchiqzabonlik, ochko'zligu noshukrlik, takabburlik, mol-dun'ga hirs qo'yishni qattiq qoralagan. Kishilarni mardlikka, rostgo'ylikka, beva-bechoralarga mehribonlikka chorlagan. «Til yarasi bitmaydi, tig' yarasi bitadi», deb xushmuomala bo'lishga da'vat etgan. Shuningdek, «Bugun atlas kiysang, kechagi bo'z ko'yilagingni unutma», «Shohlikka erishsang, kechagi qo'sh ho'kizing esingda bo'lsin», «Bitta non topsang, uning yarmini yoningdagi bir ochga ber» deb, kamtarlikka va saxovatga undagan. Xullas, «Hibatul haqoyiq» juda katta ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatga molik asardir.

Ahmad Yugnakiy o'z asarida tabiat va jamiyat qonuniyatlariga ham alohida to'xtalib, falsafiy dunyoqarashda tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning kengayishi, qisqarishi, o'zgarishi va dunyoning birligi haqida fikr yuritgan. U olamni yaratuvchisi Tangri taoloning mo'jizalari deb quyidagini yozgan edi: «Tangrim tunni, kunduzni yaratdi, (u) sharqdan g'arbga tomon o'tib, bir-biri bilan almashib turadi. Tuningni kunduzga, kunduzingni tunga o'zgartirib yana tong ota beradi».

Ahmad Yugnakiy fikrini davom ettirib yo'q edim, yaratding, yana yo'q qilib qayta (ikkinchi) vujudga keltirasan, bunga iqroman yoki tirikdan o'lik, o'likdan tirik chiqaradi, buni yaxshi angla. Bu ulug' qudratli bir tangridir, o'liklarni tiriltirmoq unga osondir. Unda adibning ijtimoiy hayoti ham alohida o'rin egallaydi.

Fil ustiga yuklangan zar (kabi) bo'lsa, so'zning ozi uning tengi bo'ladi.

Adib tug'ilgan yerining oti Yugnakdir, u joyning havosi safoli, unda ko'ngillar yayraydi. Otasining oti Mahmud Yugnakiy, adib Ahmad hech shaksiz uning o'g'lidir. Kitobning oti «Hibatul-haqoyiq»dir. Bu ibora arabchadir. Asarning tili boshdan-oyoq qashqarcha. Adib badiiy til bilan aytgan. Agar har kishi qashqar tilini bilsa, u kishi adibning barcha aytganlarini anglaydi:

Kishi tilni bilsa, uning ma'nosiga tushunadi, tilni bilmasdan bilaman desa, aybdir. Ko'p kishilar (ellar) adibning so'zini bilib-bilmay aytib yurganlarini uchrataman. Yana xato ma'no berib, el orasida aybga qo'yadir. Ko'p kishilar sababli bu kitobni yozdim, (istasang) ijobiy ravishda qabul qil, istasang tashla.

Har kim adibning so'ziga tushunib amal qilsa, u el orasida o'zini hurmatga sazovor qiladi.

Sakkiz yuz sakson to'rtinchi (bir ming to'rt yuz saksoninchi) yili zulqa'da oyining o'n yettisida, shanba kuni (asar ko'chirilib) tamom bo'ldi.

Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi qutli bo'lsin, davlat kelsa, mehnat (mashaqqatga) ketsin deb Istambulda ko'chirib yozdi.

Bu kitob shuning uchun ham azizdirki, har bir so'zni to'latib yozdim, keraksiz yuzaki so'zlarni tashladim.

Qimmatli so'z oz, hazil so'z ko'p bo'ladi, bir parcha atlas qimmat, bir juft bo'z arzon bo'lgani kabi.

Ey, mendan keyin keluvchi (avlodlar) bu kitobni o'qisang, mening haqimga duo qilishni unutma.

Bu nodir, tansiq kitobni haqimga duo qilsin deb, senga hadya qildim.

Dunyoda nomi qolsin deb, Sipohsolorbek uchun bu kitobni yozdim.

Kitobni o'qigan, ko'rgan, eshitgan kishi shohimni duo bilan yod qilsin, deb yozdim.

Kelgusi avlodlar uchun uning nomi mangu esdalik bo'lsin, deb yozdim.

O'qimishli, savodli (kishilar) undan foydalansin, deb qo'llanma uchun kitob bezadim (yozdim).

Bu asar didaktik ham badiiy bo'lib, unda inson kamoloti alohida o'rin tutadi. Ahmad Yugnakiy inson kamolotining asosi deb ilm o'rganishga e'tibor berdi.

### **Ilm manfaati haqida**

Bilim haqida so'zlayman, so'zimga quloq sol, ilmli kishiga o'zingni yaqin tut.

Bilim bilan saodat yo'li ochiladi, shunga ko'ra, ilmli bo'l, baxt yo'lini izla.

Bilimli kishi (qimmat) baholik dinordir, ilmsiz johil qimmatsiz yemishdir (mevadir).

Bilimli kishi bilan bilimsiz odam qachon teng bo'ladi, bilimli xotin kishi — er kishidir, bilimsiz erkak — zaifadir.

Ilmsiz iliksiz so'ngak kabi bo'shdir, iliksiz so'ngakka esa qo'l urilmaydi. Ilmli kishilarning (nomi mashhur bo'ldi), bilimsiz (kishilar) esa tiriklayin o'ldi hisob va unga ko'rgulikdir.

Bilimli kishi o'lsa ham uning nomi o'chmaydi, ilmsiz kishining o'zi hayot bo'lsa ham, oti o'likdir.

Bilimlikning biri bilimsizning mingiga teng, ilmli kishilar ilmning qadriga yetadi.

Endi o'zing sinab, o'qib, boqib ko'r, bilimdan foydaliroq qanday narsa bor.

Bilim bilan olim ko'tarildi, ilmsizlik esa kishini tubanlashtiradi.

Bilimli bo'l, hech qachon erinma, haq rasuli (payg'ambar) kim ilmli bo'lsa, uni siz maqtang, deb aytdi.

## **Ilm o'rganish haqida**

Bilimli kishi ilmni farqlaydi. Ey do'st, ilm qadrini bilimli odam biladi. Bilimning qadrini kishiga ilm bildiradi, bilimli nodon, tuban kishi nima qiladi.

Ilmsizga to'g'ri so'z ma'nosizdir, unga o'git-nasihat foydasizdir.

Bilimli kishi o'z ishini bilib qiladi, bilib qilgan ishiga keyin o'kinmaydi.

Qanday ish bo'lmasin bilimsiz nazdida o'ng ko'rinadi, unga tashvish, qayg'udan boshqa chora yo'q.

Bilimli kishi kerakli so'zni so'zlaydi, keraksiz so'zni ko'rib yashiradi.

Bilimsiz kishi nima gapirsa, nodonligi sababli so'zlaydi, shuning uchun uning tili o'z boshini yeydi.

Molsiz faqir kishiga uning ilmi tuganmas boylikdir, hisobsiz uning bilimi yechilmas (ochilmas hisobdir).

## **Axloqning karomati, xasislikni tashlash haqida**

Kishilarning hamma fe'lini tugal tuzatgan, kim karamli bo'lsa, uni er kishi deb hisoblasin.

Karamsiz, shafqatsiz kishi mevasiz daraxt kabidir.

Mevasiz yog'ochni kesib yondirgin...

... Yomonlik qilgan kishiga sen yaxshilik qil, bu karam — shafqatning boshlanishidir, buni yaxshi angla.

Agar biror kishidan yaxshilik ko'rsang, u kishini ko'p maqta, duo qil.

Gunohkor kishining gunohini kechir, adovat ildizini qazib tashla, kes va qo'porib tashla...

Odobli bo'lishga yondashib (o'zingni) kamtar tut, tartibli kishilarga ozod jon qul bo'lsin.

Ey, do'st, ulug'larni izzat qil, foydasiz har narsaga aralashish va tortishuvdan (yomon odatlardan) saqlan...

Mehnat, mashaqqat o'ti so'nar, so'ng sabrli kishiga savobga erishish navbati yetadi.

Ulug'ligingga yarasha yaxshiroq bo'lib, uluqqa — kichikka so'zingni silliq, muloyim qil.



## **Tilni tiyish odobi haqida**

Tilingni tiy, tishing sinmasin, agar (soʻzlab yuborsang) tiling chiqib qolsa, tishingni sindiradi.

Oʻylab soʻzlagan kishining soʻzi toʻgʻridir, oʻrinsiz koʻp vaysagan til shafqatsiz yovdir.

Soʻzing achchiq, tilingni tiyib tur, erk berilgan til bir kun boshingga yetadi.

Tili boʻsh, zahar kishining aqli yetuk boʻladimi? Til va soʻz boʻshi koʻp kishilarning boshini yeydi.

... Yaxshi kishining qoʻlidan yomonlik kelmaydi, yomon kishi esa yaxshilik qaytarish uchun javob topa olmaydi.

Ey, yomonlik qilib yaxshilikdan umidvor boʻluvchi, tikan izlagan (qidirgan) kishi hech vaqt uzum uzmaydi (kesmaydi).

Ahmad Yugnakiy yoshlarni jinoyat yoʻlidan saqlash uchun yuksak insoniylik yetishmasligini shunday bayon etgan edi:

Bu dunyoning shu kunlarida kishilik naqadar aziz, qani u haqiqiy insoniylik! Qayerda yoʻq boʻlib ketdi. Qani ahdga rioya, qani omonat, qani yaxshilik, toʻgʻrilik (adolat) kelguncha xayru ehson ketadi.

Ahmad Yugnakiy yomon jinoiy yoʻllar bilan topilgan molu dunyoning haromligini quyidagicha tasvirlagan edi: Moling haromdan yigʻilgan boʻlsa, avvaldan oxirigacha azobdir.

Ahmad Yugnakiy «Hibatul haqoyiq» asari orqali insonlarni insof, imonga, yuksak insoniy sifatlarning shakllanishiga chorlaydi.

Asarda ilm olish, uning mohiyati, insonni aqliy, axloqiy taraqqiyoti uchun zaruriy nasihatlar orqali taʼlim-tarbiyaning qoida-qonunlarini bayon etgan edi.

Ahmad Yugnakiy orzu qilgan barkamol inson adibning soʻzlarini tushunib, amal qilsa, u el orasida hurmatga sazovor boʻladi.

### *Mustaqil ish*

Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asarini oʻrganing.

## ZAMAXSHARIY TARBIYA HAQIDA

Abulqosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy — zabardast o‘zbek olimi, arabshunos, shoir va yozuvchi. U 1074-yilda qadimgi Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi Umar ibn Ahmad o‘qimishli kishi bo‘lib, o‘g‘liga dastlabki ta‘limni o‘zi beradi. Uning qobiliyatini ko‘rib, uni Urganch madrasalaridan birida o‘qitadi. Mahmud Urganchda xattotlik ham qiladi, taniqli tilshunos Abumuzar Isfaxoniydan dars oladi. Mahmudning o‘tkir zehni va tirishqoqligini ko‘rgan ustozni uni o‘z ishining davomchisi qilib qoldirish uchun moddiy yordamini ayamay tarbiyalaydi. Zamaxshariy Urganchda tahsil ko‘rgach, ilmini oshirish uchun Buxoroga safar qiladi. U yerda olimlar Shayxulislom Abumansur Nasr Horisiiy, Abusa‘d Shaqqoniy va Abulxattob ibn Abulbatirdan saboq oladi. Keyin Xuroson va Isfahonga boradi, saljuqiylar saroyida xizmat qiladi. So‘ngra Bag‘dodda, Makkada, Shomda va Damashqda bo‘ladi. Makkada «Al-Kashshof» («Oshkor qiluvchi») nomli asarini yozib tugatadi va yurtiga qaytib, umrining so‘nggi yillarigacha turg‘un hayot kechiradi. U 1144-yilda vafot etgan.

Zamaxshariy arab tilshunosligining rivojiga katta hissa qo‘shgan. «Asosul balog‘a» («Chechanlik poydevori») deb atalgan lug‘ati bilan arab lug‘atchiligini bir necha pog‘ona yuqori ko‘targan. Undagi so‘zlarning birinchi harfi va undan keyingi harflari nazarda tutilgan holda alifbo tartibida berilgan va bu usul sal o‘zgargan shaklda hozirgi zamon leksikografiyasida ham qo‘llanilmoqda. Zamaxshariyning «Alfoik fi g‘arib ul-hadis» («Hadisdagi notanish so‘zlarni o‘zlashtiruvchi») nomli asari ham lug‘atdir. Unda hadis va adabiy asarlarda uchraydigan ma‘nosini anglash qiyin so‘zlar izohlangan. So‘zlarning ma‘nosini ochuvchi she‘riy yoki nasriy misollar keltirilgan.

Zamaxshariyning «Al-jibol val-amkina val-miyoh» yoki «Kitobu asmo il-adviya val-jibol» («Tog‘, manzil va suvlar» yoki «Dori-darmon va tog‘lar ismlari kitobi») deb atalgan ajoyib toponimik asari ham bor. Unda geografik atamalar alifbo tartibida berilgan. Zamaxshariy yaratgan «Muqaddimat ul-adab» («Adabiyot muqaddimasi») nomli asar arab tili uchungina emas, boshqa tillar uchun ham muhimdir. Mazkur

asar yozilgan davridan boshlab hozirgacha sharqshunoslar diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Zamaxshariy arab maqollarini yig'ib o'rganish borasida ham ko'p mehnat qilib, «Almustaqso fi amsolil arab» («Arab maqollarini nihoyasiga yetkazuvchi») nomli asarini yozgan. Unda uch yarim mingga yaqin arab maqoli alifbo tartibida berilgan.

Zamaxshariy sinchkov olim ekanidan tashqari, mohir yozuvchi va shoir ham bo'lgan. Uning arab tili, adabiyoti va uslubi sohasidagi bilimlari badiiy asarlarida yaqqol aks etgan. Zamaxshariyning «Navobig'ul kalim» («Hikmatli so'zlar»), «Maqomat ul-Zamaxshariy» («Zamaxshariy maqomlari»), «Atvok-uz zahab fil mavo'iz val xutab» («O'git va nasihatlarining oltin munchoqlari»), «Rabial abror» («Saxiy yoz») kabi asarlari uning turli janrlarda ijod etgan nozikta'b adib bo'lganligini ko'rsatadi.

Zamaxshariyning «Atvok-uz zahab fil movo'iz val-xutab» nomli falsafiy-didaktik asari tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Unda yuzta maqola mavjud bo'lib, ular va'z-nasihat, hikmatli so'zlar, masal va maqolalardan, olimning ko'p yillik sayohati natijasida va umr bo'yi eshitgan, ko'rgan va boshidan kechirgan voqealarning tafsilotidan iborat.

Mutafakkir o'z davridagi zolim podsholarning adolatsizligini noinsof amaldorlar, firibgar savdogarlar va boshqa tekinxorlarning boylik yig'ishga intilishini, ochko'zligini qoralagan, ularni eng tuban shaxslar deb hisoblagan. Pastkash, ikkiyuzlama, ig'vogar, nomard kishilardan uzoqroq yurishni maslahat bergan, «Ahmoq hikmat lazzatini topmaydi, tumov kishi gul hidini sezmaydi», deydi. Shuningdek, do'stlik muammolariga ham to'xtalib, kishilarni do'st tanlashda zinhor yanglishmaslikka chaqirgan. «Sen xavf-xatarda, nochorlikda qolishdan qo'rqituvchiga yondash, «qo'rqma, bu ishda ziyon yo'q», deguvchidan saqla», deb chinakam do'stlikning asosiy belgisi sadoqat va ishonch ekanligini ta'kidlagan.

### **Zamaxshariyning axloqiy qarashlari**

Zamaxshariy kishilarni halollik va rostgo'ylikka, to'g'rilikka, adolatli, insofli bo'lishga dav'at etib, «og'zingni

misvok (tish yuvgich cho'p) bilan pok qilding, koshki edi uni yolg'on, g'iybat, chaqimchilik, bo'hton bilan iflos qilmasang», — deydi. Shu bilan birga, insonning qadrini oshiruvchi ham, pasaytiruvchi ham til ekanligini qayd etib, «tilingni tiymasang, jilovingni shaytonga berib qo'lasan. Qilichning yarqirog'ini zang yeydi. Yolg'on so'z esa tig'ning zangidan ham yomonroqdir. Yolg'on gapirib g'alaba qozonganingdan ko'ra, rost gapirib yomonlikka uchraganing ma'qul. Rostgo'y odamga uning rostgo'yligi kifoya, yolg'onchiga esa uning yolg'onchiligi yetarlidir», deydi. Shuningdek, olim so'zlash madaniyati, odobi va nafosati inson uchun xushmuomalalikning vositasi ekanligini qayd qilib, «birovni koyimoqchi bo'lsang, xat bilan koyi, yuzma-yuz turib koyish ko'ngilni sindirur va so'z o'lchovsiz ketar», deydi. Zamaxshariy o'zidan kattalarni hurmat-lash, bolani tarbiyalash va unda ota-onaning vazifalari haqida ham qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Uning fikricha, ota-ona bolani xushxulq, odobli, mehnatsevar, aql-idrokli qilib tarbiyalamoqchi ekan, avvalo, uni me'yoridan ortiq erkalamasligi, doimo nazoratda tutishi kerak. Hayvonni qashlasa, shodlanib egasini tepadi, odam bolasi erkalansa, ota-onasini azobga qo'yadi.

Mutafakkir Zamaxshariy baxtga erishish orzusida yurgan kishilarni o'z bilimlarini va qobiliyatlarini oshirishga, yomonlikka, zo'ravonlikka va boshqa illatlarga qarshi kurashishga chaqiradi. Ilm-fanga intiluvchi, muayyan sohaga o'z umrini baxsh etgan olimlar haqida to'xtalib: «Yerning ziynati olimlar bilan, ko'kning ziynati yulduzlar bilan» yoki «Savdogarning sharofati cho'ntagida, olimning shuhrati kitoblaridadir», deydi. Shu gaplari bilan bolalarni insoniylik ruhida tarbiyalab, avvalo kamtar odam, yetuk olim bo'lishga undaydi, ularga behuda hoyu havasga berilishning zararini uqtiradi.

### **Zamaxshariy hikmatlaridan**

Insonning kiyimiga qarama, bilimiga qara.

Agar tilingni tiymasang, jilovingni dushmaningga berib qo'lasan.

Urishqoq va janjalkash kishi xafalik bilan shodlik orasida yashaydi.

*Yaxshilik bilan inson kamoli,  
Ani qilurgacha yo'qdir majoli.  
Xatolar qilishda ovoralardir,  
Xato alar tushgan xarobalardir.  
Chaygovchi— ovchi iti.  
Quyosh nuri berkitilmaydi,  
Haqiqat sha'mi so'nmaydi.*

Zamaxshariyning insonparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, halollik, yaxshi xulq-odobli bo'lish, otionalarni, o'zidan kattalarni hurmat qilish xususidagi ilg'or ma'rifiy-axloqiy g'oyalari O'rta Osiyo va umuman Sharq ijtimoiy-axloqiy va pedagogik fikrlarining taraqqiyotidagi muhim yutuq bo'ldi. Hozirgi kunda ana shu ilg'or g'oyalar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Ular hamon yosh avlodni yuksak insoniy ruhda tarbiyalashda ma'rifatchilarga bevosita ko'maklashmoqda.

#### *Mustaqil ish*

Zamaxshariy hikmatlaridan yod oling.

---

## V BOB. TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIYAT VA TA'LIM-TARBIYA

### Amir Temurning hayoti va faoliyati

Buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur Markaziy Osiyoda mo'g'ullarning 150 yillik hukmronligini tugatib, buyuk davlat tuzgan va Movarounnahrda fan va madaniyat ravnaqining asosini yaratgan shaxsdir. U o'z davrining eng qudratli davlat arbobi hisoblangan turk podshosi Boyazid Yildirimni tor-mor qilib, Bolqon yarim orolidagi xalqlar va mamlakatlarga ozodlik bag'ishlagan. Oltin O'rda xoni To'xtamishni yengib, Rossiyaning mo'g'ullar hukmronligi asoratidan qutulishini ta'minlagan. O'z davrida Movarounnahrda hunarmandchilik, qurilish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirgan.

Amir Temurning ko'p qirrali faoliyati, murakkab shaxs ekanligi o'sha davrda yozilgan qator asarlarda ifodalangan.

Hofizi Abro'ning «Zubdatut tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Fasih Ahmad Havofiyning «Mujmali Fasihiy», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla ussa'dayn va majmaul bahrayn», Ibn Arabshohning «Ajoyib al-maqdur» nomli asarlari o'sha davrning qimmatli yozma manbalaridan hisoblanib, ularda Amir Temurning hayoti va ko'p qirrali faoliyati ma'lum darajada hikoya qilinadi.

Amir Temur 1336-yilda Shahrisabzga yaqin Xo'ja ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi Amir Tarag'ay Kesh (hozirgi Shahrisabz) hokimi bo'lgan.

Yosh Temurning dastlabki savodi oilada chiqarilgan va 7 yoshidan madrasada o'qiy boshlagan. Bu haqda u o'zining «Tarjimai holi»da shunday yozgan: «Yetti yoshga to'lganimda meni madrasaga olib borishdi va qo'shimcha so'zlar jadvalini berishdi. Men o'qiy boshladim va erishgan muvaffaqiyatlarimdan behad xursand bo'ldim». Akademik B.Ahmedovning ta'kidlashicha, Temur madrasaga kelganda harf taniydigan

bo'lgan. Shuning uchun ham jadvaldagi so'zlarni o'qiy bilgan. Movarounnahr va Xuroson madrasalaridagi odat bo'yicha bolani o'qishga o'rgatishda qog'oz yo teriga yozilgan eng oson so'zlar jadvalidan foydalanilgan. Temur ham bolaligida shunday jadvalni o'qigan. Amir Temur bolalik va o'smirlik yillari haqida shunday xotirlaydi: «Men 9 yoshga to'lganimda madrasadagi barcha talabalardan ustun bo'lib oldim. Har qanday yig'ilishlarda ham men ulamolarning yonidan joy olishga harakat qilardim. Lekin har doim ularning oldida tiz cho'kib o'tirardim. Kattalarga shu tarzda hurmat bildirishni men o'zimga qoida qilib olgandim.

12 yoshimdan bolalar bilan o'ynashni o'rgandim va vaqtimni o'z tengqurlarim hamda o'spirinlar bilan o'tkazardim».

Temurning tarjimai holida uning fe'l-atvori, axloqi va ijobiy xususiyatlarining shakllanishidan dalolat beruvchi ma'lumotlar ko'p. U 16 yoshida otasining vasiyati bo'yicha askarlarga boshchilik qilgan. Shunday qilish Barlos urug'ining an'anasi hisoblangan. U yoshligidan harbiy mashqlarga nihoyatda qiziqqan.

Amir Temur qisqa muddat ichida Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'idagi yerlarni, Farg'ona va Shosh mulklarini birlashtirdi. U 1405-yil 18 fevral kuni vafot etgan.

Temurzodalar — o'g'illari: Mironshoh, Umarshayx va Shohrux Mirzo, nabiralari: Pirmuhammad, Xalil Sulton, Muhammad Sulton, Mirzo Ulug'bek va boshqalar temuriylar saltanatini idora qilishda davom etdilar.

Temuriylar davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot bir maromda davom qildi va muayyan ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Chunonchi, Samarqand Sharqda muhim savdo, madaniyat, ilm-fan markazi sifatida ko'pdan beri ma'lum edi. Xitoy, Hindiston, Eron va Sharq-Yevropa bilan savdo munosabatlari uning iqtisodiy va madaniy hayotida katta rol o'ynadi. Mamlakatda ishlab chiqarish kuchlari yetarli darajada rivojlangan.

Samarqand hunarmandchiligida to'qimachilik, metallga ishlov berish, binokorlik, kulolchilik yetakchi o'rin olgan bo'lib, shahar aholisining ko'pchiligi shu tarmoqlar bilan shug'ullanib kelgan.

XV—XVI asr yozma manbalarida Samarqandda turli shakldagi shisha idishlar: ko'zachalar, qadahlar, dori solinadigan idishlar,

pardoz ashyolari va ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish rivojlangani qayd etilgan. Misol uchun, M.Ye.Masonning aniqlashicha, Go'ri Amir maqbarasida va Ulug'bekning shahar ichkarisidagi saroyida ham maxsus tayyorlangan rangli oynalardan foydalanilgan. Yog'och o'ymakorligi ham rivojlangan.

Mashhur tarixchi A.Yu. Yakubovskiyning yozishicha, Amir Temur Samarqandda hunarmandchilikni kuchaytirish maqsadida Oltin O'rda, Xuroson, Ozarbayjon, Armaniston, Fors, Messopotamiya va boshqa joylardan hunarmand ustalarni ko'chirib keltirgan. Shuningdek, o'z davlatini barpo etgach, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy ishlarini rivojlantirishga katta ahamiyat bergan.

Amir Temur dunyoga tanilgan hadisshunos olimlar, madaniyat arboblari Samarqandga taklif etib, mamlakatda ilm-fanni rivojlantirishga o'zi bosh-qosh bo'lgan.

Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» kitobida Amir Temur Shahrisabzda Oq saroy, Samarqandda Bog'ishamol qasri, Jome masjidini hamda bir qancha madrasalar qurdirgani haqida ma'lumot bergan.

### **Temur saltanatining ta'lim-tarbiya tizimi**

Temur zamonasida o'g'il bolalar uchun boshlang'ich ma'lumot beradigan diniy maktablar bo'lib, ular asosan masjidlarda va xususiy uylarda o'qimishli kishilar, domla-imomlar tomonidan ochilgan edi. Mazkur maktablarda masjid imomlari yoki muazzinlar dars o'tardilar. Aholisi ko'p shaharlarda maktablarni maxsus maktabdorlar ochgan. Ko'chmanchi va chorvador aholi orasida maktablar odatda bahor va yoz oylarida ochilar, ularda asosan masjid imomlari yoki madrasa toliblari o'zlarining iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida o'qituvchilik qilardi. Shahar maktablaridagi o'quvchilar 20–30 nafar, qishloq maktablarida esa 10–15 nafar, ayrim hollarda undan ko'proq bo'lgan. Maktab o'quvchilarining yoshlari har xil bo'lgan.

Maktablarda arab alifbosida savod chiqarilgan, «Haftiyak» kitobi o'qitilgan. «Haftiyak» Qur'onning 7 dan 1 qismi hajmidagi materiallari tanlab olinib, fors-tojik tillarida tuzilgan. «Haftiyak»da ko'proq diniy marosimlarda o'qiladigan suralar berilgan. Uni o'rganishga 2–3 yil vaqt ketgan. «Haftiyak»dan so'ng «Chor kitob» o'qitilgan.



O'sha davrdagi ta'lim mazmuni haqida quyidagilarni aytish mumkin: Maktab muayyan o'quv dasturiga ega bo'lmagan. O'quvchilar yakka tartibda o'qitilgan. «Sinfdan-sinfga ko'chirish» o'quvchilarning ota-onalari o'qituvchilariga berib turadigan «sovg'a»lariga bog'liq bo'lgan. Maktabga qabul qilishning aniq vaqti ham bo'lmagan. Maktabda o'quvchilarni kichik va yuqori guruhlariga ajratib o'qitilgan. Kichik guruh o'quvchilari Qur'on oyatlarini o'qish bilan cheklangan, katta guruh o'quvchilari esa ular o'zlashtirayotgan bilimlardan tashqari islom dinining asoslarini tashviqot qilish bilan shug'ullanganlar. Shu bilan birga, fors shoirlari Xo'ja Hofiz va Sa'diy Sheroziyning g'azallarini yodlagan.

Maktab ta'limining sermazmunligi yoki sayozligi o'qituvchi-domlanning bilimi saviyasiga va o'qitish mahoratiga bog'liq bo'lgan.

Temur va temuriylar davrida Movarounnahrda ibtidoiy diniy maktablardan tashqari, shahzodalar, xonzodalar, bekdodalar va yirik amaldorlarning bolalari uchun saroy va xonadonlarda alohida **savod maktablari** ham tashkil etilgan. Bunday maktablarda podsho xonadoni uchun maxsus qissaxonlar ishlagan. Asta-sekin yirik davlat arboblari, ruhoniylar amaldorlar bolalari uchun xonadonlarida maxsus maktablar ochgan edilar.

Shahzodalar, xonzodalar va bekdodalar 4–5 yoshlaridan boshlab o'qish va yozishni podsho qissaxonlaridan o'rganib olganlar. Shu bilan birga, bolalarning zehni o'stirish maqsadida ularga o'zlari eshitgan va ko'rgan narsalar, dunyoning ajoyib va g'aroyib voqealari haqida hikoyalar qilib berilgan.

Shahzodalar savod chiqarganlaridan keyin ularga «Go'zallikni naql etuvchi» qalamdan foydalanish o'rniga «Naqshli xanjar va yaltillab turgan qilichni ishlatish, nayzabozlik va kamon otish san'ati o'rgatilgan, chunki «chaqqonlik bilan bel bog'lab, olam ochuvchi shamshir ishga tushirilmasa, bilish mumkinki, mamlakat qalam bilan muhofaza etilmaydi? Xonzoda, bekdodalar otda chopish va chavgon o'ynashni ham o'rganishgan. Shundan keyin «**Suluk ul-muluk**»larda aytilishicha, bo'lajak hukmdor davlatni idora qilish san'atini: turli lavozim egalarini tayinlash, soliq to'plash, ruhoniylar, mansabdorlar hamda boshqa yurtlardan kelgan elchilarni qabul qilish, xayru sadaqalar berish tartib-qoidalari bo'yicha ko'nikmalarni ham egallagan.

Shahzodalar va malikalar Temurning boy kutubxonasida mutolaa qilishgan. U kutubxonada barcha fanlarga: ilohiyot, hadis, tarix, geografiya, falsafa, fiqh, tibbiyot, falakiyot, riyoziyot va hokazolarga oid kitoblar bo'lgan. Jumladan, u yerda Xorazmiy, Beruniy, Sa'diy va Nasriddin Tusiyning kitoblari saqlangan.

Amir Temur davrida madrasalar oliy o'quv yurti vazifasini o'tagan. Ular diniy va keyinchalik dunyoviy bilimlar o'chog'i, tafakkur gulshani, kadrlar tayyorlash maskani bo'lgan. Madrasalarda mamlakatning eng atoqli donishmand shayxlari, olimu ulamolari mudarrislik qilishgan, ma'ruzalar o'qishgan.

Temuriylar davridagi madrasalar Sharq me'morchiligi rejasiga binoan eng ko'rkam qilib qurilgan. XV asrda madrasalar to'g'ri burchakli reja asosida qurilib, tevarak-atrofi devor bilan o'ralgan. Xonalari tashqaridan ko'rinmaydigan bo'lgan.

Temurning o'zi Bibixonim madrasasini qurishda tashabbuskor bo'lgan. Samarqanddagi Muhammad Sulton madrasasining qurilishiga ham alohida e'tibor bergan. Ba'zi masalalar bo'yicha murojaat etgan kishilarni yuqoridagi madrasalarda qabul qilib, ularning arzlarini eshitgan hamda diniy masalalarni o'sha joyda hal qilgan.

Ulug'bek Buxoro madrasasini qurdirgan va uning peshtoqiga «Bilimga intilish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir», deb yozdirgan.

1417–1420-yillarda Samarqandning Registon maydonida yangi madrasa qad ko'targan. V.V. Bartoldning fikricha, Ulug'bekning o'zi ham bu madrasada ma'ruza o'qigan. 1433 yilda G'ijduvonda yana bir madrasa qurdirgan. Madrasalarning eng kattasi Samarqand madrasasi bo'lgan. Bir tarixchi bu madrasa haqida quyidagilarni yozgan: «Madrasaning tog' shukuhli hay'ati ustuxonband mustahkamligidin falak binosidin tinchlikni olg'on, yuksak jihati bo'lmish azamat-nishonpeshtoqi og'irligidin yeru zaminga zilzila solg'on, aning oliy darajalik kungiralarini qudrat ustasi falak bir xilda yosog'on, lojuvard koshinlarini qazo naqqosh falakning charog'on yulduzlari birlan bir tartibda naqsh qilib, alarga daxldor qilg'on, quyosh kabi jilvasi, zarnigor naqshlari go'zal falak gumbazi birla hamvazn erdi»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ahmedov B. Ulug'bek. T., "Yosh gvardiya", 1989, 101-bet.

Madrasa ikki qavatli bo'lib, ellikta hujradan iborat bo'lib, har bir hujra 3 xona — qaznoq, yotoqxona va darsxonadan tashkil topgan. Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda, Ulug'bekning Samarqanddagi madrasasida 100 dan ortiq talaba istiqomat qilgan va ta'lim olgan. Unda taniqli olim mavlono Shamsuddin Muhammad Havofiy yetakchi mudarris bo'lgan.

Madrasa mudarrisligini tayinlash esda qolarli tarixiy voqea bo'lgan. Bu haqda adib Zayniddin Vosifyning «Badoye'ul-vaqoye» kitobida quyidagilarni yozgan: «Madrasa qurilishi itmomiga yetgach, aning sahnida katta yig'in bo'ldi. Yig'inga Ulug'bek Mirzo ham tashrif buyurdilar. Yig'ilg'onlar andin «Madrasaning birinchi mudarrisi kim bo'lg'ay», deb so'rag'onlarida Ulug'bek Mirzo: «Barcha ilmlarning saromadi bo'lg'on kishi ushbu madrasaga mudarris etib tayinlang'ay», deb javob qildilar. Ushbu yig'inda hozir bo'lg'on va g'isht uyumi ustida juldur kiyimda ulturg'on bir shaxs o'rnidan dast turib, Mirzoga ta'zim qildi va: «Ushbu martabaga men munosibdurmen», dedi. Ulug'bek Mirzo oni imtihon qildi, ilmu kamolotiga ishonch hosil qilg'och, ani hammomga olib borib, yuvib-tarab kiyintirishni buyurdilar. Madrasa ochilg'on kuni mavlono Shamsuddin Muhammad Havofiy mudarris o'rnida birinchi darsni o'qitdilar. Darsda olimlardan to'qson nafari hozir bo'lg'on erdilar, lekin ma'ruza juda yuqori milliy saviyada o'qilgani uchun darsning ma'nosiga Ulug'bek Mirzo birlan Qozizoda Rumiyan boshqa hech kim tushunmadi».

Boysunqur Mirzo Hirotda katta madaniy ishlarni amalga oshirgan. U Hirotda bir nechta madrasa va juda katta kutubxona tashkil qilib, qirqqa yaqin xattot, muqovachi, varro, qog'oz tayyorlovchi, naqqosh, lavvoh, lavha chizuvchi va boshqa hunar egalarini shu yerga to'plagan. Ular xushnavis xattot Mavlono Ja'far Tabriziy boshchiligida qo'lyozmalarni yig'ib ko'chirish, bezash va tarqatish bilan shug'ullanganlar. Boysunqur Mirzo «Shohnoma»ning 41 ta nusxasi asosida tanqidiy matnini tuzdirgan. U shoir sifatida ham mashhur bo'lib, madrasada ta'lim ishlarini ham tashkil etgan. Uning o'qitish sohasidagi va ma'rifiy ishlari haqida M.M.Dyakonov: «Navoiy, Jomiy va Behzod yashab ijod etgan davr XV asrning ikkinchi yarmi edi. Bunda Hirotning madaniy yuksalishi va gullab yashnashiga sabab bo'lgan shahzoda Shohrux edi» deb yozgan.

Hirotda maktab va madrasa ishlari 38 yil hukm surgan Sulton Husayn Mirzo Boyqaro podsholigi davrida yanada rivojlangan.

Hirotdagi Nizomiya, Ixlosiya, Xalosiya, Shifoia, Xusraviya madrasalari o'sha davrdagi ilm maskanlari orasida mashhur bo'lgan.

Hirotda shahrida XII asrda 359 ta maktab bo'lgan va XV asrda yanada ko'paygani ma'lum. Maktab va madrasalarga shoir Alisher Navoiy rahnamolik qilgan. Bulardan tashqari, shoh saroyida shahzoda va malikalar uchun alohida maktablar ham ochilgan. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro bilan birga shunday maktabda o'qigan.

Mashhur alloma Zayniddin Mahmud Vosifiy talabalik yillarida saroy maktabida mudarrislik qilgan. U Chig'atoy amirlaridan biri Shohvali Xadicha begimning emishgan ukasi oilasida 7 yil mudarris bo'lgan.

Amir Temur tuzuklari faqat davlat boshqarish uchun bo'lmay, balki har bir katta va kichik jamoani boshqaruvchi rahbarlar uchun ham zarurdir.

Tuzuklarda rahbarga xos fazilatlar quyidagicha ifodalanadi:

1) Ishbilarmon odam, adolatli rahbar, yaxshi oilaboshi bo'lishi bilan birga, mard va shijoatli fazilatlariga ega bo'lishi;

2) Har bir tadbirda uzoqni o'ylab ish ko'rishi, sezgir bo'lishi; Har bir ishda maslahat olmoq zarurligi. Shuningdek, u maslahatni ikkiga bo'lgan edi — birinchisi til uchida aytilgan, ikkinchisi yurakdan chiqqani. Ana shu yurakdan chiqqan maslahatga doimo quloq solish kerak, deganlar. Amir Temur o'z avlodlariga hamda farzandlariga yuqoridagi sifatlardan kelib chiqib, saltanatni boshqarish haqida dasturulamal yozib qoldirdi.

Amir Temurning bu dasturida davlatni boshqarish tuzuklari alohida o'rin egallaydi:

1. Dilimning mashriqidan ko'tarilgan birinchi tuzuk shundan iborat bo'ldiki, islom dinini yoygan Muhammad, unga tangrini marhamatlari va salomlari bo'lsin, shariatni quvvatladim. Jahonning turli mamlakatlaridagi yaxshi odamlar orasida yoydim. Demak, musulmonchilikdagi ilg'or g'oyalarni rivojlantirib, unga amal qildim.

2. Amr qilamanki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lsinlar:

- a) asllik, toza nasllik;
- b) aql-farosat;

v) sipohu raiyat avlodidan xabardor vaulargaxushmuomalada bo'lish;

g) sabr, chidamlilik, tinchliksevarlik. Bunday fazilatli vazirlarga ishonch, imtiyoz, e'tibor va iqtidor berdim. Amir Temur tuzuklarining birida amirlik mansabini shunday shaxslarga berilsin degan edi: asli toza, pok nasllik, aql-farosatlik, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyotkor kabi fazilat egalari.

Amir Temur muomala madaniyatiga alohida e'tibor bergan edi.

Turon mamlakatini fath etgan kunim va poytaxt Samarqandda saltanat taxtiga o'tirganimdan so'ng, do'stu dushman bilan muomalada bir tekis yo'l tutdim. Menga yomonlik qilgan, menga qarshi qilich yalang'ochlagan ba'zi amirlar qo'rquvda edilar. Ularga shunday yaxshiliklar qildimki, mening inoyatim va xayr-ehsonimni ko'rib o'zlari sharmanda bo'ldilar. Kimni ranjitgan bo'lsam, ehsonu in'omlar bilan ko'nglidagi xafagarchilikni chiqardim va martabalar, imtiyozlar berdim.

Amir Temur o'z tuzuklarida har bir sarkarda, davlat va jamoa rahbarlarini adolat va yuksak insoniy fazilat egasi bo'lishlarini talab qildi va o'zi bunga namuna ko'rsata oldi. U kelajak avlodga qilgan nasihatlarida bu g'oyalari dasturulamal bo'lib xizmat qildi.

### **Amir Temurning axloq va odobga oid o'git-nasihatlari**

Amir Temur o'git-nasihatlarida axloqqa oid fikrlar juda ko'pdir. Ulardan: 1. Adolat va adolatsizlik haqida: «Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim. Qaysi mamlakatni zabt etgan yoki qo'shib olgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborini, kishilarini aziz tutdim, sayyidlari, ulamolari, fuqaro va mashoyixiga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga vazifalar berib, maoshlarini belgiladim. O'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa o'z farzandlarimdek ko'rdim».

2. So'z va ishning birligi. Amir Temur «Belda kamar va tilda sano», ya'ni ish va so'z birligini xush ko'rar edi. U o'zi yozgan, aytgan va shaxsiy hayotida qattiq amal qilgan: «agar lashkarboshi yomon ko'ngil va aqlsiz bo'lsa, qo'shinning

yengilmasdan iloji yo‘q», degan pand-nasihati juda ahamiyatlidir. Bu haqda Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sida, X.Vamberining «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» kitobida anchagina ma‘lumotlar bor.

Amir Temur do‘stga sodiq edi. U imom Baraka vafot etganda yig‘lab ko‘z yoshi to‘kkan. Sohibqiron Amir Temur o‘zining «Tuzuklari»da do‘stlik haqida quyidagilarni yozgandi: Do‘stlik — sinovda chiniqadi. «Do‘st-dushman bilan murosayu madora qildim. Shiddatli kishilarni do‘st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi. Farzandlar, qarindoshlar, oshna-og‘ayni, qo‘shnilar va men bilan bir vaqtlar do‘stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne‘mat martabasiga erishganimda unutmadim, haqlarini ado etdim. Do‘st-dushmandan kimki menga iltijo qilib kelgudek bo‘lsa, do‘stlarga shunday muomala qildimki, do‘stligi yanada ortdi, dushmanlarga shunday munosabatda bo‘ldimki, ularning dushmanligi do‘stlikka aylandi».

Amir Temurning o‘zi To‘xtamishxon uning panohiga sig‘inib kelganida unga yaxshilik va muruvvat ko‘rsatgan.

U o‘z do‘stidan ranjimaydigan, do‘stining dushmanini o‘z dushmanim, deb biladigan do‘stni sodiq va vafoli do‘st deb bilgan.

Aqlli dushman johilu nodon do‘stdan yaxshiroqdir.

«Botirlik odam qal’asi», deb yozgan edi Amir Temur. Bu pand-nasihatga Sohibqiron doimo amal qilardi. Shuningdek, u barcha amirlarni, sipohilarni botir, jasur bo‘lishga undar edi. U jangu jadallarda botirlikni shior qilib, «Botirlik jangda bilinur», deb takrorlar edi.

Amir Temur «hech kinga g‘azab bilan qattiq muomala qilma», deb yozadi o‘z «Tuzuklari»da. U g‘azab va qattiqqo‘llik bilan qilingan muomalani Tangri taoloning g‘azabiga duchor bo‘lish, o‘z holini tang qilishdir, deb ta’kidlagan. Shuning uchun u shirinso‘z aytib, g‘animni imonga kiritgan.

1. «Bir kalima shirin so‘z qilichni qinga niqtar», deb ta’kidlardi Sohibqiron.

2. «Til qilichdan o‘tkir». Bu o‘git Sohibqironning o‘z tajribasida sinalgan. Amir Temurning pand-nasihatlari yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilgan edi.

Shunday qilib, XIV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrgacha bo‘lgan davr Movarounnahrda iqtisodiy, ijtimoiy,

madaniy yuksalish davri bo'ldi. Markazlashgan davlatning asoschisi Amir Temur o'z imperiyasini tuzib, uning iqtisodiy va madaniy qudratini yuksaklikka ko'tardi. Uni Yevropa va Sharqda eng qudratli davlatga aylantirishga erishdi.

### *Mustaqil ish*

«Amir Temur o'g'itlari»ni o'qib o'rganing.

### **HUSAYN VOIZ KOSHIFIY**

*(1440—1505)*

Husayn Voiz Koshifiy XV asrning 40-yillarida Sabzavor viloyatining Bayhaq tumanida tug'ilgan. Bolalik va dastlabki tahsil yillarini o'z vatanida o'tkazgan bo'lajak adib Nishopur va Mashhad madrasalarida tahsil olgan. O'ta bilimdon, notiq, va'z aytuvchi bo'lgani uchun u Husayn Voiz Koshifiy nomi bilan shuhrat qozongan. U 1468-yilda Hirotga kelib, ko'p yillar davomida Jomiy va Navoiyning marhamatidan bahramand bo'lgan. Hirot madaniy, ilmiy, adabiy hayotining eng faol vakili darajasiga yetgan Koshifiy 1505-yilda Hirotida vafot etgan.

Husayn Voiz Koshifiy notiqlik, adabiyotshunoslik, fiqh, ilmi nujum, tarix, insho bitish, hisob ilmi, o'ymakorligu ganchkorlik va axloqqa doir 30 dan ziyod risolalar yozgan. «Iskandar oynasi», «Anvori Suhayliy», «Javohirnoma», «Risola dar ilmi e'dod», «Sonlar haqida risola», «Axloqi Muhsiniy», «Risola-ti hotamiya», «Futuvvatnomai sultoniyy», «Ravzat ush-shuhado» («Shohidlik bog'i») nomli badiiy asarlar yaratgan va ular Xuroson hamda Movarounnahrda maktab, madrasa ta'limini yaxshilashda, didaktikaning nazariy va amaliy masalalarini hal qilishda dastur sifatida xizmat qilgan.

Husayn Boyqaroning o'g'li Abdulmuhsin Mirzoga bag'ishlab 1495-yili yozilgan «Axloqi Muhsiniy» asari 253 sahifa, 40 bobdan iborat. Asarning asosiy mavzusi ta'lim-tarbiya va axloqdir. Unda adib ibodat, ixlos, shukr, rizo, hayo, odob, himmat, adl, sabot, shafqat, marhamat, ta'lim-tavoze, vafo, g'ayrat, shijoat, siyosat, haq va huquq singari inson kamoloti uchun muhim fazilatlarini ta'riflagan, ularga

rioya qilish me'yorini bayon qilgan, so'zlashish odobi, mehmondorchilik, salomlashish, safarga chiqish qoidalarini, axloq mezonlarini ifodalagan.

Koshifiyning ijodiyotida odob va axloqiy tarbiyaning nazariy asoslari yaratilgan.

U komil inson tarbiyasidagi odobni quyidagicha ta'riflagan edi:

Odob — bu qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarni ham hurmat qila bilish, shu bilan birga o'zining va o'zgalarning obro'sini tushirmaslikdir. Voiz Koshifiy odob tushunchasini keng ma'noda tushunadi, yomon so'z atamaslik, xulqni tarbiyalay olish, o'zini boshqarish va o'zgalarni hurmat qilish — axloqiylik, deb hisoblagan edi.

Husayn Voiz Koshifiy axloqiy tarbiyani quyidagicha yo'nalishlarga bo'lgan edi:

1. Olijanoblik, oqko'ngillik, rostgo'y, sofdil, sobitqadamlik.

2. Insonparvarlik-xalqchillik va insonlarning o'zaro bir-birini kechira bilish.

3. Muomala, ya'ni so'zlashish odobi.

4. Dilozorlik, pastkashlik, tuhmatchilik, yolg'onchilik.

Husayn Voiz Koshifiy yuqoridagi axloqiy tarbiya yo'nalishlarining markaziga insonparvarlik xususiyatini qo'yadi.

Insonparvarlikning asosiy qirralari ilm-ma'rifatni egallash, hunarli bo'lishdir. Hunar insonning saxovati va xazina egasi ekanligini ta'kidlash bilan birga bolani yoshlikdan boshlab mustaqil fikr yuritishga o'rgatish lozim, deb hisoblagan edi.

Voiz Koshifiy bolalarni tarbiyalashda quyidagi usullarni olg'a surgan edi: **nasihat, tanbeh berish, amru farmon, majburiyat qo'yish.**

Yozuvchi ota-ona va muallimlarning e'tiborini bolalarni tarbiyalashda bu usullardan foydalanishga qaratgan edi.

Voiz Koshifiy har bir ota-ona oldiga mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Har bir ota-onaning burchi farzandlarini to'g'ri tarbiyalab, ulardagi yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomon xislatlarni yo'qotishdir. Voiz Koshifiyning fikricha muallimlar bilimdon, dono, shirinsuxan, adolatli bo'lishi lozim.

Voiz Koshifiy muallim va murabbiyning pedagogik mahorati haqida shunday yozgan edi: murabbiy bolaga nasihat



va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi kerak. Ko'pchilik oldida bolaga pand berilmaydi, unga muloyimlik bilan pand-nasihatchilik qilish lozim.

Tarbiyachilik san'atida ustozni nihoyatda ulug'lab shunday yozadi:

*Faromush qilmagaysan haqi ustod,  
Ki oningdindurur ilmingga bunyod.  
Agar ustodingga mehring yo'q o'ldi,  
Degilkim ilmim mani mavq o'ldi.  
Kishikim qildi ustodiga xizmat,  
Zamone o'tmadi tobtu ul izzat.*

Voiz Koshifiy ota-ona va yaxshi ustozdan olgan pand-nasihatchilik quloq solmay behuda yo'llarda yurgan farzand o'zini-o'zi rasvo qiladi, nihoyat halokat va falokat daryosiga g'arq bo'ladi, degan edi.

Voiz Koshifiyning merosi bo'lajak avlodni, axloqiy fazilatlarining shakllanishiga dastur sifatida xizmat qilmoqda. Uning axloqiy tarbiyadagi g'oyalari komil inson tarbiyalash yo'riqnomasini yaratish, ijodkor insonlar hamisha adolatli va insonparvar, xalqchil bo'lishlari, tarbiyada ota-ona va ustoz-murabbiylarning burch-vazifalarini asoslab berishidir. Bu asarning axloqiy-talimiy mohiyatini tushungan shoirlar va Abdulla Avloniy singari ma'rifatchilar Koshifiyning merosidan ijodiy foydalangan.

## MIRZO ULUG'BEK

(1394—1449)

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek yunon, arab, nemis, italyan olimlari qatorida jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan. U Gass, N.Kopernik, T.Brage va boshqa mutafakkirlar kabi atoqlidir. U o'z davridayoq mashhuri jahon bo'lgan. Shunga ko'ra, Alisher Navoiy: «Temurxon naslidan Sulton Ulug'bek, Ki olam ko'rmadi sulton aningdek», deb yozgan edi.

Ulug'bek faqat shoh sifatida emas, balki ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga bebaho asarlari bilan qo'shgan hissasi tufayli ham tarixda abadiy nom qoldirdi.

Muhammad Taragʻay Ulugʻbek 1394-yilda dunyoga kelgan. Uning bolalik va yoshlik yillari bobosi Amir Temurning Toʻxtamishga, Hindiston uchun, Boyazidga qarshi va boshqa qator harbiy yurish paytlariga toʻgʻri kelgan. Uning otasi Shohrux Mirzo oʻqimishli, andishali va vazmin kishi boʻlgan.

Ulugʻbek Temur davrida asos solingan saroy maktabida Temur qissaxonining jiyani Hamza ibn Ali rahbarligida boshlangʻich maʼlumot olgan. U Ulugʻbekdan 12 yosh katta, savodi chiqqan va koʻp narsalarni oʻqib olgan yigit edi. Oʻrta asrlardan qolgan kitoblarda baʼzi tadbirlar bayon qilingan. Shulardan biri shahzodalar va xonzodalar bilishi zarur boʻlgan «Suluk ul-muluk» — «Podshohlarga qoʻllanma» kitobidir. Bu kitobda yozilishicha, podshohlar, xonlar va yirik feodallarning saroyida yosh shahzoda va bekdodalarni tarbiyalash, ularni muhofaza qilish va ahvolini kuzatib borish yuqori ostonaliq va davlat nishonliq amirlarga topshirilgan. Ulardan biri otaliq deb atalgan. Otaliqlar — «toʻla hukmdorlik bilan shahzodalarning xizmatida gʻayrat koʻrsatib, hamisha xayrixohlik va xizmatkorlik kamarini bellariga bogʻlab, ularni tarbiyalash ahdini qoʻldan bermaganlar». Ulugʻbekka otaliq qilib turklarning bilqut qabilasidan chiqqan yirik amir Shohmalik tayinlangan.

Ulugʻbek maktabda «Suluk ul-muluk»da bitilgan davlatni boshqarish — turli lavozimlarga mos kishilarni tayinlash, soliqlar yigʻish, ruhoniylar, mansabdorlar va elchilarni qabul qilish, xayru sadaqalar berish tartib-qoidalarini oʻrgangan.

Ulugʻbek yoshligidan boshlab kitob mutolaa qilishga kirishgan, ayniqsa, matematika va falakiyotga juda qiziqqan. Koʻp vaqtini bobosining xos munajjimi mavlono Badriddin bilan oʻtkazgan, kechalari qor tinib osmon yorishgan paytlarda yulduzlarning oʻrni va harakatini kuzatgan.

Mavlono Badriddin Ulugʻbekka hisob va taqvimdan dars bergan. Samarqandda boʻlgan vaqtida Ulugʻbekni Koʻksaroydagi xos kutubxonasiga boshlab borib, unga Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»sini, alloma Fargʻoniyning «Kitobul tavomeʼ ilm al-nujum va usul al-harakat as-samoviya», «Yulduzlar haqidagi ilm bilan osmon yoritgichlari harakatining asosini qoʻshuvchi kitob» nomli asarini koʻrsatgan. Shu tariqa Ulugʻbek bolalik yillaridayoq Xorazmiy, Buzjandiy va Nasriddin Tusiyning kitoblari bilan tanishgan. Umar Xayyom va Beruniyning kitoblarini, Oqsulot va Oʻtrorda «Ziji Malikshohiy»ni oʻqigan.

Amir Temur nabirasi Ulug'bekning zehni o'tkirligi, farosatligi uchun juda sevardi. «Ko'zimning nuri, saltanatimning umidli niholi», deb erkalatardi. Lekin Ulug'bek Mirzo nozik bo'lib o'sgan, buning ustiga ko'p vaqtini kitob mutolaa qilish bilan o'tkazgan, davlat ishlariga rag'bati yo'qroq bo'lgan. Ammo Ulug'bek yoshligidayoq bobosi o'tkazgan kengashlarda, ov va boshqa ko'ngilochar ishlarda ishtirok qilgan. Nihoyat 1409-yil kuzida Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlangan. U hukmronlik qilgan davrda, bir tomondan, fan va madaniyat yuksalgan, ikkinchi tomondan, Temuriylar imperiyasining inqirozi boshlangan edi. Shohrux qanchalik harakat qilmasin, ichki va tashqi ziddiyatlarni bartaraf eta olmadi, feodallar va shahzodalarning ayirmachilik harakatlari mazkur inqirozni tezlashtirdi. Shu bilan birga, Movarounnahrning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida ancha ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Temurning fikricha, Samarqand o'zining kattaligi va go'zalligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustun bo'lishi kerak edi. Bu orzu Ulug'bek davrida amalga oshirildi. U Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda madrasalar qurishni buyurdi.

Samarqand — falakiyot maktabiga aylandi va musulmon Sharqi falakiyot ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Madrasalarda diniy ilmlar bilan birga dunyoviy ilmlar ham o'qitilardi.

Mirzo Ulug'bek Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid bilan kelishib, Samarqandning Obirahmat soyi sohilida rasadxona qurdirdi. Unda olimlar Tarozi, Suxo, Nasri Toyir, Surayyo yulduzlari va boshqa sayyoralarning harakatini o'rganishga kirishganlar. Ilm-fan maskaniga aylangan rasadxonaning boy kutubxonasi bo'lib, unda 150 mingta kitob saqlangan.

«Akademiya» nomi miloddan avvalgi IV asrdan buyon ma'lum. Mashhur faylasuf Platon asos solgan falsafa maktabi shu nom bilan atalgan. Xorun ar-Rashid (786—809) va Ma'mun (813—833) davrida Bag'dodda tashkil qilinib, «Baytul hikma» nomi bilan shuhrat qozongan ilmiy muassasa ham o'sha davrdagi akademiya edi.

X asrning birinchi yarmida Mutsul shahrida ta'sis etilgan «Dorul ilm», 1010-yilda Xorazmning qadimiy poytaxti Urganchda tashkil topgan «Donishmandlar uyi» ham o'ziga

xos akademiyalar bo'lgan. Xuddi shunday muassasa XV asrda Samarqandda ham tashkil qilindi. Bu haqda tarixchi olim Valter «Ulug'bek Samarqandda birinchi akademiyaga asos soldi, yer kurrasini o'lchashni buyurdi va falakiyotshunoslik jadvallarini tuzishda ishtirok etdi», deb yozgan edi.

1437-yilda Ulug'bek bir umr orzu qilgani «Ziji jadidi Ko'ragoniy» — «Ko'ragoniyning yangi falakiyot jadvali» asarini yozib tugatdi. Kitob Samarqand rasadxonasidagi ko'pchilik olimlar mehnatining samarasi bo'lib, Sharq falakiyotining nazariy va amaliy masalalarini mujassamlashtirgan asardir. Uni yaratishda Ulug'bek bosh-qosh bo'lgan. Asar asosan 2 bo'limdan — keng muqaddima hamda 1018 ta yulduzning o'rni va holati aniqlangan jadvallardan iborat. Uning birinchi bo'limida falakiyotning muhim poydevorlaridan — sana yoki yil hisobi, ya'ni yunonlar, arablar, eronliklar hamda uyg'urlar qabul qilgan yil hisoblash usullari, ularning milliy bayramlari, shuningdek, bu sanalarning kelib chiqish manbalari; osmon burjlarining og'ishi, harakati, chiqish o'rni, yulduzlarning ko'rinish va botish joylari; yulduz va sayyoralarning quyosh atrofidagi harakati, astrologiya, ya'ni yulduzlarning holati va harakatiga qarab taqdirni belgilash masalalari, falakiyot va trigonometriyaning amaliy masalalari zo'r bilimdonlik va mahorat bilan bayon qilingan.

Turli manbalarda Ulug'bek aniq fanlar bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, tilshunoslik, musiqa va tarix fanlarini puxta bilgan alloma sifatida ta'riflanadi. Haqiqatan uning rahbarligida yaratilgan «Tarixi arba ulus» («To'rt ulus tarixi») kitobi Ulug'bek tarix haqida puxta bilimga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Kitobda dashti qipchoq Oltin O'rdasida xonlik qilgan Jo'ji — Chingizxonning katta o'g'lidan boshlab, Oltin O'rdaning 29 xoni haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Kitobning yana bir muhim ahamiyati shundaki, unda «o'zbek» tushunchasining ma'nosi to'g'risidagi material bor. O'zbek terminini ba'zi olimlar Oltin O'rdaning xonidan boshlangan, deb tushuntirsalar, ba'zilari Oq O'rdadagi Oltin O'rdaning sharqiy qismi turk-mo'g'ul qabilasidan boshlangan, deyдилar.

Ulug'bekning fikricha, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq XIV asrdan ancha avval qipchoq dashtlarida yashaganlar, lekin ular o'zlarini «o'zbek» deb atamaganlar. O'zbekxon o'zbek

ulusining shohi bo'lgan. Islom dini kirib kelgach, 1320 yildan boshlab islom dinini qabul qilganlarni «o'zbeklar», qabul qilmaganlarni «qalmiqlar» deb ataganlar. Turkiston chegaralarida ko'chib yurgan ko'chmanchilar o'zbeklar deb atalgan.

Umuman, «Tarixi arba ulus» kitobi Chingiz xonligining Ulug' yurt, Oltin O'rda, Xulagu va Chig'atoy uluslarining tarixi yoritilgan qimmatli asardir. Unda va Ulug'bekning yana boshqa qator asarlarida bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiyaning mazmuni, o'qituvchining vazifalari ifodalangan.

### **Ulug'bek ta'lim-tarbiya haqida**

Ulug'bek bolalarni barkamol inson bo'lib yetishishi uchun ularni o'qitish va tarbiyalash zarurligini, turli bilimlarni o'rganishga qiziqtirish kerakligini qayd qilgan. Bolalarning o'qishdan sovishiga sabab avvalo, o'qituvchilardagi razolat ekanligini, bunday o'qituvchilar yaroqsiz usullar bilan yoshlarning bilim olishga qiziqishini so'ndirishi mumkinligini ta'kidlagan, Uning fikricha, tarbiyachi avvalo, o'zini tarbiyalashi, ya'ni bilim va mahoratini muttasil oshirib borishi lozim. U: «Bilimlarni egallash juda ham qiyin va mashaqqatlidir... bunga erishish uchun hayotni o'rganish, hormay-tolmay shug'ullanish, o'z aqlini takomillashtirish lozim», degan edi. U ayniqsa, darsliklar sifatiga katta e'tibor bergan, madrasalar uchun mo'ljallangan darsliklar mazmundorligi bilan ajralib turishi, ularda qanday voqea yoki hodisa yoritilsa-da, hayot haqiqatidan zarracha ham chekinmasligi lozimligini uqtirgan.

Ulug'bek muallimlar turli vaziyatlarda o'zini munosib tuta bilishi, o'z obro'sini saqlashi, darsni qiziqarli o'tishi, madrasada tartib-intizom o'rnatishi kerakligini batafsil ta'riflagan.

Qozizoda Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi ustozlarining raisi etib tayinlangan edi. Odatda, mudarrisning to'rt xonasida darslarni to'rt mudarris olib borardi. Haftada bir marta hamma shogirdlarga Qozizoda umumiy bir ma'ruza o'qirdi va unda Ulug'bek ham ishtirok etardi. Kunlardan bir kun Ulug'bek bir sababga ko'ra ustozlardan birini ishdan chetlatadi. Qozizoda bunga norozilik bildirib, darslarga chiqmay qo'yadi. Ulug'bek Qozizoda betob bo'lib qolgandir, deb uning xonadoniga qadam ranjida qildi. Uni salomat ko'rgandan so'ng nima sababdan darslarga chiqmaganini so'radi. Shunda u Mirzo Ulug'bekka shunday javob berdi:

«Biz mudarrislikni hech bir kimsaga munosabati yo'q mansab deb o'ylardik, u jazo joriy bo'ladigan mansab deb o'ylamas edik. Holbuki, endi bu mansab ham sultonning tasarrufi qabzasida ekanligini ko'rdik. Binobarin, endi biz o'zimizni mudarrislik ishidan forig' ayladik». Shundan so'ng mudarrisni darhol ishga qaytardi va ustozidan uzr so'radi.

Ulug'bekning o'zi boshqalarga o'rnak bo'lishga loyiq olijanob, muallim uchun zarur barcha sifatlariga — qomusiy bilim, fikrini mahorat bilan anglata olish, tashkilotchilik qobiliyatiga, rahbarlik iqtidoriga ega bo'lgan. «Shogirdlarda mudarrisning qiyofasini ham ko'rish mumkin», deb yozgan. Ulug'bek shogirdlarda mudarrislariga hurmat tuyg'ularini uyg'otishga harakat qilgan va bunga erishgan. U ustozni Qozizoda Rumiy vafot etganida, «o'zimga savod o'rgatgan va to'g'ri yo'l ko'rsatgan kishilarni hech qachon unutmayman», deb uni temuriylar xilxonasi — xonaqoga dafn ettirgan ekan. Uningcha, har qanday mudarris o'ziga xos tajribaga ega bo'lishi, fikrlarini ixcham, voqea-hodisalarni mantiqan qiziqarli ifodalay olishi lozim. U mantiqsizlikni, yuzaki bayon qilish usulini zararli deb hisoblagan. Shu bilan birga, muallimlar o'rganiladigan masalalarga tegishli misollardan, ko'rsatmalardan ko'p foydalanish zarurligini qayta-qayta ta'kidlagan.

Ulug'bek bolalarni tarbiyalashda uy sharoiti muhim o'rin tutishini, ular savodxon va ma'lumotli kishilar bilan birga bo'lsa, savodli va ma'lumotli bo'lishga qiziqishini, savodli ota-onalargina o'z farzandlariga to'g'ri tarbiya bera olishini, chidamlilik va mehnatsevarlik sifatleri tarbiya uchun zarurligini bayon va isbot qilgan. Buning dalili sifatida «Zij...» ustida ishlash paytidagi qiyinchiliklar haqida shunday yozgan: «Yulduzlar jadvalini tuzish maqsadida biz kechayu kunduz ishladik, uni o'z maqsadimizga yetguncha o'zimizga qadar yaratilgan jadvallar bilan taqqosladik, qayta tuzdik va shu tariqa yuz qaytalab tuzatishlar kiritgach, o'n sakkiz yildan so'nggina ko'zlagan niyatimizga yetdik».

Ulug'bek o'quv qo'llanmalarining o'quvchilarda matematika, falakiyot va tibbiyot fanlari bo'yicha qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini yuqori baholagan. Uning axloqiy-tarbiyaviy masalalarga doir ilmiy ishlari ham bag'oyat diqqatga sazovordir. U har bir kishining axloqiy kamol topishida uning boshqalar bilan o'zaro munosabatlari, hamkorligi va do'stligi

yetakchi rol o'ynaydi, deb hisoblagan. Hayotda haqiqiy do'stlikning ahamiyati beqiyosligini, soxta do'stlardan qochish kerakligini alohida ta'kidlagan. Uning do'sti va shogirdi Ali Qushchi umrining oxirigacha ustoziga sodiq qoldi. Ulug'bek o'zining ko'p yillik mehnati samarasi bo'lmish «Ko'ragoniyning yangi falakiyot jadvali» asarini xuddi ana shu Ali Qushchiga ishonib topshirgan va u o'z navbatida ustozining ishonchini oqlagan.

Ulug'bek yoshlarning mehnat tarbiyasiga jiddiy e'tibor bilan qaragan. Shogirdlari madrasani tartibga keltirish, shaharni ko'kalamzorlashtirish kabi ishlarni bajarganlar. Ali Qushchi bergan ma'lumotlarga qaraganda, Ulug'bek mehnatda toblangan, chaqqon kishilarni hurmatlagan. U odam sog'lom va kuchli bo'lib o'sishi uchun bolaligidan jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi kerakligini uqtirgan. Xususan, otda chopishni, kurash tushishni, qurol ishlatishni bilgan odam har qanday vaziyatda ham o'zini va boshqalarni himoya qila olishiga ishongan.

Ulug'bekning matematika va falakiyotga oid ta'limotlari Afg'oniston, Eron, Ozarbayjon, Turkiya, Misr, Jayhun kabi Sharq hamda Angliya, Farangiston, Polsha kabi G'arb mamlakatlarida keng tarqalgan va ularda matematika, falakiyot fanlarining rivojiga salmoqli ta'sir etgan. Yosh avlod ta'limi va tarbiyasiga doir fikr-mulohazalari, axloqiy-didaktik qarashlari esa hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Olim A. Ahmedov «Ulug'bek» asarida quyidagilarni tadqiq etgan: Shuni aytish kerakki, musulmon mamlakatlarida va umuman, islom madaniyatida aniq fanlar, ayniqsa, astronomiya va matematika nihoyat muhim o'rin tutadi. Chunki musulmon kishi qayerda bo'lishidan qat'i nazar, erta tongdan oqshomga qadar uning uchun besh vaqt namoz farzdir. Namoz yuzni qiblagga — Makkadagi Ka'ba yo'nalishiga qarab o'qiladi. Namozning vaqtlari esa har bir geografik kenglikda ham Quyoshning yerdan balandligiga qarab belgilanadi. Undan tashqari islomda qabul qilingan hijriy yil hisobi 354 kunni tashkil qiluvchi 12 qamariy oydan iborat bo'lib, yangi oy — hilolni masjid minorasidan yoki rasadxona tepasidan ko'z bilan ko'rib aniqlangan. Shuning uchun musulmon kishining hayoti astronomiya, matematika, jug'rofiya, hunarmandchilik va me'morchilikka aloqador bo'lgan quyidagi masalalarni hal qilish bilan uzviy bog'liq bo'lgan:

1. Mahalliy joyning jug'rofiy koordinatlarini aniqlash;
2. Mahalliy meridian bilan qibla yo'nalishini ko'rsatuvchi katta doira kesishish burchagini aniqlash;
3. Jug'rofiyaga oid koordinatlarni hisoblash uchun aniq matematik (trigonometrik) hisoblash qoidalari va usullarini bilish;
4. Jug'rofiy koordinatlarni bilgan holda Quyosh balandligini aniqlash qoidalarini bilish;
5. Turli vaqtni aniqlovchi o'lchash asboblari yasash;
6. Turli shaharlar orasidagi aniq masofalarni aniqlash uchun geodezik o'lchashlarni bajarish;
7. Yerning ma'muriy qismi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun xaritalar tuzish;
8. Xaritalar tuzish uchun matematikaga taalluqli proyeksiyalash usullarini bilish;
9. Astronomiya, jug'rofiya va geodeziyaga taalluqli hisoblarni bajarish uchun yuksak aniqlikdagi matematik hisoblash usullarini bilish;

10. Masjid, madrasa, maqbara va rasadxonalar barpo etish uchun me'morchilik san'ati va an'analaridan xabardor bo'lish.

Bu hisoblab ko'rsatilgan va ro'yxatga kirmagan boshqa ko'plab masalalar shunchalik chambarchas bog'lanib ketganki, ularni hal qilish uchun olim va hunarmandlar to'plamlari va guruhlari kerak edi. Ana shuning uchun ham Ulug'bek o'z atrofiga olimlarni to'plagan edi.

Keltirilgan masalalar ro'yxatidan ko'rinib turibdiki, ularning ko'pi astronomiyaga aloqador. Islomdagi eng avvalgi astronomik asarlar «Zij» (forscha zik — «jadval» so'zidan) deb atalib, ular jadval tarzida tuzilgan. Ulug'bekdan avval tuzilgan eng mukammal zijlar Beruniyning «Qonuni Mas'udiy»si va Nasiriddin Tusiyning 1256-yili yozib tugatilgan va Xulaguxonga taqdim etilgan «Ziji Elxoniy» asari edi.

XV asr boshlarida yozilib Shohruhga atalgan Jamshid Koshiyning «Ziji Xoqoniy» asari xitoy va mo'g'ul an'alariga asoslangan bo'lib, islom mamlakatlari uchun deyarli ahamiyatga ega emas edi. Movarounnahrda esa mo'g'ul istilosidan keyin birorta zij yozilmagan edi. Ana shu sabablarga ko'ra, Ulug'bek eng avvalo, astronomik izlanishlarni yo'lga qo'yishga intiladi. Buning uchun rasadxona barpo etish kerak edi. Rasadxona qurilishi 1420-yildan 1429-yilgacha davom etadi.



Ulug'bek rasadxonani loyihalash va qurishda ham o'zi bevosita ishtirok etadi.

Ulug'bekning qalamiga mansub ilmiy asarlar son jihatidan ko'p emas, ular to'rtta. Ularning eng asosiysi «Zij'i bo'lib, bu asar «Ziji Ulug'bek», «Ziji jadidi Kuragoniy» nomlari bilan ham ma'lum. «Zij»dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asar «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», astronomik asar «Risolai Ulug'bek» (yagona qo'lyozmasi Hindistonda Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir «Tarixi arba' ulus» asari ma'lum.

Ulug'bek «Zij'i o'zining tarkibiga ko'ra, VIII—IX asrlarda boshlangan astronomik an'anani davom ettirsa ham ilmiy mohiyati ulardan balanddir. Bu asar kirish qismi — muqaddima va to'rt maqoladan iborat. Kirish qismining boshida Qur'ondan yulduzlar va sayyoralariga taalluqli oyatlar keltiriladi. Ulug'bek bu bilan astronomik kuzatishlarning zarurligini nazariy jihatdan asoslamoqchi bo'ladi.

«Zij»ning birinchi kitobi 7 bobdan iborat bo'lib, u eralar va kalendarlar masalasiga bag'ishlangan. Bu boblarda islomda qo'llaniladigan asosiy era — hijriy era, suryoniy — yunoniy era, «jaloliy» erasi, xitoy va uyg'ur erasi, forsiy-qadimiy era va bu eralarda keltirilgan sanalarni biridan-biriga moslashtirib ko'chirish hamda bu eralardagi mashhur kunlar haqida bahs yuritiladi.

Ikkinchi kitob 22 bobdan iborat. U, asosan matematika va sferik astronomiya masalalariga bag'ishlangan. Ikkinchi va uchinchi kitoblarda o'rta asrlar uchun eng aniq bo'lgan sinuslar va tangenslar jadvallari keltiriladi.

«Zij»ning uchinchi kitobi 13 bobdan iborat bo'lib, faqat astronomiya masalalariga bag'ishlangan. Bunda Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari haqida bahs yuritiladi. «Zij»ning hamma asosiy jadvallari ana shu bobga taalluqlidir.

Hozirgi kundagi ma'lumotlarga ko'ra, «Zij»ning 120 ga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxasi mavjud. Shuni ham aytish kerakki, o'rta asrdagi hech qanday astronomik yoki matematik asar bunchalik ko'p nusxada mavjud emas. Shunday qilib, Ulug'bek «Zij'i barcha musulmon mamlakatlarida tarqalib sharhlangan.

Ulug'bek «Zij»ining ta'siri ayniqsa, Hindistonda kuchli bo'ldi. Samarqand olimlarining ilmiy an'anasini Hindistonga

Boburning o'zi yetkazgan, degan ma'lumot bor. Boburning vorislari o'z atroflariga olimlarni to'playdilar va ularning izlanishlariga sharoit yaratadilar. Hind olimlari ko'p tarafdin Samarqand olimlariga taqlid qiladilar. Masalan, Shoh Jahoni Avval zamonida Lahor va Dehlida ishlagan Fariddin Mas'ud al-Dehlaviy «Ziji Shoh Jahoniy» nomli asar yozadi: undagi kitob va boblarning soni xuddi Ulug'bek «Zij»idagidek va jadvallarning ham ko'p qismi Ulug'bekdan olingan. Nufuzli hind olimi Savay Jay Singx (1686—1743) ham o'zining «Ziji Muhammadshohiy» nomli asarini Ulug'bek «Zij»i ta'siri ostida yozgan.

### *Mustaqil ish*

Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. T.: 1994, o'qish va tahtil qiling.

### ALISHER NAVOIY

(1441—1501)

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy 1441-yil 9 fevralda Hirot shahrida tug'ilgan. Adabiyot va badiiy ijodga muhabbat unda bolaligida uyg'ongan. Alisher she'r tinglashni va aytishni juda sevgan.

Alisher Hirotida va Mashhadda o'qigan, mantiq, falsafa, musiqa, husnixat va boshqa fanlarni, arab va fors tillarini o'rgangan. Alisher o'n besh yoshidayoq iste'dodli shoir sifatida xalq ommasida tanilgan. O'zbek-turkiy tildagi she'rlariga «Navoiy», fors-tojik tilidagi she'rlariga «Foniy» taxalluslarini qo'ygan. Uning o'zbek tilidagi hamma she'rlari «Bolalik ajoyibotlari», «Yoshlik nodirliklari», «O'rta yosh go'zalliklari», «Qarilikning foydalari» to'rt qismdan iborat «Xazoyin ul-maoniy» to'plamiga, fors tilidagi she'rlari esa «Devoni Foniy» to'plamiga jamlangan.

Navoiy o'zbek adabiyoti va adabiy tiliga asos solgan. Badiiy asar yaratish uchun o'zbek tili ham fors va arab tillari kabi imkoniyatga egaligini, ayrim o'rinlarda esa ulardan ham ustunligini isbotlagan.

Navoiy lirikasi falsafiy mushohadalarga boy, chuqur his-tuyg'u, tabiatning go'zal manzarasi, yorqin badiiy timsollar bilan to'la.

Navoiyning badiiy merosi juda boy va ko'p qirralidir. U she'riy devonlar va yirik dostonlar yaratish bilan birga O'rta Osiyoning XV asrdagi ma'naviy hayotini aks ettiradigan nasriy asarlar va ilmiy risolalar ham yozgan. Ular orasida Navoiyning ustozlari, buyuk tojik shoiri va mutafakkiri Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan «Xamsat ul-mutahayyirin», o'zigacha o'tgan va o'ziga zamondosh bo'lgan shoirlarning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlardan iborat «Majolis un-nafois», ona tilini sharaflovchi «Muhokamat ul-lug'atayn» asarlari alohida o'rin tutadi.

Navoiy umrining oxirlarida kishilik jamiyatining ravnaqi haqidagi «Lison ut-tayr» («Qush tili») dostonini, «Nasoyim ul-muhabbat» nomli ilmiy-falsafiy asarini yozdi. Umuman, Navoiy ijodidagi adolatpeshalik va insonparvarlik, inson qadr-qimmatini hurmatlash va odamlar baxti uchun, farovon hayoti uchun kurashish uning asarlarini umrboqiy qildi.

Navoiy o'lmas asarlarida tabiat va jamiyat qonunlariga o'zining munosabatini bildirgan. Uning dunyoqarashi shakllanishida faylasuflarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari alohida ta'sir ko'rsatgan.

Navoiy falsafasidagi insonparvarlik g'oyalari she'riy shaklda berilgan. Binobarin, bunday usul ko'p mutafakkirlar ijodida g'oyat ta'sirchan va an'anaviy tus olgan. Navoiy o'z zamonasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va falsafiy ruhni tajassumlantirgan.

Navoiy yaratuvchi Allohga hamdlar aytib, o'zining «Munojot» asarini yozgan. Munojot Allohdan najot tilash, unga iltijo qilishdir. Unda jumladan: «Ilohi, dunyo mayli rishtasini ko'nglimdan uz va nafsoniyat tiyralig'ida hidoya sha'mi bila o'zung sari yo'l ko'rguz», deb yozadi.

Navoiy amaliy faoliyatida ham, barcha asarlarida ham Qur'ondagi axloq qoidalariga rioya qilgan. Payg'ambarimizning eng muhim 40 ta hadislarini asosida Jomiy yaratgan «Arbain» asarini tarjima qilib, turklar ham tushunishiga imkon yaratdi. Unda insonning barkamolligi masalalari alohida o'rin tutadi.

*Kim musulmonlig' aylasa da'vo  
Chin ermas gar fido qilur jonlar,  
Ul musulmon dururki, solimdur  
Tiliyu ilgidin musulmonlar.*

Ya'ni qo'lidan va tilidan musulmonlarga ozor yetmaydigan kishigina haqiqiy musulmondir.

Sharq mutafakkirlari tomonidan inson kamolotiga bag'ishlangan va pand-nasihatlariga boy didaktik asarlar yaratilgan. «Mahobhorat», «Kalila va Dimna», «Qobusnoma», «Qutadg'u bilig», «Maxzan ul-asror», «Matla ul-anvor», «Axloqi Muhsiniy» ana shular jumlasidandir. Shu an'anaga ko'ra yaratilgan «Mahbub ul-qulub» asarida Navoiy o'z zamonasidagi barkamol insonga xos fazilatlarni aks ettirgan. U 39 xil ijtimoiy guruhga mansub kishilarning axloqu odobi haqida so'z yuritgan: butun umrini ilohiyot sirlarini bilishga bag'ishlagan muhaddislarni, kuch-g'ayratini osmon sir-asrorini kashf etishga bag'ishlagan munajjmlarni, ishq yo'lida jonini fido qilgan kishilarni, el-yurtda obro' qozongan shaxslar va hokazolarni tasvirlagan. Lekin biror guruhni boshqasidan ortiq deb hisoblamagan. Tarixchi olim Mirxond «Ravzat us-safo» nomli asarini yozishga kirishar ekan, Navoiy unga «asaringiz shohga ham, gadoga ham tushunarli bo'lsin», deya maslahat bergan.

Kitobning II qismi, ya'ni «Xamida af'ol va zamima xisol xosiyati»da qanoat, sabr, odob, ishq kabi insonning ruhiy holatiga bog'liq bo'lgan irodaviy sifatlarning mohiyatini ochgan:

— Qanoat chashmadurkim, suvi olmoq bila qurumas. Qanoat qilgan odamning ko'ngli ochiq, ko'zi ravshan bo'lib, obro'-e'tiborga sazovordir:

*Har kimki qanoat tarafi nisbati bor,  
Barcha el aro tavozuu izzati bor,  
Ulkim tama'u hirs birla ulfati bor,  
Yaxshi-yomon ichra zallatu naqobati bor.*

Qanoatga kuch bag'ishlovchi yuksak insoniy fazilat sabrdir. Sabr qilish insonni murodga yetaklaydi.

*Kimki bir jiddat aro sabru  
tahammul ayladi,  
Baxt aning nishini no'shu  
xorini gul ayladi.*

**Kitobning III qismi «Mutafarrika favoyid va amsol surati»** bir necha tanbehlar bayonida axloqiy sifatlar saodatmandlik, xudpisandlik, takabbur, ehson, muruvvat, vafo, chin soʻz, nodonlik va boshqa insonlar tabiatida uchraydigan sifatlar mohiyati asoslab beriladi. Vafo zaylida va hayo zikridagi 17 tanbehda shunday deyiladi: Karam va muruvvat ota va onadurlar, vafo va hayo ikki hamzod farzand. Har necha ul ikkovga nur Bila sarodur. Bu ikkovga ittisol bila payvand har koʻngulnikim, vafo maskan qilur, hayo ham qilur va har maskandakim, ul topilur bu ham topilur. Vafosizda hayo yoʻq, hayosizda vafo yoʻq. Har kimda bu ikki yoʻq — imon yoʻq va har kimda imon yoʻq — andin odamiylik kelmak imoni yoʻq!<sup>1</sup>

Navoiy inson sifatlarini biri-biri bilan naqadar tutashganini koʻrsatib, imoni bor insonda hamma yuksak fazilatlar boʻlmogʻi lozim, deb hisoblaydi.

Navoiy oʻz falsafasida idealni koʻrsatib berish bilan cheklanmagan, balki fikr-mulohazalarini yanada rivojlantirib, shaxsning xulq-atvori, axloqiy xususiyatlari taʼlim-tarbiya orqali shakllanishini ifodalagan. Insonning feʼl-atvori oʻzicha hosil boʻlmasligini, balki jamiyatdagi maʼlum kishilar jamoasida muayyan axloqiy qoidalar asosida shakllanishini bayon qilgan.

### **Navoiyning falsafiy dunyoqarashi**

Navoiyning dunyoqarashida chinakam insonparvarlik gʻoyalari asosiy oʻrin olgan. Navoiy maktabdorlik yoki mudarrislik qilmagan boʻlsa ham taʼlim va tarbiya borasida juda katta ishlarni amalga oshirgan. U juda koʻp fozil kishilarni tarbiyalab yetishtirgan. Mashhur tarixchi Xondamir Navoiyning yoshlarga bilim va tarbiya berish uchun imkoniyatlar yaratgani haqida jumladan, shunday yozgan: «Atoqli olimlar va hurmatga loyiq sanʼat ahlining darajalarini koʻtarishda va martabalarini oshirishda qoʻlidan kelgan qadar harakat qilib, bunday ishlarga katta ahamiyat berdi. Oʻquvchilar faqat oʻqish bilan mashgʻul boʻlishlari uchun ularga nafaqalar tayin etib, madrasalar bino qildi»<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> **Alisher Navoiy.** Mahbub ul-qulub. 10-jild. 52–53-betlar.

<sup>2</sup> **Xondamir.** Makorim ul-axloq. T.: OʻzFAN, 1941, 23-6et.

Navoiy fanning turli tarmoqlarini — adabiyot, tarix, til bilimlarini; san'atning har xil sohalarini — musiqa, rasm, xattotlik, me'morlik va hokazolarni rivojlantirishga harakat qilish bilan birga, ana shu sohalarining ijodkorlariga yordamlashgan, qimmatli maslahatlar bergan, ularni rag'batlantirgan.

Navoiy ilmiy va adabiy asarlarni yaratishda o'z davridagi olimlar, adiblar va shogirdlariga namuna bo'lgan. Uning deyarli barcha asarlari tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyatga ega. Shoirning besh dostonidan iborat shoh asari «Xamsa»da inson kamolotining barcha masalalari qamrab olingan. Undagi birinchi doston — «Hayrat ul-abror» haqiqat, ishonch, ezigulik, sevgi va do'stlikni ulug'lovchi falsafiy asardir. Unda o'sha davr uchun dolzarb axloqiy, tarbiyaviy, ijtimoiy-falsafiy fikrlar bayon qilingan. Adolat, muruvvat, saxiylik, odob, kamtarlik, qanoat, insof, ishq-vafo, rostgo'ylik, do'stlik, o'zaro yordam va boshqa ajoyib fazilatlar, oddiy mehnatkashning jamiyatdagi o'rni ifodalangan. Ana shu olijanob fazilatlar ta'rifida alohida-alohida hikoyalar berilgan.

«Farhod va Shirin» dostonida san'atkor bosh mavzu — sevgini tasvirlash bilan birga, yuksak insoniy fazilatlarni ibratomuz ifodalashga ham alohida e'tibor bergan. Bosh qahramon Farhod — barkamol inson, oqil, zakovatli, yengilmas botir, vafodor do'st, mehnatsevar, bilimdon va xalq hurmatiga sazovor bo'lgan kamtarin bir yigitdir. Navoiy Shopur qiyofasida do'stlikning ajoyib kuchini ko'rsatadi. To'rt yoshidan ko'p ilm va hunarlarni, bir necha tilni o'rgangan Farhod o'zining bilimi, hunarini yurt nafi, xalq foydasi uchun ishlatishga intiladi, quyosh tafti ostida ariq ochayotgan jafokash xalqqa yordam qo'lini cho'zadi. Mehinbonu va Shirin yuksak madaniyatli, axloqli, pok qalbli, iffatli, o'z vatanini sevadigan va zakovatli ayollar timsolidir. Umuman, dostondagi barcha ijobiy timsollar nomusli, sof vijdonli, haqiqiy insonlardir. Dostonda Navoiy yovuz kishilarning axloqiy chirkinligini, adolatsizligi va qabihligini ham tasvirlaydi, zulm va nohaqlikka, aldanchilik va firibgarlikka g'azab-nafrat bilan qaraydi.

«Layli va Majnun»da ham samimiy sevgi, aql-zakovat, sadoqat va matonat madh etilgan.

Qays-Majnun — shoir, faylasuf, o'zida ijobiy fazilatlarni mujassamlashtirgan inson. Layli esa vafodor, zakovatli, pok qalbli qiz. Dostonda bir-birini samimiy sevgan ikki yoshning

sarguzashtlari, g'am-g'ussalari tasvirlangan, o'sha davrdagi haqsizliklar aks ettirilgan.

«Xamsa»ga kiritilgan to'rtinchi doston «Sab'ai sayyor» Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan Bahrom Go'r afsonasi asosida yaratilgan. Unda insonning faoliyati va kurashi, aql va idrok kuchi, kishilarning bir-biriga sadoqati, vafodorligi, samimiy do'stligi, muruvvati va hokazolar kuylanadi. Turli mavzulardagi hikoyalarda ilm-hunar, aql va idrok jodugarlikka, qalloblikka va haqiqiy insoniy xislatlarni jamiyat ichidagi eng qabih illatlarga: firibgarlik, yolg'onchilik, tuhmatchilik, ig'vogarlikka qarshi qo'yiladi.

Navoiy yosh avlodning ilm-hunar o'rgangan va eng yaxshi fazilatlarga ega kishilar bo'lishini orzu qiladi va dostonning tarbiyaviy qimmati ham shundadir.

«Xamsa»dagi so'nggi doston — «Saddi Iskandariy»da Navoiyning ijtimoiy-falsafiy fikrlari, ta'lim-tarbiyaviy qarashlari ifodalangan. Iskandarning tarbiyasi, o'qituvchilari, olimlar haqidagi mushohadalar, faylasuflarning mashvarati, Iskandarning olimlarga savoli va ularning javoblari bayon qilingan.

### **Navoiyning didaktik qarashlari**

Navoiyning didaktikaga oid asarlaridan eng muhimi «Mahbub ul-qulub»dir. Kitob uch qismdan iborat. Birinchi qismda jamiyatning turli tabaqalari to'g'risida, ikkinchi qismda axloq va olijanob fazilatlar to'g'risida so'z yuritiladi. Uchinchi qismda esa tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan hikmatli so'zlar va maqollar berilgan. Asarda maktabdorlar, mudarrislar haqida ham yaxshi gaplar aytilgan. Uning «Dabiriston ahli zikrida», deb atalgan 18-faslida o'qituvchilarning fazilatlari va faoliyatlari ta'riflangan.

Navoiy xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish to'g'risida g'amxo'rlik qilgan. Uning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. Mamlakat, xalq uchun maktab g'oyat katta ahamiyatga molik:

*Bo'lur g'am ulug'larga mazhab yo'li.  
Chu yoshlarga boshlansa maktab yo'li.*

Demak, xalqni ma'rifatli qilishda maktabning roli kattadir. Shuning uchun Navoiy Sulton Husayn Boyqaro bilan suhbatlarida, unga yozgan xatlarida ma'rifat masalalariga oid tadbirlarni Eron va Turkistonda quyi maktablar, savod maktablarini «Dabiriston» deb atalib kelganini ko'ramiz.

«Dabiriston» iborasini Navoiyda juda oz uchratamiz. Uning boshqa asarlarida «maktab» iborasini qo'llaniladi. Maktab keyingi davrda, ya'ni VIII asrda islom dini O'rta Osiyoga kirib kelishi bilan uning quroliga aylanadi va maktabda beriladigan ta'lim-tarbiya islom diniga bo'ysundiriladi. Maktab islom dinini aholiga singdirish o'chog'i hisoblanadi. Maktablar, asosan, masjidlar yonida yoki masjid imomining hovlisida ochilar edi. Maktabda shu masjid qavmlarining bolalari o'qir edi.

Maktab davlat va din bilan mustahkam bog'langan edi. Diniy muassasalar maktablarni g'oyaviy jihatdan nazorat qilar edilar. Bu davrda Xuroson va Movarounnahrda qancha maktab bo'lganligi ma'lum emas. Ammo Hamidullo Qazvinining «Nazxat ul-qulub» kitobida ko'rsatilishicha, XII asrda Hirot shahrining o'zida 359 ta maktab bo'lgan. Shunga asosan, XV asrda Hirotidagi maktablar soni bundan kam bo'lmasa kerak, deb taxmin etish mumkin. Shuni ham aytib o'tish kerakki, xonlar, amirlar va boshqa feodallar o'z farzandlari va saroy atrofidagi amaldorlarning bolalari uchun maxsus maktab ochar yoki ular uchun xususiy muallim yollar edilar. Ular madrasa mullavachalari yoki mullalaridan birini yoz hovlilari yoki saroylariga taklif etar, bolalarini o'qitishni amalga oshirish zarurligini hamma vaqt uqtirar edi. Navoiy xatlaridan birida: «Har masjidning imomiga tayin qilsalarkim, ul mahalla ahlining o'g'il ushoga'iga maktab tutib nima o'qitsalar». Navoiyning bu gapidan ochiq ko'rinadiki, XV asrda O'rta Osiyo va Xurosondagi maktablar masjidlar yonida ochilgan va ularga o'sha masjid qavmlarining bolalari qatnagan; maktablarni nazorat qilib turuvchi davlat mahkamasi bo'lmagan, balki maktablar bevosita shohning har qaysi masjid imomiga farmon berishi yoki mahalla aholisining tashabbusi bilan ochilgan.

Navoiy asarlarida o'z davridagi maktablarning ta'lim-tarbiya ishlari yaqqol ifodalangan.

Bolalar maktabga qabul qilingach, o'qituvchi ularga savod o'rgatish maqsadida avvalo, arab alifbesi yozilgan taxtachani bergan. Bunday taxtachalar Navoiy davrigacha va undan keyin



ham, hatto, eski maktablar tugatilgunicha savod o'rgatish uchun yagona o'quv quroli bo'lib kelgan.

Navoiy «lavhi zabarjad», «lavhi muzahhab» yoki «abjad toshi», deb atagan taxtachaga har bir maktabdor tomonidan qamish qalamda yirik qilib arab harflarini tartib bilan yozdirilgan. Navoiy iborasi bilan aytganda, «lavh uzra saboq nigor» qilinardi. Harflarning to'g'ri talaffuz etilishini o'rgatish maqsadida taxtaning ikkinchi tomoniga, shu harflarda yasalgan so'zlar — abjad yozilgan.

Navoiyning yozishicha, o'sha davr maktablarida Qur'ondan tashqari, fors-tojik adabiyotining zabardast siymosi Shayx Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlari ham o'qitilgan.

O'sha davrdagi ibtidoiy ta'lim maktablarining ba'zilarida Qur'ondan boshqa kitoblar o'qitilsa-da, lekin ulardagi ta'limning mazmuni islom dini aqidalari bilan sug'orilgan edi. Bunday maktablar xalqning savodli va ilmi bo'lishida muhim rol o'ynagan.

Navoiy madrasa — arabcha o'quv yurti degan ma'noni bildirishini, bu oliy diniy maktab musulmon dunyosi tarixida dastavval Turkistonda budda monastirlari — «Vixaralar» ta'siri ostida paydo bo'lganligini, XI asrdan boshlab islom dinini qabul qilgan boshqa mamlakatlarga ham o'tganligini, biroq Turkiston va Erondagina o'zining dastlabki o'ziga xos belgilari bilan saqlanib qolgan va mustahkamlanganini bayon qilgan.

Ulug' shoir mamlakatni obodonlashtirishga, madrasalar qurishga alohida e'tibor berdi. U Hirot shahridagi «Injil» nahri bo'yiga nihoyatda chiroyli «Ixlosiya» madrasasini qurdirgan. Unga nom qo'yilishi haqida bunday deydi: «Bu madrasakim ulusi ixlosdin yasaldi, «Ixlosiya» ot qo'yildi». Navoiy chin ixlos bilan qurilgan bu madrasani o'sha zamonning eng namunali o'quv maskaniga aylantirish uchun mablag'ni ayamay, maxsus vaqf mulki belgilagan. O'z madrasasidagi o'quvchilarni moddiy jihatdan ta'minlab turishga harakat qilgan.

Madrasadagi o'quv ishlariga bosh mudarris rahbarlik qilgan, xo'jalik ishlarini esa mutavalli olib borgan.

O'sha davrda madrasalardagi o'qish muddati muayyan bo'lmagan, o'qish hatto 20-yilgacha ham cho'zilgan. Madrasaga o'qish va yozishni, din qoidalarini bilgan, diniy kitoblarni bemalol mutolaa qila oladigan kishilargina qabul qilingan.

Ilmga ishtiyoqmand yoshlar har qanday qiyinchiliklarga qaramay, madrasalarda ta'lim olishga harakat qilgan. Navoiy «Hayrat ul-abror» asarining II maqolatida bir ilm tolibining katta umidlar bilan o'z shahridan yo'lga chiqib, boshidan kechirgan kulfat va mashaqqatlarini tasvirlaydi. Navoiy o'sha odamning sarguzashtini o'zi «Samarqandga kelganidan so'ng dastlabki paytlardagi sarguzashti taassurotida yozgan bo'lsa kerak»<sup>1</sup>. Lekin mazkur sarguzasht o'sha davrdagi ilm toliblari uchun juda xosiyatlidir:

*Zulm durur ushbuki bir notavon,  
Ilm tilab shahridin o'lg'ay ravon.  
Egnida avroqu kitobi aning,  
Qilgali tahsil shitobi aning.*

Navoiy zamonida xalq ilm va hunar o'rganishni istar, lekin xalqning bu istagini amalga oshirish uchun xizmat qiladigan ta'limiy muassasalar oz edi. Mavjud maktab, madrasalar esa talabga to'la javob bera olmasdi.

Ilmga havas qo'ygan, hunar o'rganishni xohlagan yoshlar davlat tomonidan hech qanday madad berilmasligi va o'quv yurtlari o'z maqsadlarini amalga oshirishga imkon bermasligi sababli mamlakatdagi ma'rifatparvar kishilar yordamida o'z hollaricha ilm olishga, hunar o'rganishga kirishardilar yoki mustaqil holda bilim olardilar.

Navoiy davrida shogirdlik yo'li bilan ilm, hunar va san'at o'rganish ancha keng tarqalgan edi. Shogirdlar o'sha davrdagi fan va san'at mutaxassislaridan tabib, kimyogar, shoir, san'atkor, hunarmand, xattot, me'mor va shu kabilardan ilm yoki hunar o'rganardilar. Hunar-san'at ustalarining shogirdlari, ayniqsa, ko'p bo'lar edi.

Hunar-san'at o'rganish uchun kelgan yoshlarning kamol topishini ataylab kechiktiradigan ustozlar ularni o'z manfaatlari yo'lida ishlatar, yoshlar esa ko'p yillab «ustoz» eshigida xizmat qilib yurar edilar. Bundan tashqari, ruhoniylar shogirdlik yo'li bilan ta'lim olishni, bilimlarni bevosita o'rganishga bog'lab qo'yardilar. Dunyoviy bilimlarni o'qitishga

---

<sup>1</sup> **Abdullayev V.** Alisher Samarqandda. "Ulug' o'zbek shoiri". T.: 1948, 83-bet.

ikkinchi darajali ish deb qaralardi. Navoiy esa ta'lim va tarbiyani, ilm o'rganishni bevosita hayot bilan, dunyoviy yumushlar bilan bog'lab olib borishning tarafdori edi. Buni mutafakkir asarlaridagi ko'plab dalillar ham tasdiqlaydi. Shu bilan birga Navoiy turkiy, ya'ni ona tilini o'rgatishga ham alohida e'tibor berdi. Uning «Muhokamat ul-lug'atayn» va «Lison ut-tayr» asarlarida turkiy xalqlar tilining ma'naviy boyligi quyidagicha ta'riflanadi:

*Turk nazmida chu men tortib alam,  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.*

Bunda Navoiyning turkiy xalqlarning yangi va yuksak ma'naviy birligi haqidagi fikri ifodalangan. Navoiy ajdodlar tilini hurmatlashga chorlaydi. U ona tili inson ruhi hamda tafakkurida «O'n sakkiz ming olam»dan ortiq mislsiz bir olam yuzaga keltirishini va undagi go'zallik, fikriy quvvat, o'tli ohanglar boshqa hech joyda uchramasligini ta'kidlagan edi.

Navoiy yosh avlodga tilni to'liq o'rgatilsa, uning aksi ularning so'zlash odobida o'z aksini topadi degan edi, «Hayrat ul-abror» asarida. Shu tariqa ta'lim-tarbiya jarayoni, muallimlarning barkamolligi yosh avlodga o'z ona tilining sehrli jozibasini o'rgatishga qaratilishi lozim.

Eski maktablarda o'qitgan domlarning bilimi g'oyat cheklangan, ular ta'lim-tarbiyadan mutlaqo xabarsiz, lekin diniy bilimlari yetarli bo'lmasa ham, diniy rasm-rusumlarni bajarishga mohir, ruhoniylarga, feodallarga, amaldorlarga ta'zimkor va davlatga sadoqatli kishilar bo'lgan. Bunday muallimlarning vazifasi ko'pincha mahalla masjidida imomlik yoki so'fiylik qilish, maktab joylashgan mahalladagi har xil diniy marosim va urf-odatlarda qatnashishdan iborat edi. Ular o'qitishda asosan turli xil tan jazosi berish usulini qo'llagan. Shuning uchun Navoiy o'z davridagi maktabdornlarni baholashda ayrimlarni bunday ta'riflaydi: «Maktab tutuvchi — gunohsiz yosh bolalarga jafu qiluvchidir... U yosh bolalarni azoblashga rag'batlantirilgan, ularni kaltaklashga o'rgatgan, o'zi rahmsiz, miyasi po'lat va ko'ngli toshdir. G'azabidan qoshi chimirilgan, gunohsizlarga achchiqlanishga odatlangandir. Ularning ko'pchiligida ko'ngli qattiqligi va tama kasalligi oshkor va o'zlari aql kamligiga giriftor»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T.: 1939, 30-bet.

Navoiyning muallimlarga bergan bu tavsifi ularning haqiqiy qiyofasini ochib beradi. Ular g'oyat rahmsiz, bag'ritosh, yuzlaridan doim zahar tomib turadigan kishilar bo'lgan. Ular bolalarni nuqul qo'rqitish va kaltaklash yo'li bilan o'qitganlar.

O'sha davrdagi muallimlar bolalarni kaltaklash o'qitishning zarur sharti, deb hisoblaganlar, kaltaklash, jazosiz o'qitishni xayollariga ham keltirmaganlar, ular bolani urmasa-so'kmasa, u odam bo'lmaydi, deb o'ylaganlar. Kaltakning kuchi shu qadar zo'rki, hatto, uning zarbidan ayiq ham mulla bo'ladi. «Xirs mullo shavad az zarbi cho'b», degan fikrga rioya qilganlar. Nodon, johil va mutaassib tarbiyachilar qo'liga tushgan o'quvchilar ko'p azob-uqubatlarga giriftor bo'lardi. Muallimlar o'zlarining johilona usullari bilan bolalar qalbiga shikast yetkazar, ba'zan ularning qobiliyatini yosh chog'laridayoq so'ndirib qo'yardilar va shuning uchun bu maktablarda o'qib mukammal bilim olishga kamdankam bola muyassar bo'lar edi.

Maktablar uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlash, mavjud o'qituvchilarning saviyasini oshirish, o'qitish usullarini yaxshilash masalalari bilan hech kim qiziqmagan va bu ishlar bilan shug'ullanadigan muassasa ham bo'lmagan. Ustozlarning o'zlari faqat maktablarda o'qitiladigan kitoblar darajasidagi bilimga ega bo'lardilar. Muallimlar bilan mamlakatda xalqni ma'rifatli qilish amri mahol edi, albatta.

Navoiy ana shularning hammasini bilar, lekin u maktablardagi o'quv-tarbiya ishlarini yaxshilash masalasini o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy tuzumni o'zgartirish va xalqning iqtisodiy ahvolini yaxshilash yo'li bilan emas, balki maktablarga bilimroq, insofliroq domlalar tayinlash yo'li bilan hal qilish mumkin, deb tushunardi. Shuning uchun u o'zining amaliy ishlarida ham, badiiy va ilmiy asarlarida ham faqat o'qituvchi qanday bo'lishi kerakligi masalasiga alohida e'tibor bergan. Navoiyning fikricha, bolalarga tarbiya va ta'lim beradigan kishi ma'lumotli va o'qitish yo'llarini biladigan bo'lishi lozim edi.

Alisher Navoiy Qays bilan Laylining domlasini shunday ta'riflaydi: «U ustodning dars berishda shuhrati juda ketgan edi. U ajoyib kishi qabilada izzat-hurmatli bo'lib, har ishda qabila ahliga yordamlashguvchi ham edi. Zo'r sha'nu shavkatga ega, martabasining yuksakligi ko'kka teng bir shaxs edi».

Keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, Navoiy yosh avlodni tarbiyalash-o‘qitish ishini har qanday tasodifiy kishiga topshirishni qoralagan. U o‘qituvchiga eng yuksak talablar qo‘ygan. Bolani tarbiyalash va unga ilm berish, uning qobiliyatini o‘stirish uchun nihoyatda bilimdon va usta tarbiyachi bo‘lishi kerakligini, bolalarga ta‘lim-tarbiya beradigan o‘qituvchilar yoshlarga ilm, odob o‘rgatish mahoratiga ega bo‘lishi, o‘qitish yo‘llarini yaxshi bilishi lozim va zarurligini uqtirgan.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan hozirgi davrda buyuk bobomiz Navoiy merosini yosh avlodga chuqur o‘rgatishimiz zarur. Zeroki, u o‘z asarlarida milliy iftixor, xalqqa, ona tiliga, Vatanga mehr-muhabbat bilan qarash g‘oyalarini targ‘ib qilgan. Ulug‘ mutafakkir yoshlarni el-yurtga, ota-onasiga sodiq kishilar bo‘lib yetishishi uchun sabot va matonat bilan bilim egallashga, kasb o‘rganishga, egallagan ilm va hunarini vatan uchun, xalqqa naf keltirish uchun hayotga tatbiq eta bilishga da‘vat qilgan. Navoiy asarlarida madh etilgan xalqlar do‘stligi, tinch-totuv yashash uchun kurash, kamtarlik, mehribonlik, ochiq ko‘ngillik, shirinsuxanlik, saxovatpeshalik, beva-bechoralarga yordam qo‘lini cho‘zish, ustozga izzat kabi fazilatlar hamisha xalqimizga tetik ruh va quvvat baxsh etaveradi.

## IIAYRAT UL-ABROR

### *Oltinchi maqolat*

... Haqiqiy sharaf hayo va adabdan keldi. Yomg‘irning ham manbai hayodir, uning bir qatrasini tuproqni kimyo qiladi. Adabsiz kishilar hech qachon e‘tibor qozonmaydilar. Doim baland osmon (taqdir) bunday odamlarni pastlatib yuradi.

Adabsizlikning biri kulgidir. Kulgi adabsizlikning belgisidir. Kaklik qah-qaha solib kulgani uchun bu kulgi tufayli uning boshiga balo keladi (ya‘ni ovchilar ovozdin bilib, ovlab oladi). G‘uncha kulib, ochilib ketgandan keyin o‘z-o‘zidan sochilib ham ketadi. Chaqmog‘ni o‘z kulgisi tog‘ning ichiga qulatadi, hatto yerga pastlatib, tuproqqa kiritib yuboradi. Tong ham shunaqa odatni yaxshi ko‘radi. Shuning uchun quyosh o‘ti uning durlarini isiriqqa aylantiradi.

Kulgi o'z me'yoridan oshib ketdimi, bundan yig'lagan ancha yaxshiroqdir. Sham har kecha yig'lagani uchun tobora ravshan yonadi; g'unchani esa kulgani uchun shamol uchirib ketadi. Bulut yig'lab, ko'z yoshi to'kishi bilan dur sochuvchi bo'ldi: chaqmoq esa kula-kula pastlashadi, yerga kirdi. Mast ham yig'lab-yig'lab, o'zini bilmay qoldi, lekin kechirim so'rab yig'lagani gunohdan pok etdi. Adabli odam kulishi uchun og'iz ochmaydi, lekin hayo buluti tomchisiz emas.

... O'rindan turib, bolaga joy berish ham adabdan emas, keksalar bu ishni adab hisoblashmaydi. Bunday ahvolda u mutakabbir hisoblanib, sen yengiltaklik qilgan bo'lasan. Ayt, bu ikki ishni odamlar nega qilishi kerak?

Garchi adablilik shartlarini saqlash juda zarur bo'lsa ham, ammo buni har bir odamning darajasiga qarab bajarish kerak. Bir kishi sendan martabadan past bo'lsa, uni sen o'zingga tobe' holda ko'rsang, garchi u o'zi senga tobe, bog'liq bo'lsa ham, ko'nglung uning qayg'ulariga sherik bo'lsin. Farz va sunnat qoidalari shunday ma'qulki, ularni hammaga o'rgatish majburiydir. Senga tobe' kishilardan biri bunga xilof ish qilsa, ularni tekshirib turish sen uchun farzdir. Qiyomat kuni seni chaqirganlarida nima savol bo'lsa, sen javob berasan. Ularga g'amxo'rlik qilish sening bo'yningdadur; tirikchilik yozuqlari ham sening ko'yingdadur. Barchasiga do'stlik qilish senga nojibdir. Yaxshi-yomon ishidan xabardor bo'lib turish ham.

Tarbiyaning biri bolaga yaxshi ot qo'yish bo'lib, oti bilan chaqirganlarida u uyaladigan bo'lmasligi kerak. Ismda tafovutlar ko'p paydo bo'ladi; birining ismi Husayn (yaxshi ot) bo'lsa, boshqa biriniki Yazid (yomon ot).

Tarbiyaning yana biri unga ilmu adab o'rganish uchun muallim chaqirishdir. It yetuk ta'lim olgani sababli u tishlab kelgan ov halol hisoblanadi. Yuvgan bilan toza bo'lmaydigan it olim bo'lgan ekan, o'g'ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarar. Voqe' bo'ladigan balolardan uni o'z mehriq bilan asrashing bolang oldida sendagi tavozu'ni bildiradi.

Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish; buni bajarish uning uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizimating qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldiga boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni

sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turganning birisini oy deb bil, ikkinchisi quyosh. Ularning so'zlaridin tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen adab bilan bajar, «adab» so'zidagi «dol» kabi qomatingni xam qil.

Bundan so'ng rahm in'omini o'zingga qarz deb bil; o'sha toifadagi odamlarga rahm qilishni farz hisobla. Yurgan odamlar ichidagi katta-kichigigacha yoki oraliqdagi o'rta martabalikka ham, kimki katta bo'lsa, uning xizmatini qilish kerak, kimki kichik bo'lsa unga shafqat ko'rsatish kerak.

Kimniki o'rta yosh deb xayol qilgan bo'lsang, uning hurmatini ham me'yorida asra. Xizmatini qilib, uni ortiqcha ulug'lab ham yuborma, yomon munosabatda bo'lib, tahqir ham qilma. Uni hurmat qilib, «hamma ishning o'rtachasi yaxshi» degan ma'noli qoidaga amal qilishing zarur. Uning izzati me'yoridan kam bo'lsa ham, haddidan ortib ketsa ham yaxshi emas.

### *O'ninchi maqolat*

Rostlik ta'rifidakim, borliq uyi shu to'g'ri ustun bilan tik, ul uyning shabistoni burchagida bu nur (rostlik) shami majlisni bezatadi; egrilikni esa rad etish haqidakim, agar egril odam kumush bilan go'zaldir...

Kimki to'g'rilik yo'lini bilmoqchi bo'lsa, bilsinki, bu ikki xil bo'ladi: biri shuki, kishining so'zi to'g'ri bo'lsa, uning so'zi bilan birga o'zi ham to'g'ri bo'lishi kerak. Yana biri shuki, yolg'on gapni ba'zilar taassuf bilan, uyalganidan «to'g'ri!» deydi. Oldingisi, hech shubhasiz, yaxshi, lekin ikkinchisi ham yomon emas. Kishi yolg'onni gapirsa ham kam gapirsa! Qani endi shunday odam bizning zamonda ham topilsa!

Biz shunday qiziq zamon odamlariga muftalo bo'lganmizki, ularning oldida rostgo'ylikdan yomon narsa yo'q. Ulardan to'g'rilikni qidirgan kishi qoshlaridagi nomi «Chin», o'zi nochin jingalak mo'yini topadi, xolos. «Chin» kofirlar mamlakati bo'lsa ham, nomi «Chin» ya'ni «to'g'ri» bo'lgani uchun, qara, hatto jannatning o'zi ham unga rashk qiladi.

Lekin odamlarga xudoning o'zi ato qilgan bu to'g'rilik, qara, ularning oldida xato bo'lib ko'rinadi. So'zlashda xato

gapirishga o'rgangan odam noto'g'ri fikrni to'g'ri deb gumon qiladi. Kimki bu davrda to'g'ri gapirishga odatlangan bo'lsa, u kambag'allik, yetishmovchilikdan boshqa narsani bilmaydi. Bu davr istagi egrilik bilgani uchun, sen haqiqatni talab qilsang, unga yoqmaysan.

Bu aylanuvchi osmonning hech to'g'ri ishi yo'q; uning pargori chizgan chiziqning ham bironta to'g'risi yo'q. Kimki to'g'rilikni o'ziga kasb qilib olgan bo'lsa, davrning aylanishi unga doim dushmanlik qiladi. Qalam to'g'rilikka yo'l ko'rsatgani uchun doim uning boshi kesilib, pastga bo'lib turadi. «Alif» ham to'g'rilik alomati bo'lgani uchun, «balo» (so'zi) uni, qara, o'zining orqasiga olibdi. Shoh chaylasining arqoni ham to'g'ri tortilgani uchun, qara, boshdan-oyoq tamom o't bo'lib yondi. Ilonning tana tuzilishi egri-bugri bo'lgani sababli xazina ustida yotsa ham og'zida zahar. Yangi oy egriligidan charx qadami turgan joydan ko'rinadi. Salla ham chirmash o'ralgani uchun boshning ustiga chiqishi loyiq topildi.

Yo'q-yo'q, bu yozganlarimcha emas, balki bu gaplarimning hammasi qalamning xatosi. Egrilikning ham, to'g'rilikning ham o'z haqiqiy ta'rifi bor: yolg'on egrilikdan, to'g'rilik haqiqatdan iboratdir. Sham o'z to'g'riligi bilan xursand, boshdan-oyoq kuysa ham, u nurga aylanadi. Yashin egrilikni odat qilgan bo'lib, hamma yoqni yoritsa-da, yerning ostiga kiradi. Bog'bon o'z yeriga reja tortmas ekan, bog'ning ko'rinishi changalzorga o'xshab qoladi. Dehqon agar mola bosmasdan urug' sochsa, qancha bir xil sochmasin, ekini, baribir, suvni tekis ichmaydi. Oynaning yuzi qancha tekis bo'lsa, oy yuzlining yuzi ham shuncha to'g'ri ko'rinadi. Temir qalpoqning yuzi qancha sayqallangan bo'lmasin, yuzining aylanasi unda cho'zilgan holda aks etadi. Jim turgan suvda quyosh to'g'ri aks etadi: chayqalgan suvda esa egri ko'rinadi. Xato bilan yolg'on gapirish hisobga kirmaydi, chunki uning yolg'onligi bilimgach, undan qochiladi.

Kimki yolg'on gapirishni odat qilgan bo'lsa, uni egri musulmon deb bo'lmaydi. Yolg'onchi o'z gapini o'tkazish uchun qancha urinmasin, u o'z gapini bir-ikki marta o'tkaza oladi, xolos. Uning bu ishidan xalq g'ofil bo'lsa ham, lekin tangri o'zi bu holdan voqif. Bu xususiyat elga qancha maxfiy bo'lmasin, yolg'on baribir o'zini oxirini ma'lum qiladi. Yolg'on tong o'zini qancha oshkor qilsa ham, uning nurlari,



kuzat, baribir uzoq turmaydi... Kimki o'zini yolg'onchi sifatida tanitgan bo'lsa, rost gapirsa ham, xalq uning hamma gapini yolg'on hisoblaydi. Hech narsa bilan u bu qiynoqdan qutula olmaydi. Kimki yolg'onchi deb nom chiqargan bo'lsa, o'zinikilar ham, begonalar ham uni shu ot bilan chaqirar ekanlar, to'g'rilik nomi unga hech qaytib kelmaydi. Rost gapirsa ham, xalq unga ishonmaydi. Kimning chin gapi el orasida yolg'on deb topilar ekan, yolg'onni chinga aylantirish imkoni bormi?!

Qanday bir og'ir vaziyatda qolganingda ham chinni gapirishning iloji bo'lmasa, yolg'onni ham gapirma.

### *O'n birinchi maqolat*

Ilm osmonning yulduzlaridek baland martabaliligi haqidakim, bilimsizlik tunini yoritishi uchun «ayn»i quyosh, «lom»i oy, «mim»i kunduz belgilarini ko'rsatadi: bilimsizlik shomining qorong'u ko'rinishi haqidakim, g'aflat chohini pastlik kechasida zohir qilib, bu kechada baxtsizlikdan hikoya aytadi, olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi, johilning esa butun borligi boyluk, mol bo'lsa ham tuproqdek xorligi.

Bir kambag'al odam ilm istab, o'z shahridan chiqib ketsa, bu qanday og'ir gap. Ahvolining baxtsizligidan oyoq yalang, to'ni yo'g'idan tanasi ham yalang'och. Oyog'ini tikanlar tirnagan, hatto tikan ustiga yana tikan kirgan. Bu hol o'qining uchida temiri bo'lganiga, «xor» so'zining ichida esa alif turganga o'xshaydi. Boshidagi eski sallasi ham kulgulik, tuzoqqa o'xshab boshdan-oyog'i tilingan, yirtiq. U maqsadining qushini shu tuzoqqa ilintirmoqchi, ko'zidan tomgan yosh donalarini don qilmoqchi bo'ladi. Qo'ltig'ida varaq-varaqqog'ozi va kitobi, tahsil olish uchun u shoshib boradi.

U qushdek, go'yo uchib ketmoqda: qo'ltig'idagi qog'ozlar go'yo uning qanot pati. Muhtojlikdan uning qorni och, ochlik uni ovqatga zor qilib qo'ygan. Kuchsizlikdan gavdasi qamishday bo'lib qolgan: qamish qalamdek tilini chiqarib, tilanchilik qiladi. To o'zining maqsadiga erishgunga qadar yo'l yurib, nima uchrasa eb, qanoat qiladi. Maqsadi o'zi ko'rmagan bir mamlakatga etish; u mamlakat uning hatto tushiga ham kirmagan.

U mamlakatda odamlar ko'p: lekin unga biron do'st yo'q. Ko'z oldidan o'zining shahri diyori o'ta boshlaydi. Ko'cha ham ko'p, uy ham, bozor ham. Lekin u qayoqqa borishini bilmaydi. Musofirlik yuragiga ta'sir qiladi, ko'nglini yolg'izlik ezadi. Ovqatsiz, kechqurungacha aylanib yuradi, oqshom kirgach, bulbul kabi bir burchakka joylashadi. Zaiflikdan hushi o'ziga kelmay, tonggacha ko'ziga uyqu ham kelmaydi.

Tong otgach, madrasa tomon boradi: madrasaning ichidagi yig'inlarga kiradi. Kinga u o'z holini bayon qilsa, eshitib hazilga olib, o'zini bilmaganga soladi. Til qoidasidan bir dars saboq olish uchun umr varag'ini havoga uchirganday sarf qiladi. Kunduzi unga na bir maskan topiladi, na kechasiga bir oromgoh tayin. Musofirlikda uning ahvoli yomondan ham yomon, bundan ortiq yomon narsani topishning o'zi qiyin. Uning ahvolini gapirishga til ojiz, uni yozishga qalam tili ham lol.

Shunday ham zamon uqubatlarini chekib, o'n-o'n besh yil yelib-yugurib, jonini qiynab, madrasa burchagini g'am bilan obod qilib, tongdan oqshomgacha faryod etib, shu xilda ming mashaqqat chekkan bechoralardan, o'z vatani mulkidan ovoralardan ba'zisi har tomonga ketib, ba'zisi o'z orzusidan voz kechadi. Ba'zilari ozgina narsaga erishish bilan kifoyalanadi; ba'zisi esa o'z ustiga ko'p jafolarni oladi. Oyu yil doirasi aylanib-aylanib, natijada bitta-ikkitagina kamolot egasi yetishadi.

Ilmda bir odam sohibqiron bo'lguncha o'ttiz yilda bir davr kelishi kerak. Uning ko'ngli ilm maskani, ilm dargohi, uning bir qatra vujudi ilm daryosiga aylanadi. Yahudiycha desang yahudiychani biladi, yunoniy desang yunoniyini, suriya tilini, hindcha savol bersang, hindcha javob beradi. Ilm uning ko'nglini bir dunyoga aylantirib, bir qatraga butun bir dunyo daryoni yashiradi. So'zlarida to'la ma'no; gapni sirli bezaklarga o'rab gapiradi. U qalamining uchidan bir gapni qog'ozga to'kkach, qora siyoh bilan bitilgan u xatda obihayot ko'rinadi. Yozuvchining qoraligi obihayot suvi bo'ladigan zulmat bo'lsa, uning ma'nosi bu zulmatdagi obihayotdir. Osmon bilan bog'liq eng qiyin masalalarni ham osonlik bilan echadi. Abu Ali ibn Sinoning hamma fikrlari unga tushunarli. Qalami xatning barcha xillarini yozishga qodir, ilmlarning hammasi unga ma'lum...

## NAZM UL-JAVOHIR

*(She'rlar durdonalari)*

Topting chu ayol yaxshilik yetkurgil,  
O'rgat adabu yaxshi qiliq yetkurgil,  
Har necha adab bo'lsa qatig' yetkurgil,  
Xaylingg'a adab qilib asig' yetkurgil.

\* \* \*

Oltin-kumush etma kasb davlat kunidin,  
Kim tortar adab ulusni mehnat tunidin,  
Gar yo'qdur adab, ne sud oltun unidin,  
Elning adabi xushroq erur oltundin.

\* \* \*

Istasa ato yo'lida jon fido qilmoq,  
Qulluq, anog'a ham uncha imkon qilmoq,  
Zuhri adab istasang farovon qilmoq.  
Bil oni ato-anog'a ehson qilmoq...

\* \* \*

Farzand ato qullug'in chu odat qilg'ay,  
Ul odat kasbi saodat qilg'ay,  
Har kimki atog'a ko'p rivoyat qilg'ay,  
O'g'lidin anga bu ish siroyat qilg'ay.

\* \* \*

Kim aql yo'lida tutsa ma'no oxir,  
Tong yo'q el ichindi bo'sa dono oxir.  
Rifq aylamagi har ish ta avlo oxir  
Kim, aql dalilidur mazoro oxir.

\* \* \*

Qolg'on kishi kasbi ilmdin zahmat aro,  
Fiqh o'rgansun sa'y ila ul mehnat aro,

Ilm ichra sharaf fiqhda bil nisbat aro,  
Kim, sarvar erur faqih bu ummat aro.

\* \* \*

Olimki pisandadur hisoli bilgil,  
Xolmin tan aro ruh misoli bilgil,  
Komilda kerak hilm xayoli bilgil.  
Kim hilmdadur ilm kamoli bilgil.

### ARBAIN

Onalarning oyog'i ostidadur  
Ravzai jannatu jinon bog'i.  
Ravza bog'i visolni istar esang,  
Bo'l onaning ayog'i tufrog'i.

\* \* \*

Yaxshi so'z birla hojat ahlin so'r,  
Bermasang yaxshi to'madin nafaqa.  
Ne uchunkim rasul qavli bilan:  
Yaxshi so'z bordur uylakim sadaqa.

\* \* \*

Mo'min ermastur, ulki imondin  
Ro'zg'orida yuz safo ko'rgay,  
Toki qardoshig'a ravo ko'rmas,  
Har nakim o'ziga ravo ko'rgay.

### LATIF HIKOYATLAR

#### *Hikoyat*

Bir zolim podshoh bo'lib, u doimo mast-alast yurar, nihoyatda behayo, bosqinchi va qonxo'r edi. Harom nafsi uni har xil yomon ishlarga buyurar, u esa hech bir bo'yin tovlamay, ularni bekamu ko'st bajarardi.

Bir kuni u aysh jomidan no'sh etayotib, ko'chadan o'tib borayotgan janda kiygan ikkita darvishni ko'rdi. Ular bir-birlariga ham do'st, ham o'rtoq, ham hamdam, ham sirdosh, ham g'amxo'r va shafqatli edilar. Shoh ulardan birini o'z yoniga chorlab, sherigi to'g'risida shunday savol berdi:

— Ey, yo'l sohibi! Aytgin-chi, men yaxshimanmi yoki sening o'rtog'ingmi?

— Menga ikkinigizning holingiz haqida nimaiki ayon bo'lsa, o'shani bayon qilaman. Har ikkalasidan xabardor bo'lgach, ey, toj egasi, ulardan o'zing hukm chiqarasan.

Garchi sen mamlakatga shoh bo'lsang-da, lekin haq yo'lida gumrohsan. Xalq nima buyursa sen unga xilof ish qilib, kechayu kunduz umringni g'aflatda o'tkazmoqdasan.

Sherigim esa garchi darvish va gado bo'lsa ham, xalq amrini joyida bajo keltiradi. U biror mara to'g'ri yo'ldan tashqari qadam qo'ymagan. Vaqtini xalq amrini bajarish bilan o'tkazadi. Sen shohsan-u, ammo nafsingga mag'lub va xorsan, u gado bo'lsa ham, nafsini o'ziga asir etgan. To tirik ekansiz, har ikkinigizning holingiz shunday kechadi. U gado va sen shohning yashash tarzingiz shundaydir. O'lganingizdan keyin esa u — shoh, sen esa — gado bo'lasan. Chunki sen mast eding, u esa to'g'ri yo'ldan boruvchidir.

Yo'l piri bu so'zlarni aytgach, shoh seskanib, uyqusidan uyg'ondi. U avval mast bo'lgan bo'lsa, endi unga hushyorlik yetishdi, uyqusi bedorlik bilan almashdi. Shundan so'ng u shohlikning zarboft kiyimlaridan or qilib, ularni yechib tashladi va o'rniga janda kiydi. Haqdan ko'ngliga ogohlik yetib, darvishlik aslida shohlik ekanini anglab yetdi.

### *Hikoyat*

Bir mamlakatda bir devona kishi bor edi. Uning maskani kecha-kunduz vayrona edi. Har dam o'sha vayronaning bir yonini qazib, o'z umrini xazinaga erishish umidi bilan o'tkazar edi. Ittifoqo, shuncha mashaqqat chekkandan so'ng baxti chopib, xazinani topib oldi. U qaziyotgan chuqurda bir eshik ko'rindi. Ichkari kirgach, katta bir saroyga duch keldi. U yerda Faridun yo'q, balki Qorun xazinasiga teng qirqta xum turar edi. Telba bu boylikni ko'rib, hushidan ketib qoldi. Shu orada bu yerga bir ablah kishi yetib keldi. U xazina oldida hushidan

ketib yotgan devonani ko'rdi va hech bir ikkilanmay pichoq sanchib, uning qonini o'sha xazina ustiga to'kdi hamda butun boylikni egallab oldi.

Shunday qilib uning yashashdan maqsadi xazinaga erishmoq edi. Ammo u boru yo'q sarmoyasidan — hayotidan ajralib qoldi.

### *Mustaqil ish*

Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarini o'qib, undan maktab, muallim va o'qitish usullari haqidagi o'rinlarini o'zlashtiring.

## **ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR**

*(1483—1530)*

Bobur ota tomonidan Amir Temurning, ona tomonidan Chingizxonning avlodidandir. Uning tomirida O'rta Osiyodagi ikki buyuk fohihning qoni oqqan.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilda otasi Mirzo Umar Shayx hukmronlik qilgan Andijonda tug'ulgan. 11 yoshida otadan yetim qolgan. U «Boburnoma» kitobining ilk satrlarida shunday yozgan: «... sarvari koinotning shafoti bilan va chahoriyori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyining boshida tarix sekkiz yuz to'qson to'qquzda, ya'ni 1494-yil iyunida Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshda podshoh bo'ldim».

Bobur yoshlik chog'laridanoq juda ko'p mushkullik va qiyinchiliklarni boshidan kechirishga majbur bo'lgan. O'zining bobo meros mulki hisoblanmish Samarqandni ikki marta zabt etgan va ikki martasida ham qo'ldan bergan. Nihoyat, u yigirma bir yoshida ota yurtini tark etib, Hindikush osha Qobulni ishg'ol qilgan. 1511-yilda Bobur Samarqandni qaytarib olishga yana bir bor uringan. Bu gal g'alaba nash'asini surgan bo'lsa ham, kelgusi yildayoq Samarqandni qo'ldan chiqargan. Shu tariqa Bobur Samarqandni uch karra zabt etib, uch karra boy bergan.

Bobur Hindistonda yirik davlat tuzgan va o'zi podshoh bo'lib, Jamna Yamuna daryosi bo'yidagi Agra shahrida poytaxt qurgan.

Bobur 1530-yil kuzida qattiq xastalanib, podsholikni katta o'g'li Humoyunga topshirgan va 26 dekabrda o'z qarorgohida vafot etgan.

Bobur ajoyib sarkardaligi bilan birga ma'rifatparvar shoh va nozik didli shoir ham bo'lgan. U o'z asarlarida go'zallikni kuylagan, insonlarni yaxshilik qilishga, hunar, ilm-fanni o'rganishga da'vat etgan.

Bobur asarlarining mavzusi rang-barang bo'lib, ularda insonning ma'naviy qiyofasi, ilm-fanning foydasi, muhabbat, yaxshilik va yomonlik tasvirlangan. U yaratgan «Xatti Boburiy» asari arab yozuvini osonlashtirishga qaratilgan. Bobur arab harflarining osti va ustiga qo'yiladigan diakretik belgilar zerzabar o'rniga harflar kiritishni taklif qilgan. Buyuk adib xalqni osonroq savodli qilish yo'lini izlab yaratgan mazkur alifbo amalga oshmadi. Chunki u islomga shak keltirish bilan barobar, deb hisoblandi.

Bobur Hindistonda madaniyat va ma'rifat o'rnatdi. U juda erta hayotdan ko'z yumgan bo'lsa-da, o'zining ishlari, «Boburnoma» deb atalgan asari bilan tarixda unutilmas nom qozondi.

«Boburnoma» asosan Hindistonda Boburiylar saltanatini barpo etgan shoh Boburning tarjimai holi bo'lib, unda muallif oddiy va jonli til bilan o'zining yo'l qo'ygan xatolarini, qozongan g'alabalari-ni, yuksak orzu-umidlarini, tushkunlik holatlarini hikoya qilgan. Asar Avliyo Avgustino va Russoning kashfiyotlari, Gibbon va Nyutonning yodnomalari qatoridan o'rin olgan. Mazkur kitob umri davomida ko'pdan-ko'p yuksalishlar va tanazzullarni boshidan kechirgan insonning ibratli tarixidirki, uning yuksalishlari qanchalik sarbaland bo'lsa, tanazzullari shunchalik tubsizdir.

Bobur qirq yetti yilu o'n oy umr ko'rgan bo'lsa, «Boburnoma» uning hayotidan atigi o'n sakkiz yilini qamragan. Kitob Boburning o'z qo'li bilan turkiy tilda yozilgan. Unda Bobur ijodiyotidagi ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalari keng o'rin olgan. Bir asarida:

*Xulqingni rost qilg'il har sorig'aki borsang,  
Ahsanta der bari el gar yaxshi ot chiqarsang,*

deb yozgan va Boburning o'zi umr bo'yi ana shu gapiga rioya qilgan. Ko'p g'azallarida axloqning barcha me'yorlariga

rioya qilish kerakligini va shundagina kishi el hurmatiga, katta baxtga sazovor bo'lishini uqtirgan. Insonlardagi hurmatni, mehr-oqibat va boshqa ezgu fazilatlarni doimo ulug'lagan. Quyidagi ruboiy Boburning kamtarligidan, andishaliligidan dalolat beradi:

*Ey, yel, borib ahbobqa nomimni degil,  
Har kim meni bilsa, bu kalomimni degil.  
Mendin demagil, gar unutilgan bo'lsam,  
Har kimki meni so'rsa, salomimni degil.*

Bobur she'rlarida haqiqiy, barkamol inson timsoli madh etiladi, ulug'lanadi. Eng avvalo, insonning qadr-qimmatini yuqori tutish, amal va davlatga erishib g'ururlanmaslik, kamtarinlik kabi xislatlar targ'ib etiladi. Bobur ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalarini o'zining «Boburnoma», «Mubayyin», «Risolai volidiya» kabi asarlarida bayon etgan.

Bobur inson kamolotining birinchi ostonasi oila ekanligini uqtirib, u jarayon nihoyatda qiyin va murakkabligini his etgan edi. Bolalarning axloq-odob qoidalarini o'rganishi ko'p jihatdan atrofda shaxslarga bog'liqligini yaxshi bilgan Bobur o'z farzandlarini tarbiyalashda tadbirkor, bilimdon odamlar bilan maslahatlashib, tajribali fozil va tarbiya ko'rgan kishilar bilan kengashib ish tutgan. U o'zining «E'tiqodiyya» asarida bolalarni yoshlikdan boshlab e'tiqodli, imonli qilib tarbiyalash masalalariga e'tibor bergan. Farzanddagi baxt-saodat keltiruvchi bosh fazilat imonidir, deb bunday yozgan edi:

*Bobur, avvalig'a farz qil ta'rif  
Kim, bor insonga avval ul taklif.  
Budir— imon men aytayin, eshiting,  
Harna der— men, ani ko'ngulga biting...*

U farzand tarbiyasida qo'llanishi lozim bo'lgan usullar deb:

1. Ota-onaning farmoni farzand uchun vojibli.
2. Barcha insonlarga yaqinligini o'rgatish.
3. Hamma vaqt o'zingizni ibrat aylab ko'rsatish.
4. Mustaqillik, qat'iylik va uddaburonlik uchun bolaga doimiy talablarni qo'yish va uning ijrosini kuzatish. Uning bu ish



uslubini o'g'li Humoyunga qilgan nasihatidan ko'rsa bo'ladi. U o'g'li Humoyunga doimo aql-zakovat va bilimga tayanib harakat qilish kerakligini ta'kidlagan: «... Yana ulug' ish ustiga borasen, ish ko'rgan, ray va tadbirliq beklar bila kengashib, alarning so'zi bila amal qilgaysen. Agar meni rizomni tilarsen, xilvatnishiliqni va el bila kam ixtilotliqni bartaraf qilg'il. Kunda ikki navbat iningni va beklarni ixtiyorig'a qo'ymay qoshinga chorlab, maslahat bo'lsa kengashib, bu davlat xalqlarining ittifoqi bilan har so'z unga qaror bergaysen».

Bobur farzandi Humoyunning kamchiliklarini ko'rgan zahoti ularni tuzatish uchun ogohlantirgan. Unga yozgan maktubida: «Xatingni xud tashvish birla o'qusa bo'lador, vale asru mug'laqtur. Nasri muammo hech kishi ko'rgan emas... Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti, ham senga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qug'onga», deb ta'kidlagan.

Bobur she'rlarida inson kamoloti uchun ilmning naqadar zarurligi qayta-qayta uqtirilgan:

*Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,  
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.  
Men tolibu ilmu tolibi ilm yo'q,  
Men bor men ilm tolib ilm kerak.*

Bobur ilm toliblari «hamisha yuksak fazilatlariga ega bo'lishi lozim» deb hisoblagan, ularning kamtar, sofdil, xalqni hurmatlaydigan fazilatlariga ega bo'lishini istagan:

*Bori elga yaxshilik qilgilki, mundin yaxshi yo'q,  
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshiliq.*

Boburning ta'lim-tarbiyaviy qarashlaridagi bosh masala vatanga cheksiz muhabbatdir. Uning shu mavzudagi she'rlari kitobxonni ona-Vatanni sevishga, unga fidoyi, sodiq bo'lishga, o'z xalqiga xizmat qilishga chorlaydi, o'quvchining qalbida yuksak insonparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi:

*Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,  
Har ishniki qildim xatolig' bo'ldi.  
O'z yerni qo'yub hind sori yuzlandim.  
Yorab, netayin, ne yuzi qarolig' bo'ldi.*

*Ko'pdin berikim yoru diyorim yo'qtur,  
Bir lahzau bir nafas qarorim yo'qtur.  
Keldim bu sari o'z ixtiyorim birla  
Lek borurimda ixtiyorim yo'qdur.*

Bobur ta'lim-tarbiyaga doir g'oyalarini o'z boshidan kechirgan, ko'rgan va bilgan voqealardan xulosalaydi. U o'z zamonasidagi badxulq, bemehr uqubatsiz insonlarga qarata shunday yozgan edi:

*Qolmadi hurmat ahli olamda,  
Olamu olam ahlidin bu ilik.  
Bobur ikki podshohligidin,  
Yaxshiroq bu zaminda bir beklik.*

Bobur hamma vaqt ijobiy insoniy fazilatlarni yuksak qo'yadi. Lekin shu insonlarga xalaqit beruvchi salbiy sifatlarni o'zining masnaviy va ruboiylarida tanqid qiladi:

*Davlatqa yetib mehnat elin unutmam,  
Bu besh kun uchun o'zingni asru tutmam...  
Beqayd menu xarobi sim ermasen...  
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.*

Bobur ruboiylarida nafs xohishlariga berilmaslikka undaydi. Chunki nafs insonni yomon yo'llarga olib kiradi. O'z nafsini tiya olishi, aqlga asoslanib rejali ish olib borish zarurligini ta'kidlaydi:

*Nafsing kasbidur havoyu havas,  
Ruh oldidadir bular yaramas.  
Nafs dushman durur, yaqin bilgil,  
Do'stim bu so'zni chin bilgil.*

Bobur yosh avlodni to'g'rilik, mehribonlik, vafodorlik, ezgulikka chorlaydi. Shoir yaxshi kishi yaxshilik ko'radi, yomon kishi yomonlik ko'radi qoidasiga asoslanib shunday yozgan edi:

*Har kimki vafu qilsa, vafu topqusidir,  
Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidir.*

*Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,  
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.*

Bobur tabiatdagi mo'jiza va go'zallikning shaydosi edi. Bobur barcha bilimlarni chuqur bilganligi sababli handasa ilmiga juda katta yangiliklar kiritdi. U o'nlab hayvonlarni o'rganib, foydaziyonni, inson parvarishiga muhtojligini alohida uqtirdi hamda ularni tavsiflab berdi. Quruqlikdagi hayvonlar, suv va suv yoqalarida yashaydigan qushlar, suv hayvonlari, hatto daraxtlar, mevalar va gullarni tabiatshunoslarga xos ilmiy tavsiflab bergan.

Bobur o'zining buyuk asari «Boburnoma»da Vatanning tabiati va iqlimini chuqur bilganligini namoyish etgan.

### «BOBURNOMA»

(Parcha)

Valodat va nasabi sakkiz yuz oltinshda Samarqandda edi. Sulton Abusaid mirzoning to'rtinchi o'g'li edi. Sulton Ahmad Mirzo. Sulton Muhammad mirzo Sulton Mahmud mirzodin kichik edi. Sulton Abusaid mirzo Sulton Muhammad mirzoning o'g'li edi.

Mironshoh mirzo Temurbekning uchunchi o'g'li edi. Umar Shayx mirzo bila Jahongir mirzodin kichik Shohnux mirzodin ulug' edi.

Sulton Abusaid mirzo avval Qobulni Umar Shayx mirzog'a berib, Boboi Qobuliyini bek atka qilib, ruxsat berib edi.

Umar Shayx mirzo (mening padari buzrukvorim) past bo'yliq, tegirma soqollik, qo'ba yuzli tanbal kishi edi. To'nni bisyor tor kuyar edi, andog'kim, bog'laturda qornini ichiga tortib bog'latur edi, bog' bog'lag'ondin so'ng o'zini qo'ya bersa, bisyor bo'lur edikim, bog'lari uzulur edi. Kiymoqat va yemakta betakalluf edi. Dastorni dastorpech chirmar edi. Yozlar g'ayri devonda aksar mo'g'uliy bo'rk kiyar edi.

Axloq va atvori: hanafiy mazhablik, pokiza e'tiqodlik kishi edi, besh vaqt namozni tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib edi, aksar tilovat qilur edi. Hazrat Xoja Ubaydullog'a irodati bor edi, suhbatlarig'a bisyor musharraf bo'lib edi. Hazrat Xoja ham farzand deb e'dilar.

Ravon savodi bor edi. «Hamsatayn» va masnaviy kitoblarni va tirxlarni o'qub edi. Aksar «Shohnoma» o'qur edi. Tab'i nazmi bor edi, vale she'rg'a parvo qilmas edi.

Adolati bu martabda edi...

Bisyor saxovati bor edi. Xulqi dag'i saxovaticha bor erdi, xushxulq va harrof va fasiq va shirin zabon kishi erdi, shujo' va mardona kishi erdi.

Avlodi: uch o'g'il, besh qiz mirzodin qolib edi. Bori o'g'lonlaridan uluq men — Zahiriddin Muhammad Bobur edim, mening onam Qutluq Nigorxonim edi. Aksar qazoqliklarda va Fatarotlarda mening bilan bir edilar. Qobulni olg'ondin besh-olti oy so'ngra tarix to'qquz yuz o'n birida tangri rahmatig'a bordilar.

... Ushbu yilning oxirida seshanba kechasi oyning to'rtida oftob xut burjida edi. Qobulning arkida Humoyun (913-yilda) mutavallid bo'ldi. Tarixi valodatini Mavlono Sayidiy shoir «Sulton Humoyunxon» topib edi. Qobul shoirchalaridin birov, «Shohi Feruz qadr» topib edi, uch-to'rt kundan so'ng Humoyun ismi bila mavsum bo'ldi.

... Odina kuni oyning o'n to'rtida xat va kitoblar tayyor bo'lub (Bayonshayxqa) topshurub, ruxsat berildi. Shanba kuni oyning o'n beshida Ogradin uzadi.

Humoyunga bitilgan xatning savodi: «Humoyunga mushtoqliklar bila sog'inib salom degach, so'z ulkim, dushanba kuni rabiul avval oyining o'n Bekkina bila Bayonshayx keldilar. Xatlardin va arzadoshtlardin ul yuzdagi, bu yuzdagi kayfiyat va holat mushaxxas va ma'lum bo'ldi:

*Shukr, bermish senga haq farzande,  
Sanga farzandu, menga dilbande.*

Tengri taolo mundoq sevinchlarni manga va sanga hamisha ro'zi qilg'ay, omin yo rabbal-olamin. Otini Al'amon qo'ymishsen. Tengri muborak qilg'ay. Vale bovujudkim, o'zung bitibsen, mundin g'ofil bo'lubsenkim, kasrati isti'mol bilan avom Al'amo derlar, yo El Amon derlar, o'zga mundoq alif-lom otta kam bo'lur. Tengri otini va zotini farxunda va muborak qilg'ay, manga va sanga ko'p yillar va bisyor qarmlar Al'amonnii davlat va saodat bila tuta bergay.

Tengri taolo o'z fazlu karami bila bizning ishimizni yasaydur. Mundoq qopu qarmlarda topilmas. Yana seshanba kuni oyning o'n birida arojif xabar keldikim, Balx eli Qurbonni tilab Balhqa kiyurmishlar.

Yana Komrong'a, Qobuldag'i beklarga farmon bo'ldikim, borib, sanga qo'shulub, Hisor yo Samarqand yo har so'rig'ekim salohi davlat bo'lsa, yurugaysiz. Tengrining inoyati bila yog'ylarni bosib, viloyatlarni olib, do'stlarni shod, dushmanlarni nigunsor qilg'aysiz, inshoolohu taolo. Sizlarning jon tortib, qilich chopmoq mahallaringizdur. Qopuda kelgan ishni taqsir qilmangiz. Garonjonliq bila kohillik podshohliq bila rost kelmas.

*Jahongire tavaqquf bar nayobad,  
Jahon onro buvad ko' beh shitobad,  
Hama chize zi ro'i kadxudoy,  
Sukun meyobad illo podshohy'.*

Agar tengri inoyati bila Balx va Hisor viloyati muyassar va musaxxar bo'lsa, Hisorda sening kishing bo'lsun, Balxa Komronning kishisi bo'lsun. Agar tengri inoyati bila Samarqand ham musaxxar bo'lsa, Samarqandta sen o'lturg'il. Hisor viloyatini, insholloh, xolisa qilg'umdur. Agar Komron Balxni ozirg'ansa, arzadosht qiling, insholloh aning qusurini o'shal viloyatlardin o'q rost qilg'umizdur.

Yana sen o'zing bilur edingkim, doim bu qoida ma'riy edi: olti hissa sanga bo'lsa, besh hissa Komrong'a bo'lur edi. Hamisha bu qoidani ma'riy tutub, mundin tajovuz qilmang. Yana ining bila yaxshi maosh qilg'aysan. Uluqlar ko'tarimlik kerak, umidim borki, sen ham yaxshi ixtilot qilg'aysan. Aning ham mutasharri' va yaxshi yigit qo'yubtur, ul ham mulozamat va yakjihatliqta taqsir qilmag'ay.

Yana sendin ozroq ginam bor, bu ikki-uch yildin beri bir kishing kelmadi. Men yiborgan kishi ham rost bir yildin so'ng keldi. Mundoq bo'lurmi?

Yana xatlaringda yolg'uzluq, yolg'uzliqkim, deb sen, podshohlikta aybdur, nechukkim debturlar:

*Agar poy bandi rizo pesh gir,  
Va gar yaksuvori sari xesh gir<sup>2</sup>.*

---

<sup>1</sup>“Jahongirlik to'xtab turmaydi, kim yaxshi tirishsa, jahon o'shaniki bo'ladi, hayotda har bir narsa to'xtashi mumkin, ammo podshohlik (ishi) to'xtamaydi”.

<sup>2</sup>Agar oyog'ing band bo'lsa, rizoni oldinga qo'y, tanho suvori bo'lsang, o'z boshingcha bor, ya'ni jahonga bog'langan bo'lsang, boshingga kelgan har narsaga rozi bo'l, agar hech narsaga bog'lanmagan kishi bo'lsang yo'lingdan qolma, keta ber.

Hech qayda podshohlik qaydicha yo'qtur. Podshohlik bila yolg'uzluq rost kelmas. Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsen va o'qumaysen, ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'quyolmas eding. O'qiy olmagandin so'ng albatta tag'yir berur eding. Xatingni xud tashvish bilan o'qusa bo'ladur, vale asru mug'laqtur. Nasri muammo hech kishi ko'rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotni «To» bila bitibsen. Qulunjni «yo» bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'ladur, vale bu mug'laq alfozingdin mahsud tamom bo'lmaydur. G'olibo xat bitirda qohillig'ing ham ushu jihattindur. Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug'laq bo'ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham sanga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qug'uchig'a.

Yana uluq ish ustiga borasen, ish ko'rgan, ray va tadbirliq beklar bila kengashib, alarning so'zi bila amal qilg'aysen.

Agar mening rizomni tilarsen, xilvatnishinliqni va el bila kam ixtilotliqni bartaraf qilg'il. Kunda ikki navbat iningni va beklarni ixtiyorlarig'a qo'ymay, qoshingg'a charlab, qar maslaqat bo'lsa kengashib, bu dalatxoqlarning ittifoqi bila har so'z unga qaror bergaysen.

Yana Xoja Kalon mening bila gustixona ixtilot qila o'rganib edi, sen dog'i, nechukkim Xoja Kalon bila ixtilot qilur edim, o'shundoq ixtilot qilg'aysen. Tengri inoyati bila ul sorilar ish ozroq bo'lsa, Komrong'a ehtiyoj bo'lmasa, Komron Balxta mazbut kishilarni qo'yub, o'zi mening qoshimg'a kelsun...

Musavvidi avroq (varaqlarni qoralovchi) aytadurkim, to'qqiz yuz o'ttuz yettida jumodil avval oyining oltisida chahorbog'idkaim, o'shul podshoh o'z qo'li bilan obod qilib erdi, holi mutag'ayir bo'lur, bu olami bevafo ni padruya qildi.

... Va Muhammad Humoyun Sanbalg'akim, aning joygiri erdi, ruxsat berildi. Olti oygacha anda edi: zohiran, ani yer va suyi hushyoqmadi. Isitma tutar ckandur, bora-bora uzoqqa tortar. Tonoki biz eshittuk, farmon berildikim, Dehlig'a kelturub. Dehlidan kemag'a solib keltursunlarkim, hakimi hoziqlar ko'rub, dardig'a davo qilsunlar. Bir necha kunda daryo yo'li bilan kelturdilar va tabiblar har necha doru-darmon berdilar, yaxshi bo'lmadi. Mir Abulqosinkim, ulug' kishi erdi, arzg'a yetkurdikim, ushmundoq dardlarga darmon budirkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak. Toinki tengri taolo sihat bergay. Mening ko'nglimga keldikim, Muhammad Humoyun (ning) mendin o'zga yaxshiroq

nimarsasi yo'q. Men o'zum tasadduq bo'layin, xudoy qabul qilsun. Xoja Xalifa, o'zga muqarrablardin arzg'a tegurdilarkim, Muhammad Humoyun sihat topar, siz bu so'zi nechun tilingizga kelturasiz. G'araz budurkim, dunyo molidin yaxshisini tasadduq qilmoq kerak. Bas o'shal olmoskim, Ibrohimni urushida tushub erdi. Muhammad Humoyung'a inoyat qilib erdingiz, tasadduq qilmoq kerak. Tilga keldikim, dunyo moli aning ivazig'a nechuk bo'lg'ay, men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkil bo'libtur... Va andin o'tubturkim, men aning betoqatlig'ini toqat kelturg'aymen. O'shal holatga kirib, uch qatla boshidan o'rgulub, dedimkim, men ko'tardim hame darding bor. O'shal zamon men og'ir bo'ldum, ul yengil bo'ldi. Ul sihat bo'lub qo'pti. Men noxush bo'lub yiqildim. A'yoni davlat va arkoni mamlakatni charlab, bay'at qo'llarini Humoyunni qo'lig'a berib, joynishinlig'ig'a va valiahdlig'ig'a nasb qildim. Va taxtni topshurdum. Va Xoja Xalifa va Qanbar Alibek va Turdibek va Hindubek va o'zga xaloyiq ham bu nasoyihda bor erdilar, boisi qabul qilib, band bo'ldilar.

## RUBOIYLAR

\* \* \*

Men necha jafou javringga sabr etay,  
Bir zarra vafou mehr yo'q Senda netay,  
Chun boshim ayog'inga qo'yarga yaramas,  
Boshimni olib oyoq yetganча ketay.

\* \* \*

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi.  
Shod etmas emish ko'nglini mehnatda kishi.  
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,  
G'urbatda sevinmas emish albatta kishi.

\* \* \*

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi,  
Yo, barcha murodlarni tark etsa kishi.  
Bu ikki ish muyassar o'lmasa olamda,  
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

\* \* \*

Ahbobga har xatni savod etgaysen,  
Bizni dag'i ul bitikda yod etgaysen,  
Maqsudki qosidi agar kelsa bu yon.  
Bir noma bila ko'ngilni shod etgaysen.

\* \* \*

Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur,  
Ko'zdin uchadur uyqu, chu oqshom bo'ladur.  
Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek,  
Borg'on sayin bu ortadur, ul kam bo'ladur.

### «MUBAYYIN» RISOLASI

Zakot faroyizining bayoni

Bil, adosida bo'ldi niyat farz,  
Niyat avqotini qilay senga arz,  
Biri molini oyirur chog'dur,  
Masrifig'a yana berur chog'dur.

Masrifig'a berur mahalda bu mol,  
Qilmasang niyat anda budur hol.

Qilmog'on bo'lsa xarj olg'onlar,  
Bor ravo, niyat o'lg'och, chtsang agar.

Yana ikkinchi farz budur bil,  
Masrifig'a bu mol yetkurgil.

### *Mustaqil ish*

«Boburnoma» asarini o'qib-o'rganib, tahlil eting.



---

## **VI BOB. XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASIDA TA'LIM-TARBIYA**

O'рта Osiyoni Rossiyaga qaram qilish g'oyasi Petr I dan boshlangan edi. 1712-yildan Rossiya imperiya deb e'lon qilindi. Imperiya boshqa davlatlarni bosib olib, o'z qomatini rostdash evaziga bo'ldi. Unda 81 guberniya, 20 viloyat, 931 shahar mavjud bo'lib, ularda 100 dan ortiq xalqlar, elatlar istiqomat qilardi. Shulardan 57 foizini rus millati tashkil qilar edi.

Petr I vafotidan so'ng Yekaterina hukumati O'рта Osiyo bilan aloqani yanada mustahkamladi. Buxoro amiri Shohmurod Yernazarning Peterburgga elchi qilib yuborilishidan xabardor bo'lgan Ekaterina elchi sharafiga Ernazar elchi madrasasi qurilishi uchun 134 ming so'm pul ajratgan.

XIX asrning 60-yillari boshida Chor Rossiyasi O'рта Osiyoni bosib olishga tayyorgarlik ko'ra boshladi. 1864-yil boshida Verniy (Almati) qal'asidan chiqqan 2500 kishilik Chernyayev askarlari 4 iyun kuni Avliyoota, so'ngra Turkiston shaharlarini egallab, biri Samarqandda, biri Turkistonda bo'lgan Amir Temur va Yassaviy maqbaralarini to'pga tutdi. Chimkent, Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlari esa Rusiya bilan tuzilgan bitimga imzo chekib, unga bo'ysundi. Shu tariqa 1876-yilda butun O'рта Osiyo Rossiya tasarrufiga o'tadi.

O'рта Osiyoda ruslar hukmdorligi boshlanishi bilan xalq o'zining milliy merosi, qadriyati va g'ururidan mahrum bo'la boshladi. Turkiston general gubernatori fon Kaufman imperatorga yo'llagan bir maktubida O'рта Osiyo xalqlarining madaniy-ijtimoiy taraqqiyoti uch yuz yil orqaga surib yuborilganini maqtanib yozgan edi. Oktyabr to'ntarishidan oldin masjid va madrasalardagi kitoblar, noyob qo'llanmalar yondirib tashlandi, bir qismi Peterburgga olib ketildi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'sha davrda taniqli olimlar rahnamoligida etnografiya,

tarixiy va arxeologik ekspeditsiyalar uyushtirildi, muzey, kutubxonalar tashkil etildi. Oʻrta Osiyoda dunyoviy bilimlarni tarqatish maqsadida maktablar tashkil qilindi. Qator zabardast olim, shoir va maʼrifatparvar adiblar xalqning ruhiyatini koʻtarish uchun unga murojaat qildilar. Chunonchi, alloma A. Fitrat xalqqa qarata: «Ey ulugʻ Turon, arslonlar oʻlkasi! Senga ne boʻldi? Holing qalaydur? Ey Temuriylar, Oʻgʻuzlar oilalarining shonli bolalari! Qullik chuqurlariga nedan tushding!» singari jangovar satrlar bilan xitob qilgandi.

Ona Turkistonni mustamlakachilik zulmidan qutqarish maʼrifatparvarlarning ijodiy shioriga aylandi. Muqimiy, Avaz, Fitrat, Anbar Otin, Dilshodi Barno, Ahmad Donish, Mahmudxoʻja Behbudiy kabi maʼrifatchilar ana shular jumlasidandir. Chor Rossiyasi bosib olgunga qadar Oʻrta Osiyoda quyidagicha maktablar boʻlgan edi:

1. **Boshlangʻich diniy maktablar** — (xalq bolalari uchun) Turkistonda keng tarqalgan maktablardan biri boshlangʻich diniy maktab edi.

Shahar maktablarida oʻquvchilar soni 20–30 taga, qishloq joylarida esa 10–15 taga etar edi. Oʻqishga 6 yoshdan qabul qilinib, 14 yoshda, bolalarning oʻzlashtirishiga qarab 17–18 yoshlarda ham tugatar edi. Otalar bolalarni maktabga olib kelganda «Suyagi bizniki, eti sizniki, yaxshi bilimli boʻlsa bas» deb maktab rahbarlariga murojaat qilar edilar. Taʼlim mazmunida quyidagi predmetlar qoʻyilgan edi:

Alifbe, Haftiyak (2–3 yil oʻqitilar edi) Chor kitob, Soʻfi Olloyor hamda Qurʼoni karim edi. Tarbiyaviy tadbirlar hadis hamda Qurʼoni karimdagi gʻoyalarga asoslanar edi.

2. **Qizlar maktabi** — qizlar maktabi otinbibilar xonadonlarida tashkil qilinar edi. Qizlar maktabida ayolga xos hayo, iffat, odob va yuksak ayollik sifatleri shakllantiriladi.

Otin bibilar qoʻlida tarbiyalangan qizlar oilaviy hayotga mukammal tayyorlanar edi. Yozish sanʼati chuqurroq mukammal oʻrganilar edi. Qolgan taʼlim mazmuni esa oʻgʻil bolalar maktabi bilan bir xil edi.

3. **Qorixonalar** — qorixona internat shaklidagi maktab boʻlib, unda turli yoshdagi koʻzi ojiz bolalar taʼlim-tarbiya olar edilar. Taʼlim mazmunida asosan Qurʼoni karimni yod olish, Qurʼoni karimdagi sura va oyatlarni xalq ommasiga oʻqib berish edi. 1882-yili Fargʻonadagi bu maktablarda 252 talaba taʼlim oldi.

4. **Dalilxona** — kattalar maktabi bo‘lib, talabalar domla rahbarligida arab tilini o‘rganar edilar. Bu maktab uchun asosiy darslik «Dalaili-hayrat» (Muhammad payg‘ambar haqida yozilgan to‘plam) hisoblanardi. Bu to‘plamni o‘qish muddati bir yil edi. Ammo bunday maktab juda kam tarqalgandi. Jumladan, Toshkentda 4–5 ta, Farg‘onada 2 ta, Andijonda ham 2 ta shunday maktab mavjud edi. Bu maktabni bitirib chiqqanlarga maddihlar unvoni berilar edi. Maddohlar ko‘chalarda, bazmlarda, jamoatchilik joylarda islom dinini targ‘ib va tashviqot qilar edilar.

5. **Madrasa** — oliy ma‘lumot beruvchi maktab edi. Madrasalar asosan Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon shaharlarida qurilgan edi. 1420-yili Samarqandda Ulug‘bek madrasasi, 1618-yili Sherdor, 1646-yili Tillakori, 1590-yili Toshkentda Ko‘kaldosh madrasalari qurilgan edi. Bulardan tashqari, amirlik davrida Qo‘qonda 34 ta, Marg‘ilonda 25 ta, Samarqandda 22 ta, Andijonda 18 ta, Namanganda 14 ta, Toshkentda 14 ta, Xojikentda 10 ta madrasalar faoliyat ko‘rsatib turardi. Madrasalarning ta‘lim mazmunidagi asosiy predmetlari:

Shamsiya (logika — mantiq), Aqoid (islom diniga doir masalalar), «Mantiq Tahzib» (grek falsafasi bo‘lib, arab tilida yozilgan edi).

Shariat (huquq), «Avvali-ilm» (ilmning boshlanishi, arab grammatikasi, matematika kabilar).

Toshkent shahridagi musulmon diniy  
maktablarining soni

O‘quv yurtlarining nomi	Soni	O‘qituvchilar soni	O‘quvchilar soni
<b>Shayxontohur dahasi</b>			
O‘g‘il bolalar maktabi	48	48	1727
Qiz bolalar maktabi	39	39	570
Qorixona	4	4	41
Madrasa	4	4	319
<b>Sebzor dahasi</b>			
O‘g‘il bolalar maktabi	27	27	860
Qiz bolalar maktabi	14	14	199
Qorixona	3	3	119
Madrasa	6	6	282

<b>Ko'kcha dahasi</b>			
O'g'il bolalar maktabi	28	28	784
Qiz bolalar maktabi	15	15	180
Qorixona	1	1	25
Madrasa	6	7	153
<b>Beshyog'och dahasi</b>			
O'g'il bolalar maktabi	34	37	1484
Qiz bolalar maktabi	18	18	375
Qorixona	-	-	-
Madrasa	6	10	385
Jami	253	261	7503

Madrasada inson kamolotining sir-asrorlarini o'rgatuvchi kitob «Kimyoyi saodat» («Saodat kimyosi» XI asrda Al-G'azzoliy tomonidan yozilgan) kitobdan keng foydalanilar edi. Bu kitobda bolani tarbiyalashdagi pedagogik mahorat, yoshiga qarab tarbiyalash masalalari chuqur yoritilgan. Bu kitob orqali bo'lajak maktab domlari pedagogik bilim va malakaga ega bo'lar edilar. Madrasalardagi ta'lim-tarbiya ishlari ko'proq mustaqil ishlashga tayyorlar edi. Mullavachchalar uchun ajratilgan hujra (yakka yashashga moslashgan xona) ularni mustaqil ishlashdagi dastlabki shart-sharoit edi. Madrasani tugatganlar o'z bilimlarini oshirish maqsadida Buxoro, Qo'qon, Turkiya va arab davlatlarida tahsil olar edilar. Ana shu xildagi maktablardan iborat ta'lim tizimi asosan musulmonlarning farzandlari uchun xizmat qilar edi. Chor Rossiyasi rahbarlari xalqni **ruslashtirish** maqsadida turli rusmdagi yangi maktablarni ochishga majbur qildi: 1871-yilda Said Azimboy Muhammadboyev Kaufman nomiga yangi tashkil qilgan maktabi haqida ma'ruza yozdi. Unda bu maktabda foydali bilimlar o'qitilishini, uning dasturida birinchi o'rinda rus tili va grammatikasining o'rganilishi, o'zbek tilidagi darslar rus alifbosi asosida olib borilishi ta'kidlangan edi.

Said Azimboy maktabdagi o'qitish mazmuniga quyidagi fanlarni kiritishni ham zarur deb hisobladi: shariat, arifmetika va mehnat (hunarmandchilik). Nihoyat, bunday maktab 6 yildan so'ng Toshkentda ochilgan edi.

V.P.Nalivkin 1884-yilda O'rta Osiyo bo'yicha birinchi rus-tuzem maktabini ochdi. U Sirdaryo guberniyasidagi 6 oylik nazoratchilik faoliyatida madrasalarning o'quv rejalariga rus tilini ham kiritishga harakat qildi.

1884-yili fevral oyida gubernator Rozenbaxning ma'ruzasida Turkiston maorifi taraqqiyotiga doir quyidagi ma'lumotlar berilgan edi: 20 yillik Chor Rossiyasining hukmronligi davrida musulmon maktablarining soni 4 mingga yetib, unda 40 ming bola ta'lim olar edi. Mahalliy millat bolalarining 600 nafari musulmon maktablarida, 86404 nafari rus-tuzem maktablarida o'qir edilar.

Bu maktablarda o'qitish tartibi juda og'ir bo'lib, undagi asosiy kamchiliklar:

1. Shahar maktablaridagi o'quv dasturlarining haddan tashqari kengligi;

2. Boshlang'ich ma'lumot faqatgina rus tilida olib borilishi, ona tilida juda oz ma'lumot berilishi;

3. O'qituvchilarning rus tilini bilmasliklari. Shu sababli Qo'qonda va Namanganda bu maktablarni yopishga ruxsat berildi.

Rossiya rahbarlari N.I.Iliminskiyning Povolje o'lkasidagi missionerlar tayyorlash uchun monastir qoshida tashkil qilgan maktab tajribasini turkiy xalqlar o'rtasida ham amalga oshirish zarur deb hisobladilar. N.I.Iliminskiy dastlab qozoq hamda qirg'izlarni o'qitishdan boshladi. Uning maqsadi: 1) o'qitish qozoq, qirg'iz tilida olib borilsa-da, ta'lim mazmunida rus xalqini ulug'lovchi g'oyalarini targ'ib qilish; 2) yuqori bosqich sinflarda qozoq va qirg'iz bolalariga rus madaniyatini o'rgatish; 3) qirg'iz, qozoq o'g'il bolalari uchun pansionlar ochib, ularga rus tilini mukammal o'rgatishdan iborat edi. N.I.Iliminskiy o'zining pedagogik g'oyalarini tashviq qilish va amalga oshirish uchun Turkiston o'lkasiga N.P.Ostroumovni yubordi va u Iliminskiyning g'oyalarini himoya qildi. Xususan, diniy maktablarda Rossiyaga qarshi harakatlarning oldi olindi.

1896-yil 1 yanvarda Turkiston o'lkasida:

1 ta o'g'il bolalar gimnaziyasi;

1 ta ayollar gimnaziyasi;

1 ta real o'quv yurti;

1 ta o'qituvchilar;

28 ta rus-tuzem maktabi;

2 ta xususiy bilim yurti mavjud edi.

Mana shu maktablarda asosan rus bolalari o'qir, mahalliy millatlarning bolalari rus-tuzem maktablaridagina ta'lim olardi. O'lkada asosiy diqqat-e'tibor rus tilini o'qitishga qaratilgandi. Maktablarning o'quv rejalarida rus tilini o'qitishga katta ahamiyat berilgan edi.

Ismoilbek G'aspirali, M.Behbudiy, Ishoqxon Ibrat, Fitrat kabi bir guruh ma'rifat darg'alari mahalliy millat farzandlari uchun yangi usul maktablarini tashkil qildilar. So'ngra Abduqodir Shakuriy, Hamza, Saidrasul Aziziy, Abdulla Avloniyalar bu maktablarni takomillashtirdilar. O'sha davrda qator ma'rifatparvar shoirlar va tarixchi olimlar majburan rus madaniyatini keng targ'ib qila boshladilar. Alloma Sattorxon Abdulg'afurov o'zining Rossiya istilosiga qadar Qo'qon xonligining ichki ahvoli haqidagi qisqa ocherkini rus tilida yozgan edi. Asar rus sharqshunoslari uchun Turkistonning tarixiy taraqqiyotini o'rgatishga katta imkoniyat tug'dirardi.

Furqat ma'rifatchilik harakatlarini yoritishga bag'ishlab «Gimnaziya» she'rini, Zavqiy esa «Quloq soling, yoronlar» asarini yozib, mahalliy xalqlarni o'zga xalqlar bilan do'stlashishga va ularga hammaslak bo'lishga chaqirdilar.

Chor Rossiyasi bosib olgan shaharlardan biri Buxoroda 365 masjid, 103 madrasa bor edi. O'quv-tarbiya ishlari islom diniga asoslangan bo'lib, dunyoviy bilimlar cheklangan holda o'qitilardi. Xalq orasida adolat uchun kurashgan ma'rifatparvarlardan biri Ahmad Donish bo'ldi.

**Ahmad Donish** 1827-yilda Buxoroda tug'ildi. Uning otasi Nosir Buxorodagi kichik madrasalardan birida dars berardi. Donish 6–7 yoshlarida o'qish-yozishni o'rganib oldi. Uning onasi o'qimishli ayol bo'lgani uchun ham o'g'lining savodini chiqarishga harakat qildi.

Ahmad 9 yoshida maktabga kirdi, maktabni bitirib qori bo'lishi kerak edi. Biroq qorilik unga yoqmadi, «ma'nosini tushunmay yodlashni» juda yomon ko'rib qoldi. Shuning uchun har kuni darsdan so'ng tarixxonlar oldiga borib, Sharq xalqlari tarixiga oid hikoyalarni qunt bilan eshitar edi.

Ahmad maktabda 3 yil o'qigach, otasi uni madrasaga beradi. U madrasada o'qib yurgan chog'ida mustaqil holda matematika, metriya, tasviriy san'at, tarix, falsafa, falakiyot kabi fanlarni chuqur o'rgana boshladi, shuningdek, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Navoiy, Fuzuliy, Bedil va boshqalarning asarlarini

qunt bilan mutolaa qildi. Natijada Ahmad Donish Sharq xalqlarining moddiy, madaniy hayoti hamda tarixini chuqur o'zlashtirgan olim bo'lib etishdi.

Ahmad Donish madrasani tugatgach, Buxoro amiri tomonidan 1857-yilda Rossiyaga yuboriladigan delegasiyaga mirzo qilib tayinlanadi. Delegatsiya Aleksandr II ni taxtga o'tirish munosabati bilan tabriklashi hamda Rossiya bilan Buxoro o'rtasida savdo aloqalari yuzasidan muzokaralar olib borishi lozim edi. Delegatsiya Peterburgda ikki oy bo'lib, uning diqqatga sazovor joylari bilan tanishadi. Uning a'zolari rus operasini, teatrini, sirkini tomosha qiladilar, texnologiya institutini, Isaakeev ibodatxonasini, chinni zavodini, botanika bog'ini, Imperator Fanlar akademiyasining muzeyini, rasadxona va boshqa joylarni ko'radilar.

Ahmad Donish 1869-yili delegasiyaning mirzosi sifatida Peterburgga boradi. Delegatsiya a'zolari imperator Aleksandr II, uning o'g'li va boshqa katta amaldorlar bilan suhbatlashadi. Ana shu safar paytida Ahmad Donish tashqi ishlar vazirligining xodimi Stremoukov hamda tarjimon Kozimbek Abeddinov bilan tanishadi. Kozimbek o'z davrining donishmandlaridan bo'lib, u tufayli Ahmad Donish o'sha vaqtlarda Ovro'pa va Rossiyada keng tarqalgan ayrim ilg'or g'oyalarni bilib oladi.

Ahmad Donish 1873–74-yillarda uchinchi marta Rossiyaga safar qiladi. Rossiyada uch marta bo'lish adib dunyoqarashining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. U Buxoroning hamma sohalarda — iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan juda orqada qolib ketganligini yaqqol angladi.

Rus hayoti va madaniyati bilan tanishganidan so'ng o'z vatanini tobelikdan qutqarish yo'llarini qidira boshladi.

Ahmad Donish qalamiga mansub asarlar: «Majmuai hikoyoti Ahmadi kalla» (Ahmad kallaning hamma tarixiy va falsafiy asarlari (1877-y. qo'lyozma), «In risolanot isloh miyoni she'a va sun» (shiyalar va sunniylarni yarashtirish to'g'risida). Uni bizgacha yetib kelgan buyuk asari «Navodir ul-vaqoye'», «Buxoro amirlari tarixi» kitobidir. Insonni barkamol ruhda tarbiyalash va bilim berish masalalari Ahmad Donishning «Navodir ul-vaqoye'» asarida asoslab berilgan. Bu asarda ota-onalarning huquqlari va ularni o'z bolalarini nazorat qilish masalalari, borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyati, koinot tarixi, foniy va boqiy dunyoni tushunish, sevgi va muhabbat, ruh va jismning mohiyati to'g'risidagi o'z g'oyalarini ilgari surgan edi.

«Navodir ul-vaqoye'»da xalq uchun dunyoviy bilimlar zarurligi ta'kidlanadi. «Donolarning baxtsiz va nodonlarning baxtli bo'lishiga sabab» sarlavhali bobda quyidagilarni o'qiymiz: «Fan bo'lmasa, moddiy dunyoni farovon qilib bo'lmaydi... Fan baland ruh va idrok tufayligina ko'payadi. Kishi kasb-hunarga ega bo'lsayu, boyligi bo'lmasa, u baribir aqldan ozgan hisoblanadi.

Olimlarga baxtsiz bo'lganliklari uchun yorug' yo'l yo'q. Chunki yorug' va soyani qilich bilan ajratib bo'lmaydi (198-bet). Kimdakin o'z maqsadiga yetish uchun jasorat bilan intilsa, albatta unga yetadi, zotan ko'p taqillatilgan eshik ochilmay qolmaydi».

Ahmad Donish kelajak avlodni tarbiyalashda fan sirlarini o'rgatishdan oldin o'z ona vataniga sadoqatli farzand bo'lishi lozimligini uqtiradi: «Kishi o'z vatanini himoya qilsagina, o'z xalqi bilan birga bo'lsagina, u har doim barhayotdir».

Ahmad Donishning merosi O'zbekistonda falsafa fanining taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

Uning falakiyot, matematika, tarix va falsafa fanlarining rivojiga qo'shgan hissalarini endilikda jiddiy o'rganilmoqda.

Shunday qilib, Ahmad Donish komil insonni tarbiyalash borasida unga avvalo, ilm berish va axloqiy barkamollik zarurligini o'z asarlarida mukammal aks ettirdi.

### *Mustaqil ish*

Ahmad Donishning «Navodir ul-vaqoye'» asarini o'rganing.

## **ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O'G'LI FURQAT**

*(1858—1909)*

XIX asrning ikkinchi yarmi O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy fikrlarning rivojlanishi tarixida alohida o'rin tutadi. O'sha davrda xalq ommasi orasidan anchagina ilg'or fikrli ziyolilar yetishib chiqdi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Sadridin Ayniy, Avaz O'tar, Hamza Hakimzoda va boshqalar ajoyib faoliyat ko'rsatdilar. O'zbek xalqi o'zining ana shu farzandlari bilan haqli ravishda faxrlanadi. Furqat va uning mazkur zamondoshlari O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta o'zgarishlar ro'y berayotgan bir davrda yashab ijod etdilar. Zo'rlab singdirilgan rus xalqi va uning madaniyati mahalliy



aholi madaniyatining o'sishiga sezilarli ta'sir etdi. 1870-yildan «Turkiston viloyatining gazetisi» chiqa boshladi.

Shuningdek, rus-tuzem maktablari, gimnaziya, o'qituvchilar seminariyasi kabi o'quv yurtlari ochildi. Turkistondagi barcha ziyolilar ilmiy jamiyatlar va to'garaklar tashkil qildilar. Bular mahalliy aholining ilg'or vakillarini qiziqitira boshladi, ularning diqqatini o'ziga tortdi.

Toshkentda ochilgan ko'rgazma mahalliy kishilarning rus fani va texnikasi bilan tanishishi uchun qulay vosita bo'ldi. Mahalliy xalqning ilg'or namoyandalari bu yangiliklarning mohiyati va ahamiyatiga tez tushundilar. Ularning o'zlari o'rganib qolmay, eshitgan hamda ko'rganlarini aholi orasiga yoyishga majbur qildilar. Shundaylardan biri otashin ma'rifatparvar shoir Furqat ham o'z asarlarida buni aks ettirdi.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat 1858 yilda Qo'qon shahrida tug'ildi. Uning otasi yetarli darajada ma'lumotli bo'lmasada, ilm-fanni qadrlovchi kishi edi. Shu sababli o'g'li Zokirjonni olti yoshida maktabga berdi. O'tkir zehni Furqat 8 yoshda o'qish-yozishni o'rganib oldi. Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» kitobini olti oyda, Abdulqodir Bedilning «Devon»ini besh oyda mutolaa qilib chiqdi. 9 yoshida Alisher Navoiy asarlarini zo'r ishtiyoq bilan o'qishga kirishdi. Shu bilan birga, u she'r yozishni mashq qila boshladi. U o'zining dastlabki she'rini quyidagicha boshlagan:

*Mening maktab aro buldur murodim,  
Xatimdek chiqa, imloyu savodim.*

Furqat 1889-yilning may oyida Toshkentga kelib, Ko'kaldosh madrasasining bir hujrasiga joylashib, 1891-yilning may oyigacha shu yerda yashaydi. Bu esa, Furqatning ijodiy faoliyatidagi eng mahsuldor davr bo'ladi. Qo'qonga qaytgach o'z bilimini va xattotligini takomillashtirish ustida zo'r berib ishladi. Ayrim kitoblarga sharhlar yozdi, nasr bilan bitilgan ba'zi kitoblarni nazm bilan ko'chirdi. «Chor darvesh» va «No'h manzar» kitoblarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qildi. O'zi yozgan she'rlarni ham bir kitob qilib to'pladi.

Furqat juda ko'p joylarda bo'ldi. Biroq hech qayerda oddiy mehnatkash xalqning to'q va ko'ngildagidek hayot kechirayotganini ko'ra olmadi. U o'sha joylarda ham o'z vatanidagi

kabi mehnatkash xalqning qismati og'irligiga, huquqsizlik, erksizlik va kulfatga mahkum bo'lib qolganiga shohid bo'ldi. Elu yurtidan uzoqda, darbadarlikda fig'on chekib yurgan shoir o'z vatanini bir dam ham unutmadi. U 1909-yilda Yorkentda vafot etdi.

Ma'rifatparvar Furqat ilm va hunar egallash haqida fikr yuritar ekan, avvalo shunday deb yozgan:

*Kishikim bo'lsa donishmand, oqil,  
Bo'lar ilm va hunarga ko'ngli moyil.*

U ilm va fanni targ'ib qilishga, xalq orasida ma'rifatni yoyishga katta e'tibor bergan. Mahalliy aholi orasiga bilim tarqatib, uning yorug'likka chiqib olishiga yordam berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, ilm-fanning, ma'rifatning kuchini ulug'lagan, bilim olgan kishining aql-idrokiga katta umidlar bog'lagan. Shunga ko'ra «Ilm xosiyati» she'rini quyidagicha boshlagan:

*Deyin so'z ilmni (ng) xosiyatidin,  
Bayon aylab aning mohiyatidin.  
Bu so'zni go'shi bor odam eshitsun,  
O'zida hushi bor odam eshitsun!  
Jahon bastu kushodi ilm birla,  
Nadur dilini (ng) murodi ilm birla.  
Ko'ngillarni (ng) sururi ilmdandur,  
Ko'rar ko'zlarni (ng) nuri ilmdandur...*

Ilmu fanning qanchalik ulug' va qadrli ekanligini o'quvchiga tushuntirish uchun shoir buyuk ixtirolarni misol qilib keltirgan. Xususan, uning bayon qilishicha, telegrafning ixtiro qilinishi ilmning xosiyati va ilmga e'tibor berilishining natijasidir. Telegraf kishilikka taqdim qilingan qimmatli boylikdir. Furqat ilm-fan, uning foydasi to'g'risida gapirar ekan, kishilar uchun uning tarbiyaviy ahamiyatini hani ko'zda tutgan. Ko'ngillarga surur bag'ishlovchi, jamiyatni obod qiluvchi ilm kishini ma'naviy ko'rkam. boshqalar oldida yoqimli, qadrli va e'tiborli qilishini qayta-qayta uqtirgan. «Odamzotning ko'ngli misoli bir ma'dandurkim, ul ma'dandan oltin va kumush chiqadur, — deydi Furqat. — Va ba'zi bir ma'dandurkim, andin mis va qalay chiqadur». Shoir ilm va hunarga intilishning nodir fazilat ekanligini,

bunday fazilatga ega bo'lgan kishilar albatta donishmand, xalq uchun foydali insonlar bo'lib yetishuvini ta'rifiylaydi. Furqat o'qimishli bo'lish bilan birga, hunarli bo'lish zarurligini ham juda ko'p ta'kidlagan. Furqat ko'rgazmani ko'rmagan kishilarni uni borib ko'rishga undagan, u yerga borganlar ko'p yangiliklarni bilib, o'rganib olishlarini aytgan. Bu bilan, u qiziqtirish vositasi har bir ish va har bir harakatni amalda bajarilishini nazarda tutgan edi.

Uning ana shu xususdagi she'rlarida o'zbek xalq pedagogikasidagi «Bir yigitga yetmish hunar oz» va boshqa ma'nodagi maqollar o'z ifodasini topgan. Shoir Furqatning ilm va hunar egallash haqidagi fikrlari hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Ularni yoshlar ongiga yanada chuqurroq singdirish muhim vazifadir.

Furqatning axloq haqidagi fikrlari zahirida vatanparvarlik, kishilarga muhabbat, hurmat, mehribonlik, do'stlik, rostgo'ylik g'oyalari turadi. Bular sheir nazarida yuqori axloqiy fazilatlaridir va ularni targ'ib qilish uning ijodida katta o'rin egallagan. U insonni ilm-fanning, buyuk ixtirolarning egasi deb hisoblaydi va unga chuqur hurmat bilan qaraydi.

Shuningdek, Furqat do'stlik haqida yozilgan muxammas, she'r va boshqa maktublarida do'stni ko'klarga ko'taradi, unga sodiq, vafodor, mehribon va samimiy munosabatda bo'lishni ta'kidlaydi. Kishilarga do'stlikda izzat-nafsga tegmaslik, xiyonatga berilmaslikni, «hirs loyig'a» bulg'anmaslikni uqtirib, ularni nomusni ehtiyot qilishga chaqiradi. Uningcha, kishi uchun eng qimmatli narsa avvalo, uning vijdoni, nomusi, ruhiy pokizaligidir. Furqat ezgulik, muruvvatlik g'oyat zarur fazilat ekanligini isbotlash uchun xalq og'zaki ijodi namunalaridan ham o'rinli foydalangan. Bu jihatdan uning «O'tar ketar», «Bejiz nest», «Hech asar yo'q», «Jonlar kabob emas-mu?», «Ohkim yo'qtur meni (ng) ta'bimga loyiq ulfatim», «Do'st», «Esdaliklar» va boshqa she'rlari muhim ahamiyatga ega.

Madaniyatparvar shoir teatr, konsert, klub binolarini, madaniyat o'chog'i sifatida tasvirlaydi. U kishilarning ana shunday madaniy hordiq olishlari, ularning xulqiy ko'rkamliklariga yordam berishini aytib, bularning hayotiy va didaktik ahamiyatini yoritdi.

Furqat tarbiyaning maqsadi, uni amalga oshirish shartlari va uslublari to'g'risida ham ajoyib fikrlarni yozgan. Uning ta'biricha, kishi o'z vatanining sodiq farzandi, insonparvar, rostgo'y,

madaniyatli va ma'lumotli shaxs bo'lib yetishishi lozim va tarbiya shunga qaratilishi kerak. Tarbiyaning asosiy usuli ishonirishdir. Furqat bolalarga muhabbat va mehribonlik bilan munosabatda bo'lish zarurligini va bunday munosabatning ta'lim-tarbiyadagi ahamiyatini bayon qilgan.

Shoir maktabda bolalar o'zlarini erkin, quvnoq tutishlari kerak, deb bilgan. Ularga tazyiq, zug'um qilishdek salbiy munosabatlar o'qitish, o'rgatish ishlarida nihoyatda zararli ekanini asoslagan.

### *Mustaqil ish*

Furqatning «Ilm xosiyati» she'rini tahlil qiling.

## **MUNIS XORAZMIYNING MA'RIFIY QARASHLARI**

(1778—1829)

Munis Xorazmiy XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan tarixchi, olim, pedagog va zabardast xattot edi. Uning yashab ijod etgan davri feodalizmning qulab borayotgan paytiga to'g'ri keldi. Feodalizm tuzumining razilligi shu darajaga yetib bordiki, xalqning tortgan azob-uqubatlarining nihoyasi yo'q edi.

Shermuhammad Avazbey o'g'li Munis ana shunday og'ir zamonda 1778-yilda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida dunyoga keldi. Munis uning adabiy taxallusi bo'lib, lug'aviy ma'nosi «ulfat», «hamdam», «do'st» demakdir.

Munis dastlabki ta'limni o'z qishlog'ida maktabda oldi. So'ngra madrasada o'qidi. Madrasa ta'limidan so'ng mustaqil arab va fors tillarini o'rgandi. U Sharq klassik adabiyoti vakillari Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Lutfiylarning ijodiyotlarini chuqur o'zlashtirdi. Munisning odob-axloqqa doir g'oyalari uning g'azallar, mustazodlar, muxammaslar, musaddaslar, qasidalar, qit'alar, ruboiylar, tuyuqlar, chistonlarida ifodalangan.

Munis o'zining «Savodi ta'lim» asarida ilm-fan, maktab, o'quv-tarbiyaga doir fikr-mulohazalarini batafsil yoritgan. Bu asarning birinchi qismida harf mashq qilishga tayyorgarlik masalalarini, ikkinchi qismida esa xat mashqi va uning usuli haqida amaliy ishlarni bayon qiladi.

Munis tarjimon sifatida XV asrda yashab ijod etgan tarixchi Mirxondning «Ravzat us-safó» asarining birinchi va ikkinchi jildini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Munis ma'rifatparvar shoir sifatida o'z zamonasining eng ilg'or ma'rifatparvari edi. Shoir o'z she'rlarida tarbiya masalalarining zarurligini uqtirdi. U insonga xos yuksak fazilatlarini ilm orqali tarbiyalash lozimligini ko'rsatib bergan. Munis og'ir kasallik tufayli 1829-yilda vafot etdi. U qoldirgan o'lmas adabiy va ma'rifiy meros yoshi avlod tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kash etmoqda.

Munis kishilarni rostgo'ylik, mardlik, xalqchillik, do'stlik, vatanparvarlik va vafó ruhida tarbiyalash eng avvalo, ilm orqali amalga oshirilishini ta'kidlagan. U bilimning qudratli kuch ekanligini ko'rsatadi. Munis ilmning afzalligi to'g'risida maktab va madrasalarda o'qitiladigan fanlarning mohiyatini she'riy misralarda shunday bayon etgan edi:

*Goho talabalar birla gubxan aro  
Surub dardkashlikka yuz mojaro,  
Gohi rindlar bazmiga yo'l topib  
Hamonki maqsudg'a qo'l topib,  
Gohi maktab ichra kirib shodkom,  
Madrasa sari aylab xirom.  
Qayu yerda ahbob bazm aylasa,  
Tarab irtiqobiga azm aylasa,  
O'zimni alar ichra solur erdim,  
Ko'ngul qong'uncha bahra olur erdim.*

Munis «Savodi ta'lim» asarida donishmandning ilmga bo'lgan e'tiqodi uning o'z xatida aks etishini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, xatni chiroyli, husndor va xatosiz yozilishining tarbiyaviy ahamiyatini quyidagicha ochib beradi.

*Xatidin o'lub xujasta ta'lim,  
Ta'lim fani xatiga taslim,  
Sharmanda xati sabz xatlar,  
Xol ofati xatida nuqtalar.  
Ta'lim berur na bir raqamdin,  
Xat yozmoq ishi yeti qalamdin.*

Shoir insonlarni bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishini, do'stlik rishtalarini bog'lovchi nomalar yozish haqidagi g'oyasini, maqsadi va vazifalarini alohida bayon etadi:

*Ko'p muddat erdi guruhi mushtoq,  
Ta'lim sumakbag'rig'a ushshoq,  
Mashq etmak ishida xat bitarga,  
Ta'lim vuqufiga yetirga...  
Bilgancha surub qalamni har yon  
Ta'lim ishin aylar erdim oson.*

Munis ijodiyotida odob-axloq masalalari alohida o'rin egallaydi. Uning ijodiyotidagi asosiy yo'nalishlar: nohaqlik va zulmga qarshi adolat, saxiylik, xalqqa cheksiz muhabbat, ilm-ma'rifat, jaholatga qarshi kurashuvchi insoniy fazilatlar.

Munis o'z zamonasidagi o'zaro urushlar, hirsu dunyo odamlarni bir-biriga nisbatan mehrsiz bo'lishga asos bo'ldi deydi:

*Ne natija berur adab, hunaring  
Na nazarga kirar nasab guharing.  
Bas erur bu zamonda bisotling aro-  
qara siymu zaring.*

Munis o'z asarlarida mehr-oqibat hamda do'stlik tuyg'ularini teran satrlarda shunday ifodalagan edi:

*Ey do'st, tani zarim aro jonim eding,  
Iqlimi muhabbat uzra sultonim eding,  
Xush keldingu jonimda nishiman qilding  
Xush horki, base aziz mehmonim eding.*

Munis o'z asarlari bilan tarbiya masalalariga katta e'tibor berdi. Uning didaktikasi insonni yuksak olijanoblik, rostgo'ylik, halol, ilmga chanqoq, mehru oqibatli bo'lishga qaratilgan. Munisning adabiy va pedagogik g'oyalari maktablarda to'g'ri, chiroyli yozuv tartib-qoidalarini o'rgatish uslubi sifatida xizmat qilgan va qilmoqda.

Munisning boy merosi kelajak avlod tarbiyasida ham muhim o'rin tutadi.

## *Mustaqil ish*

Munisning «Savodi ta'lim» asarini o'rganing. Munis. Saylanma. 332–341-betlar.

### **XIX ASRNING 80-90-YILLARIDA TURKISTONDA IJTIMOY PEDAGOGIK FIKRLAR**

XIX asrning 80-yillarida chorizmning xalq manfaatiga qarama-qarshi mustamlakachilik siyosati sinfiy ziddiyatlarni yanada keskinlashtirdi. 1886-yilda tasdiqlangan «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizom» xalqni, ayniqsa, dehqonlarni ayanchli ahvolga soldi. Bunday og'ir sharoitda Turkistonda ilg'or ziyolilar ijtimoiy harakatlarni boshlab yubordilar. Bunday harakatlarda Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy, Anbar Otin, Dilshodi Barno, Asiriy, Avaz O'tar va boshqalar faollik ko'rsatdilar.

Ijtimoiy-ma'rifiy harakat vakillari avvalo xalqni Rossiyaning madaniyatini o'rganishga da'vat etishga undashar edi. Lekin ular o'zbek xalqining kamsitilishiga murossasiz kurashdilar. Anbar Otin «Noyibto'ra ayoli Yekaterina»ga sarlavhali she'rida shunday yozgandi:

*Singiljon hamsoya bo'ldik sirni pinhon etmagil.  
O'zbeku g'ayriya bu deb, millat isyon etmagil.  
Pokiza ustolda o'tirmoq, ajab bergay shuku,  
Bu faqat bizlarga xos deb, fikri nodon etmagil.  
Hamnafas sanga noib, nasihat aylag'il,  
Sart millatlarni xo'rlab, chashmi giryon etmag'il.*

Ma'rifatparvar shoiraning yuqoridagi she'ridan ma'lumki, u mehnatkashlarni ezishga va ularga ko'rsatilayotgan zulmga qarshi isyonkor bo'lgan.

O'rta Osiyo Rossiya tasarrufiga o'tgach, keyin Rossiya hukumatida uning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'rifiy taraqqiyoti uchun ilmiy, ma'rifiy ish olib borishga zarurat tug'ilgan. Natijada ayrim iqtidorli olimlar bu o'lkadagi barcha ishlarni o'z qo'llariga olganlar. O'lkaning tabiiy geografiyasi olim, sayyoh N.A.Seversov, A.P.Fedchenko, I.V.Mushketov, tarixchi V.Bartold, N.I.Vasilevskiyar tomonidan ilmiy tadqiq qilina boshlandi. O'lkani o'rganish va tibbiyot jamiyatlari mahalliy xarakterga ega bo'lib, ularning ko'pi Rossiya

miqyosidagi jamiyatlarning bo'limlari edi. Turkiston o'lkasida hammasi bo'lib 15 ta ilmiy jamiyat ishlagan. Ularda olimlar tarix, sharqshunoslik, arxeologiya, tibbiyot va boshqa fanlar bo'yicha ilmiy kuzatishlar olib bordilar. Natijada Turkistonning tarixiy taraqqiyoti, san'ati, madaniyati va maorifiga doir ma'rifiy xarakterga ega bo'lgan ko'plab ilmiy asarlar yaratildi.

XIX asrning 80-yillarida chor Rossiyasining O'rta Osiyo xalqlarini ruslashtirish siyosatiga doir chora-tadbirlari xalqning noroziligini kuchaytirdi. O'sha paytlarda tashkil etilgan rus maktablarida qisman o'zbek, tojik, qozoq bolalari ham o'qir, lekin ularning soni nihoyatda kam edi. Ota-onalar mazkur maktablarda islomiyadan ta'lim-tarbiya berilmaganligi sababli ulardan o'z bolalarini olib keta boshlaganlar. Shunga ko'ra, Turkiston ma'murlari musulmon ruhoniylari bilan hamkorlikni mustahkamlash uchun maktablarda yangicha mazmunli ta'limni joriy etishni ma'qul ko'rdilar. 1884-yilning dekabrda yangi va eski shahar oralig'ida yangicha rus-tuzem maktabi ochildi va asta-sekin bunday maktablar Samarqand, Farg'ona viloyatlarida ham tashkil etila boshlandi.

Mazkur maktablardagi o'qitish tartibi quyidagicha edi:

Rus-tuzem maktablarida o'qish odatda I sentyabrdan boshlanib, 20 mayda tugar edi. Turkistonning barcha maktablari uchun 1895-yilda mashg'ulotlar jadvali tuzildi. Barcha rus-tuzem maktablarida 4 soatdan dars bo'lib, o'qish erta soat 9 dan boshlanib bir yarimda tugar edi.

Bir bosqichli rus-tuzem maktablarida birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi bo'lim («jamo») bo'lar edi. Bu bo'limlar o'z navbatida ikki asosiy guruhga bo'linadi. I-II bo'lim bir guruh. III-IV bo'lim ikkinchi guruh. Bu guruhlarni ruscha va o'zbekcha sinf o'qituvchisi navbat bilan ikki soatdan o'qitar edi. Ularni bir xonaga joylashtirib bir o'qituvchi o'qitar edi.

Dars jadvali ikki bo'lim bolalarini bir vaqtda o'qitishga mo'ljallab tuzilar edi<sup>1</sup>.

1906 yil 31 martda sobiq Maorif vazirligi «O'zga xalqlar ibtidoiy maktabi» haqidagi yangi qoidani ma'qullaydi. Bu «qoida»ga muvofiq, mahalliy xalq bolalariga ona tilidan xat-savod o'rgatishni ham rus tili o'qituvchisiga topshirish lozim edi, yerli muallim esa faqat shariatni o'qitishi kerak edi. «Qoida»ning bu moddasini Turkiston rus-tuzem maktablariga tatbiq qilish ancha

<sup>1</sup> Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. T.: 1960, 77-bet.



qiyin edi: erli xalqning tasavvur qilishicha, «musulmoncha xat» din bilan bogʻlangan edi. Shunday boʻlgach, musulmoncha xatni rus tili oʻqituvchisi oʻrgatsa, mahalliy xalqda rus-tuzem maktablariga ishonchsizlik ortishi va isyon koʻtarilishi mumkin edi. Shuning uchun ham oʻqitish masalalari tez-tez muhokama qilingan. 1905 yil 23 avgustdagi majlisda ikki bosqichli rus-tuzem maktablarida yangi fanlarni oʻqitish va taʼlim muddatini qisqartirish masalalari koʻrilgan boʻlib, unda «Avvali ilm» kitobini bir oy, «Bidon» kitobini ikki oy, «Fihi Kaydoniy» kitobini esa 4 oy muddatda oʻqitish taklif etilgan. Shu bilan birga, Umar

Kunlar	Soatlar	I boʻlim, II boʻlim	III boʻlim	IV boʻlim
Shanba	9-10 10 <sup>5</sup> -11 <sup>5</sup> 11 <sup>25</sup> -12 <sup>25</sup> 11 <sup>30</sup> -1 <sup>30</sup>	Shariat - Mahalliy til -	- Shariat - Mahalliy til	- Shariat - Mahalliy til
Yakshanba	9-10 10 <sup>5</sup> -11 <sup>5</sup> 11 <sup>25</sup> -12 <sup>25</sup> 11 <sup>30</sup> -1 <sup>30</sup>	Shariat Mahalliy til - -	- - Mahalliy til Tarix	- - Mahalliy til Tarix
Dushanba	9-10 10 <sup>5</sup> -11 <sup>5</sup> 11 <sup>25</sup> -12 <sup>25</sup> 11 <sup>30</sup> -1 <sup>30</sup>	Shariat Mahalliy til - -	- - Arifmetika Geografiya	- - Arifmetika Geografiya
Seshanba	9-10 10 <sup>5</sup> -11 <sup>5</sup> 11 <sup>25</sup> -12 <sup>25</sup> 11 <sup>30</sup> -1 <sup>30</sup>	- Mahalliy til - -	Shariat - Geografiya Arifmetika	Shariat - Geografiya Arifmetika
Chorshanba	9-10 10 <sup>5</sup> -11 <sup>5</sup> 11 <sup>25</sup> -12 <sup>25</sup> 11 <sup>30</sup> -1 <sup>30</sup>	- Mahalliy til Arifmetika	Shariat - - Geografiya	Shariat - - Geografiya
Payshanba	9-10 10 <sup>5</sup> -11 <sup>5</sup> 11 <sup>25</sup> -12 <sup>25</sup> 11 <sup>30</sup> -1 <sup>30</sup>	Mahalliy til Arifmetika Mahalliy til	Arifmetika Tarix -	Arifmetika Tarix -

Nasafiyning «Muxtasari viqoya» va «Aqoid» kitoblaridan diniy ma'lumotlar ham berish masalasi muhokama etilgan.

Tadqiqotchi olim Yo'ldosh Abdullayevning yozishicha, «Avvali ilm» darsligi savol-javob shaklida yozilgan 5 betli diniy kitob, «Bidon» bir bosma taboq hajmli arab va fors tili grammatikasi darsligi, «Fihi Kaydoniy» 16 betli diniy kitob, «Muxtasari viqoya» esa «Viqoya» kitobining qisqartirilgani bo'lib, unda tahorat, namoz, ro'za, haj, meros, taloq haqidagi ma'lumotlar berilgan. Umar Nasafiyning «Aqoid» kitobi arabcha yozilgan bo'lib, madrasada o'qitilar edi.

«Muhimmotuddin» kitobining asl nomi «Muhimmotuddin li avlodul muslimin» — «Musulmon bolalari uchun dinning eng muhim yo'llari» bo'lib, Toshkentdagi birinchi rus-tuzem maktabining o'zbek sinfi muallimi Toshxo'ja Eshonxo'jayev tomonidan o'zbek tilida yozilgan darslikdir.

Sa'diy Sheroziy (1184–1291)ning axloqiy-falsafiy asarlari «Guliston», «Bo'ston», Mulla Muhammadrasul Rasuliyning «Rahbari forsiy», Muhammadamin ibn Muhammadkarim hoji (Faxriddin) ning «Turkcha qoida», «Jo'g'rofiyai riyoziy», «Rahbari avval» kabi darsliklari rus-tuzem maktablarida ham qo'llanilar edi.

Chimkentlik Umarjon Abdug'afur «Ustodi avval» darsligini o'rganib shunday yozgan edi: «Ushbu «Ustodi avval»ni o'qig'on yosh shogirdlar eski tartib bilan o'qishni (ng) azob va mashaqqatlaridan qutulib, tez fursatda muddaolarig'a va maqsadlarig'a, ya'ni qora xatni o'qimoq va yozmoq davlatig'a osonliq bilan yetib, oz vaqtda bu Turkiston muzofotida turg'uvchi fuqarolarni (ng) asarlari yozadurg'on va qora xatni o'qiydurg'on bo'lib qolsalar ajab emas, deb umid qilamiz»<sup>1</sup>.

Rus sinflaridagi ta'lim asosan tarjima uslubi (1884–1897-yillar) va ko'rsatmali natural uslubida (1898–1917-yillar) olib borilgan. Tarjima uslubida mavzular avval rus tiliga, so'ngra o'zbek tiliga tarjima qilib o'tilgan.

O'zbek sinflari uchun Saidrasul Sayidazizov yaratgan «Ustodi avval» darsligi g'oyat katta shuhrat qozongan.

Turkiston o'lkasida 1886-yilda 4 ta rus-tuzem maktabi bo'lib, ularda ta'lim olgan 116 nafar o'quvchining hammasi yerli

<sup>1</sup>Turkiston viloyatining gazetisi. 1903 yil, 48-son.

millat bolalari edi. 1886-yil oxirida mazkur maktablar soni 28 taga, ulardagi o'quvchilarning umumiy soni 701 nafarga yetgan, ularning 650 nafari yerli xalqning, 51 nafari ruslarning o'g'il-qizlari edi. Lekin o'quvchilarning faqat o'n besh foizi rus-tuzem maktabini to'liq bitirib chiqib, guvohnoma olgan. Chunki dastlabki davrda yerli xalq rus-tuzem maktabiga hadik bilan qaragan, shuningdek, turli-tuman ig'volar bolalarning o'qishni tashlab ketishiga sabab bo'lgan<sup>1</sup>.

Rus-tuzem maktablarini ochishdan ko'zlangan maqsad musulmon bolalariga rus tilini o'rgatish edi. Chunki O'rta Osiyodagi har bir fuqaro ma'muriy rahbarlarning tilini bilishi shart edi. Shunga ko'ra, bunday maktablarning soni ko'paytirilib, ulardagi ta'limning mazmuni takomillashtirib borildi.

1891-yili Xivada, 1894-yili Buxoroda, 1905-yili Toshkent shahrida ikki bosqichli rus-tuzem maktabi tashkil qilindi. Bunday maktablar soni asta-sekin ko'paya boshlagan. Tadqiqotchi olim F.Dumenkoning ma'lumotlariga ko'ra, Sirdaryo viloyatida 34 ta, Farg'ona viloyatida 20 ta, Samarqand viloyatida 15 ta, Yettisuv viloyatida 19 ta, Zakaspiyda 10 ta ikki bosqichli rus-tuzem maktablari ochilgan.

Rus-tuzem maktabida bir kishi faxriy mutavalli qilib tayinlangan. Faxriy mutavalli maktab joylashgan shahar yoki qishloqda yashaydigan o'sha yerning eng yirik boylaridan bo'lgan. Chunonchi, Toshkentdagi 1-rus-tuzem maktabiga mashhur Saidkarimboy, 3-maktabga Qozi Muhiddinxo'ja Hakimxo'ja Eshonov, ikki bosqichli rus-tuzem maktabida Toshkentning yirik boylari Mahsudxon va Orifxo'ja Azimxo'jayev faxriy mutavalli bo'lgan edi. Faxriy mutavallilar 1899-yil 29 martda qabul qilingan yo'riqnoma asosida ish olib borganlar. Bu maktablarning o'qituvchilari seminariyani bitirib chiqqan bilimdon, har taraflama tarbiyalangan shaxslar bo'lib, ular ma'lum buyruqlar bilan ishga qabul qilingan. Mahalliy o'qituvchilarning maoshi rus o'qituvchilarining maoshidan ancha kam edi. O'zbek sinf muallimi bir yilda 240 so'm, maktab mudiri esa 600 so'm olardi. O'qituvchilarning maoshi yetarli emas edi, shunga qaramay, S.Saidazimov, M.M.Oraqulov, M.Rasulov kabu ko'plab o'qituvchilar jonbozlik bilan mehnat qilardilar.

<sup>1</sup>O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1990, 26-yanvar.

Mazkur davrda Oʻrta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida keskin oʻzgarishlar roʻy berdi va buning asosiy sababi xalqning azob-uqubatli hayoti boʻldi. Mustamlakachilikning mashaqqatidan qutulish uchun 1892-yil 7 iyun kuni Toshkentda, 1898-yili Andijonning Mingtepa qishlogʻida va Turkistonning Jizzax, Buxoro, Samarqand va Xiva kabi viloyatlarida xalq qoʻzgʻolonlari, aniqrogʻi, Chor Rossiyasi hukmronligidan norozi boʻlgan ruhoniylar Eshon Muhammadali Xalifa, Sobir soʻfi (Dukchi eshon — Madali eshon) boshchiligida musulmonlarning qoʻzgʻolonlari boʻldi. Lekin ularning ayovsiz bostirilishi xalqning ikki tomonlama ezilishiga olib keldi. Hayoti yanada ogʻirlashgan xalqning ilmu maʼrifatga intilishi susaydi.

Mahalliy bolalar maktablardan keta boshladilar.

Turkistonda 1895-yilda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Uning boshqa maktablardan farqi — boylar va kambagʻallarning bolalari birgalikda oʻqishi hamda diniy ilmlar bilan birga dunyoviy fanlar oʻqitilishida edi. Yangi usul maktablarining koʻpayishiga chor amaldorlari va mahalliy ruhoniylar toʻsqinlik qildilar. Yangi usul maktablarini himoya qilish uchun 1909 yilda 3 kishidan iborat komissiya tuzildi. Komissiya maxsus «qoida» ishlab chiqdi va chor amaldorlari oʻrtasida muhokama etildi. Gubernator maslahatchisi A.A.Semyonov quyidagi taklifni kiritdi: Yangi usul maktablari ikki turdan iborat edi. Birinchisi masjidlar qoshidagi maktablar, ikkinchisi tovush usuliga asoslangan yangi tipdagi maktab edi. Yangi usul maktablarining boshqa maktablardan farqi: darsni sinf tartibida oʻqitish, darsliklar oʻz ona tilida boʻlib, faqat Qurʼoni karimning arab tilida oʻqitilishi, savod oʻrgatish davrida bolalarga oʻqish va yozishni oʻrgatish, aniq fanlarning oʻquv dasturiga kiritilishi, oʻquvchilarni partalarda oʻtqazib, koʻrgazmali darslardan ham foydalanar edi. Bu maktablar dastlab Samarqandda, Fargʻonada tashkil etilgan edi. Yangi usul maktablarida asosan oʻqitish ona tilida olib borilsa-da, oʻqituvchining millati va darsliklarning qaysi tilda nashr etganiga qarab oʻqitilar edi.

Mahalliy xalq farzandlari rus-tuzem va bilim yurtlarida turli millatlar (rus, qozoq) bilan birga taʼlim olar edilar. 1870-yili Samarqandda mahalliy millat bolalari uchun ham rus-tuzem maktablari ochildi. 1877-yili Toshkentda oʻgʻil bolalar va qizlar

progimnaziyalari (to'liqsiz gimnaziya) ochildi va keyinroq gimnaziya aylantirildi. 1884-yil 19 dekabrda Toshkentda, 1887-yili Samarqandda tashkil qilingan birinchi rus-tuzem maktablari hamda 1889-yili Samarqandda ochilgan xotin-qizlar gimnaziyasi ma'rifatchilikni targ'ib qilishga xizmat qildi.

**1909-yil Turkistonda boshlang'ich  
rus-tuzem maktablari<sup>1</sup>**

?	Viloyatlar nomi	Rus-tuzem	O'qituvchilar soni
1	Sirdaryo	34	1354
2	Garg'ona	20	660
3	Samarqand	15	375
4	Ettisuv	19	162
5	Zakaspiy	10	328
	<b>Jami:</b>	<b>98</b>	<b>3077</b>

XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoda ma'rifatparvarlik harakati keng rivojlanib, bu harakatning boshida Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy, Hamza Hakimzoda, Sadridin Ayniy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy, I. Rahmatullayevlar turib o'quv dasturlari, darslik va metodik qo'llanmalar yaratishda faollik ko'rsatdilar va yangi maktab — xalqqa xizmat qiladigan maktablar tashkil qilishga harakat qildilar.

**ABDUQODIR SHAKURIY**

Samarqand shahrida birinchi yangi usul maktabini tashkil qilgan ziyolilardan biri Abduqodir Shakuriydir. U 1875-yilda Rajabamin qishlog'ida bog'bon oilasida tug'ilgan.

Shakuriy o'zining tarjimai holida shunday deb yozadi: «Mening tug'ilgan joyim Samarqandning sharq tomoniga joylashgan Rajabamin qishlog'idir. Xat-savodni chiqarganimdan

<sup>1</sup>Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o'rganish. T.: 1960, 75- 83-bet.

so'ng, Orifjonboy madrasasiga joylashdim va o'qituvchi To'raxoja mudarris qo'li ostida huquq ilmi, grammatika (sarf va nahv) arab tili, logika ( mantiq) va aqoid ilmlarini o'rgandim. Har yoz ta'til vaqtlarida eski tartibda o'z uyimda maktabdorlik qilar edim. Ammo ta'lim-tarbiya usulining qiyinligi meni doim qiynar edi. Bir kuni o'z ishim bilan Samarqand shahridagi gimnaziyaga ko'zim tushdi. Ochiq derazalaridan muallim va shogirdlarga diqqat bilan qarar edim va kamoli intizom ila raftoru harakatlari odob va axloq doirasida ekanligini ko'rdim. Taajjublanib o'z-o'zimdanda so'rar edimki, «nima sababdan biz musulmonlar bu xildagi maktab va madrasalarga ega emasmiz? Shu tariqa dilkash joylar qurib musulmon bolalarini tarbiya qilish bizlarga ham muyassar bo'larmikan?» Bu jihatdan ko'p mutaassir edim. Ammo na choraki, bu matlabimni hech kimsaga izhor etishga jur'at etolmas edim».

Ushbu gimnaziyaning ko'rinishi Shakuriyning ko'z o'ngidan ketmaydi, u mahalliy xalq bolalari uchun ham shunday maktab tashkil qilishga harakat qiladi.

Shakuriy bir vaqtlar soatini tuzatish uchun Usta Bahridinning Rastai Nav ko'chasida joylashgan do'koniga kirganligini, soatsozning bir varaq qog'ozni diqqat bilan o'qiyotganligini, uning nima ekanligini so'raganida soatsoz «bu gazeta, bu orqali ko'rlarning ko'zi ochiladi va hatto, butun dunyoni ko'ra oladi», deb javob berdi. Shakuriy bu varaqni soatsozdan olib, o'qib chiqadi. U o'zbek tilida chiqadigan yagona «Tarjimon» gazetasi edi. Shu asnodda Shakuriyda gazeta o'qishga havas tug'iladi. U gazetalar orqali Ozarbayjon, Tatariston va Qrim maktablaridagi yangi o'qitish usullaridan xabardor bo'ladi. Bu to'g'rida shunday deb yozadi: «Bir kun xabardor bo'lib, «Tarjimon» gazetasining bir yillik obunasi uchun 4 (to'rt) so'm to'ladim, gazetani qiziqish bilan mutolaa qila boshladim. Mazkur gazetada yangi usul maktablari haqida maqolalar ham bosilib turar edi. Men bu maktablarni ko'rishni orzu qila boshladim. Oxirida Qo'qon shahriga borib, 10 kun davomida yangi usul maktabida bo'lib, uning ta'lim-tarbiya usullari bilan tanishdim. Samarqandga qaytayotib, Qozonda ham shunday maktablar borligidan xabar topdim. Shundan so'ng o'z maktabim uchun Qozondan ba'zi darsliklar oldim». Shakuriy shundan so'ng butun faoliyatini yangi usuldagi maktab tashkil qilishga safarbar etgan. Birinchi

marta o'z qishlog'i Rajabaminda 1921-yilning kuzida yangi usul maktabini tashkil qilgan. U davrlarda darslik va qo'llanmalar bo'lmagani sababli, Shakuriy harflarni doskaga yozib qo'yar, o'quvchilar esa ularni o'z daftarlariga ko'chirib yozar edilar. Shuningdek, u qisman tatar tilida yozilgan kitoblardan ham foydalanar edi.

Tatar ziyolilari Rossiya bilan ancha yaqin aloqada edilar. Bu hol taraqqiyparvar kishilar uchun jahon madaniyati ila tanishish va ulardan qisman o'z maktablarida foydalanishda katta yordam berar edi. Ular turli darslik va majmualar asosida o'z maktablari uchun qo'llanmalar yaratardilar. Shuningdek, Shakuriy ham tatar pedagogi Abdulhodiy Maqsudiyning «Muallimi avval», «Muallimi soniy» deb atalgan darsliklaridan o'z maktabida foydalangan.

Chor hukumatining mahalliy amaldorlari bu maktabning ochilishiga rasman qarshi bo'lib, uning o'quv dasturini qattiq nazorat qilardilar. Ular maktabda o'tiladigan diniy darsliklarga hech qanday to'sqinlik qilmas, ammo dunyoviy fanning o'qitilishidan tashvishlanar edilar. Maktabda arifmetika, geografiya, tibbiyot kabi dunyoviy fanlar o'qitilardi, xolos. Hukumatning mahalliy ma'murlari tez-tez kelib maktabni tekshirar, o'quvchilarning kitob-daftarlarini ko'zdan kechirardi.

Shogirdlaridan birining aytishicha, Shakuriy qiyinchiliklar bilan qo'lga kiritgan yagona globusni faqat maxsus vaqtda sinfga olib kirar, boshqa vaqtda esa yashirib qo'yar ekan. Bolalarni olti oyda savodli qilib chiqaradigan yangi usul maktabining paydo bo'lishi ayrim savodsiz va hasadgo'y mahalliy amaldorlarni tashvishga solib qo'ygan, ular bunday maktablarning ochilishi va keng tarqalishiga qattiq qarshilik ko'rsata boshlaganlar.

Shakuriyning yozishiga ko'ra, u o'z maktabi uchun shahardan aravada doska va partalar olib kelayotganida behuda g'azablangan qishloq ruhoniylari «Endi uyingizga bir butxona soling», deb piching qiladilar. Jasoratli muallim esa, «Kerak bo'lsa, uni ham quramiz», deb javob beradi va qo'rqmasdan ishini davom ettiraveradi.

Shakuriyning tarjimai holidan yana quyidagilarni o'qiymiz: «Afsuski, kishilar bu o'qitish usulining foyda va haqiqatidan voqif emas edilar. Mening o'zim va maktabimni ba'zilar ta'rif-tavsif etsalar, ba'zilar esa yolg'on xabarlar tarqatar edilar.

Bolalarning o'qishga kelish va ketish vaqti tartibsiz bo'lib, shunga ko'ra, maktabda durust intizom yo'q edi. 3-4 ta doimiy shogirdimdan tashqari, boshqa bolalar sabrsizlik qilar edilar, ba'zilar bir oy, ikki oy, uch yoki to'rt oy o'qib, hech qanday ruxsatsiz maktabdan ketib qolar edilar».

Shunday bo'lishiga qaramay, maktab kundan-kunga mustahkamlanib borar, borgan sari ko'proq bolalarni o'ziga jalb etardi. Muallim Shakuriy o'z o'quvchilari uchun yilda bir marta umumiy imtihon uyushtirar, imtihonda ota-onalar oldida o'quvchilarning bilimlarini sinab ko'rar edi. Imtihonga odamlar to'da-to'da bo'lib kelib, o'z bolalarining qisqa muddat ichida xat-savodli, hisob, geografiya va tibbiyotdan ma'lumotga ega bo'lganini ko'rib hayratlanardilar.

Ana shunday sharoitda Shakuriy bolalar uchun o'z ona tillarida o'qish kitoblari, darsliklar yaratish zarurligini yaxshi tushundi. U bolaning yoshiga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki ma'lumot berishni ko'zda tutib, darslik tuzishga kirishdi. Birinchi navbatda alifbe kitobini tuzish va nashr etish lozim edi. Birinchi alifbeni Shakuriyning o'zi tuzdi. «Rahnamoi savod» («Savod chiqarish rahbari») deb nomlangan bu kitob yaxshi qog'ozda nasta'liq xati bilan yozilgan bo'lib, Shakuriyning shogirdi, yozuvchi Rahim Hoshimning aytishicha, undagi so'zlar bo'g'inlarga ajratib ko'rsatilgan, kitob oxirida o'qish uchun kichik xrestomatiya berilgan. Shakuriy ko'p yillik pedagogik faoliyati natijasida bolalarni o'qitishda «tovush-harf» usuli (har bir tovushni alohida harf bilan yozish) ning qulayligi va osonligini aniqladi va 1913-yilda uning rahbarligida, shogirdlaridan biri, Samarqandning mashhur pedagoglaridan bo'lgan Ismatulla Rahmatullayev tovush-harf usuli asosida yangi «Alifbe ta'limi» kitobini tuzdi. Bu kitob Toshkent shahrida nashr qilindi. Darslik arab alifbesida tojik tilida yozilgan bo'lib, u ko'p yillar davomida savod chiqarishda eng yaxshi qo'llanma sifatida xizmat qildi. Uning kirish qismida tez va oson savod chiqarish masalasi bo'yicha uslubiy maslahatlar berilgan. Bu alifbe tovush-harf usuli asosida tuzilgan. U 46 betdan iborat bo'lib, taxminan 90 ta darsga mo'ljallangan. Shuningdek, analitik-sintetik usul asosida yozilib, 3 qismdan tashkil topgan. Bolalarni harflarning elementlari bilan tanishtirish, harflarning turli ko'rinishlari, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hikoya va she'rlar



arab tilida yozilgan edi. Alifbe kitobining so'nggi sahifasida majmua qismi boshlanadi, unda kichik-kichik tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, hikoyalar, she'rlar berilgan.

Shakuriy tomonidan 1907-yilda yozilgan ikkinchi kitob «Jome'ul-hikoyot» («Hikoyalar to'plami») dir. U qayta tuzatilib, to'ldirilib, 1911-yilda ikkinchi marta nashr qilingan. Kitob boshlang'ich maktabning ikkinchi sinfi uchun xrestomatiyadir. Uning birinchi betida shunday yozilgan:

«Bu risola boshlang'ich maktablarning ikkinchi sinf shogirdlarini o'qitish uchun tuzildi. Kitobni tuzishda o'zbek va tojik tilidagi kitoblardan foydalandim».

Yetmish ikki betli bu kitobning matni nafis qog'ozda aniq, chiroyli xat bilan yozilgan. Birinchi qismiga tarbiyaviy ahamiyatga molik 48 ta kichik-kichik hikoyalar kiritilgan. Ikkinchi qismida mumtoz yozuvchilarning asarlari va tarjimalaridan olingan 15 ta she'riy parcha berilgan.

O'quvchilar diqqatini avvalo kitobning tili, uning soddaligi, ravonligi va ifodaliligi o'ziga jalb qiladi. Ikkinchidan, kitobda berilgan materiallar boshlang'ich maktabning II va III sinflaridagi bolalarning yoshi va saviyasiga g'oyat mosdir. Muallif kitobning boshida yangi usul maktabidagi o'qish-o'qitish ishlari haqida qator uslubiy maslahatlar bergan. Kitobga mumtoz shoirlarning asarlaridan qiziqarli matnlar tanlab olingan. Bolalar zo'r havas va qiziqish bilan o'qiydigan har bir hikoya oxirida axloq va tarbiya bo'yicha qisqa-qisqa xulosalar chiqarilgan.

Kitobda Firdavsiy, Nizomiy, Sa'diy, Jomiyning she'rlari, hikoya va g'azallari bilan bir qatorda, rus klassik yozuvchilarining tarjima qilingan ertak va masallari mavjud edi. Jumladan, I.A.Krilovning «Maymun va ko'zoynak», «Qarg'a va tulki» masallari, L.N.Tolstoyning bolalar uchun yozilgan «Bobo va nabira», «Ikki o'rtoq», «Pyotr birinchi» kabi hikoyalari kiritilgan.

Kitobning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, undagi o'quv materiallarining hammasi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shakuriy tomonidan tuzilgan va nashr qilingan yana bir kitob «Zubdat ul-ash'or» to'plami bo'lib, unda ko'p shoirlarning she'rlari berilgan. 36 betlik bu to'plam mayda nasta'liq xati bilan, she'rlar esa sahifalarning chetlariga

(hoshiyalariga) shikasta xati bilan yozilgan. Har bir sahifada 40–66 misra she'r bor.

To'plamda Sa'diy, Jomiy g'azallari, o'zbek, tojik va ozarbayjon shoirlarining asarlaridan namunalar keltirilgan. Kitobning kirish qismida bu namunalar o'quvchilarni o'sha zamondagi bilim va madaniyati bilan tanishtirishda katta yordam berishi hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi sababli to'plamga kiritilgani qayd qilingan. Shakuriyning bu to'plamni tuzishdan asosiy maqsadi o'quvchilar olgan bilimlarni takomillashtirish va mustahkamlash, ularda she'riyatimizni o'rganishga havas uyg'otish, mumtoz adabiyot namunalari bilan tanishtirishdir. Kitobdagi yangi usul maktabiga atab yozilgan tojik tilidagi she'rda: — Ey muallim, maktabing taraqqiyot topib, sernur bo'lsin, yaxshi noming toabad dunyoda mashhur bo'lsin. G'ayrat qil, toki biz olimu dono bo'laylik, axir, biz savtiya usulining sevguchilarimiz, tarbiyat qil, har kishining xotirini shod qil. Har fandan bizga o'rgat, biz bahramand bo'lib nodonlikni nari quvaylik. Garchi nodon kishilar senga ta'na haqorat etsalar ham g'am yema. Albatta, dushmanlar sharmisor bo'lurlar!

Abduqodir Shakuriy birinchi bo'lib maktabda o'g'il va qizlarni birga o'qitilishini joriy etdi. Dastlab qizlar uchun yangi usuldagi maktab tashkil qilib, unga ayol kishi muallimlik qila boshladi. Shakuriy mahalliy xalq farzandlarini o'qitish va tarbiyalash uchun jonbozlik ko'rsatgan adib edi. 1921-yilda Samarqand shahridagi 11-maktabga mudir qilib tayinlandi. Ko'p yillar mobaynida shu maktabga mudir va ona tili o'qituvchisi bo'lib ishladi. O'qituvchilar konkursida qatnashdi. 1923-yilning 8 iyulida «Pravda» gazetasida konkurs natijalari yoritildi. Konkursda 27 ta ilg'or o'qituvchi birinchi o'rinni egallaydi. Shakuriy ham «Eng yaxshi o'qituvchi» degan unvonga sazovor bo'lgan.

Shakuriy mahalliy xalq farzandlarini barkamol qilib tarbiyalashda boshlang'ich ta'lim mazmunini boyitdi, uning taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

### *Mustaqil ish*

M.Fattayevning «Atoqli pedagoglarimiz» kitobidan 6-27-betgacha o'qib o'rganing.

## ISMATULLA RAHMATULLAYEV

Boshlang'ich ta'limning asoschilaridan, maorifimiz rivojiga butun umrini baxshida etgan jamoatchi olim va fidoyi pedagoglardan biri Ismatulla Rahmatullayev edi.

I. Rahmatullayev 1883-yilda Samarqand shahrining Rajabamin qishlog'ida kambag'al oilasida tug'ildi. Uning otasi qishloqdagi boylarning uzumzorlari va yerlarida yollanib ishlagan.

Ismatullaning savod chiqarishi, bilimdon va yetuk pedagog bo'lishida Abduqodir Shakuriy oilasi kuchli ta'sir ko'rsatgan (uni xat-savodga o'rgatgan Shakuriyning onasi — muallima Bibi Roziya bo'lgan). Yoshligidan o'qish, bilim olishga havasmand Ismatulla eski maktabni tugatib, 1901-yilda ilg'or pedagoglardan biri tashkil etgan yangi usul maktabiga kirib o'qiydi. Uni muvaffaqiyatli tamomlab, 1905-yilda mashhur pedagog Shakuriy ochgan yangi usul maktabiga o'qituvchi bo'lib ishga o'tadi va ayni zamonda rus pedagogi Stachkov tomonidan ochilgan rus-tuzem maktabida o'qishni davom ettiradi. U yerda rus tili, arifmetika, geografiya va boshqa dunyoviy fanlarni o'rganadi. Xuddi shu yillarda Shakuriy bilan birga Qo'qon shahriga borib, u yerdagi yangi usul maktablari bilan, o'zbek adabiyotining asoschisi, atoqli pedagog Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan tanishadi.

I. Rahmatullayev Shakuriy maktabida o'qituvchilik qilar ekan, yangi usul maktablari uchun darsliklar, o'qish kitoblari, alifbe tuzish va nashr etish bilan ham shug'ullangan. Jumladan, 1907-yilda Abduqodir Shakuriy II sinf uchun tuzgan «Jome'ul hikoyat» o'qish kitobining nashr etilishida bevosita qatnashgan.

U Shakuriy maktabida katta bilim va pedagogik tajriba orttirganidan keyin Sadridin Ayniy va Shakuriyning maslahati bilan o'zi mustaqil ravishda Samarqandning Registon ko'chasida mehnatkashlarning bolalari uchun yangi maktab ochadi. Unda dunyoviy fanlar bilan birga rus tili o'qitishni ham yo'lga qo'yadi.

U 1915-yilda o'z amaliy tajribalarini umumlashtirib, rus pedagoglari K.D. Ushinskiy va L.N. Tolstoylar ta'siri ostida tojik tilida «Ta'limi alifbe yoxud rahbari maktab» («Alifbe ta'limi») kitobini yozadi.

I. Rahmatullayev Samarqandda mahalliy millat kishilaridan pedagog kadrlar tayyorlash ishiga katta hissa qo'shgan. 1922-

yilgacha mahalliy o'qituvchilar tayyorlaydigan qisqa muddatli kurslar tashkil etishga rahbarlik qilgan. 1922-yildan 1926-yilgacha Samarqand shahrida tashkil etilgan o'zbek inprosi (maorif bilim yurti)ning direktori va o'qituvchisi bo'lib ishlagan.

O'sha paytlarda Samarqand inprosi faqat o'qituvchilar tayyorlaydigan bilim yurti sifatida emas, balki yangi ziyolilarini yetishtirib chiqaradigan muassasa sifatida ham katta obro'ga ega bo'lgan.

I.Rahmatullayev yuzlab yosh mutaxassislarni tarbiyalab, voy \_a yetkazdi. Ularning ko'pchiligi keyinchalik fan, madaniyat, adabiyot va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida mashhur kishilar bo'lib yetishdi.

Bir vaqtlar Respublika ilk bor tashkil etilishi bilan I.Rahmatullayev Respublika Xalq Maorif Komissariati qoshidagi ilmiy markazda jonbozlik ko'rsatib ishlaydi, pedagog sifatida o'zbek va tojik maktablari uchun darsliklar tuzish hamda ularni tahrir qilish ishlariga hissa qo'shadi.

1926-yilda O'zbekistonda birinchi marta «O'zbek davlat kitob palatasi» tashkil etilib, I.Rahmatullayev unga direktor qilib tayinlanadi. Bu muassasada 1933-yilgacha ishlaydi. O'sha yillar davomida uning rahbarligida kitob palatasida katta ilmiy-bibliografik ishlar olib boriladi.

I.Rahmatullayevning xalq maorifi va madaniyatini rivojlantirish sohasidagi ko'p yillik samarali mehnatlarini hisobga olib, O'zbekiston hukumati 1935-yilda unga «Mehnat Qahramoni» unvonini berdi va shaxsiy nafaqa tayinladi. Xalqimiz I.Rahmatullayevning xalq maorifi va madaniy-oqartuv sohasidagi ishlarini, mahalliy pedagog kadrlar tayyorlashdagi katta xizmatlarini har vaqt qadrlaydi, hech vaqt uni yodidan chiqarmaydi. I.Rahmatullayev o'zining pedagogik faoliyatida barkamol insonlarni yetishtirish maqsadida yangi usul maktablari uchun yaratgan darsliklarini o'zi 1915-yilda Registon ko'chasida ochgan maktabida sinab ko'rdi. U darsliklarida rus, tatar, ozarbayjon olimlarining tajribalari hamda Abduqodir Shakuriy, Hamza Hakimzodalarning bu sohadagi tajribalarini rivojlantirdi.

I.Rahmatullayev tuzgan Alifbe kitobi 3 qismdan iborat: dastlabki qismida harf elementlarini yozish bo'yicha mashqlar; ikkinchi qismida harflarning turli ko'rinishlari; uchinchi qismida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hikoya va she'rlar.

Darslikning mazmuni. Darslikning 26 sahifasida muallif arab, tojik alfavitining harflari bilan tanishtiradi. Ayniqsa, arab alfavitida har bir harf to'rt shaklga ega ekanligi, ya'ni yolg'iz shakl, bosh, o'rta va so'nggi shakl. Kitobning 26-darsida shu shakllarni o'rganish uchun kichik-kichik jumlar beriladi. So'ngra tovushlar haqida ma'lumot beriladi. Rahmatullayev kitobining 32-betida, 60-darsda arab yozuvining xususiyatlari hamda harflarni qanday so'zlarda qachon ishlatishni tushuntirib beradi.

Darslikning alifbe qismi shu bilan yakunlanadi. So'ngra majmua qismi boshlanadi. Bunda tarbiyaviy xarakterdagi kichik-kichik hikoyalar kiritilgan edi. Darslikning bu qismida o'quvchilarni odob-axloqli qilib tarbiyalashga doir mavzularni quyidagicha tavsiflash mumkin: Ota-onaga hurmat «Faridun», «Ota va o'g'il», «Pand» («Nasihat»), tabiatni e'zozlash, go'zallik, to'g'rilikka doir «Suv», «Chor fast» va boshqalar.

Kitobdagi kichik parcha va matnlarda ham, hikmatli so'z va she'riy parchalarda ham, xullas qalamga olinayotgan har bir jumlada bilim olishga muhabbat, tozalik, o'qituvchi va ota-onalarni hurmat qilish, do'stlik, birodarlik, sadoqat kabi g'oyalar batafsil yoritilgan:

### Ota va o'g'il

... O'g'li yalinib otaga chunon—  
Maktabdan, otajon, so'zlagin,— derdi.  
— U yerga horgan har bir bola,  
Nimalar qiladi, sen aytgin menga.  
Otasi dedikim: ey, mening chirog'im,  
Aziz bolajonim, ko'zim qarog'im.  
U yerda bolalar kitob o'qishar  
Ilm va hunarni bilmoqqa shoshar...

I. Rahmatullayevning o'zi yaratgan darsliklarida mazmundor ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalar bilan bolalar fikrini boyitib borish o'z davrida katta shov-shuvga sabab bo'ldi. I. Rahmatullayev ta'lim berayotgan bolalar savodxonligi boshqa maktablardagi bolalarga nisbatan yuqori bo'lganligi ota-onalar e'tiborini qozongan edi. I. Rahmatullayev qo'lida tahsil olib, ilm dargohining nurli eshiklarini ochgan shogirdlari

Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Hamid Olimjon, Vohid Abdullayev, Fotih Niyoziy, Habib Yusufiy, Muzayyana Alaviya, F. Yoʻldoshev, R. Hamroyevlar ham ustozlari kabi oʻzlaridan yaxshi nom qoldirdilar. Rahmatullayev yangi usul maktabi boshlangʻich taʼlimning rivoji uchun zamin vazifasini bajardi. Uning yozgan darsliklari esa keyingi darsliklar uchun asos boʻldi.

Qatagʻon yillarida I. Rahmatullayevni xalq dushmani deb qamadilar. U 17 yil gunohsiz qamoq azobini tortdi. Pedagog olim 1954-yili qamoqdan ozod qilindi. Qamoqxonadagi kamsitishlar, tuhmatlar uning irodasini bukolmadi. Chunki u haqiqat va kelajak uchun kurashgan inson edi.

Samarqandda maorif va madaniy oqartuv muassasalarini tashkil etish, ularning faoliyatini namunaviy yoʻlga qoʻyish hamda mahalliy oʻqituvchilarni tayyorlashdagi xizmatini hisobga olib, Samarqand shahridagi koʻchalarning biriga va shahardagi 56-maktabga I. Rahmatullayev nomi berildi.

## ALIFBE TAʼLIMI

(Parcha)

«Johil farzandning gunohi ota-onasining zimmasidadir». Yaʼni:

*Gunohi farzandi johil bar  
Zimmai padaru modar ast.*

«Bilim yorugʻlikdir, nodonlik qorongʻulikdir». Yaʼni:

*«Ilm ravshani ast, nodoni toriki ast».*

«Bekorchilik ishlarning eng yomonidir. Men bekorchilikdan bezorman. Tirik bekorchidan — oʻlik yaxshi. Dunyoda har bir jondor biror xizmatga va har bir kishi maʼlum vazifaga ega. Biz shogirdlarning vazifasi oʻqish va ilm oʻrganishdan iborat. Maktabning har bir shogirdi xat-savodga ega boʻlishi kerak, hushyor va gʻayratli shogirdlar hech vaqt bekor oʻtirmaydilar».

Yaʼni:

«Bekori badtarin korhost. Man az bekori bezoram. Az zindai bekor murda behtar ast. Dar dunyo har jondor xizmate va har kas vazifaye dorad. Vazifai mo shogirdon xondan va

ilm omo'xtan ast. Boyad har shogirdi maktab xatu savodi xub doshta boshad. Shogirdoni boxush va bog'ayrat hech vaqt bekor namegardand».

Yalqov dedi:

— Bugun o'ynayman, ertaga o'qiyman.

G'ayratli dedi:

— Ertaga o'ynayman, bugun o'qiyman».

### NAVRO'Z

«Navro'z, kel, o'qi!

— Qornim og'riydi,

Navro'z, kel, osh ye!

— Mening qoshig'im qayerda?»

### SUV

«Suvni ichamiz va u bilan yuvinamiz. Tegirmonlarni suv yurgazadi. Sabzavotchilik va dehqonchilik suv orqali hosil qilinadi. Suv obodonchilik vositasidir.»

### CHOR FASL

«Bir yil to'rt fasldan iborat — bahor, yoz, kuz va qish.

Har yil o'n ikki oydan iborat. Bir oy 30 kun yoki 4 haftadan iborat. Bir hafta yetti kundir. Bir kecha-kunduz 24 soat, bir soat 60 daqiqadan iborat. Har bir daqiqani g'animat bilib o'qish va o'rganish kerak».

### FARIDUN

Faridun ko'p yaxshi bola erdi,

Yig'lab otasiga shundayin derdi:

Ey otajon, meni maktabga bergin,

Sargardon ko'chada kezishdan tiygin.

Maktab liboslarim tezda tayyor et,

Kitoblar keltirgin, bo'lsin bari but.

Ber alifbe-yu, daftar, qalamim,

Jildimga solib, bag'rimga olayin.

Otasi dediki:

— Ey Faridunjon,

Hali yoshsan, quvvating kamroq.

— Toqatim toq bo'ldi, aziz otajon.

Hamma dono bo'lsa-yu, men qolaymi nodon...

### ASHRAF

Qalaming yo'qligidan bo'lma parishon,

Men sening ishingni aylaymi oson.

Ikki qalamimdan birin unga berganda

Bolaning yuragi bo'ldi ko'p shodon.

### *Mustaqil ish*

I. Rahmatullayevning «Alifbe» darsligini o'qib tahlil qiling.

### SAIDAHMAD SIDDIQIY

(1864—1927)

Saidahmad Siddiqiy 1864-yilda Samarqandda hunarmand oilasida tug'ildi. Uning otasi Hasanxo'ja aka asli turkistonlik bo'lib, bir vaqtlar Samarqandga ko'chib kelgan va o'sha yerda yashab qolgan edi. U to'quvchi-kosib bo'lgach, amal-taqal qilib ro'zg'or tebratdi. Og'ir turmush tashvishi uni erta qaritdi. Saidahmad 7 yoshga kirar-kirmas otasi vafot etdi. U dastlabki savodini amakisining uyida, yangasi qo'lida chiqardi. Keyin qiyinchilik tufayli soatsozga shogird tushadi.

Saidahmad o'zi haqida shunday yozadi: «Og'ir ahvolda qolgan oilani boqish uchun onam meni soatsozga shogirdlikka berdi, u shunday xasis ediki, hatto, qahraton qishda ham issiqroq kiyim bermasdi. Tong yorishmasdan boshlab yarim kechagacha tinmasdan ishlardim. Tomlarning qorini kuragan paytlarimda oyog'im sovuqdan muzlab qolardi, o'tirib uzoq yig'lardim».

Siddiqiy soatsozlikni o'rganib olgach, u yerdan ketadi va to'quvchilik, soatsozlik, zargarlik bilan shug'ullanadi. Xuddi o'sha yillarda Samarqanddagi madrasalardan biriga o'qishga kiradi. Ammo yo'qchilik tufayli o'qishdan ketib, ota kasbi — kosiblik



bilan shug'ullanishga majbur bo'ladi. Bilimga tashnalik uni yana madrasaga tortadi. U Buxoro madrasasiga borib joylashadi. Darsdan tashqari vaqtida Ibn Sino, Navoiy, Bedil asarlarini mutolaa qiladi. Saidahmad tabiiy fanlarni, tilni o'rganadi. U madrasada o'qiyotgan paytidayoq arab, fors, ozarbayjon tillarida burro gapirar, rus tilini o'rganishga ham qiziqar edi.

U madrasani tugatgach, tezda kechki maktabga o'qishga kiradi. Siddiqiyning iste'dodi ko'p qirrali bo'lgan. «Inqilob» jurnalining 1924-yil 12-sonida uning faoliyati haqida shunday yozilgan: «Bizning tekshiradiganimiz samarqandlik shoirimiz Ajziydir, Saidahmadxo'ja ismi, unvoni Siddiqiydir. O'zining asosiy kasbi bo'lmish e'tibori ila hozir ham Samarqand chegarasida Halvai qishlog'ida dehqonchilik bilan mashg'uldir. Buyuk bir iste'dodga ega bo'lgandan ko'p san'atlarning ustozidir: avvalo, Siddiqiy yaxshi texnikdir, soat va turli mashinalarni tuzatmoq ishiga mohirdir, yaxshi to'quvchi va tikuvchidir, yaxshi ovchidir, musiqa bilan ancha shug'ullangandir, o'z tilidan boshqa arab, fors, ozarbayjon, rus tillarini biladur. Fors, arab va rus adabiyotlari bilan ham oshnodur». Darhaqiqat, uning bilim doirasi benihoya keng bo'lgan.

Siddiqiy 1901-yilda otasidan qolgan bog'ni sotib, uch yillik sayohatga otlanadi. Arab mamlakatlarini kezib chiqadi. Jiddadagi rus elchixonasida birmuncha muddat tarjimonlik qiladi. So'ng O'rta Rossiyaning shaharlarini ko'radi. Uch yillik sayohat taassurotlari Siddiqiy dunyoqarashining shakllanishida, turmush hodisalariga chuqurroq qarashida katta rol o'ynaydi. Shoir rus adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganadi. Rossiyaning iqtisodiyoti, fani va texnikasiga qiziqishi kuchayadi.

Saidahmad Siddiqiy 1903-yilda vatani — Samarqandga qaytib keladi va o'sha yili o'z qishlog'i — Halvoda dehqon va hunarmand bolalari uchun yangi tipdagi maktab ochadi. Qisqa muddatda maktabning dovrug'i uzoqqa ketadi. Siddiqiyning maktabiga o'xshagan maktablar ko'paya boshlaydi.

Siddiqiy xalq orasida fan va texnika yangiliklarining tashviqotchisiga aylanadi. Buning uchun u avvalo tashviqot ishlarini tashkil etishni zarur deb hisoblaydi va o'zi ochgan maktabda ushbu vazifalarni yo'lga qo'yadi. Siddiqiy maktabi o'qish-o'qitish aqidalari jihatidan o'sha davrdagi rus

maktablariga o'xshar edi. Siddiqiy katta yoshli kishilar uchun ham birinchi bo'lib kechki maktab tashkil qilgan va bu ish o'sha davrda Samarqandning madaniy hayoti uchun tamoman yangi hodisa bo'lgandi. Yangi maktabning aqida va usullarini xalq orasida yana ham keng yoyish maqsadida Siddiqiy 1914-yilda maktab ko'rsatmali qurollari, darslik va jurnallar sotiladigan «Zarafshon» do'konini ochgan. Siddiqiy maktabi butunlay yangi tipdagi zamonaviy maktab bo'lib, uning jihozlari orasida partayu doskadan globusgacha mavjud edi. Shuningdek, bu maktabda barcha dinga, barcha millatga mansub bolalar o'qishi mumkin edi. Maktabda barcha fanlar — arifmetikadan falakiyotgacha, arab tilidan rus tiligacha o'qitilardi.

1911–1914-yillarda Siddiqiyning xalq maktablari shoxobchalarini kengaytirish, ulardagi ta'lim-tarbiya ishlari usullarini yaxshilash borasidagi faoliyati ancha kuchayadi. U 1913-yilda «Samarqand» gazetasiga maqola yozib, unda Abduqodir Shakuriy rahbarligida ishlayotgan yangi usuldagi maktabning afzalliklarini keng targ'ib qiladi.

Siddiqiy yangi maktablarni qishloq joylarda ham tashkil qilgan. Jumladan, Samarqand viloyatining Poyariq tumanida va Chelak qishlog'ida shunday maktablar ochgan. Eng ahamiyatlisi shundaki, maktablarda faqat mahalliy millat — o'zbek va tojiklarning emas, balki ruslarning bolalari ham o'qigan.

Chelak qishlog'ida Saidahmad Siddiqiy tomonidan tashkil qilingan maktabda I.P.Pavlov nomidagi Samarqand davlat tibbiyot instituti topografik xirurgiya kafedrasining sobiq mudiri, professor Georgiy Nikolayevich Aleksandrov ham o'qigan. U shunday hikoya qiladi: «Men Birinchi jahon urushi yillarida Chelak qishlog'ida Saidahmad Siddiqiyda o'qiganman... Bizning maktab 10–12 boladan iborat edi, o'quvchilar orasida o'zbek, tojik va ruslar bor edi, Siddiqiy bolalarni rus tili va adabiyoti, o'zbek tili va adabiyotidan o'qitar edi. U yumshoq tabiatli kishi bo'lib, bolalarni juda sevardi va hamma vaqt kulib turardi. U usta pedagog edi... Uning o'qitish usullari boshqa maktablardagi usullardan tamoman farq qilar edi... O'qituvchimiz darslarni qat'iy jadval asosida o'tkazar: bir kun rus tili, arifmetika, geografiya, tarix, tabiiyot fanlaridan dars o'tkazsa, ikkinchi kuni bu darslarning o'rnini navbat

bilan almashtirardi. Men undan o'zbek tilini va arab harfidagi yozuvni yaxshi o'rgandim, hozir ham arab harflarini yaxshi yoza olaman. U tabiiyot darsi bo'yicha bizlarni Bulung'ur daryosi yoqalariga olib borar, tabiat manzarasi, har xil mamlakatlar, daryo va ko'llarni ko'rsatar, globus bilan tanishtirar edi... U ota-onalar bilan yaxshi aloqada bo'lardi va juda kamtarin edi. Bolalardan tozalikka rioya etishni talab qilar, dars oldidan qo'llarimizni yuvishga majbur etar, darsda diqqat bilan o'tirishni talab qilardi... O'quvchilarga jismoniy jazo bermas, ularni o'z oldiga chaqirib olib do'stona suhbat o'tkazardi». Saidahmad Siddiqiy ana shunday mohir demokratik qarashdagi pedagog bo'lib, u yashagan davrda bu katta jasorat edi.

1926-yilda O'zbekiston Maorif komissarligi uning 25 yillik pedagogik faoliyatni taqdirlab, «Xizmat ko'rsatgan o'qituvchi» faxriy unvonini berdi va nafaqa tayinladi.

Saidahmad Siddiqiy o'zining ilg'or pedagogik g'oyalarini keng tarqatish uchun pandnomalar ham yozgan. Siddiqiy shoir sifatida xalqning tortayotgan azob-uqubatini, mashaqqatli turmushini yurakdan his etgan. Uning she'rlari keyinchalik «Mir'oti ibrat», «Anjumani arvoh» (1912, Tbilisi), «Ganjinai hikmat», «Ay-nul adab» (1915, Toshkent) to'plamlarida nashr qilingan. Uning asarlari o'zbek va tojik tillarida bosilgan. Siddiqiy mehnatkash xalqning ayanchli turmushini uning o'ziga anglatish, uning fikriga ta'sir etishga katta ahamiyat bergan.

Siddiqiy otashin ma'rifatparvar shoir sifatida maydonga chiqqan. Ma'rifat taraqqiyot belgisi ekanini oshkora aytgan:

*Men aqlga murojaat qildim:  
Ey bilim egasi! Menga nodonlikdan  
qutulish yo'lini ko'rsat. U aytdi:  
Maktab, maktab, maktab!  
O'qi, o'qi, o'qi!*

Siddiqiy o'z she'rlarida jaholatni, nodonlikni qoralagan, xalq ommasini ilm-ma'rifatga chaqirgan. Shoir bular bilan cheklanib qolmay, hayotiy voqealar orqali ham jaholat bilan ma'rifatning oqibatini ifodalaydi va xalqqa ibrat deb ko'rsatadi, shuning uchun o'z asarini «Mir'oti ibrat» yoki «Ibrat oynasi» deb ataydi. Bu dostonda xalq fojiasining asosiy sababi ma'rifatsizlikda ekani qayd etiladi. Masalan, u shunday deb yozadi:

«Qachongacha quloqlarimizga gʻaflat paxtasini tiqib, ibrat koʻzlarimizni koʻr qilaveramiz?! Maʼrifat nurlaridan bahra ololmay, qachongacha ilmdan xabarsiz qolaveramiz?! Shoʻr dengizdan tokay jaholat suvini ichamiz?!»

Saidahmad Siddiqiy (Ajziy) oʻz asarlari bilan oʻzbek sheʼriyatining shakllanishiga munosib hissa qoʻshdi. H.H. Niyoziy, A.Qodiriy, S.Ayniy kabi maʼrifatparvar shoir va yozuvchilar singari xalq orasida ilm-maʼrifatning targʻibotchisi sifatida xizmat qildi.

### «MIR'OTI IBRAT»

(Dostondan parcha)

... Tahsil oʻla rus maktabida,  
Anvoi funun aning tilinda.  
Ilmi hama ixtirou hikmat,  
Taʼlimi ziroat-u tijorat.  
Boʻlgʻung yasamoq odati olot.  
Ilmi hama ixtiro-yu hikmat,  
Mashin ila gʻirmofonu, soat.  
Vopur shinaidafuru telefoʻn  
Ham hikmatu tilgʻrofu bolun.  
Har choqki, lisoni choʻx bilursen  
Dunyoda azizroq oʻlursen.  
... Soʻzlay sana bir namuna hujjat  
Bor shahringa nahri obi rohat,  
Mashhuri shohi zamon Ulugʻbek  
Ilmu fana tarjimon Ulugʻbek...  
... Doʻrt ish bana bundan erdi maqsud,  
Bundan ula xalqa baxti maʼsud,  
Ilm ala olmoq va fununni,  
Har qavm bulardan oʻldi mahrum,  
Istiqboli holidan oʻlar shum.  
Inson deman oʻlsa Osiyoli...

### «BOSHIMDAN OʻTGANLAR» sheʼridan

Yoshligʻimda maktab-paktab men koʻrmadim,  
Vijdon ahli yurgʻon yoʻldan men yurmadim.  
Insonlikning tariqati man bilmadim,

O'zlig'imdan topqon yo'ldan yurdim mano.  
O'n oltig'a kirgandan so'ng maktab bordim.  
Olti oydan nari-beri xat chiqardim.  
Pul topmoqning savdosidan har yon bordim,  
Oqsoqolg'a mirza bo'lib yurdim mano.

### *Mustaqil ish*

Siddiqiyning «Mir'oti ibrat» dostonini o'qib tahtil qiling.

### **SAIDRASUL AZIZIY**

Saidrasul Aziziy 1866-yilda Toshkentda tug'ilgan. Otasi Saidazizxo'ja ilmi kishi bo'lgan. Aziziy boshlang'ich ma'lumotni eski maktabda oldi. So'ng Toshkentda Mahmud dasturxonchi madrasasida o'qiydi. Shu bilan birga, rus tilini ham mustaqil o'rganadi.

Aziziy madrasa bilan baravar 1-rus-tuzem maktabini ham bitiradi. So'ng mazkur madrasada mudarrislik qiladi. 1900-yilda o'zi o'qigan rus-tuzem maktabiga ishga chaqiriladi. U yerda «Sharqiya muallimligi»ni (o'zbek tilidagi darslikni) olib boradi.

Aziziy 1910-yilda Moskovda va Peterburg shaharlarida bo'ladi. U yerlardagi muzeylar, ajoyibxonalar, tarixiy obidalarni tomosha qiladi va unutilmas taassurot oladi.

Aziziy rus-tuzem maktabida dars berar ekan, undagi o'qitish uslubi va ta'lim-tarbiya tizimi bilan eski maktab orasidagi farqni ko'rdi. O'z tajribasiga suyanib, mahalliy maktablarga mos ta'lim-tarbiya usullarini ishlab chiqdi.

1902-yilda bolalar uchun zarur «Ustodi avval» darsligini yaratdi va nashr ettirdi. Kitob ham pedagogik, ham badiiy jihatdan bezatilgan bo'lib, 1-sinf o'quvchilari uchun alifbe sifatida yaratilgan. Uning 1–18-betlarida dars o'tish usullari, alifbeni o'rganish masalalari ifodalangan.

Kitobga 20ga yaqin hikoyalar, Sharq, xususan o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari, rus adabiyotidan tarjimalar va Aziziy qalamiga mansub hikoyalar kiritilgan. Shuningdek, «Usuli savtiya», «Muallimi soniy» kabi darsliklarni yanada mukammallashtirdi. Bu darsliklar o'zbek maktablari tarixida, o'zbek pedagogikasi va metodikasi tarixida o'ziga xos islohni amalga oshirishga xizmat qildi.

Aziziy o'z ijodini shoir sifatida boshlagan bo'lsa ham, biroq u madaniyatimiz tarixida ko'proq islohchi pedagog sifatida shuhrat topgan.

Aziziy har jihatdan to'la-to'kis bo'lgan rus-tuzem maktablariga o'xshaydigan mahalliy maktablar tashkil qilish uchun ham ko'p kuch-g'ayrat sarfladi.

Madaniyatimiz tarixida «usuli jadid» deb qoralanib kelgan o'qitishning yangi usuli — «usuli savtiya»ning kashfiyotchilaridan biri Aziziy edi.

«Usuli savtiya» bo'yicha o'qitishni amalga oshirishda qator ma'rifatparvar pedagoglar — Ismoilbek G'aspirali, Behbudiy, Ishoqxon Ibrat, Fitrat va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

Ma'rifat kurashchisi Aziziy Turkiston maktab-maorifi taraqqiyotida ulkan iz qoldirgan pedagog olimdir. U ta'lim-tarbiya bo'yicha qimmatli g'oyalarni olg'a surdi. Buning dalili sifatida birinchi galda uning «Ustodi avval» darsligini ko'rsatish lozim. Yuqorida aytilganidek, adabiy asar sifatida 20 ga yaqin hikoyani o'z ichiga olgan. Ularning uchtasi she'riy va qolganlari nasriy usulda yozilgan. Hikoyalarni mazmun va xususiyatiga ko'ra quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1) xalq og'zaki ijodi, Sharq hamda o'zbek mumtoz adabiyoti namunalaridan bevosita foydalanib yaratilgan hikoyalar («Matonat», «Xat», «Beodob», «Ikki oshno», «Chaqimchi», «Aqlli kishilar» va hokazo);

2) rus mumtoz adabiyotidan tarjima qilingan hikoyalar («Qishloqi birla bolasi», «Tulki birla uzum», «Bola va otasi», «Yolg'onchi cho'pon»);

3) muallifning o'zi yozgan hikoyalar («Hamoqat», «Befarosat», «Aqlli o'g'il», «Zuluk birla Ilon», «Do'stlik uchun ahd qilgan musofirlar», «Onaga hurmat», «Poklik» kabilar).

Aziziy ana shu hikoyalarni tanlashda ularning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini nazarda tutgan.

Kitobdagi Aziziyning o'zi yozgan hikoyalar bevosita ta'lim va axloq masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ular mazmun va shakl e'tibori bilan xalq og'zaki ijodi asariga o'xshab ketadi. Misol tariqasida bir hikoyasining mazmunini ko'ramiz:

Bir odam bir kishiga sherik bo'lib hovli sotib olgan ekan. Sherigiga u aytibdurki, «man shul hovlidan o'z tegishimni

sotib, aning puliga saning tegishingni ham olub butun hovlilik bo'laman». Odamlar uning bema'ni gapidan kuladilar. Hikoya oxirida «Avval o'yla, keyin so'yla» degan maqol keltirilgan.

Aziziyning she'riy hikoyalari o'z mohiyatiga ko'ra ancha diqqatga sazovordir. Masalan, «Zuluk birla Ilon» hikoyasi masalga ko'proq o'xshaydi. Muallif unda juda muhim g'oyani — odamlarga, xalqqa xizmat qilishni ilgari suradi. Uning mazmuni quyidagicha: Zuluk bilan do'stlashgan Ilon unga o'z ahvolidan, odamlarning unga doimo g'azab va nafrat bilan qarashidan hasrat qiladi:

*Manga taajjub ko'rinur ikki ish,  
Ko'rsa mani xalq qochar qayon.  
Sanga ajab rahmu muruvvat qilub  
Bergay alar o'z jonidan toza qon.  
Ko'rsa sani har nechuk odam agar,  
Yaxshi tutub tarbiya qilgay hamon.  
Gar mani bir ko'rsa qochib avvalo,  
Agar fursat topsa urar begumon.  
Holbuki har ikkimiz kasbimiz bir.  
Tishlamoq erdi badani ahli jon.*

Zuluk unga qarata shunday javob beradi:

*Manki mariz ahlig'a yordam uchun,  
Jonimni qurbon qiluram har zamon,  
Agar sog'u salomatdir har badan,  
Uchrasa zahring sochursan shul zamon,  
Bir nechani zahar solib o'ldurub,  
Bir nechalar etgay alamingdan fig'on.*

Barcha hikoyalarning qiziqarli bir jihati mavjud. Muallif o'z hikoyalariга ikki qarama-qarshi qutbni oladi. Ular ezgulik — jami yaxshi xislatlar va bularning aksi. Aziziy ana shu ikkala qutbni qarama-qarshi qo'yib, ularni o'zaro solishtirgan holda bittasini oqlaydi, ulug'laydi, ko'klarga ko'tarib madh etadi, ikkinchisini qattiq tanqid qiladi. Hikoyalarda odamlarning o'zaro munosabatlari aql nuqtai nazaridan qanday bo'lishi kerak, degan savolga javob berish maqsad qilib qo'yilgan. Aziziy

axloqiy tarbiyani ham san'atning, adabiyotning vazifalaridan biri, deb tushunadi.

Aziziy o'z hikoyalari bilan boy milliy an'anani muvaffaqiyatli davom ettirgan. Asrimiz boshlaridagi xalqchil va milliy adabiyotni shakllantirishda o'zining munosib hissasini qo'shgan. Kitobga kiritilgan 50 ga yaqin xalq maqollari uning ahamiyatini yanada oshirgan. Darslikdan «Ko'p bil, oz so'zla», «O'ylamay so'zlagan og'rimay o'lar», «Uchqundan o't chiqar», «Birovga o'ra kovlama, o'zing yiqilasan», «Har kim ekanini o'radur» kabi xalqimiz orasida keng yoyilgan maqollar bilan birga muallifning o'zi tomonidan ijod qilinib, iste'molga kirib ketgan «Ilmsiz aql — engsiz kiyim», «Xat yozmoq yarim ilm», «Yod olg'on yo'qolur, yozilsa yo'qolmas» kabi maqollar ham o'rin olgan. Bu maqollar turli sabablarga ko'ra, hikoyalardan chiqarilgan hissa sifatida, hikoyalarga to'g'ridan-to'g'ri ilova qilingan soddagina matnlarda keltirilgan.

Aziziyning «Ustodi avval» kitobi o'z davrida juda katta shuhrat qozondi va 17 marta nashr qilindi. Kitob Turkistonda yangi ti pdagi yuzlarchamaktablarning ochilishigasabab bo'ldi. Barcha o'zbek ziyolilari Aziziy boshlab bergan maktablarda savod chiqardilar va uning ishini muvaffaqiyatli davom ettirdilar.

### «QALAM OLAMNING SHOHIDIDUR»

Ilm qidiringiz tug'ulgandin o'lguncha, degan so'z hamma odamlarga barobar buyruq bo'lsa ham, o'qimoqni bir yaxshi vaqti borki, ul yoshlik va bolalik vaqtidir. Yoshlikda o'rgangan ilm toshg'a o'yulgan xatdek aslo xayoldin ketmaydur. Ey shogirdlar, imkoni boricha yosh vaqtlaringizda o'qumoqg'a sa'y qilinglarki, oltun umringizg'a sarf bo'lsin.

... Har kim farzandini ilm o'qumoq yo'liga qo'yub tarbiyat qilsa, dunyoi oxiratda o'zining va ham farzandining foydasidur.

### FATONAT

Bir bola bir kun o'zining bir o'rtog'ining ko'chasidin o'tganda, oning darvozasig'a «eshak» degan so'zni yozib ketubdur. Ul xatni ul o'rtog'i ko'rub ul bolag'a ayubdur: «O'rtog'jon, siz borganingizda, men uyda yo'q ekanman.



Darvozag'a nomingizni yozub ketgan ekansiz, ko'rub o'zim siz borganingizda yo'qlig'img'a xiyla afsus qildim», — debdur. Ma'lum bo'ladurkim, behuda so'zni yozgan kishi yomon uyalur.

### BOLA VA OTASI

Bir bola ko'rdiki, otasi har vaqt kitob o'quganda ko'zig'a oynak tutar erdi. Otasig'a: «Ey otajon, menga ham bir ko'zoynak olib bering, kitob o'qiyman», — deddi. Otasi anga: «Xo'p yaxshi aytasiz, o'g'lim, men sizga bolalarning ko'zoynaklaridin olib beraman», — deb bir alifbo kitobcha olib beribdur.

Ma'lum o'lurki bolalarning ko'z oynaklari alifbo bo'lur, ya'ni katta kitoblarni oning vositasi birla ko'rub bilur.

### «USTODI AVVAL»GA KIRITILGAN MAQOLLAR

Dunyoning yorug'lig'i ilm birla.  
Ilmsiz aql— yengsiz kiyim.  
Ko'p bil, oz so'zla.  
O'ylamay so'zlagan, og'rimay o'lur.  
Tilingni saqla, o'zingni chaqmasun...  
Birovni g'iybat qilmoq gunohlar kattasidir.  
O'qugan kishini tirik deydurlar.  
O'qumagan kishini o'luk deydurlar.  
Avval o'yla, keyin so'yla.

### ZULUK BIRLA ILON

Bir kuni jam o'ldi zuluk ham ilon,  
Bir-birig'a do'stlig' aylab ayon.  
Onda ilon aydi zulukg'a boqib,  
Bir necha rozi dilim aylay bayon:  
Menga taajjub ko'rinur ikki ish:  
Ko'rsa mani xalq qochar har qayon,  
Sanga ajab rahmu muruvvat qilib,  
Bergay alar o'z tanidini toza qon.  
Ko'rsa sani har nechuk odam agar,

Yaxshi tutub tarbiya qilg'oy hamon,  
Gar mani bir ko'rsa qochib avvalo,  
Fursat agar topsa urar begumon.  
Hol bulkim: har ikkimiz kasbimiz  
Tishlamoq erdi badani ahli jon.  
Onda zuluk boqdi ilon sarig'a.  
Aydi, birodar, bu nechuk doston?  
Manki mariz ahlig'a yordam uchun,  
Jonimi qurbon qiluram har zamon.  
Sog'u salomat ham agar bir badan.  
Uchrasa qilg'aysan anga bir ziyon.  
Bir nechani zahar solub o'ldurub,  
Barchalar etgay alamingdan fig'on.  
Xalq so'zidur mani doru demak,  
Toshi muloyim sanu zahring nihon,  
Onda ilon sharm qilib fe'lidin,  
Muztarib o'ldi biling ahli jahon.  
Bilsa bo'lur bul so'zi ma'nosin:  
Har kima xushfe'l kerak har qachon.

### *Mustaqil ish*

Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval» darsligini o'rganing va tahlil qiling.

---

## VII BOB. TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING MAORIF RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

### Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi

Ma'lumki, Turkistondagi jadidchilik harakati jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy ehtiyoj tufayli yuzaga keldi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Kavkazda paydo bo'ldi va uning asoschisi mashhur ma'rifatparvar Ismoilbek G'aspirali o'g'li edi.

Bu harakatning ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy jihatlarini chuqur o'rgangan professor B.Qosimov o'z tadqiqotida ularning g'oyaviy asoslarini, Turkiston o'lkasidagi ilm-ma'rifat peshvolarining shu haqdagi qarashlarini atroflicha yoritdi.

«Turkiston viloyatining gazetasi»ning 1908-yil 20 mart sonida jadidchilik maqsadi bayon qilingan. Unda «Usuli jadid nadur?» — degan savolga javoban «Usuli jadid» («yangi usul») deb yozilgan.

Demak, *jadid* so'zi aslida «yangi» degani bo'lib, «yangilik tarafdori» degan ma'noni anglatadi. Turkistonda jadidchilik harakati dastlab maktabdan boshlangan.

XIX asrning 80–90-yillaridagi jadidchilik harakatini keng yoyishda Munavvar qori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Saidahmad Siddiqiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda va boshqalar jonbozlik ko'rsatgan.

Turkistondagi jadidchilik harakatiga chor hukumati ma'murlari hamda mahalliy boylar qarshilik ko'rsatdilar. 1882-yilning 30 avgustidan missioner N.Ostroumov direktorlik qilgan o'qituvchilar seminariyasida «G'ayri rus musulmonlari maorifining asoslarini qanday aqidalar tashkil etmog'i kerak» degan mavzusidagi ma'ruzada jadid maktabining loyihasi tushuntirildi. Seminar o'qituvchilaridan A.K.Abramov, M.A.Murosiyevlar Ismoilbek G'aspirali o'g'lining mazkur loyihasini ma'qulladilar. So'ngra loyiha Turkiston general-gubernatori Rozenbaxga tanishib chiqish va bu haqda munosabat

bildirish uchun topshirildi. Loyihaga salbiy munosabatda bo'lgan gubernator uning ostiga «Oqibatsiz qoldirilsin» deb yozib, imzo chekdi. 1893-yilda Ismoilbek G'aspirali o'g'li Toshkentga keldi. Uni Turkiston harbiy ma'muriyati va mahalliy boylar yoqtirmadi va takliflariga xayrixohlik bildirmadilar. Ismoilbek G'aspirali o'g'lining g'oyasini yoqlagan va ana shu g'oya bo'yicha Turkistonda maktab ochish uchun iltimosnoma yozgan Munavvar qori ham rad javobini oldi. Turkistonda usuli jadid maktablari XX asr boshlarida juda ko'p qiyinchiliklar bilan ochildi. Bu maktablarda Saidrasul Aziziyning rus-tuzem bolalari uchun yozilgan «Ustodi avval» va Asqarali ibn Bayramali Kalinning «Ikkinchi muallim» darsliklaridan foydalanildi. Bunday maktablarning rivojiga to'sqinlik qiluvchi mullalar ularning muallim va tarafdorlarini «munofiq», dahriy (dinsiz) deb haqoratlay boshladilar. Masalan, So'fizodani yangi maktab ochgani uchun Chustdan badarg'a qildilar. Samarqandlik Saidahmad Siddiqiy 50–60 ming kishilik jamoa o'rtasida Ulug'bek madrasasi jome'ida «kofir», deb e'lon qilindi, toshkentlik Mirmuhsin Shermuhamedov Eskijo'va bozorida xaloyiq o'rtasida sazoyi etildi.

Jadidchilik faqat maorif sohasida keng tus olib qolmay, balki madaniyat, san'at va inqilobiy harakatlar sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

«Qizil O'zbekiston» gazetasining 1927-yil 7 iyun sonida yozilishicha, Toshkent okrug madaniyatchilar qurultoyida jadidlar masalasiga ham alohida e'tibor berildi. Qurultoyda muzokarada so'zga chiqqan Ziyo Said shunday degan edi: «Jadidlarning inqilobg'a qilg'on «rahbarlik»lari millatchilar bilan birga bolsheviklar firqasiga qarshi turishdan iborat edi. Bizning maktablarimizdagi otalar qo'mitasi ichida mafkurasi buzuq boylar ham yo'q emas. Bularning maktab yonida bo'lg'on komsomollar yacheykasi va bolalar tashkilotiga ta'siri bo'lmay qolmaydi.

Otalar qo'mitasining maktab ochib berishi bizni ancha shubhaga qoldiradi. Bundan maqsadlari bolalarni milliy sarmoya mafkurasi bilan tarbiyalashdir.

Maktablarda ijtimoiy fandan dars beradurg'on ba'zi muallimlar o'zlarining tarjimai hollarini aytib berar ekanlar, shunday muhim darslarni bunday muallimlarga topshirib qo'yish chakki ish»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> «Qizil O'zbekiston» gazetasi, 1927-yil, 7-iyun.

Bundan keyin muzokaraga chiqqanlardan Munavvar qori Abdurashidxonov ma'ruzasining bir necha moddalari ustida to'xtab, ma'lumot tariqasida quyidagilarni gapirdi:

«— Ma'ruzachilarning ta'biri bo'yicha bizning muallimlarimiz ichida maktab boshqayu siyosat boshqa, deydurg'on kishilar bor emish.

Maktab qaysi sinf qo'lida bo'lsa, maktablarda shu sinfnin mafkurasi tarqaladi va ilgari suriladi. Bu gapga ko'nmaganlarni yanglishg'an, o'jar kishilar, deb aytishg'a jasorat qilamiz. Jadidchilikka qanday baho berish to'g'risida quyidagi asoslarni keltiraman: jadid maktabi qay vaqtda va kimlar qo'li bilan vujudga chiqdi? Mana buni tekshirish uchun yigirma yil ilgariga qarash, albatta, lozim. Hozirgi paytda o'rta ma'lumotga ega bo'lgan kishilar Maskov va boshqa joylarga borib o'qishni havas qilsa, avvallari savodi chiqqan bir kishi Buxoroga borib o'qishni o'zi uchun bir sharaf deb bilar edi. Chunki ular ilmni faqat dindangina iborat deb bilar edilar. Muhit shuni taqozo qilardi. O'sha vaqtning hukumati ham shu fikrni quvvatlamasa, bo'lmas edi. Jadid maktabini tashkil qilg'onlar ham eski maktab, madrasa va qorixonalarda yetishgan kishilar edi. Ular yolg'iz Bog'chasaroyda chiqadurg'on Ismoilbek G'aspitalining gazetasini o'qirdilar va shu orqali maktabni yaxshi tushunib, kitoblar oldirdi. Jadidlar shunday sharoit ichida jasorat bilan chiqib ish boshlag'on ekanlar, bularga beriladurg'on baho ham shundan ortiq bo'lmaslig'i lozim edi.

Jadidlar shu maktabga yaxshi nazar bilan qarag'on kishilarni o'ziga do'st ko'rib quchog'iga tortardi. Bularning boy, ruhoniy, savdogar bo'lishidan qat'i nazar, sekin-sekin jadidlarning do'sti ko'payib, turli guruhlardan iborat bir jadidlar to'dasini tashkil qildik. Inomovni, jadidlarni alohida sinf qilib ko'rsatishi noma'qul gap.

Jadidlarning eng azob tortg'on davri Kerenskiy vaqtida bo'ldi. Kerenskiy vaqtida boshqarish ishlari ulamolar qo'liga o'tib qolgandi. Maktabga yordam berish u yoqda tursin, chor hukumati davrida berilib kelgan ish haqlari ham berilmadi, to'xtadi. Ulamolarning o'sha vaqtdagi kuchga molik bo'lganlarini jadidlardan dumaga 2 ta, ulamolardan 65 ta vakil saylanishi bilan isbot qilaman. Jadidlar o'z ulamolari, boylarga qarshi rus sosialistlari bilan birga qo'lga-qo'l berib ishladi.

Qo'qon muxtoriyatini rus menshevliklari tuzdi. Cho'qoyev unga juda yaqin edi. Ubaydulla Xo'jayev va G'izomiddinlar muxtoriyatga qatnashdi. O'sha vaqtda jadidlarning otasi bo'lib hisoblangan men o'zim loaqal millat majlisiga a'zo bo'lib ham saylanmadim. Jadidlardan Qo'qon muxtoriyatiga qisman aralashg'on kishilar bo'lsa ham ko'pchiligi chetda turg'on».

Garchi Qo'qon, Buxoro va Xiva muxtoriyatlari jadidchilik harakati va uning ma'rifiy g'oyalarini buzib tashlasa-da, bir qator ma'rifatparvar shoir va pedagoglar bu g'oyani Turkistonda amalga oshirishga kirishdilar. Bular Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Saidrasul Aziziy, Ishoqxon Ibratlar edilar. Ular tashkil etgan maktablarining dovrug'i yetmagan joy qolmadi. Bundan ilhomlangan Munavvar qori, Abdulla Avloniy va boshqalar Turkistonda ham shunday maktablar tashkil qilish zarur deb bildilar. Jadidchilikni himoya qiluvchi Mahmudho'ja Behbudiyning juda ko'p maqolalari, Fitrat, Cho'lpon va boshqalarning hikoya, qissalari nashr etildi.

### ISMOILBEK G'ASPIRALI O'G'LI

Ismoilbek G'aspirali o'g'li o'zining didaktik g'oyalarini «Rahbari muallim yoki muallimlarga yo'ldosh» nomli kitobida (1898) har tomonlama asoslab bergan. Unda, jumladan, quyidagilarni yozgandi: «Zamonamizda dunyoda yashamoq uchun insonlar ziyoda bilmaya (bilmoqqa) va ziyoda cholishmaya (ishlamoqqa) muhtojdirlar. Har bir odam zarurati diniyasini o'rgandiqdan so'ng har kuni ishda va muomalada lozim o'lan biluk (bilim), hunar, sanoye' va kamoloti soira (boshqa) bilmasi (bilmog'i) lozimdur. Bunlar (bular) ham tahsil va ta'lim ila maydonga kelub.

Bizim musulmonlar yolg'iz bir miqdor kalomi sharif o'qumoq va ba'zan bir-ikki satr qoralamoq tahsili uchun besh sana maktaba vorub kelublar va olajak bu tahsil uchun yoshlig'i va zamon tahsili favt (qurbon) edarlar. Agar maktablar go'zal bir usul kunlursa (o'tkazilsa), besh sanalik tahsil mukammal o'laroq ikki sanada tamom edi, qolan uch sanada xiyla ma'lumot va ilm qozanmoq mumkin o'lajakdur.

Bunga binoan 1884-sanasi Boqchasaroyda bir maktabi usuli jadida qo'ymish edim. Samarasi umidimdan ziyoda o'ldi. Bir

koch (qancha) maktablar doho usulimi qabul ila isloh o'ldilar. Soir viloyatlardan usul ko'rmiya kelub-kedanlar o'lub, bu soyada har tarafdin ikki yuzdan mutavojuz maktablar usuli qabul etdilar...»

Ismoilbek G'aspirali o'g'li uni «usuli jadid» maktabi deb atadi. U «usuli jadid»ni avvalgilariga — «usuli qadim»ga zid qo'yish yo'lidan bormadi, aksincha, bir-birining davomi, zamonga muvofiq-lashtirilgani, deb hisobladi:

«Eski usul maktab muallimlari, hurmatlu qarindoshlarimiz bu yozdiklarimiz og'ir kelmasun. Xosho, biz kandimiz (o'zimiz) eski usul ila o'quduk... Ota-bobo kunlaridin qolmish milliy maktablari isloh etmak usuli jadid demakdir, boshqa bir o'quv, boshqa bir maktab demak dagil (emas)dir».

U qanday maqsadda va nima sababdan yuzaga keldi? Uni «usuli qadim»dan ajratib turuvchi asosiy xususiyat nimada?

«Usuli jadid oz vaqtda ziyoda va doho mukammal o'qutmoq va o'qumoq yo'llarini go'stirir (ko'rsatadi)».

Muallif mazkur kitobida bunday maktablarning qurilish rejasi — loyahasidan tortib, dars xonalarining ichki jihoz uskunalarigacha, muallim kursisining turish joyidan o'tirg'ichlar — partalarning joylashish tartibigacha, bo'rtaboshirdan yozar-buzar — doskagacha, qopu (eshik) dan panjara-derazalargacha hammasi haqida batafsil to'xtaydi. Dars jadvalini tuzishda nimalarga rioya qilish, tanaffus — ta'tillar, imtihonlar, dam olish kunlari haqida fikr yuritadi. Chunonchi, maktabning 12 moddalik «Rioya»sida quyidagilarni o'qiyimiz: «Besh soatda besh turli fandan dars boqmoq (bermoq) og'ir dagildir. Lekin besh soat yolg'iz bir dars ila o'g'rashmoq zehnni buzar... Shogirdlari urmiya, so'kmiya hojat yo'qdir...»

Har olti oy imtihon qilib, sinfdan-sinfga o'tkazish, bilmaganlarni qoldirish va bular orqali shogirdlarda o'qishga havas uyg'otish xususida so'zlanadi. Kitobda asosiy o'rinni «usuli jadid» maktabining darslik dasturi va «Dars vermak usuli qoidalari» egallagan.

Ismoilbek G'aspirali o'g'li ishni 3–5 harfni o'quvchiga tanitib, shulardan so'z yasash bilan boshlashni, bir darsni o'zlashtirishga erinmasdan, navbatdagisini boshlamaslikni uqtiradi. Harflarning so'zdagi o'rniga qarab turli shakl olishiga diqqatni qaratadi. Ularni 2 qismga — oldidan keluvchi harflarga qo'shiluvchi («hurufi munfasila») va har ikki tomon bilan

qo'shiluvchi («hurufi muttasila») ga ajratadi. Shu tariqa savod chiqarishda har bir harfning «sadosini, savtini, maxrajini bayon etish»ni talab qiluvchi «usuli savtiya» (tovush metodi) atroflicha asoslanadi. Ismoilbek G'aspirali o'g'li uni «usuli savtiya tadrijiya» deb ataydi.

1881-yilda Simferopolda G'aspirali o'g'lining «Rusiya musulmonlari» degan kitobi bosilib chiqdi. Unda madrasalarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitish, rus tilini o'rgatish masalalari ko'tarildi. Jumladan, diniy fanlar va arab tili bilan birga tibbiyot, hikmat, kimyo, nabotot, nujum, handasa fanlari, rus va fors tillarini (jami 17 ta fanni) o'rganish zarurligi haqida so'z yuritildi. Ayni paytda, Rusiyadagi musulmonlarning ma'rifati o'z tillarida, an'anaviy vositalar bilan olib borilishi kerakligi qayd qilindi. So'ng 1884-yilda — usuli jadid maktabi ochilgan paytda Ismoilbek G'aspirali o'g'li maxsus «Xo'ja sibyon» («Bolalar muallimi») o'quv darsligini yozib chop ettirdi. Boshqacha aytganda, o'qitishning ovro'pacha harf-tovush usulini birinchi marotaba rusiya musulmonlari maorifiga olib kirdi. Bu haqda u shunday yozadi: «Milodiy 1881-sanasida jidig'im ma'lumotiga ko'ra, Rusiyada 16 million musulmon o'lub, bunlarning cherneslardan turk o'g'li (Turk) edilar... Ushbu turklarning 16 ming miqdorida mahalla maktablari (ibtidoiyalar) va 614 ta arabiya madrasalari bor edi. O'rta hisob ila har maktabda 30 bola o'qimish esa ibtidoiyalar va madrasalarda yarim million bola o'qimoqla o'ldig'i anglashilur edi».

«Zohiriy ko'rinishda bin umidli o'lan ushbu hisob, haqiqat holda bir aldanishdan iborat edi. Zero, 16 ming maktabda o'qimoqda o'lan turk bolalari beshar sana tahsil qildiqlari holda turkiga besh-o'n satr qadar o'lsun o'qurg'a va yozarg'a o'rgana olmazlar edi. Ushbu sababdan har sana bolalarining umrlari isrof bo'linur edi» («Turk oti» jurnalida 1912-yilda bosilgan «Rusiya turklarinda usuli savtiya maktablarning tarixi» maqolasidan).

Qiyos uchun yana bir nasiba: «Oyda 15 tiyin xah verub, bolalarni o'quturg'a odam qilmish ota-onalarning oyda 1 so'm 15 tiyin verug'a rizoliqlari banim umidimni dahi bir qat ortdirdi».

«Yangi usulning mo'tabar o'lmoqi eski fikrlilar uchun matlub o'lmadi, maktabni va usulni xalq ko'zindan tushirmoq



uchun chorrahalarga kirdilar va har tarafdin hujum qildilar. «Tez o'rganilmish ilm tez unutilur», — dedilar, «diniy maktablar bitar va ruscha o'qilajak ishko'llar o'lurlar», — deya so'yladilar».

«Ilm-ma'rifat o'choqlari har yerda o'charg'a boshladi... yoki «Ushbu jihatdan bir-biridan o'granmak tariqi ila muallimlar yetishtirmak chorasi tobuldi»<sup>1</sup>.

«Maktabda imtihon kunida qirq bola yozildi» (ortiqcha mumkin emas — grupp bo'ldi!) Imtihongacha!»

... Darslar majona o'qulib, hatto, kitobu qog'oz maktab hisobidan verildagi holda, maktabga ishonmadiyalarindan yolg'iz 12 bola shogird o'laraq yozildi va shular ila daftar yozilub dars boshlandi, kunda do'rd soat shug'ullanib qirq besh kun davom etildi.

Qirq kunlik darslarning natijasi o'laraq salbiy bolalarning turkcha o'qir yozdiqlarini, Qur'oni sharifning ochilishi, bu yerindan ahrin-ahrin (asta-asta) o'qurg'a kuchlari yetadigan ko'rdilar. Buning asari (ta'siri) ila hozir o'lanlardan ko'plari ko'z yoshlari ila og'ladiqdarida ko'rildi. Xayrli ko'z yoshlari bu yoshlar edi? Darslarni, maktab va madrasalarni isloh etmak mumkin o'lajag'ini dalilida ushbu yoshlar edi».

Ismoilbek G'aspirali o'g'lining merosi Turkistonda juda ham e'zozlanar edi. Ayniqsa, Sadriddin Ayniy, Hamza Hakimzoda, Abdurauf Muzaffar va boshqalar ustozning mehnatiga qoyil qolgan edilar. Masalan, Abdurauf Muzaffar quyidagilarni yozgan:

«Ismoilbek qrim-turk o'g'li bo'lg'oni sababli adadiy (ko'p) darajada muntazam tahsil ko'rmish maqsadi ila Parijga bormishdir. U turkcha o'qidi. Turkiya, Misr, Jazoiri va Tunis kabi diyori islomni sayohat qilib, ahvolini yaqindan tanishdi. Ismoilbekning bosh fikri Rusiyadagi musulmon turklarini bir-birlari bilan tanishtirmoq va ulug' bir turk millati tashkil etub, alarni taraqqiy qildirmoq edi. Lekin buning uchun eng lozim bo'lgan narsa — turk qavmlarining har biri anglay oladurg'on umumiy bir sheva ixtiro qilmoq edi. Shuning uchun ul «Tarjimon»ni nashr qila boshladi. «Tarjimon» boshida nihoyatda oz tarqalub, yordam bo'lmagani sababli Zuhro xonim ila Ismoilbek, hatto, o'zlarining qimmatli kiyimlarini, ziynatlarini va uy asboblarni sotmoqqa majbur bo'ldilar.

<sup>1</sup>O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1990, 26-yanvar

O'n yildan so'ng «Tarjimon»ning kichik bir yubileyi bo'ldi. Bu vaqtda bor mushtariylari bir yarim mingga yetgan ekanlar. Tatarimiz sartimizni, sartimiz qozog'imizni ko'rdik va tanidik. Ulug' otamiz «Tarjimon» bizlarga vasiylik qildi, nasihat berdi. Qo'llarimizni bir-birlariga qo'shdi... Ta'lim-tarbiyaga e'tibor berib Boqchasaroyda kurslar ochdi va dars kitoblari hozirladi. Bu kurslarga Rusiyaning uzoq shaharlaridan talabalar kelib, usuli savtiya o'rganib ketak va o'zlarining shaharlariga qaytib, maktablar ochar edilar. Boqchasaroy shahridan chiqqan bu yangi usul maktablar tezda Rusiyaning har tarafiga tarqab, butun Rossiya musulmonlari maktabi bo'ldilar. Rossiya musulmonlarida til, adabiyot va matbuotning maydonga chiqib, bu darajada takomili, har turli jamiyatlar va hunar maktablarining kundan-kunga ko'paymog'i, milliy teatr, milliy muzikaga ahamiyat etilmog'i hammasi Ismoilbekning 32 sanadan (yildan) beri ko'rsatgan g'ayratlari soyasida ekanligi har birimizga kun kabi oshkoradir<sup>1</sup>».

Hamza Hakimzoda Niyoziy Ismoilbek G'aspirali o'limi Turkiston xalqi uchun unutilmas judolik ekanini quyidagicha ifodalagandi:

«Yavmul vafot

Bori yer yuzinda totorlargagina xos emas, balki butun ahli islomga barobar ta'sir qilgan furqat vajhidalig'dan motamlik bir kun yetti desak-da, marhum va mag'fur Ismoilbek otimizning yavmul vafoti kunidir.

O'zini inson ekanlig'in haqiqiy ko'z bila qo'rg'ondan beri butun Rossiya musulmonlari orasiga maorif dengizin oquzmoq va toshzorlarni sabzazor etmoq murodida qorshudagi «sadd» bo'lg'on nifoq g'aflat va jaholat kabi hisobsiz tizilg'on eng zo'r katta tog'larni yolg'uz o'zi Farhod kabi ijti hod va g'ayrat teshasi bila buzub tekiz qilg'on zotda bu Ismoilbek hazratlari edi.

Bu xusularda har bir tarafdin kelodurg'on tiyri ta'n va sangi malomatlar uchunda: hamma dindosh va millatdoshlari o'lg'on ahli Ismoilning yoshlariga qalqon bo'lub, o'zining hayoti uchun eng birinchi darajada farz va lozim o'lg'on tubandagi uyqu va rohatidan, tandagi tarbiya va farog'atidan voz kechib, uzoq yo'llarimizni yaqin va kechalarimizni kunduz qilg'on zotda bu marhum va mag'fur Ismoilbek hazratlari edi».

<sup>1</sup>Sadoi Turkiston. 1914, 42-son.

## *Mustaqil ish*

G'aspirali Ismoilning «Rahbari muallim» yoki «Muallimlarga yo'ldosh» asarini o'qib chiqib tahlil qiling.

### **MUNAVVAR QORI**

(1878—1931)

Munavvar qori Abdurashidxonov 1878-yilda Shayxontohur dahasining Darxon mahallasida tug'ildi. Ko'p o'tmay padari buzrukvori bandalikni bajo keltiradi va onasi Xosiyatxon mahallada otinlik qila boshlaydi. U o'qimishli fozila ayollardan bo'lib, o'z farzandlariga dastlabki savod va boshlang'ich ilmdan saboq bergan. Munavvar ham ilmga chanqoq bo'lib, dastlab Toshkentdagi Yunusxon madrasasida, so'ng Buxorodagi madrasalardan birida ta'lim oladi. O'qish bilan birga Vatan taqdiri, xalq baxti, uning ijtimoiy-iqtisodiy turmushi, «oq poshsho»ning o'lkadagi harbiy zo'ravonligi o'rnatgan tartiboti haqida ham o'ylagan. Munavvar qori Vatanning ozod bo'lib, musulmonlarga dunyoviy bilimlar berishning birdan-bir yo'li eng avvalo, mavjud diniy maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi maorif tarmoqlarini yaratish deb hisobladi.

U 1901 yili birinchi jadid maktabini ochib, bolalarni o'qitadi. Bu maktabda 5 yillik bilimni 3 yilda berishga muvassar bo'ladi.

Munavvar qorining jadid maktablari uchun yangi tovush usulida darsliklari «Adibi avval» («Birinchi adib», 1907), «Adibi soni» («Ikkinchi adib» o'qish kitoblari) chop etildi. Munavvar qori nomi faqat Turkistondagina mashhur bo'lmay, balki O'rta Osiyo, Rossiya musulmonlari uchun tabarruk edi. U 1906-yili Ismoil Obid muharrirligida «Taraqqqiy» ro'znomasini tashkil qildi. Uning sahifalarida islom, shariatga oid masalalar, iqtisodiy-siyosiy muammolarga alohida to'xtalib o'tgan edi. 1908 yili «Sabzavor» (badiiy asarlar to'plami) «Yer yuzi» (geografiyaga oid), «Tajvid» (Qur'oni karim)ni bosib, jadid maktablarida tarqatdi.

1910-yili Toshkentda 10 ta jadid maktabi bor edi.

Jadid maktabiga asos solgan Munavvar Qori jadidchilik harakatini faqatgina ma'rifatchilik deb chegaralab qo'yg'nlarga

qarshi kurashib siyosiy va iqtisodiy masala ekanligini alohida ta'kidlagan edi:

«Chor hukumatini yo'qotish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo'lishini yashirish emas. Nainki, biz jadid maktab ochish bilan savdo xizmatchilari, boshqa ta'bir bilan aytganda, do'konda o'ltirib nasiya yozadurg'on xodimlarga yetkazsak. Shu ishga aqlli odam shu bahoni berishdan oldin u yoqni mulohaza qilsin»<sup>1</sup>.

1918-yil 9 aprelida Turkiston Xalq dorilfununining Musulmon bo'limini tashkil etish yuzasidan komissiya tuzildi.

Munavvar qori rais, Burhon Habib, Iso To'xtaboyev, Sodiq Abdusattorov, Muxtor Bakir, Abdusamad qori Ziyaboyevlar a'zo qilib saylanadi. 22 kun ichida Xalq dorilfununining Musulmon bo'limi dasturini tuzdilar.

U uch bosqichdan iborat edi.

### **Turkiston Xalq dorilfununi Musulmon bo'limining tuzilishi**

Yuqori bosqich	O'rtabosqich	Quyibosqich
O'qituvchilar kursi, keyinroq oliy ilmgoh	O'rtahunar maktablari	Boshlang'ich maktab rejada9 ta, amalda24 ta ochildi

1918-yil 13 may yakshanba kuni dorilfunun (hozirgi O'zbek yosh tomoshabinlar teatri binosida) tantanali ravishda ochildi. Institutga Munavvar qori rais (rektor), Iso To'xtaboyev birinchi, Burhon Habib ikkinchi muovinar qilib tayinlandilar. Dorilfununni boshqarishda 15 ta demokratik tashkilotdan vakil saylandi. O'qituvchilarning soni 190 ga yetdi. Ular orasida Fitrat, Kamol Shams, Haydar Shavqiy, Abdurahmon Ismoilov va boshqa ko'zga ko'ringan mutaxassislar bor edi.

Munavvar qori ovro'pacha usuldagi dorilfunun tashkil etish bilan birga qator madrasalarni isloh qilishni va ularda asosan dunyoviy bilimlarni o'qitib, milliy ziyolilar yetkazishni taklif etdi. Shu sababdan 1923 yilda yangi usul bo'yicha 30 ta madrasada talabalar o'qitilganligi ma'lum.

Qatag'on yillari Munavvar qori qilgan haq-yo'lidagi ishlari qoralandi, «xalq dushmani», «millatchi»likda ayblanib qamaldi

va 53 yoshida otib o'ldirildi. O'zbekiston mustaqilligidan keyingina bu siymo xiralikdan yorug'likka chiqib, umumbashar yog'dusi bilan yoshlar tarbiyasiga xizmat qilmoqda.

### **Munavvar qorining didaktik qarashlari**

Munavvar qori ijodiy faoliyatida maktab tashkil qilish bilan birga qanday o'qitish va nimani o'qitish nazariyasini ishlab chiqdi. 1907-yili nashr etilgan «Adibi avval», «Adibi soni» darsliklarini Y.Abdullayev tahlil qilgan. «Adibi avval» darsligi 10 marta nashr etilgan. Darslikning qimmati shundaki, o'quvchilarga harf o'rgatish uchun kitobning 25-betida muallimlarga quyidagicha ko'rsatma berilgan: «Hurmatli muallim afandilar. Saboq shu yerga yetganda bolalarga alifboi arabiyadin ham har kuni bir saboqdan o'qutub, alifboi arabiya tomom bo'lg'ondan so'ng kitobiga barobar Qur'ondan ham oxirgi suralarni yaxshilab o'qitib hafz ayturmoqda diqqat etmog'ingiz lozim».

So'ngra Munavvar qori qanday o'qitish qoidalari haqida to'xtab o'tadi:

— har harfni ta'lim berganda kafaga moyilroq qisqa ovoz ila ta'lim bermoq ham har qaysi harfni o'z mahrajidin chiqarib aytirmoqqa diqqat qilmak;

— har saboqni qora taxtaga oq bo'r ila yozib bermak, bolalarga shu taxtaga qarab barobar ovoz ila bir soat takror qilmoqni buyurmoq;

— bir soatdan so'ng bolalarning holiga qarab shul 10 yo 15 marta kitobdan ko'chirib yozmoqqa buyurmak, ertasiga saboq bermasdan avval buyurilgan miqdorda yozgan-yozmaganlarni daftardan ko'rib, kamroq yozganlar bo'lsa maktabda bolalardan keyin qoldirmoq jazosi ila tarbiya qilmoq;

— saboq berurdan oldin kechagi saboqlarni yoddan yozdirib, yozganlarini birin-ketin ko'rib, g'alatlari bo'lsa, o'zlariga ko'rsatib tashih etmak...;

— bolalarga xushxulqlik, shirin so'zlik ila muomala qilmoq, har kun ozod qo'yar vaqtida muomalat axloq-adablarini va izza tariqa ila o'rgatmoqdir.

Munavvar qori bolalarni savodxon qilishga qo'yilgan talablari bilan ularni o'qitish orqali tarbiyaviy ta'sirchanlikni «Adibi soni» darsligida tanlagan mavzular orqali amalga

oshirishni nazarda tutdi. Fikrimizning dalili sifatida kitob muqovasida yozilgan hadisni keltiramiz: «Sharaf ul insonni bil ilmi va adabi ila bil moli va nasab» (Inson sharafi uning moli va nasabi bilan emas, ilmi va odobi bilan belgilanadi).

Darslikning «Ota-ona», «Oila a'zolari» kabi bo'limlarida ota-onani hurmatlash, aka-uka, qarindosh-urug'ni e'zozlash kabi g'oyalar alohida o'rin egallaydi:

*Kishining bor ersa ota-onasi  
G'animatdur anga olarning rizosi,  
Xudoni qoshida qabul ekandur  
Ota va onaning holaga duosi.*

«Adibi soni» darsligida axloq, jo'g'rofiya, tabiiyot kabi fanlardan ham bolalarga ma'lumot berilar edi.

Munavvar qori faqatgina rahbar, tashkilotchi va kitoblar muallifigina bo'lib qolmay, mahoratli o'qituvchi ham edi.

Respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Rahmat aka Azizxo'jayev o'z ustozini haqida quyidagicha hikoya qiladi:

... — Narimonov nomli Ta'lim-tarbiya texnikumida saboq berganlari haqida, qisqacha bo'lsa-da, yozish uchun qo'limga qalam oldim.

Men 1926–27-o'quv yilining ikkinchi yarmida, kechikib bo'lsa-da, o'qishga kirganimda, Munavvar qori ona tilidan saboq berganlar. U kishi saboqxonamizda mendan imtihon olgani, birinchisidan yaxshi o'tganim hali-hali yodimda. Dars o'tganlarida, ba'zi muallimlar kabi kitob-daftarga qaramas, ortiqcha bir og'iz so'z aytmas, qunt bilan dars tinglar, kitoblardan ko'ra saboqlaridan ko'proq bahramand bo'lar edik. Puxta bilim olish uchun ko'proq insho yozdirib, ularni tekshirishdan zerikmas edilar. Ustoz bir saboqda Qo'qon xonligi davrida Ali ota ismli bir temirchining adolatsizlik qurboni bo'lgani haqida insho yozishni topshirdilar. Dars oxirigacha barcha talabalar yozib topshirdi. Men yangi o'quvchi bo'lganim sababli ustozdan iymanihgina so'radim: «Qori aka, tugatolmadim, keyin topshirsam maylimi?» U kishi: «Mayli, mumkin», — dedilar-u daftarga bir nazar tashlab, bosh irg'ab qo'ydilar. Keyingi inshoda ham men yangi mavzuni emas, balki avvalgisini davom ettirdim. Ustoz daftarlarni yig'ishtirib olayotib mening inshoimga ko'z yugurtirib chiqib: «Yaxshi,

ko'p yozibsiz, uyda o'qub berolmaysizmi», — dedilar. Mayli, Qori aka, deya javob qildim va bordim.

Toshkandi azimning Shayxontohur dahasi ila o'tib, ko'p ham yurmay, ustozning uylariga kirib bordim. Kattagina hovli, kungay tomonidagi oynaband ayvonda suhbatlashdik. Bo'ydorgina, basavlat ayol, kelin oyimiz bo'lsalar kerak, dasturxon yozdilar, choy so'ng ovqat ham bo'ldi. Men «Adolatsizlik qurboni» nomli insho-hikoyamni o'qib berdim.

Qori aka xursand bo'lib, kelajagim, yaxshi asarlar yozishim mumkinligi haqida, buning uchun alohida kitoblar o'qishim zarurligini ta'kidladilar. Men ustozga «O'tgan kunlar» romanini o'qiganligim va undagi o'zim tushunmagan ba'zi arab-fors so'zlarini yozuvchimiz Abdulla Qodiriyga uchrashib, aniqlab, yaxshi maslahatlar olib kelganimgacha aytar ekanman, u kishi xursand bo'lib, bosh iring'ab ma'qulladilar. So'ng jiddiy tus olib, dedilar: «Xalqimiz o'qirmikin, ko'zlari ochilib, maktab-ma'rifat yo'liga astoydil bel bog'larmikan?» Kitob, gazetalarni orqalagan, turli ta'qiblar ostida qolgan kunlarni esladilar. So'ng chehralari yorishib: «Mana sizlar, endilikda xalqimiz bolalariga ta'lim berishda ziyo tarqatuvchilar bo'lursizlar», — dedilar. Ustoz talabalar yozgan insholar haqida to'xtab, mening yozgan inshoimni namuna sifatida baholadilar. Quvonar edim, quvonchimiz uzoqqa cho'zilmadi<sup>1</sup>.

### *Mustaqil ish*

Munavvar qorining «Adibi avval» va «Adibi soni» darsliklarini o'qib munosabat bildiring va hozirgi «Alifbe» va «O'qish» kitobiga solishtiring.

### **ABDURAUUF FITRAT**

(1886—1931)

Abdurauf Fitrat shoir, yozuvchi, dramaturg, pedagog olim — zamon va ijtimoiy muhit bilan yuzma-yuz turib haqiqatni, millat taqdirini ifodalashga qodir, shijoatli inson, yolg'on, aldoq, nohaqlik illatlarini his etgan haq so'z tolibi,

---

<sup>1</sup>«Fan va turmush». 1991, 7-son, 29-bet.

imon farzandi edi. U kurashchan e'tiqod kishisi bo'lib, g'am-alam bo'yoqlarini tasvirda aslo soddalashtirmadi. Elimizning nomus va obro'yini ardoqlashda o'z jonini ham ayamadi. 1956-yilgacha Fitratni tilga olish va ijodini o'rganish man etilgan edi. Mustaqil O'zbekistonda milliy mafkurani shakllantirish, unutilgan Fitrat, Cho'lpon, Elbek, Behbudiy, Munavvar qori, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromovlarni eslash, ularning ruhi oldida ta'zim qilish, ijodini o'rganib: «Bir o'chib so'ngan chiroqlar»ni yoqish — ular merosini o'rganish vaqti keldi.

Fitrat 1886-yili Buxoroda tug'ilib, 1909—1914-yillarda Istambulda ta'lim olgan va Turkiya maorifining rivojlanishiga hissa qo'shgan. Fitrat Istambulda «Buxoro maorifi» nomi bilan rasmiy ochiq jamiyat tuzgan edi.

Bu jamiyat o'zining nomiga muvofiq Buxoro va Turkiston maorifining rivojlanishiga doir muhim ishlarni amalga oshirdi.

Bu jamiyat orqali olg'a surilgan g'oyasi va ish rejasida quyidagilar mavjud edi:

1. Buxoro amirligi idorasida ma'lum islohot — o'zgarish kiritish g'oyasi;
2. Buxoro amirligi o'miga yangi konstitutsion davlatni tashkil qilish g'oyasi;
3. Maktablarda dunyoviy bilimlar berish bilan birgalikda eski adabiyot va din darslarini o'z ichiga olgan «Usuli jadid» deb atalgan maorif tizimini tashkil etish g'oyasi edi.

Fitrat faoliyati ko'p qirrali bo'lib, uning asosi jadid harakati bilan bog'liqdir.

XIX asr oxirlariga kelib Turkiston o'lkasida ham burjua mustamlakalari asta-sekin paydo bo'la boshlaydi. Natijada «eskilikni yanchib tashlab, rus fan va texnikasini o'rganib, zamon bilan olg'a borish yoki feodalizm tuzumida qola berish kerakmi?» muammosi tug'iladi. Yangilik tarafdorlarini, Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda «Gazeta o'qug'uvchilarni» mullalar «jadidchi» deb ataganlar.

Toshkentda Munavvar qori, Buxoroda Fitrat bu harakatning to'g'ri yo'nalishiga rahbarlik qildilar.

Bu oqimning asoschisi maktab va maorif Yo'riq-nomasini yaratgan Ismoilbek G'aspirali edi. Uning g'oyasi O'rta Osiyo, Kavkaz, Turkiston, O'rta Sibir xalqlari orasida tarqaldi. Turkistonda esa jadidchilik harakatining yirik vakili Fitrat edi.



U «El koʻzini olgʻon qorongʻi pardalarni yirtaylik» shiori ostida ijod qildi. «Oʻqituvchilar yurtiga» sheʼrida:

*Haydang, oʻrtoq, qutqaraylik jahldan Turonlarni,  
Yorutaylik maʼrifat nurida Turkistonlarni.*

kabi misralar yoki quyidagi misralar fikrimizning isbotidir.

*Ellarni ham mahvdan qutqargʻuvchi ilm erur.  
Bizlarni ham bu kundan uning oʻzi qutqarur.*

Bu misralar Gʻarbiy Turkiston, Qrim, Qozonda keng tarqalgan edi. Fitratning ijodiyotiga bir nazar tashlasak shoir, faylasuf, maorifchi, pedagog, tilshunos, adabiyotchi, musiqashunos olim, maʼrifatparvar sifatida gavdalanadi. Uning asarlari: «Munozara», «Hind sayyohi qissasi», «Hind sayyohi bayonoti», «Bekjon», «Ahvoli hozira», «Maktab kerak», «Maorif ishlari», «Din istiqolochilari», «Chin sevish», «Abulfayzxon», «Oʻzbek adabiyotidan namunalar», «Oʻzbek mumtoz musiqasi», «Rahbari najot», «Zahroning imoni», «Qiyomat» kabilardir.

U hayotni, jamiyatni yangilashga kirishdi. Ilmiy va badiiy ijod sohasidagi dastlabki qadamlarini maʼrifat izlashdan va hammani maʼrifatga daʼvat etishdan boshladi.

Fitrat 1916-yilda «Oila» nomli falsafiy asarini yozgan. Unda oilaviy hayot islohotidan bahs yuritilgan va adib najot yoʻllarini axtarib, xalqlarning umuminsoniy qardoshlik gʻoyasini targʻib etgan.

Fitrat maʼrifatparvar yozuvchilar, oʻzbek va tojik ziyolilari Vasliy, Behbudiy, Alizoda, Hoji Muin va boshqalar bilan hamkorlikda Samarqandda «Hurriyat» gazetasi tahririyatida faoliyat koʻrsatgan, gazetaga muharrirlik qilgan. Dastlab oʻrta maktablarda, soʻngra oliy oʻquv yurtlarida taʼlim bergan, milliy maktablar ochgan.

### **Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashi**

Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlari asarlarida oʻz aksini topgan. 1915-yilda yozgan «Rahbari najot» asari falsafiy ruhda yozilgan boʻlib, oʻzbek xalqining istiqololini asoslab bergan.

Bu asarni u Buxoro xoni Amir Olimxonga bag'ishlab, undan ma'rifat yo'lini ochishga najot istagan edi.

Kitobning kirish qismida o'tmishda podshohlar rahbarligida ilm-ma'rifat yashnagani haqida gapirib, Amir Sayid Muhammad Olimxonga umidvorlik bildiradi. Barcha kamtaru faqir kishilar singari ushbu axloqiy majmuaga «Rahbari najot» deb nom berganligini yozadi.

Fitrat dindorlar ta'sirida qolgan jamiyatni taraqqiy ettirish yo'llarini izladi va o'ziga shunday savol berdi: «Nima qilmoq kerak? Har ne qilsa xudodan deb o'tiraylikmi?» Fitrat bunga javobni Qur'oni karimdan topdi: «Xudo mardumlarga zulm qilmaydi, lekin ular o'zlari o'z xalqlariga zulm etadilar. Fitrat an'anaviy falsafaga suyangan holda jamiyatning ma'naviy-axloqiy sifatlarini ishlab chiqdi. «Badbaxtligimiz jamiyat hayotida dinimizning asl axloqiy donishmanona aqidalaridan uzoqlashib ketganligidandir», — degan edi. Fitrat hayot haqidagi falsafiy qarashida o'z zamonasidagi shaxslarga quyidagicha munosabat bildirgan edi:

«Koinotni hayot tashkil etadi. Hayot bo'lmagan joyda moddiylik yo'qdir». Fitrat fikricha, hayot mazmuni ikki dunyo baxtiga yetishmoqdan iborat. Din toliblari saodati dorayn. Ikki dunyoga eltuvchi ilohiy ahkomlardir. Hayot mazmuni shu baxtga intiluvdan iboratdir. Bas, shunday ekan, haqiqiy musulmon bu dunyo, ham oxirat dunyo baxtiga muayassar bo'lishiga g'ayrat qilmog'i kerak.

Bu g'ayrat, vijdoniy majburiyatlarni ado etmog'iga qaratilgan, ya'ni axloqiy poklanish kamoloti yo'lida tinimsiz intilish. Shundan kelib chiqib axloqiy majburiyatni 3 ga bo'lgan edi.

### 1. Ma'naviy; 2. Insoniy; 3. Oilaviy.

Ma'naviy majburiyat — inson o'zi va barchani o'ylashi. Kimni qalbi yaxshi fazilatlariga to'la bo'lsa, u odam xushaxloq hisoblanadi. Fitrat inson ma'naviy ruhiyatida 3 xil quvvat borligini ko'rsatgan edi.

1. **Aql quvvati** — insoniyat aql rahbarligisiz saodatga musharraf bo'la olmaydi;

2. **Hirs quvvati** — boylik, molu dunyoga imonni almashtirish. Bu g'oyalarning inson uchun zararini u «Qiyomat» asaridagi Xorut va Morut, «Zahroning imoni» hikoyasidagi Zahro timsolida ifodalaydi;

3. **G'azab quvvati** — shaytoniy hirs bo'lib, Fitrat insonlarni yomonlikdan qaytarish yo'llarini ko'rsatishga intilib, o'zining axloqiy tarbiyaga doir g'oyalarni har bir asarida ifodalagan edi.

### **Fitrat ta'lim-tarbiya haqida**

«Hind sayyohi bayonoti» asarida Fitrat ma'rifat va ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Asarda uning yurt taqdiri uchun, Buxoroning madaniyati, tabobati, sanoati, barcha boyliklaridan xalq manfaati yo'lida foydalanish uchun qayg'urishi aks etgan. Mazkur asarda Fitrat Buxoro aholisini uch toifaga: ulamo, umaro va fuqaroga ajratgan.

Fitrat qanday og'ir sharoit bo'lmasin inson aqli bilan uni yengishi kerak deb, aql barkamolligiga alohida e'tibor berdi. U inson aqlini 2 turga bo'lgan edi:

Kasbiy yoki nisbiy aql — ilm ta'sirida hosil bo'ladigan aql. Fitratning fikricha, «Inson hayotining mazmuni ikki dunyo saodati vasaodat rahbari. Aqlning qolipligiga erishish. Islom dini hech qachon ilm-fanga qarshi bo'lmagan, u fikrining isboti maqsadida Qur'oni karimdan hamda Hadisi sharifdan misollar keltiradi: «Tug'ilgandan qabrgacha ilm izla...»

Fitratning ma'rifiy-didaktik qarashlarida ilmni tavsiflab chiqishi diqqatga sazovordir:

1. **Naqli ilm.** Aqliy ilm — diniy va dunyoviy ilm. Diniy fanlar — tavsif, hadis. Ilm rivoyati hadis, ilmi usuli hadis, fiqh va usuli fiqh, ilmi kalom, ulumi lisonin (arab tili, sarfi va naqli).

2. **Dun'viy ilmlar:** tarix, jo'g'rofiya, muqaddas tarixi (din tarixi, avliyoi-anbiyolar tarixi), sivilizatsiya tarixi. Tamaddun tarixi. Buni ikkiga bo'lgan edi: adabiyot tarixi, tabiatshunoslik tarixi. Siyosiy tarixni ham ikkiga bo'ladi: umumiy va xususiy tarix.

Fitrat aqliy fanlarni butun bashariyat kashfiyoti natijasidir deydi. U yana fikrni mukammallashtirib, har bir odam jinsi, dini, mazhabidan qat'i nazar ilm-fandan foydalanishi kerak, deydi. U aqliy fanlarni 3 ga bo'ladi:

1. **Tabiiy fanlar;** 2. **Aniq fanlar;** 3. **Falsafiy fanlar.**

Tabiiy fanlar qatoriga: tabobat (ximiya, fizika), nabotat (botanika), hayvonot (zoologiya), ma'danlar ilmi (geologiya);

aniq fanlar tarkibiga: hisob, jabr (algebra), handasa (geometriya), hay'at (falakiyot); falsafiy fanlarga esa: ruh ahvoli ilmi (psixologiya), axloq ilmi (etika), mantiq (logika) va ilohiyot (tasavvuf) fanlari kirishini ta'kidlab o'tdi.

Fitrat garchi maktab va maorif taraqqiyoti uchun o'z jonini fido qilgan bo'lsa-da, uning qadriga yetishmadi. Bu borada u: «Bilmayman, ne badbaxtlikmanki, bu kungacha mening so'zlarimni eshitadigan kishi ko'rmadim, bas ba'zi haqiqatshunoslar «kofir» dedilar. Bular bema'ni bo'htondir. Mening vazifam esa musulmonlikni ado etishdir», — deb faryod chekkan ekan.

U vatanni rivojlantirishning birdan-bir chorasi maorifni islohlash, yangi konstitutsiya joriy qilish va maorifning yangi tizimini yaratish deb bildi. Yetuk savodxonlar tayyorlash uchun kurashuvchi jadid guruhi Toshkentda Munavvar qori, Sayidrasul Aziziy, Samarqandda Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy, Farg'ona vodiysida Hamza, Buxoroda Fitrat tomonidan tashkil qilingan edi.

Amir Olimxon bolalarini jadid maktabiga bergan ota-onalar va bolalarni qatl etishga farmon berdi. Jadid maktablari yopib qo'yilgach, Fitrat boshliq jadidlar tarafdorlari ma'naviy tashviqotni kuchaytirdilar. U dramaturgiya bilan shug'ullandi. Uning qalamiga mansub «Bekjon», «Chin sevis» pesalari, «Hind ixtilotchilari» dramasi, «Temur sag'anasi», «Abulfayzxon», «Arslon», «Bedil», «Bir majlisda» asarlari Maskovda nashr etildi. Fitrat 1921–28-yillarda Samarqand Pedagogika institutida o'zbek tili va adabiyotidan dars bergan vaqtida til tarixi va mumtoz adabiyotni o'rganishga katta e'tibor bergan. Bedil, Yassaviy, Turdi, Mashrab, Umar Xayyomlar asarlarini o'rganib, uning barcha qirralarini aniqlab adabiyotshunosgina emas, balki musiqashunos sifatida ham o'rgandi va «O'zbek adabiyotidan namunalar», «O'zbek mumtoz musiqasi va uning tarixi» darsliklarini yaratdi.

Fitrat insonlarni bir-birini anglatuvchi vosita imo-ishora deb ham ta'kidladi. So'ngra Misrda paydo bo'lgan «Xibarug'luf» yozuvi fikrning rasmlar orqali bayoni ekanligini izohlab beradi.

Olimlarning fikriga ko'ra, Xibarug'luf yozuvini 3 usul bilan o'rganganlar:

1. Yozish uchun suratlar: urush uchun qilich, bir qo'l — o'rmon, bir yog'och daraxt;

2. Har soʻz boʻgʻini surat usulidir. Soʻzlarni hijolarga ajratib, har bir boʻgʻin nimani bildirsa, shuning rasmini chizishgan. Masalan: «Tashqariga» soʻziga. Bir tosh va bir qari odam suratini chizishgan;

3. Har harf uchun bir rasm. Masalan: hoʻkizni «Obis» deganlar. Harfi oʻrniga hoʻkiz rasmini chizganlar.

Bunday yozuv usullari qiyin boʻlganligi sababli, olimlar savdo uchun zarur boʻlgan yozuvlarni soddalashtirib 22 harfni tanlab olish haqida fikr yuritganlar. Arab alifbosi kelib chiqishi, soddalashtirilgani hamda berilishi taʼkidlanadi. Shundan soʻng asarda arab alifbosidagi oʻxshashliklar koʻrsatilgan. Fitrat arab alifbosidagi zero zabarlar qiyinligini koʻrsatadi. Bu asarida musulmonlarning kufi, nash yozuvlari haqida ham fikr bayon etadi. Qurʼoni karim dastlab shu yozuvda boʻlganligi sababli oʻqish qiyin edi. Birinchi boʻlib harflarni isloh qilish Abdumalik Mardon zamonida boshlanib, u harflarga nuqtalar qoʻygan edi. Soʻngra uni Imom Hamid qaytadan ishlaganligi asarda eʼtirof etilgan.

Bu bilan Fitrat, shubha yoʻlqki, odamlar necha din, mazhab, qavm va millatga boʻlinmasinlar, bir otaning farzandidirlar, boshqacha aytganda, bir-birlariga birodardirlar, degan edi.

U hadislariga murojaat etib, Xudo (odamlarga) oʻz xesh-aqrabolarini, yaqinlarini ehson va yaxshilik ila ziynatlamogga amr qilgan. Shu sababdan odob, axloq tarbiyasiga alohida eʼtibor beradi, fikr va axloq tarbiyasi zarur, deb hisoblaydi. Axloqni bosh ona va Vatan soʻzidan boshlamog zarur, chunki onani sevgan inson Vatanni sevadi, degan edi.

### **Fitrat ijodida maʼnaviy-axloqiy tarbiya**

Fitrat ijodida Vatan tushunchasi alohida oʻrin egallaydi. «Sayxa» asarida «Vatanim mening sajdagohim» deb Vatan madhini kuylaydi:

*Vatanimni ziyorat qilmoqqa erta tongda kel,  
Hay-hay qanday Vatan bu, u mening sajdagohim.  
U mening osmondagi oyim, osoyishim, sharafim,  
Ham kaʼbam, ham qiblam, ham chamanimdir.*

Fitrat sohibqiron Temurning hayratomuz faoliyatiga katta baho berib, Temur saltanatidan so'ng Turkiya ahvolini o'zining «Temur sag'anasi» dramasida:

«Xoqonim, ezilib talangan, talanib yiqilgan, yiqilib yaralangan turk elining bir bolasi sendan ko'mak istarga keldi. Bog'lari buzilgan, gullari so'ligan, bulbullari uchirilgan Turonning bir qorovuli senga arz etarga keldi», — deb Temur ruhiga murojaat qildi. 70 yildirki, Temurni qonxo'r xon, sarkarda deb keldik. Mustaqillik Fitratning ohu nolalarini yuzaga chiqardi.

U Vatan firog'ida yurgan kezlarini shunday ta'riflaydi:

*Yotsam tushimda, uyg'onsam yonimda.  
Ko'z yumsam miyamda, ko'z ochsam qarshimda,  
Bir mungli xayol kelib turadi...  
Oh... Angladim mening Vatanimsan.*

Fitrat Vatan istiqbolini kuyladi. Yoshlarni Vataniga sodiqlikka chorladi. Imonli inson — Vatanli inson. Imonga e'tiqod Vatandan boshlanadi, degan edi. Imon ruhiy hayotning asosidir. Bunday hayot esa kishilarni faqat yaxshilikka undaydi.

Fitrat inson uchun xos bo'lgan ijobiy, salbiy va axloqiy fazilatlarni ta'kidlab o'tadi. Iffat, karam, hayo yaxshilikka yetaklaydi; buxl (baxillik), isrof, nifoq esa yomonlikdir. Bu fazilatlar mazmunini ochishda islom sharoitida amaliy an'ana bo'lib kelgan qarashlarga suyanadi.

Fitrat o'zining «Qiyomat» asarida axloqsizlik holatlari nimalarga olib kelishini Xorut va Morut timsoli orqali ko'rsatdi.

Morut: Xudoyo-xudovando! — «bandalarni yaratmoqdan maqsadim o'zimga ibodat qildirmoqdir», deb o'zing aytgan eding!

— Albatta, degan edim. Bukun ham shuni aytaman.

— Ey xudoyo, maqsading bo'lgan ibodatning hammasini biz qilib turgan holda yer yuzidagi noz-ne'matlarning hammasini odamlarga berib qo'yganing nechundir? Bilasanki, ular senga biz kabi ko'p ibodat qilmaydilar. Buning ustiga o'g'irlik, xotinbozlik, qon to'kish, sharob ichish kabi gunohlarni ham qilib qo'yadilar.

Bu savol xudoga og'irlik qildi, birdan qichqirdi:

— Bu nima gap? Odamni yaratganimdan beri siz, malaklar, shunday e'tirozlar qila-qila quloq-miyamni yedinglar. Mening ishingga e'tiroz qilishga kimning haqqi bor?!

Xorut va Morut qo'rqdilar, titradilar, qayoqqa qochish hisobini topolmay qoldilar. Hech narsa demasdan qochib ketish o'ransiz bo'lar edi Xorut botirlik qildi:

— Tasaddug'ing bo'lay, ey podshohi bandanavoz! Bizning maqsadimiz e'tiroz emas edi. Shu masala to'g'risida ko'nglimizda shubha paydo bo'ldi. Bu shubhaning davomi ibodatlarimizga xalal berar edi. Sening dargohingga kelib, shubhamizni yo'qotib, xotirjamlik bilan ibodatlarimizni davom qilmoqchi bo'lgan edik.

Xudo bir oz yumshadi:

— Hay, mayli, endi sizning javobingiz shu: ruxsat beraman, ikkalangiz yer yuziga borib, odamlar orasida yashangiz. Agar bir oy shular orasida gunoh qilmasdan yashab, qaytib qola olsangiz, hamma aytganlaringizni qilaman. Bo'lmasa, bundan keyin damingizni chiqarmay yurishga majbursiz!

Malaklar rozi bo'ldilar. Jabroil chaqirildi. Lozim bo'lgan buyruqlar berildi. Rasmiy ishlar ko'rildi. Jabroil Xorut bilan Morutni olib chiqdi. Butun ko'klarning darbonlariga buyruq bo'ldi, ko'k eshiklari ochildi. Xorut bilan Morut bir oy qolmoq uchun yer yuzida, bu kungi Bag'dod viloyatida bo'lgan Bobil shahriga qo'ndilar. Bir necha kun odamlar bilan yashagach, bir xotinni sevdilar, sharob ichdilar, bir uzukni o'g'irladilar, haligi xotinning erini o'ldirdilar. Gunohlari tufayli qanotlari, parlari to'kildi. Maloiklikdan chiqib qoldilar. Birgina kechada bu qadar gunoh ish qilganlaridan pushaymon bo'ldilar, Xudoga yalindilar. Xudo yenggan edi.

— Mana, ko'rdingizmi, ish qanday bo'ldi? — dedi.

Jabroilni yubordi. Jabroil Bobil yonida quruq bir quduq topdi. Xorut bilan Morutni shu quduqqa kirgizib, oyoqlaridan osib qo'ydi.

— Qiyomatga dovur shu quduqda, mana shu vaziyatda xudoga zikr aytib qolarsiz. Qiyomat-qoyim bo'lgach, tavbangiz qabul qilinar, qanotlaringiz qaytarilar, yana ko'klarga uchib chiqarsiz! — deb ketdi.

Fitratning «Rahbari najot» asarining bir qismi oila tarbiyasiga bag'ishlangan bo'lib, uning mohiyati butun olam

rivojlanish qonuniyatlariga bo'ysunishdir. Bu fikr avlodlar davomlilikgi, ya'ni qonuniy ravishda tug'ilish, yashash, umuman rivojlanishni nazarda tutgan edi.

Fitrat oilani ijtimoiy vazifalari deb: «**Avlod tarbiyasi**», «**Fikriy tarbiya**», «**Axloqiy tarbiya**» kabi masalalarni olgan.

**Avlod tarbiyasi.** Bunda ota-ona faxri, burchi, avlod-ajdodga bo'lgan munosabat haqida fikr yuritadi. Hamma odam ham bir, chunki yaratilish bir gavhardan olingan. Odam bironing g'amiga befarq bo'lmasa, tarbiyali bo'ladi.

Xullas, kelajak avlod Fitratdan nimani o'rganishi kerak?

1. Fitratning ko'p qirrali ijodiyoti mehnatsevarlik zahirida bunyodga kelgan;

2. O'z xalqi, Vatanini sajdagoh misoli Ka'ba, Madinaga tenglashtirib, uni sevdi va sevisgacha xalqni chorladi;

3. Fitrat islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni karimni o'rganib, unga amal qildi;

4. O'tmish tarixi va tarixiy shaxslarga to'g'ri baho hera oldi;

5. Ayniqsa tilshunoslik sohasida fonetika va fonologiya, o'zbek tilida so'z yasash usullari hamda leksikologiyani keng yoritdi;

6. Fitrat insonshunos olim sifatida ham pedagogika fanidagi didaktika va tarbiya nazariyasi qismlarining rivojiga ulkan hissa qo'shdi;

7. Fitrat imon-e'tiqodli, yaqin do'st, maslahatgo'y va mehribon murabbiy siymo sifatida asarlari yanglig' umrboqiydir.

## MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

(1874—1919)

Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yilda Samarqand shahrida mufti oilasida dunyoga keldi. Ziyolilar oilasidagi muhit, o'zidagi ilmga, adabiyotga, siyosatga bo'lgan qiziqish uni yangi-yangi kitoblar mutolaa qilishga undar, o'z davrining ilg'or fikrli kishilari bilan uchrashuvlar esa dunyoqarashini kengaytirib, boyitib borar edi. U dastlabki bilimni o'z otasidan va tog'asi Muhammad Sodiqdan oladi. Otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis hisoblanib, o'zining bir qancha kitoblari, risolalari bilan mashhur bo'lgan. Bu esa Mahmudga ham o'z ta'sirini o'tkazgan edi. Keyinchalik, u o'z maqolasida



otasi tahsil bergan «Hidoya», islom huquqiga sharhlar uning o'lkada davlat tuzumini o'rganishda katta rol o'ynaganligini ta'kidlaydi.

Behbudiy adabiyot, tarix bilan birga siyosatshunoslik bilan ham shug'ullanar, turli ro'znomalardan jahonda ro'y berayotgan siyosiy o'zgarishlar bilan tanishib borardi. U Makkaga borish uchun bir necha yil jiddiy tayyorgarlik ko'radi, arab tilini o'rganadi, islom nazariyasi bilan tanishadi, hajni yetuklik imtihoni deb biladi va nihoyat 27 yoshida Makkada bo'lib, muqaddas joydan hoji va mufti unvonlari bilan qaytadi.

1899-yildan e'tiboran Behbudiy ko'plab sayohatlarga chiqadi. Misr, Istanbul, Qrim, Qozon, Kavkazning o'nlab shaharlarida bo'ladi. Turkiston xalqlariga ma'rifatni, jahon madaniyatini targ'ib etish va ahyon-ahyonda sodir bo'layotgan siyosiy chiqishlarning sababini bilish niyatida Qozon va Ufa shaharlariga yo'l oladi.

Dunyoviy taraqqiyotni anglab yetgan Behbudiy Turkistonda ham yangiliklarni keng joriy etish, yangi maktablar tashkil etish, xalqning o'zligini anglashi hamda iqtisodiy yaxshilanishi uchun nimalar qilish kerakligi haqida matbuotda chiqishlar qila boshladi. Uning «Turkiston viloyatining gazetisi», «Taraqqiy», «Osiyo», «Xurshid», «Shuhrat», «Tujjot», «Turon», «Hurriyat», «Najot», «Oyina», «Samarqand», «Mehnatkashlar tovushi», «Ulug' Turkiston» kabi matbuot sahifalaridagi yuzlab maqolalarida yangi maorif, dunyoviy fanlarning foydasi, komil insonning tarbiyasi, Turkiston farzandlarining yorqin istiqboli, uning kelajagi va iqtisodiy muammolari yotadi.

Behbudiyning Turkiston maktab maorifchiligidagi xizmatlari g'oyat katta. U o'lkadagi «usuli jadid» maktabining eng birinchi nazariyotchisi va amaliyotchilaridan, umuman, jadidchilik harakatining esa tan olingan karvonboshisidir.

1908-yilda Rajabamin qishlog'ida ochilgan yangi usuldagi Abdulqodir Shakuriy maktabini Samarqandga, o'z hovlisiga ko'chirib keldi, unga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatdi.

U o'zbek va tojik tillarida «Kitob ul-atfol» («Bolalar uchun kitob»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyoti islom», «Madhali jo'g'rofiyai umroniy»—«Aholi geografiyasiga kirish», «Muxtasari jo'g'rofiyai Rossiya»—«Rossiyaning qisqacha geografiyasi» kabi asarlarni yaratgan.

Behbudiy nashriyot tashkil etib, unda o'zbek tilida darsliklar, «Turkiston, Buxoro va Xiva xaritasi»ni bosib chiqardi. Bular ilk o'zbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qo'llanmalar sifatidagina emas, til-yozuv madaniyatimiz taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega edi.

Samarqandda mahalliy aholi uchun kutubxona va qiroatxona ochishga boshchilik qildi.

Dramaturgiya sohasida ham muvaffaqiyatli ijod qilgan Behbudiyning 1913-yilda bosilgan «Padarkush» dramasi unga juda katta shuhrat keltirdi. Bu drama qisqa vaqt mobaynida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Andijon, Namangan, Kattaqo'rg'on va boshqa shaharlarda ilk teatr truppalari ommaviy sur'atda sahnalashtirildi. Bu sohada ham Behbudiy karvonboshi sifatida tarixga kirdi.

Behbudiy 1913-yilda «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalini chiqaradi. Gazeta dastlab 2, so'ng 4 betlik bo'lib, haftada 2 marta chiqqani va moddiy tanglik tufayli 45-sonidan keyin to'xtagani ma'lum. «Oyina» o'lkadagi o'zbek tilida chiqqan birinchi jurnaldir. U xalq orasida ancha mashhur bo'lgan. Boshida haftada bir, 1914-yildan esa har 15 kunda chiqqan.

1916-yilda Toshkentga kelgan sharqshunos akademik A.I.Samoylovich dramaturgiya sohasidagi yutuqlarni ko'rib shunday yozadi:

«Turkistondagi yangi adabiyot markazi Samarqandda bo'lsa kerak, yosh adiblarning bosh ilhomchisi sifatida esa na tojik, na turk, asli «xo'ja» samarqandlik mufti Mahmud Behbudiyning e'tirof etish kerak bo'ladi».

U jadidizm g'oyalarini targ'ib qilib chiqqan bo'lib, «Turkiston viloyatining gazetasi», «Tujjor», «Taraqqiy», «Xurshid», «Samarqand» gazetalari, «Sho'ro» va «Oyina» jurnallarida bosilgan maqolalari, darslik va boshqa asarlarida xalqni ilm-ma'rifatni egallashga chaqirdi, ayollarning ilm olish huquqini himoya qildi, yangi usuldagi maktablar ochishga, dunyoviy fanlarni o'rganishga undadi, tabiat hodisalarini, yerning yumaloqligi, o'z o'qi atrofida aylanishi va muallaq turishi, oy va kun tutilishini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishga harakat qildi. Buning uchun reaksiyon ruhoniylar uni «dahriy» deb e'lon qilib, 1919-yili qatl etdi.

## Behbudiy ta'lim-tarbiya haqida

Behbudiy Turkiston bolalariga ta'lim-tarbiya berish zarurligini o'z do'stlariga bunday bayon etgan edi: «O'rtoqlarim Siddiqiy, Ayniy, Fitrat, Qurbiy va Akobir maxzum va o'g'lonlarim — Vadud maxzum va Abdulqodir Shakuriy! Sizlarga vasiyat qilaman! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymanglar! Har ish qilsangiz jam bo'lib qilingizlar! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatinglar!»

Uning fikricha, har bir inson «Arabiy bilmasak din, ruscha bilmasak dunyo qo'ldan ketar», «Ikki emas, to'rt til lozim» deb ilmning boshi — tilni chuqur o'rganishga da'vat etdi. «Biz musulmonlarga alalxusus bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri olimiy diniy; digari olimiy zamoniylar; olimiy diniy: imom, xotib, mudarris, qozi, mufti bo'lib, xaloyiqni diniy va axloqiy, ruhoniylar ishlarini boshqarar, bu sinfga kiraturg'on talabalar avvalo Turkistonda va Buxoroda ilmiy, diniy va arabiy va bir oz ruscha o'qub, so'ngra Makka, Madina, Misr va Istanbulga borib, umumiy diniyani xatm qilsalar kerak yoki komil mullo bo'lsular.

Olimi zamona bo'lmoq uchun bolalarni avvalo musulmoni xat va savodni chiqaruv, zaruriyati diniya va o'z millatimiz tilini biladurg'ondan so'ngra hukumatimizni nizomli maktablariga bermoq kerakdur, ya'ni gimnaziya va shahar maktablarini o'qib tamom qilg'onlardan so'ng, Peterburg, Moskov dorilfununlariga yuborib, doktorlik, qonunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi sanoat, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qitmoq lozimdir. Doimo ilm bilan shug'ullanadigan inson johil bo'lmaydi. Bas, shunday ekan, yangi usul maktablarini ko'paytirish va haqiqiy ilmi insonlarni yetkazish zarur», deb hisobladi Behbudiy. Va u o'z zamonasining qarama-qarshiliklariga qaramay usuli jadidiya maktabining mohiyati qanday va uni kimda ekanligini quyidagicha bayon etdi:

*«Usuli jadid degan qayerdan chiqdi:  
Bu nechuk. Masalan, ota-bobolarimiz  
usuli qadim ila o'quv mulla bo'lganlar  
Va biz usuli qadim ila o'quv bir  
nima bilib edik. Usuli jadid degan*

*bir tariq bid'atdirki, yaqin fursatda  
chiqmishdur... Usuli jadid maktablar  
durus bo'lsa rivoj bersunlar, nodurust  
bo'lsa dalil ila isbot qilsunlar:*

Bundan keyin ham «ko'p maktablar ochajakmiz», deb jamoat ahliga murojaat qildi. Behbudiy tashkil etgan maktabi uchun o'quv reja va dasturlar ishlab chiqdi. O'quv rejasini amalga oshirish uchun tahsilni ikki bosqichga ajratdi: Har bir o'quv bosqichi 4 yildan iborat edi.

**Birinchi yil** (1-sinf). 1-bosqich maktabining mazmuni:

Forscha, arabcha alifbeni yozish va o'qishni o'rgatish. Hisob darsidan qo'shish va ayirishni o'rgatish. Bolalarni zehni va nutqini o'stirish uchun og'zaki hisob, suhbat usulidan foydalangan.

Qur'on suralaridan yod olish hamda namoz o'qish o'rgatilar edi;

**Ikkinchi yil** (2-sinf). «Haftiyak darsi», «Imon va e'tiqod darsi» (bu darsning maqsadi ota-ona va Vataniga mehrlil va sodiq qilib tarbiyalashdir);

**Uchinchi yil** (3-sinf). Kalomi Sharif kitob — islom ibodati darsi, tajvid qoidalari, adabiyoti forsiy va turkiy. Sa'diyning «Nasihatnoma» asari asosida forsiy va turkiy tili o'tilgani hisobidan taqsimlashni o'rganar edilar;

**To'rtinchi yil** (4-sinf). Kalomi Sharif kitobining davomi — islom ibodati darsining davomi, forsiy va turkiy adabiyot (nazma va nasr o'rgatilar edi). Forsiy va turkiy til, axloq hisob (to'rt amalni bajargan), tarix, islom tarixi, jo'g'rofiya kabi darlar o'tilar edi.

Maktabning bu bosqichini bitirgan o'quvchilar forsiy va turkiy tilda savodlari chiqib, arab tilidan ham bilimga ega bo'lib, Qur'oni karimni tajvid asosida o'qir edilar. Behbudiyning fikricha, to'rt sinfli «usuli jadid»da o'qigan tolib o'n sana eski maktabda o'qigan tolibdan puxta bilimga egadur.

I bosqich maktabning 4-sinfini bitirgan bolalar II bosqich maktabga qabul qilinar edi. Maktabning bu bosqichi o'rtal hisoblanar edi.

II bosqich maktabi:

**Birinchi yili** arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya (falakiyot), fors tilidan turkiyga tarjima, tarix, islom tarixi, Sa'diyning «Guliston»i, fors va turkiy tillar o'qitilar edi.

**Ikkinchi yili** arab tili, shifohiya (medisina), tarix, islom tarixi, axloq darsi, fors, turkiy tillari, hisob kabi darslar o'qitiladi.

**Uchinchi yili** — arab tili, hisob, islom muhokamasiga oid dars, umumiy tarix, rus tili (xat va turli hujjatlarni yozishni mashq qilganlar). Turkiy tilda ish yuritish qog'ozlari ham o'rgatilgan.

**To'rtinchi yili** — arab tili, rus tilida ish yuritish, ta'lim (pedagogika), adabiyot, maktab va hayot, tabiat darslaridan saboq olar edi.

Sakkiz yillik maktabni bitirgan savodli, hatto adabiy maqolalar yozish qobiliyatiga ega bo'lgan islomshunos, yuksak axloqiy shogirdlar edilar. Bu shogirdlar xohlasa tijorat, mirzolik, muharrirlik va usuli jadid maktabida muallimlik qilishga qodir edilar.

Behbudiy o'zbek va tojik tillarida o'z maktabi toliblari uchun darsliklar yaratdi.

Dunyoga tanilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Ilmning zarurligini u o'zining «Bolalar uchun kitob» darsligida asoslab berdi. Bu darslik fors va o'zbek tillarida yozilgan. Darslikning asosiy mazmuni ish yuritish tartib-qoidalariga qaratilgan. Behbudiyning fikricha:

«... Ovrupo ila savdo qilaturg'on kishi avvalo un sana zamona ilmi o'qimog'i lozim. Bu yo'lda boylarga ham murojaatim shulkim, boshqa millatlarning boylari, faqir va yetimlar uchun maktab va dorifununlar soldururlar, ularning o'qimog'i uchun pul tayin qilurlar». Behbudiy kelajak avlod Ovrupo, Turkiya va boshqa xorijiy davlatlar bilan aloqa qilish, ular hayotini o'rganish, tijorat ishlarida ish yuritish qonun-qoidalarini o'rganishi zarur, deb hisoblaydi.

Darslikda (5-bet) xat yozmoq shartlari beriladi.

- Xatni kamso'z, sermazmun yozmoq;
- Maktabda haqorat, ta'na, hazil, gunohga taalluq so'zlar aslo yozilmasligi;
- Xat borib tegadurg'on odamni mulohaza qilib, oni fahm va bilishiga muvofiq bo'lmog'i lozim;
- Kotib har muddaoni yozmoqchi bo'lganda o'shal muddaoni o'zi yaxshi tushunib yozishi kerak;
- G'azab, xiralik va yo nihoyat xursand va behushlik vaqtlarda xat yozmaslik, o'zini oldingi holatiga kelganda yozmog'i kerak.

Bu darslikda yana xususiy xatlar, rasmiy xatlar haqida ham ma'lumot beriladi. Ayniqsa, yozgan xatlarda va hujjatlarda tinish belgilaridan to'g'ri foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Behbudiy o'z zamonasidagi madrasalar ahvolini o'zining 1907-yilda yozgan «Faryodi Turkiston» maqolasida shunday ta'riflagan edi:

«Bir madrasaga 20 talab gapi ila bir noaql mudarris saylanur, bir volostda 40 nafar el boshlarindan 21 nafarni sadosi ila bir johil qozi saylanur». Behbudiy fikrini davom ettirib, bu mudarris, mufti va qozilarni sakson foizi qariyalardir. Ular yoshlarga qanday bilim va tarbiya bera oladilar, deydi.

Behbudiy «Padarkush» dramasida boyning uydirma gaplariga ishongan o'g'li otasini o'ldirganini ilmsizlik va tarbiyasizlik oqibatidan deb ko'rsatadi. Otasi o'ladi, o'g'li qamaladi, uyda oylg'iz qolgan onaga domla tasalli berib aytadi:

«Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo'q. Bu badbaxlik va musibatga sabab, jaholat va nodonlikdir, be'manilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. Sizni beilmlik xonavayron qildi. O'g'lingizni beilmlik Sibirga yubordi. Joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan umriy ayritadur. Bolangizning otasi tarbiya etmadi, o'qitmadi. Oxiri baloga uchradi yomon odamlar yo'ldan chiqardilarki, qurboni jaholat bo'ldingiz».

Noma'qul o'g'li ota-onaning erkalatishlaridan taltayib, bekorchilikdan yomon kishilarga qo'shilib, yomon yo'llarga yurib, oxir-oqibatda o'zining va qolgan oila-a'zolari umrini xazon qiladi.

Ziyoli: «ilm va tarbiyasiz bolalarning oqibati shundadir. Agarda bularni otasi o'qitsa-da edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo'lmas edi. Umri boricha Sibirga bormas va qiyomatga, jahannamga qolmas edi. Agarda bular ichkilik ichmasa edi, dunyo va oxiratda ila al-adab azob va mehnatda qolmas edi. Oh, haqiqatda boyni o'ldirgan va bu yigitlarni azobi azobiyga giriftor qilgan beilmlikdir. Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bewatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir; bewatanlik, darbadarlik, asorat, faqir va zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikni mevasi va natijasidir».

Behbudiy ijodiy faoliyatidagi bosh masala Turkistonda maorif taraqqiyotidir. U «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur!» degan shiorga sodiq harakat qildi.

Mustamlakalik Turkistonni ilmsizlik jaholatidan qutqarish uchun eski maktabni isloh qilish zarurligini isbotlab, ya'ni usuli jadidiya maktablarini tashkil qildi. U bu maktablari uchun reja, dastur va darsliklar yaratgan olim edi. Olim va pedagoglar uning ijodini o'rganib nihoyatda ulug'lagan edilar:

«Ilg'or fikrlar va ilmlarning yoyilishida, usuli jadid maktablarining ochilishiga, xalqning uyg'onishida ilk tashabbuslar bilan chiqqan siymolardan biri Mahmudxo'ja Behbudiydir», — degan edi Ibrohim yorqin (turk adibi).

### *Mustaqil ish*

N.Avazovning «Mahmudxo'ja Behbudiy — ma'rifatparvar» risolasini o'rganing.

## **ISHOQXON IBRAT**

(1862—1937)

O'zbek pedagogikasi tarixida sezilarli iz qoldirgan zabardast pedagog olimlardan biri Ishoqxon Ibrat 1862-yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Otasi Junaydullaxo'ja bilimli, mirishkor bog'bon bo'lib, adabiyotga, xususan, she'riyatga ixlosmandligi sababli «Xodim» taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. Onasi Huribibi o'z davrining o'qimishli, oqila ayollaridan biri bo'lgan, qishloq qizlarining savodini chiqargan va o'zi ham she'rlar mashq qilgan. Lutfiy, Navoiy, Jomiy, Bedil, Mashrab va boshqa shoirlarning asarlarini o'qigan. Ana shu oiladagi adabiy muhit Ishoqxonda adabiyotga qiziqish uyg'otgan.

1870-yilda otasi vafot etib, oilaning tashvishi yosh Ishoqxon bilan onasining zimmasiga tushgan. U besh yil mahalla maktabiga qatnab savodini chiqara olmagan. Bu haqda Ishoqxon «Mezonul zamon» nomli asarida quydigilarni yozgan: «Avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida 5 yilda 3 adad muallimda o'qub, oxiri savodim chiqmay, keyin qizlar maktabi, o'z uyimizda volidai marhumamda o'qib savod chiqardim. Ikki sana husnixat mashq etdim».

Ishoqxon yoshligidan husnixatdan xabardor bo'lib, bo'sh vaqtlarini ana shu san'atni o'rganishga bag'ishlagan.

Keyinchalik Ishoqxon Qo'qondagi madrasada o'qigan, Muqimiy bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Madrasada arab, fors tillari bilan birga rus tilini ham o'rgangan. Ishoqxon 1886-yilda madrasani bitirib, o'z yurtida maktab ochgan va unda nisbatan ilg'or hisoblanmish usuli savtiyadan foydalangan. Tabiiyki, maktab qora guruhlar tomonidan yopilgan va Ishoqxon ijodiy ish bilan shug'ullangan. U «Lug'ati sitta al-sina», «Jame'ul-xutut», «Devoni Ibrat», «Tarixi madaniyat», «Toshkent musulmon maktablari haqida» kabi asarlarini yaratgan. Ishoqxon iste'dodli bilimdon shaxs edi. U juda ko'p tillarni mukammal bilardi. Bu borada Ibrohim Davron quyidagilarni yozgan: «Qozi To'ra janoblari arabcha, turkcha, forsha, hindcha lisonni bilib, yana ruscha, fransuzcha, armancha va boshqa xatlar yozmoqqa mohirdurlar».

U 1886 va 1907-yilda yangi usuldagi maktab tashkil etdi. 1914-yili To'raqo'rg'onda yangi maktab ochadi, uni «O'qituvchi» nomi bilan atadi. 1916 yili bu maktab yopildi.

1918-yili yana maktab ochib, barchaning ma'rifatli bo'lishiga xizmat qildi. Sermahsul shoir, yozuvchi, musiqashunos pedagog Ishoqxon Ibrat 1937-yili 75 yoshida vafot etdi.

### **Ishoqxon Ibrat ta'lim-tarbiya haqida**

XIX asrning oxirlari va XX asr boshlariga kelib reaksion guruhlar qarshiligiga qaramay yangi usul, rus-tuzem maktablari va rus tilini o'rganishga qiziquvchilar soni birmuncha ortdi. Bu maktablarda dunyoviy fanlar va ona tili bilan bir qatorda rus tili ham o'qitilardi. Ishoqxon Ibrat rus tili bilan birga o'nga yaqin sharq va g'arb tillarini ancha mukammal bilgan. U olti tildagi arabcha, forsha, hindcha, sarcha (o'zbekcha) va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan «Lug'ati sitta al-sina» nomli mukammal lug'at kitobini yaratdi.

Ishoqxon Ibratning mazkur asari «Lug'ati sitta al-sina» (lug'atli kitob) bir necha yillik sarguzashtlardan so'ng 1901-yili Toshkentdagi V.I.Ilin bosmaxonasida nashrdan chiqdi. Ishoqxon bu asarini yaratishda ancha vaqt ilmiy ish olib bordi, chet ellardan material to'pladi. Asar kichkina muqaddima bilan boshlanadi.



Asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida fe'llarning noaniq va kelasi zamon shakllari berilgan.

Asarning ikkinchi qismi 37 bosqichdan iborat bo'lib, unda fe'llarning boshqa shakllari, otlar, kishilik olmoshlari, kun, oy nomlari, odam a'zolari, hayvonlar, parrandalar, oziq-ovqat va boshqa buyumlarning nomlari berilgan.

Mingdan ortiq ko'p qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan Ishoqxon Ibratning bu asari ko'p maktablarda foydalanib kelindi. Ishoqxon Ibrat inson kamolotida ilm o'rnini alohida ta'kidladi: «Madrasalar garchi ilm-ma'rifat makoni bo'lsa-da, uning mazmuni bechoralarni bilim olishga qaratmagan edi». Ibrat xalq farzandlarini ham dunyoviy bilimlardan bahramand qilishga chorlaydi:

*O'qingiz ilmi hikmat sizga bu ish katta ibratdir.  
Agar ilm o'rganursiz barcha ishda sizga nusratdir.  
Agar ilm o'lmasa, nodon umri barcha kulfatdadir.*

«... Madaniyatni topadurg'on va yurguzadurg'on asbobi ilm ekan, ilm bo'lsa maktab birla bo'lur. Maktab bo'lmasa olamni vahshiyat tutib, hamma xarob bo'lub ish qo'ldan ketar. Endi lozim bo'ldiki, madaniyat ilm bilan, ilm esa maktab bilan bo'lur... Maktab bo'lmasa bu olamda madaniyat joriy bo'lmaydur». Ishoqxon Ibrat ilm, ma'rifat maskani bo'lgan «Madrasa» haqida va maktab haqidagi fikrlarini Mullo Husanxo'ja domlanning o'z maktabini isloh qilish haqidagi maqolasida quyidagicha bayon etgan edi:

«Mullo Husanxo'ja eshon o'g'li ushbu 1907-yilning 1 sentyabridan boshlab biz sartiya bolalariga uqtiradigan usuli qadimiyamizni usuli tariqa maktabida maktab bolalarining tez fursatda savodlari chiqib, ko'p foydalar hosil bo'lur ekan, sabab shulki, beshinchi jamoa birla tamom bo'lur ekan. Birinchi jamoa «Haftiyaki sharif», ikkinchi jamoa «Kalomi sharif», uchinchi jamoa «Chor kitob» bilan «Fuzuliy yoki Navoiy». To'rtinchi jamoa «Ilmi faroyiz» o'qub tamom qilib, muddati ikki yoyinki uch yil miyonasida madrasalarda o'qimoqni xohlaganlari madrasalarga chiqib o'qimoqqa qodir bo'lur ekanlar.

... Muallim bechora aziz farzandlarimizni kaltak, qamchi yo'q bahonasida besh o'n sanalar osmonga qaratis, «alif,

bazavar, be bebazor» deb shovqin qildirib-qildirib bir harf ham o'quv-yozuv bildirmayincha... umrlarini barbod qilib yotmoqga taqviyatgina biladur<sup>1</sup>».

Ishoqxon Ibratning 1886 va 1907-yili qishloq bolalari uchun ochgan maktabi bepul, yangi tovush usuliga asoslangan edi. Maktab darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlangan edi. Bu maktabda Ishoqxon Ibrat darslik va qo'llanma sifatida o'zining «Lug'ati sitta al-sina», «San'ati Ibrat qalami», «Mirrajab Bandiy» asarlaridan hamda S.M.Grameniskiyning uch qismdan iborat «Kniga dlya chteniya» (o'qish kitobi), Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval», Ali Asqar ibn Bayramli Kalininning «Ta'limus soniy» kabi darsliklaridan foydalanadi.

Chor hukumati O'rta Osiyoda rus-tuzem maktabi toliblarini kengaytirishga katta e'tibor berdi. 1902 yilda To'raqo'rg'onda ham maktab ochildi. Mahalliy xalq «kofirlar maktabi» deb farzandlarini bu maktabga yubormadilar.

Ishoqxon o'zining pedagoglik faoliyatida xat-savod chiqarish jarayonida husnixatga alohida e'tibor berdi. U buni o'zining «San'ati Ibrat», «Qalami Ibrat» nomli she'rlarida asoslab bergan edi. O'zining «Bo'lubdur» radifli she'rida ba'zi madrasalardagi holatni shunday ifodalagan edi:

*Madrasalar ichinda ko'b fitna*  
*birla sho'rish (fitna)*  
*Har kunda o'n xil urush, oq*  
*salla non bo'libdur.*  
*Qassobu qo'yfurushlar, jangu*  
*jadal urushlar...*  
*Ellikboshi deganlar, uy boshidan*  
*yeganlar.*  
*O'z mansabiga mag'rur go'yoki*  
*xon bo'lubdir.*

Bu bilan u tengsizlik va adolatsizlikni qoralaydi. Ibrat ma'rifat va madaniyat nurini sochuvchi muallimlik kasbiga katta ahamiyat berdi. Muallimlik kasbini ulug'lab unda quyidagi fazilatlar mujassam bo'lishi zarur deb hisobladi: ilm-ma'rifat

---

<sup>1</sup>Turkiston viloyatining gazetasi. 1907-yil.

sirlarini o'rgatuvchi bilimdon, bolalarning mehribon najotkori, ziyo tarqatuvchi, yuksak axloqli bo'lishi. U muallim — ustozga atalgan she'rida quyidagilarni yozadi:

... *Johilni (ng) ko'zlarini ochdi ilm*  
*yo'lida.*  
*Qo'liga berdi ilm chirog'in, yo'l ko'rsatdi*  
*muallim...*

Ishoqxon Ibratning ijodi fan, madaniyat va maorif taraqqiyoti tarixida ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'rifatparvar shoir-pedagogning xalq nazdidagi xizmatlarini hisobga olib, To'raqo'rg'ondagi 44-o'rta maktabni uning nomi bilan atashga qaror qilindi. Ishoqxon Ibrat asarlari qaytadan nashr etilmoqda.

### *Mustaqil ish*

Ibratning «Farg'ona tarixi» (303-325-betlar) asarini tahlil qiling. T.: Kamalak, 1991.

## **QORI-NIYOZIY**

*(1897—1979)*

Akademik Qori-Niyoziy 1897-yil 2 sentyabrda Xo'jand shahrida dunyoga kelgan. Bolalik yillari 1909-yilgacha shu shaharda, so'ngra Farg'onada o'tgan. Uning otasi o'qimishli kishi bo'lib, madrasada qorilikka o'qigan. U o'g'lining tarbiyasiga alohida e'tibor bergan va doimo: «Kekkeyma, o'g'lim! Odob va kamtarlikni unutm!» — deb uqtirgan. Qori-Niyoziy eski maktabda ta'lim olgan. U o'z ustida tinimsiz, mustaqil ishlar, ijodiy faoliyatini tobora kengaytirardi. O'z so'zi bilan aytganda, «mustaqil ishlash izlanishdan iborat edi. Shuning uchun ham ba'zi masalalar ustida goho har taraflama o'ylab yurishga to'g'ri keladi». U o'rta maktab dasturini mustaqil o'rganishga kirishgan va bunga muyassar bo'lgan.

Qori-Niyoziy 1920-yilda yosh avlod uchun «Tabiatdan bir parcha» darsligini yozdi, uni o'zi tahrir qildi, xarajatlarni ham to'ladi va tarqatdi.

O'sha paytda Qo'qonda «Dorilmuallim» deb atalgan ta'lim-tarbiya kursi va bir internat ham bor edi. Qori-Niyoziy ularning hammasini qo'shib «Farg'ona mudofaat bilim yurti»ni tashkil qildi. 1924-yili unda birinchi bitirish marosimi o'tkazildi. Qori-Niyoziydan ta'lim-tarbiya olgan mashhur 13 nafar qaldirg'och uchirma qilindi. Qori-Niyoziy ularga aniq fanlardan chuqur bilim bergan. Qo'qon ta'lim-tarbiya bilim yurti O'zbekiston Maorif xalq komissarligining 1925-yil 14 martidagi qarori bilan «Namunali texnikum» deb ataldi.

Qori-Niyoziy 32 yoshida ikki dorilfununni bitirdi, ularning biri «Hayot», ikkinchisi «Ilm» dorilfununi edi. Uning ijodiy faoliyati mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan edi. O'zining serqirra ijodi bilan jahon fani va madaniyatini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shgan mashhur olim, mutafakkir Qori-Niyoziy o'zbek maktabini tashkil etish va undagi ta'lim-tarbiyani yaxshilashda, o'qituvchi kadrlar yetishtirishda jonbozlik ko'rsatdi. O'zbekiston maktablarining tashkilotchilaridan biri sifatida xizmat qildi, respublikada xalq maorifining rivojlanishi tarixida ajoyib ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirdi, muhim tarixiy ahamiyatga molik darsliklar yozdi. Mazkur asarlarida O'rta Osiyoda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida madaniyatning rivojlanishini hamda uning tarkibiy qismi bo'lmish xalq maorifi tarixini ilmiy va nazariy jihatdan chuqur tahlil qilib berdi.

Madrasalar ham eski maktablar singari o'quv rejasi va dasturlariga ega bo'lmagani uchun ularda aniq belgilangan ta'lim muddati bo'lmas, natijada talabalar vaqtdan yutqazar edi. Lekin, Qori-Niyoziy madrasalardagi ta'limning mazmuni nimalardan iborat bo'lganini, ularda o'qitilgan kitoblarning turlarini ham ta'riflagan. Masalan, «Aqoid» darsligida borliq, Xudo va oxirat masalalari, «Hikmatulayn» (metafizika) da Mulla Jaloliddin aqidalari, «Muxtasari viqoya»da shariat qonunlari, «Fiqhi Kandoniy»da savob, farz, sunnat, makruh va gunoh ishlar ifodalanganini bayon qilgan.

Qori-Niyoziy 1917-yilgi to'ntarishga qadar Turkiston o'lkasidagi xalq maorifi tarixini o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumning samarasi va madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etgan. O'zbekiston Respublikasi maktablari rivojlanishining tarixiy rolini keng va chuqur ma'noda yoritgan.

O'zbekistonda umumiy majburiy boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda respublikadagi barcha jamoatchilik hamda

umumiy ta'lim qo'mitalari ishtirok etgan. «Umumiy ta'limni joriy qilish sohasidagi juda katta vazifalar yana shuning uchun ham tez fursatda bajarildiki, — deb yozgan edi Niyoziy, — respublikadagi butun jamoatchilikning diqqat-e'tibori va kuchi bu vazifani bajarishga qaratildi, umumiy ta'limga yordam komiteti tuzildi, bu komitetlarning ishi natijasida maktablar soni keskin darajada ko'paydi».

O'qituvchi kadrlar tayyorlash ishi o'z samarasini bera boshladi: 1928–29 va 1930–31 o'quv yillarida qisqa muddatli kurslarni (katta yoshdagilarni bilim saviyalarini yanada oshirish) 23 ming kishi tugatdi. «Savodsizlikni bitirish» maktablaridagi o'qituvchilarning taxminan 40 foizini ana shu kurslarda tayyorlangan o'qituvchilar tashkil qilgan.

Oliy, maxsus o'quv yurtlarining o'quvchilari va o'qituvchilari ham ma'rifiy ishlarga jalb etildi, ulardan unumli foydalanildi. Qori-Niyoziy yangi ochilgan maktablarga metodik yordam ko'rsatish ishiga ham munosib hissa qo'shgan.

Qori-Niyoziy 1979-yili vafot etdi.

Qori-Niyoziyning ta'lim-tarbiya masalalariga doir ta'limoti dastlab uning «Hayot maktabi» nomli asarida bayon qilingan edi. Shu asardan ayrim parchalar keltiramiz: «XIX asrning 80-yillarida Turkistonda chor hukumatining farmoniga ko'ra, rus-tuzem maktablari ochildi. Bu maktablarning, ayniqsa, ulardagi o'qituvchilarning moddiy ahvoli juda og'ir edi... O'sh shahridagi rus-tuzem maktabining o'qituvchisi V.Orlov (1906) yozgan maqolasida bunday degan edi: «Zarracha insofi bo'lgan har bir xo'jayin ham shuni yaxshi biladiki, hatto, hayvonni ham to'q bo'lgandagina ishlatish mumkin. Lekin faqat sizlar, janob amaldorlar, bu haqiqatni e'tiborga olishni xohlamaysizlar yoki bila olmaysizlar, qanday uyat va sharmandalikki, sizlarning minglab oladigan maoshlaringiz, xo'rlangan, g'arib va och o'qituvchi hisobidadur». «Bu maktablarning vazifasi tarjimonlar tayyorlash bo'lgan... Shu sababli bo'lsa kerak, boylarning bolalari juda kam bo'lar edi, chunki ular bolalarining tarjimon bo'lib ishlashini o'zlariga munosib ko'rmas edilar. Hatto, bulardan ayrimlari esa ko'pincha maktabni bitirmay chiqib ketar edilar, chunki boylar odatda bolalariga «koqvertga adres yozishni o'rgansang, bo'ladi» deb ularni maktabdan olib savdo ishlariga qo'yar edilar» (77-bet).

Tabiiy, rus-tuzem maktablaridagi o'qitish ishi turli joylarda turlicha bo'lib, uning sifati asosan o'qituvchilarning saviya va

malakasiga bog'liq bo'lsa kerak. Bu maktabda rus tili, butun sonlar bilan to'rt amal doirasida arifmetikadan, tarixdan, geografiyadan (asosan Rossiya geografiyasidan) va tabiiyotdan boshlang'ich ma'lumot berilar edi, shu bilan birga «mahalliy (o'zbekcha) savod» va islom dinining asoslari ham o'qitilar edi.

«Rus-tuzem maktablari uchun maxsus tuzilgan darsliklar»da, «O'qish kitoblari»da tabiat, odamlar, hayvonlar va qushlar hayotidan eng oddiy boshlang'ich ma'lumotlar keltirilgan hamda rus adabiyoti namoyandalari — Pushkin, Lermontov, Krilov va boshqalarning she'r va hikoyalardan namunalar kiritilgan bo'lardi. S.Grameniskiy tuzgan va 1898–1899-yillarda nashr etilgan birinchi, ikkinchi va uchinchi «O'qish kitoblari» metodika va mundarija jihatidan eng tuzuk darsliklar deb hisoblanar edi.

Masalan, «Uchinchi o'qish kitobi» to'rt bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limida Ushinskiyning «Bolalar dunyosi»dan olingan «Shamol bilan quyosh», L.Tolstoyning «Ziyrak dehqon» haqidagi hikoyasi, Krilovning «Mehnatsevar ayiq», Demyanning «Baliq sho'rvasi», «Eshak va bulbul», «Qarg'a bilan tulki», «Grishkaning kamzuli» masallari, Pushkinning «Baliq va baliqchi haqida ertak» va boshqalar bor edi;

Ikkinchi bo'limda Rossiya tarixiga bag'ishlangan ma'lumotlar;

Uchinchi bo'limda Rossiya va Ovro'po qismi, Sibir va Turkiston haqida geografik ma'lumotlar;

To'rtinchi bo'limida «tabiatdan oddiy ma'lumotlar»... bor.

Qori-Niyoziy o'qituvchilik faoliyati haqida, jumladan, quyidagilarni yozgan: «Yosh avlodni tarbiyalash faxrli va olijanob vazifa bo'lishi bilan birga, g'oyat darajada murakkab va mas'uliyatlidir. Bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun o'qituvchi avvalo o'z ishining shaydosi, tashabbuskori bo'lishi kerak. Shuning uchun o'qituvchilikning «sababi ovqat» uchun rasman kasb» qilib olish juda xavfli bo'lib, hatto yosh avlodning tarbiyasiga zararlidir.

Ayniqsa, o'qituvchi qanday ma'lumotga, qanday zakovatga ega bo'lmasin, u o'zining saviyasini, pedagogik san'atini rivojlantirish uchun tinmay ishlashi kerak.

Qori-Niyoziy axloqiy, jismoniy tarbiyaga, mehnat tarbiyasiga doir g'oyalari, o'tkir fikr-mulohazalari va chiqargan

aniq xulosalari uning risolalarida bayon qilingan. U, masalan, «Aql-idrokka suyanib», «Orzu va saviya», «Har bir yomonlikda bir yaxshilik bor», «Tabiatdan bir parcha», «Ham yurak, ham aql-idrok amricha», «Xushomad va hurmat», «Fan va ong», «Baxt va mehnat», «G'arazsiz sodiq do'st» va boshqa asarlarida barkamol insonlarni voyaga yetkazish masalalarini tahlil qilgan. Olim fanning afzalliklarini va inson hayoti uchun zarurligini quyidagicha ta'riflaydi: «Fan minglab, o'n minglab, hatto yuz minglab yillar mobaynida zarrama-zarra, tomchilab vujudga kelgan va xalq xizmatiga qaratilgandir. Fanni egallagan insonning ongi va vijdoni pokligi, tili va dilining birligi uning ma'naviy shaxs ekanligidan dalolat beradi.

Haqiqiy fanning o'zi yorqin axloqning namunasidir. Fan borasidagi ta'limotni bilaturib unga xiyonat qilish axloqsizlikdir. Buning uchun avvalo adolatsiz bo'lish lozimdir. Adolatlilik — axloqiy fazilat va yuksak ong talab etadi. Barkamol insonning eng muhim belgisi axloqiylikdir».

Olimning fikricha, axloqiylik ong va vijdon zamirida shakllanadi. Yuksak axloqqa ega bo'lish insonga baxt keltiradi. Baxt va uning mohiyatini tushunish kishining ongiga, vijdoniga va ma'naviy saviyasiga bog'liqdir.

Umuman, O'zbekistonda maktab va maorif ishlarini yo'lga qo'yishda faol qatnashgan va bunga o'zining juda katta hissasini qo'shgan, akademiklik darajasigacha erishgan faylasuf, falakiyotshunos, matematik va axloqshunos olim Qori-Niyoziyning merosi respublikamizda ilm-fan, ta'lim-tarbiyani yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### *Mustaqil ish*

Sulton Akbariyning Qori-Niyoziy haqidagi «Ustod» (T., 1970) asarini tahlil qiling.

## **HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY**

*(1889—1929)*

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yili Qo'qonda tug'ildi. U 7 yoshidan maktabda xat-savod o'rgana boshladi. Maktabni bitirgach, madrasaga va I.V.Orlovning kechki rus-tuzem

maktabiga o'qishga kirdi. Hamza madrasada o'qigan chog'laridayoq Firdavsiy, Xayyom, Nizomiy, Xoqoniy, Sa'diy, Jomiy, Fuzuliy, Bedil va boshqalarning ulkan she'riyati bilan tanishdi, shuningdek, Sharq olimlarining asarlarini o'qidi.

1908-yilda Hamza ota-onasining noroziligiga qaramay, madrasani tashlab ketdi. Uning o'zi yozganidek, ota-onasining o'jarligi, ma'murlarning zulmi, kambag'allik tufayli dunyoviy bilimlarni egallash to'g'risidagi orzusini amalga oshirolmadi.

Kitobni jon-dilidan sevgan Hamza madrasadan ketsa ham, mustaqil bilim olish bilan muttasil shug'ullandi. U Vatanga xizmat qilish, ma'rifat sohasida jamiyatga foyda keltirish burchini yaxshi anglagani va mehnatsevarligi tufayli keng va chuqur bilimlar orttirdi.

Hamza 1910-yilda Qo'qondagi mahalliy rus-tuzem maktabida muallim bo'lib ishladi va 1911-yilda yangi maktab ochdi, ta'lim-tarbiya ishlariga ba'zi o'zgartirishlar kiritdi. O'quvchilarni o'rganayotgan materiallarini quruq yod olishi nafsiz ekanligini aytdi, sinfdan tashqari mashg'ulotlarga alohida e'tibor berdi, ona tili darsini ko'paytirdi, yangi darsliklar joriy etdi. O'qitgan fanini juda yaxshi bilganligi, yoshlarga mehr bilan qarashi va muloyim pedagog bo'lgani tufayli, o'quvchilarning zo'r hurmati va muhabbatini qozondi.

Bolalarning o'quv qo'llanmalari, ovqat va kiyim-kechak bilan to'liq ta'minlanmagani bu xildagi maktablarning ishlashida katta qiyinchiliklar tug'dirardi. Ammo Hamza bo'sh kelmadi, u «Jamiyati xayriya» tashkil qildi va o'z maktabini saqlab qolish uchun kurashdi. Uning ishlari haqidagi shov-shuv Qo'qon shahridan tashqariga ham tarqala boshladi. Mahalliy ma'murlar bunday «xavfli ta'lim-tarbiya manbai»ga toqat qilmadilar va 1913 yilda maktabni yopitirishga muvaffaq bo'ldilar. Hamza o'z ona yurtini tashlab chet elga ketishga majbur bo'ldi.

U 1914-yilda Qo'qonga qaytib keldi va kambag'al etim bolalar uchun maktab ochishga harakat qildi. Nihoyat, «Doril yatim», ya'ni «yetimlar maktabi»ni ochdi. Maktab Qo'qonda 1914 yil sentyabridan ishga tushdi. Unga Qo'qonning har tarafidan kelgan faqir va yetim bolalar pulsiz qabul qilinib, hatto ba'zi bechorahollarga daftar ham berilgan.

Hamzaning «Doril yatim» maktabi uchun o'zbek tilida tuzgan darsligi tabiatga, yo xalqlar tarixiga oid hikoyalardan



iborat bo'lgan. Shunga ko'ra, ruhoniylar uni Ollohga va podshoga qarshi chiqishda aybladilar.

Ko'p o'tmay «Doril yatim» maktabi yopib qo'yildi, Hamzani esa siyosiy jihatdan ishonchsiz va milliy ozodlik harakatining ishtirokchisi degan mulohaza bilan mirshabning maxfiy nazorati ostiga olindi.

Hamza 1915-yilda Marg'ilonga keldi. U oshkora ravishda yangi maktab ochishga, lekin ehtiyot bilan ish ko'rishga harakat qildi. Shu tariqa Marg'ilonning tinch va xilvat ko'chasida yangi maktab paydo bo'ldi. Uning binosi Qo'qondagi maktab binosidan ham yomonroq edi.

Hamzaning pedagogik faoliyati ancha murakkabdir. Ya'ni u chor Rossiyasi amaldorlari va mahalliy ruhoniylar yangi maktablarni va ijobiy g'oyalarni yanchib tashlayotgan davrda ishladi. Hamzaning ma'rifatparvarlik g'oyalari esa xalqni og'ir ahvoldan qutqarishga, uning ilm-ma'rifatini yuksaltirishga qaratilgan edi.

Z.Mirtursunovning tadqiqotida quyidagilar aniqlangan. 1914-yilda Turkistonda 106 ta boshlang'ich rus maktabi bo'lib; ularda 14 mingdan ortiq rus bolalari o'qigan. 50 dan ortiq rus-tuzem maktablarida 10 mingdan ziyod mahalliy xalq bolalari ta'lim olgan. Shuningdek, Turkiston o'lkasida rus bolalari uchun maxsus gimnaziya va progimnaziya xizmat qilgan. Bulardan tashqari, tovush metodi bilan xat-savod o'rgatiladigan o'zbek «savtiya» maktablari ham tashkil qilingan. Eski maktablar «usuli qadimiya» deb yuritila boshlangan. Yangi tashkil qilingan «jadid» maktablariga bolalar nasl-nasabiga qarab qabul qilingan. Kambag'allarning farzandlari «aqliy mehnatga ojiz, o'qishga qobiliyatsiz» deb hisoblangan.

Mana shu holning shohidi bo'lgan Hamzaning ta'lim-tarbiya va ma'rifatga doir g'oyalari burjua millatchilariga qarshi qaratilgan edi. U o'zining «Faqirlik qaydan hosil bo'lur» sarlavhali maqolasida, «Milliy roman yoxud saodat» nomli qissasida xalq farzandlarini o'qitishga chorlagan va boylarga murojaat qilib, shunday degan:

*Maktab oching boyonlar, bo'ling himmatli!  
Bo'lsin o'qib sibyonlar oliy g'ayratli!*

Hamzaning butun fikru xayoli xalq ommasini o'qitish va ilm-ma'rifatli qilish edi. U xalq orasiga ilm-ma'rifatni keng

yoyish zarurligini isbotlar ekan, hukmron sinflar bu masalaga loqayd qarashini ifodalaydi:

*Yo'q ekan hissi milliyat kalonlarda,  
Hammasin erkan da'vosi zabolarda...  
Ulamo, shayx, eshon, boy, imom, qozi, mingboshilar,  
Hammasi bir domu kamon ichra...*

### **Hamzaning ma'rifiy qarashlari**

Hamza xalq maorifi to'g'risida fikrlar ekan, «ilm-ma'rifat shunday bir vositaki, uning yordamida butun ijtimoiy tuzumni yaxshi tomonga o'zgartirish mumkin, lekin buning uchun ma'rifat ishlarida hammaning manfaatlarini birga qo'shish kerak», deb xulosa chiqargan. Xalq orasida ilm-ma'rifatni keng yoyishni, ijtimoiy parokandalikni bartaraf etishning eng samarali vositalaridan biri deb bildi.

Hamza ochgan maktablarda aqliy, jismoniy, estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasi uyg'unlashtirilib olib borilar, bu tadbir o'z zamonasi uchun ilg'or bir voqea bo'lib, mazkur maktablarda o'qitish ishlari bolalarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash aqidalariga asoslangan edi.

Hamza estetik tarbiyaga katta e'tibor berdi. O'qitishda bolalarga san'atdagi, insoniy munosabatlardagi go'zallikka muhabbat bilan qarash hissini singdirdi. Ularga musiqa, raqs, ashula, xalq qo'shiqlarini zo'r muhabbat bilan o'rgatdi.

XIX asrning oxiridan boshlab, O'zbekiston Rossiya imperiyasining kapitalistik xo'jaligi doirasiga tortilishi sababli uning turmushdagi ijtimoiy-iqtisodiy negizlari jadal yemirila boshladi. Natijada Turkistonda milliy-ozodlik harakati kuchaydi.

Hamza Zavqiy boshchiligidagi ziyolilar guruhiga qo'shilib, O'zbekistondagi mazkur harakatda faol ishtirok etdi. U o'zining pedagogika sohasidagi tajribasini o'zbek xalqining muhim ishiga, ona tilida boshlang'ich maktablar ochish, darsliklar tuzish va kambag'allarning bolalariga xat-savod o'rgatish ishlariga bag'ishlandi.

Hamza o'z xalqining bilimsizligiga qarshi ona tilidagi maktablar hamda yaxshi darsliklar yordamida kurashish mumkin deb bilgan.

Hamza o'quvchilar oladigan quruq kitobiy, jonsiz, sxolastik, passiv bilimlarni juda yomon ko'rish bilan birga, kitobni bilim va fikrning eng boy manbai sifatida, insoniyat aqliy samaralarining buyuk xazinasi va hayotning ko'zgusi sifatida qadrlagan. Lekin hamma gap kitobga to'g'ri munosabatda bo'lishda ekanini, faqat xotirani emas, balki ko'proq tafakkurni ham ishga solishi kerakligini uqtirgan:

*Har ko'ngilning orzusi shul erur obihayot,  
Qadrini bilgan kishiga, shubhasiz, jondir kitob.  
Har murodning boshidur, har muddaoning gavhari,  
Har marazlarning shifosi, ya'ni Luqmonidir kitob.  
Ko'zni nuri, dil huzuri, dillarning darmonidur  
Har qorong'u dilga go'yo mohi tobondir kitob,  
Har balodan asraguvchi eng muhim qiymat yarog',  
Tiri vahshat, xanjari zillatga qalqondur kitob.*

Hamza ta'lim va mustaqil o'qish bilan hosil qilinadigan bilimlar turli-tuman va mukammal bo'lishini istagan. O'smir aqlining o'sib borishi uchun xilma-xil ma'naviy oziq olishi, turli sohalaridan xabardor bo'lishi zarur, bu esa uni mahdudlikdan saqlaydi, unda dunyoqarashning tarkib topishiga ko'maklashadi, deb bilgan.

O'z zamonidagi darsliklar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olmay tuzilgani, ular uchun tushunish qiyinligi, ko'p darsliklar bolalarga yot tilda yozilganini qoralagan. Hamza darsliklar va o'quv qo'llanmalari yuksak saviyada bo'lishi, bolalarda o'qishga qiziqish va kitobga muhabbat uyg'otishi lozim, deb ta'kidlagan. Uning o'zi «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi» va boshqa darsliklarni yaratgan. Ularni tuzishda o'zining pedagogik tajribasidan va ilg'or maktablar tajribasidan foydalangan. Bu darsliklarning hammasi pedagogika va bolalar psixologiyasi talablariga muvofiq yozilgan. Muallif darsliklarida bevosita bilim berishga xizmat qiladigan materiallardan tashqari, axloqiy tarbiyaga oid matnlarga ham katta o'rin bergan. Masalan, o'quvchilarni halollik, rostgo'ylik, yolg'onchilik va adolatsizlikka nafrat ruhida, saxiylik, o'jizlarni qo'llab-quvvatlash, yaramas ehtiroslardan tiyilish, ochko'zlik va shuhratparastlikka murosasizlik, muloyimlik, fan va maorifga sadoqat, Vatanni sevish va kattalarga hurmat, ota-onani izzat

qilish, hayotdagi mashaqqat va qiyinchiliklarga bardosh berish, mardlik, insonni go'zallashtiruvchi mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash masalalari Hamzaning axloq-odob to'g'risidagi ta'limotining asosiy mavzulari bo'lib, uning darsliklarida juda keng ifodalangan.

Hamza darsliklarni yozar ekan, ta'lim-tarbiya maqsadini ko'zlab, xalq og'zaki ijodi namunalaridan mohirona foydalangan. O'qish kitobida ibratli masallarni keltirgan.

Hamzaning bolalar uchun yozgan she'rlari ajoyib xususiyatlarga ega bo'lib, ular g'ayrat-shijoat to'lib-toshgan, zavq va iliq tuyg'ular bilan sug'orilgan, oddiy, erkin, yengil tilda yozilgan, o'zining ravonligi bilan alohida ajralib turgan asarlar edi. Mazkur she'rlar xalq tilining talaffuzi va ohangini saqlab qolgan jonli va sho'x til bilan yozilib, ulardagi misralar qisqa-qisqa, har bir bayt aniq, ravshan ifodalangan, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun tanlangan eng muhim so'zlar bir-biriga qofiyadoshdir.

Hamza ta'lim-tarbiya masalasini nazariy jihatdan ishlab chiqish bilan birga Turkistonda maktablarni qayta qurishning amaliy masalalarini hal qilishda faol qatnashdi. U 1916-yilda Zavqiy, Ahmadali Aliyev va boshqa jamoat arboblari bilan birgalikda «Farg'ona vodiysidagi musulmon aholi orasiga xat-savod yoyish jamiyati» tuzdi. Jamiyat pul to'plab, boshlang'ich maktablar ochdi, ularda darslar o'zbek tilida olib borildi.

Hamza ilm-ma'rifatning kuchiga juda katta ahamiyat berdi. Uning fikricha, bilimlarni xalq ommasi orasiga yoyish ommaning ongini uyg'otishga yordam berishi mumkin.

Hamza insonning ma'naviy va aqliy xislatlarini, asosan, uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi, deb hisoblagan. Agar yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa, noto'g'ri tarbiya uning uchun chinakam baxtsizlikka, hatto, halokatga aylanishini uqtirgan. Shuning uchun maktab tarbiyasi bilan bir qatorda oila tarbiyasiga ham juda katta ahamiyat bergan. Bolalar ijobiy va salbiy ta'sirga, ayniqsa go'daklik chog'larida juda beriluvchan bo'ladilar. Buni yaxshi bilgan Hamza ularga yoshlikdan to'g'ri tarbiya berib borish lozim, oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu hol maktabning ta'lim-tarbiya ishini juda

qiyinlashtirib qo'yadi, deb yozgan. Ayrim ota-onalar o'z bolalarining farovon yashashini ta'minlash to'g'risida jon kuydirsa ham, ularni tarbiyalash bilan mutlaqo qiziqmasligini qoralab, tarbiya bo'lmasa, moddiy jihatdan ta'minlanganlik yaxshi oqibatga olib bormasligini, moddiy jihatdan ta'minlangan, lekin tarbiya ko'rmagan bolalar yaxshi odam bo'lib yetishmasligini uqtirgan.

Hamzaning pedagogik faoliyati umuman o'quvchilarda to'g'rilik, rostlik, halollik kabi yuksak fazilatlarini tarbiyalashga qaratilgan. U ana shu axloqiy ideallarni o'zining badiiy asarlarida umr bo'yi targ'ib qildi.

### *Mustaqil ish*

Hamza Hakimzoda dramalaridan birini o'qib, uning axloqiy tarbiyaga doir g'oyalari munosabat bildiring.

## **ABDULLA AVLONIY**

*(1878—1943)*

Abdulla Avloniy 1878-yili Toshkentda hunarmand oilasida tug'ilgan. Avloniy boshlang'ich ta'limni O'qchidagi maktabda olgach, Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida tahsil ko'rgan. Avloniy bo'sh vaqtlarida Navoiy, Fuzuliy, Sa'diy Sheroziylarning asarlarini sevib o'qigan. She'rlar ham yozgan. 1904 yildan boshlab Avloniyning ijodiy faoliyatida keskin o'zgarishlar sodir bo'lgan. U Mirobod mahallasida yangi usul maktabi ochgan. Unda o'qigan talabalar tovush metodidan foydalanishar va 6 oydan so'ng, savodlari chiqib, imtihon topshirar edilar.

Avloniy ijodining bosh masalasi barkamol insonni tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Ana shunday inson haqidagi g'oyalar uning faqat darsliklarida emas, balki butun ijodida, ayniqsa, «Sadoi Turkiston» gazetasida e'lon qilingan «Izzatli insonlar», «G'alat», «Diqqatman», «O'z maishatimizdan», «Istiqboldan orzularim», «Jaholat», «Safohat balosi» kabi maqolalarida yaqqol aks etgan.

1908-yilda Avloniyning maktabi yopib qo'yildi. Buning sababini Avloniy quyidagicha izohlaydi: «Maktabimda yer,

odamlar, tog'-toshlar, daryo, osmon haqida suhbatlar o'tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod mahallasining ayrim johil kishilari bilishib, meni kofir bo'lding, deb maktabni yopdilar».

Avloniy 1909-yilda Degrez mahallasida yana maktab ochgan. Bu maktabning o'quvchilarini yangicha ta'lim mazmuni asosida o'qitishni zarur deb hisoblagan.

Avloniy o'z maktabidagi o'quvchilar uchun tovush metodikasiga asoslangan darsliklar yozdi. Uning 1912-yili «Birinch muallim» (alifbo), «Ikkinchi muallim» (Alifbodan so'ng o'qimak uchun) 1913-yili «Turkiy guliston yoxud axloq» (yuqori sinf o'quvchilari uchun darslik), «Maktab gulistoni darsligi» asarlari Turkiston maktablari uchun zaruriy qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Bu borada: «Muallim afandilar va adabiyot muhoblari banim bu asari nochizonalarimi iltifotsiz qoldurmadi. Turkistonning eng mashhur muallimlari dars jadvaliga kiritub, maydoni ta'limga qo'ydilar. Bulardan boshqa, o'z qalamim ila maydoni matbuotda jilvagar uran «Birinch muallim», «Ikkinchi muallim», «Adabiyot Turkiy gulistoni» nomli asarlarim maktablarda o'qilmoqda. Millat bolalari banim bu asarlarimdan istifoda qilmoqda ekan, banim bu xusudagi g'ayrat va jasoratim daqo zioyda ulmog'a boshladim»<sup>1</sup>.

Abdulla Avloniyning «Maktab jug'rofiyasi», «Hisob masalalari», «Uchinchi muallim» kabi bosilmay qolgan darsliklari o'zi va yangi usul maktablari tomonidan keng foydalanildi. 1933-yili 7-sinf o'quvchilari uchun adabiyot majmuasi tuzib nashr ettirdi.

Abdulla Avloniy 1921-yildan boshlab maorif sohasiga o'tdi: dastlab o'lka bilim yurtida, 1923-yilda xotin-qizlar bilim yurtida mudir, 1924 yilda harbiy maktabda o'qituvchi, 1925–30-yillarda O'rta Osiyo davlat universitetida dars beradi.

Abdulla Avloniy shoir sifatida ham tanilgan edi. Avloniyning «Ishtirokiyun» gazetasida e'lon qilingan asarlari «Go'zal bahor», «Ishchilarga tortiq», «Jamiyatlarga aralashmagan dangasa tilidan», «Maktab marshi» kabilar sanalardi.

Avloniy 1913-yildan boshlab teatrlik ishlari bilan shug'ullangan va birinchi «Turkiston» teatr truppasini tuzgan.

<sup>1</sup> Qosimov B. Abdulla Avloniy. T.: «O'qituvchi», 1979, 10-bet.

Truppa 1914–1915-yillarda Turkiston o‘lkasining turli joylarida Avloniyning «Ikki sevgi», «Biz va siz», «Portugaliya inqilobi», «Badbaxt kelin» singari pesalarini namoyish qilgan.

Avloniy 1943-yilda vafot etgan. U xalqimiz uchun qilgan beqiyos xizmatlari hamda yaratgan asarlari bilan o‘zining nomini abadiylashtirgan.

### **Abdulla Avloniy ta’lim-tarbiya haqida**

Abdulla Avloniy ijodiy faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, uning falsafiy-ijtimoiy dunyoqarashida millat istiqloli, xalq g‘ami, kelajakdagi ma’naviy hayot alohida o‘rin egallaydi. Abdulla Avloniy o‘zining «Maktab marshi» she’rida yangi usul maktablari afzalligini kuylaydi:

*Yashasun maktab, biz ham yashayluk,  
Biz ham yashayluk, yashasun maktab!*

Abdulla Avloniy tashkil etgan maktab o‘zbek millatiga xos yangi usul edi. Turkistonda bir qator ma’rifatparvar, jadid harakatining faollari Saidrasul Aziziy, Munavvar qori, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy, Ishoqxon Ibrat, Hoji Muin Shukrullo, Hamza, Rahmatullayevlar yangi usul maktablarini Turkiston bo‘ylab ochdilar. Bu maktablar erkin va insonparvarlik asosida tuzilganligi, dunyoviy ilmlarni bolalarga o‘rgatish, ta’lim mazmunini milliylashtirib, tovush metodidan keng foydalanilganligi bilan eski maktablardan ajralib turardi. Maktablarda ta’lim-tarbiya birligiga alohida e’tibor berildi. Yangi maktablar uchun juda ko‘plab alifbo darsliklari yozildi. Hoji Muin Shukrullo o‘zining «Turkistonda alifbo tarixi» risolasida bular sonini 25 ta deb tahlil qilgan edi. U alifbolar ro‘yxatini tuzganda birinchi o‘ringa Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval» darsligini, so‘ng Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» alifbosini qo‘ygan edi.

Abdulla Avloniy o‘z darsliklarida xalq og‘zaki ijodidan keng foydalangan hamda boshqa xalqlar ijodidan namuna olib, uni tarjima qilib darsliklariga kiritgan. Avloniy «Muallimi avval» alifbosini o‘quvchilarga moslashtirgan edi: «oddiyan murakkabga, muallif so‘zi bilan aytganda, «tadrijiy sur’atda tartib etildi», ya’ni harflar alfavit tartibida berildi, keyin

qaysi o' rinda qanday yozilishiga qarab kichik-kichik misollar keltirilgan. Bosh va oxirgi harflarning yozilishi va talaffuzi haqida ma'lumot berilib, keyin o'qishga o'tiladi. «Birinci muallim» alifbosidagi «Maktab», «Yamonlash — jazomi?», «Baxtli va baxtsiz bola», «Qanoat», «Zar qadrini zargar bilur», «Yaxshilik yerda qolmas», «To'g'rilik», «Ittifoq» kabi hikoya va she'rlar oxirida tarbiyaviy xulosasi berilgan. Masalan, «Yaxshilik yerda qolmas» hikoyasini quyidagicha yakunlaydi:

*Yaxshilik qilsang bo' lur joning omon,  
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon,  
Yaxshi so'z bilan ilon indan chiqar,  
So'z yomon bo'lsa, pichoq qindan chiqar.*

Avloniy boshlang'ich ta'lim mazmunini millatning istiqboliga qarab belgilagan. Unda insonni milliy g'ururini ifodalaydigan, xalq yaratgan so'z san'atidagi durdonalar o'z aksini topgan, inson qalbiga ziyo bag'ishlaydigan ajdodlarimizning merosi asosiy o'rin olgan. Shuningdek, u buyuk siymolarning va o'zining asarlaridan keng foydalangan. Uning boshlang'ich maktab uchun yozilgan darsliklarida mazmun nozik nafasat pardasi bilan o'ralgan. Masalan, Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval» darsligidagi «Yolg'onchi» hikoyasining asosiy g'oyasi Avloniyning «Birinci muallim» darsligida yolg'on gapirishning yomonligini quyidagicha qiziqarli qilib berilgan:

- Dunyoda eng xor kishi kimdur?
- Yolg'onchi kishidur.
- Har kimga nima lozim?
- Rost so'zlik va xushfe'llik.

Avloniyning «Yolg'onchi cho'pon» she'ridagi «To'g'ri so'z qutqarar balolardin, dog'i hijron va mojarolardin» misrasi ham Aziziyning g'oyasiga hamohangdir. Bunday o'xshashliklar Avloniyning «Birinci muallim» darsligida ko'p uchraydi. Umuman, uning darsliklariga xalq og'zaki ijodida mavjud bo'lgan, buyuk xalq pedagogikasiga asoslangan va zamon ruhiga, boshlang'ich sinf o'quvchilariga moslashtirilgan «Taqsim», «Ikki devona», «Ochko'zlik», «Aqlli bog'bon» kabi hikoyalar, ertaklar, she'riy rivoyat va boshqalar kiritilgan. U yaratgan ikkinchi darsligi «Alifbodan so'ng o'qitmak uchun



yoʻzilgan» axloqiy hikoyalar, adabiy sheʼrlar ila ziynatlangan edi. Hikoyalar tanlash va bayonida Abdulla Avloniy quyidagi usullardan foydalangan: hikoyalarning hayotiyiligi, qiziqarliligi, soddaligi, uning oʻz soʻzi bilan aytganda, «Eng oson usul ila», «Ochuq ti va oson tarkib ila» yaratilgan. Bu darslikni yozishda xalq ogʻzaki ijodidan, Sharq sheʼriyatidan mutafakkir va maʼrifatparvar shoirlarning asarlaridan foydalanildi. Darslikda «Gʻayrat qilib oʻqing, oʻgʻlon», «Saxiylik», «Baxillik», «Nafsi buzuq hayitda oʻlar», «Aqlli qarqʻa», «Hasad balosi», «Aqlli bola», «Yolgʻon doʻst» kabi hikoya, sheʼrlar berilgan. Abdulla Avloniy ijodiy va pedagogik faoliyatida tarbiyaning yetakchi oʻrniga alohida eʼtibor berdi:

«Tarbiya «pedagoʻgiya», yaʼni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya oʻldugʻindin shul xususda bir oz soʻz soʻylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni oʻrgatmak, yomon xulqlardan saqlab oʻsmakdur.

Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgʻoni kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl markaziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmoq lozimdur.

...«Beshikdan to qabrgacha ilm izla» deymushlar. Bu Hadisi sharifning maʼnosi bizlarga dalildir. Hakimlardan biri: «Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bogʻliqdur, demish. Oʻz bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak otalarga farzi ayn, oʻz millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmoq farzi kifoyadir» (25-bet).

Avloniy tarbiyani quyidagi qismlarga boʻlgan edi: **fikr tarbiyasi, badan tarbiyasi, axloq tarbiyasi va intizom tarbiyasi.**

Abdulla Avloniy oʻzining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida barkamol insonning axloqiy tarbiyasiga alohida eʼtibor berdi.

Axloq «Insonni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladurgan kitobni axloq deydilar. Axloq ilmni oʻqub, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganini bilur. Kishi oʻzidan xabardor boʻlmasa, ilmni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas» (23-bet).

Abdulla Avloniy axloqiy fazilatlarini ikki turga bo'lgan. Yaxshi xulqlar: mehr-shafqat, muhabbat, sadoqat, xayrixohlik, olijanoblik, iffat, hayo, do'stlik, mehribonlik, sabrlilik, qanoatlilik, saxiylik. Yomon xulqlar: g'azab, buzuqlik, safohat, yalqovlik, xasislik, ta'magirlik kabilardir.

### **Abdulla Avloniyning axloqiy qarashlari**

Abdulla Avloniy axloqiy tarbiyaning bosh masalasi insonning Vatanga muhabbatidir deb hisobladi va har bir yosh qalbni Vatanida yashashga, uning baxtidan quvonishga, shodligiga sherik bo'lishga o'rgatmoq va uni e'tiqodiga aylantirmoq lozimligini ta'kidladi.

Vatanni sevgan xalq tilini ardoqlaydi, chunki «Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on hayot ko'zgusi — til va adabiyotdir», deb milliy til va adabiyotni o'rganishga alohida e'tibor berdi.

«So'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurg'on tarozudur» deb yozadi.

Abdulla Avloniy chaqimchilik, g'iybat, hasad, munofiqlik, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik haqida to'xtalib izoh bergan edi. U g'iybatchi va chaqimchilikni buzoqboshiga o'xshatadi. Buzoqboshi daraxt ildizini kemirib quritgani kabi chaqimchi va g'iybatchilar ham kishilar o'rtasida mehr-muhabbat daraxtini yemiradilar. Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarining «Tarbiyaning zamoni» bo'limida tarbiyani dastlab uyda, so'ngra maktab-madrasada olishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi.

A.Avloniyning ijodida oila, nikoh, farzand tarbiyasi, ota-onaning burchi va vazifalari alohida o'rin egallaydi. «Oila munozarasi» she'rida ota-ona bahsi beriladi. Bunda qiz bolalarni ham ilm, ma'rifat bilan bahramand qilish g'oyasi ilgari suriladi.

Abdulla Avloniy bolalarning aqliy ta'limiga ham alohida e'tibor beradi: fikrlash iqtidorini egallash olijanob g'oyalar tomon intilishdir, degan edi. Abdulla Avloniy bolalar fikrining «quvvati, ziynati, kengligi» yo'q jihatdan muallimlarni «diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan» vazifadir, deydi. Abdulla Avloniy aqliy tarbiyaning mohiyati va mazmuni kengligini hisobga olib uning qirralarini quyidagicha tasvirlagan edi:

«Aql ila ish tutish — matonat, sa'i g'ayrat, rizoyat:  
Pokizalik — nazokat, sabr-qanoat, intizom, vijdonli bo'lish.

To'plagan bilimlarini birovlariga o'rgatish, xayrixohlik, saxiylikdir. Aql — ilm va tarbiyaga suyanadi. Xalqimiz aytganidek: har narsa ko'paysa arzon bo'lur, aql esa ilm sohasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur.

Abdulla Avloniy aytganidek, ilm olish sog'lomlikni talab etadi. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir, chunki o'qimoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, sog'lom vujud lozimdur».

### **A.Avloniy merosining ahamiyati**

Biz A.Avloniy merosini qanday o'rganishimiz kerak? Avvalo, har bir o'qituvchi o'zi mustaqil ravishda A.Avloniy ijodini o'rganishi lozim.

Darsliklarda berilgan materiallar mazmunini boyitish maqsadida Avloniyning she'r, hikoyalaridan ijodiy foydalanish kerak.

«Ajdodlarimiz merosiga ixlos» turkumidagi «Cho'lpon» nashriyoti chiqarayotgan «Bobolardan bolalarga» kitobchalarini o'rganib, bolalarni o'qish va yod olishga ruhlantirish, A.Avloniy ijodiga bag'ishlab suhbat, o'tkir zehnlilar mushoirasi, she'rxonlik ko'rigi tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

A.Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari har bir xonadonga qut-baraka keltiruvchi, insonlarni yaxshi yo'lga boshlovchi asar bo'lganligi sababli, biz ziyolilar uni tartibli ravishda tashviqot qilishimiz zarur.

A.Avloniy shuhrat va yuksaklikka mashaqqatli mehnati, e'tiqodi orqali erishdi. Oqibatda avlodlarga juda katta meros qoldirdi.

### **«TURKIY GULISTON YOXYD AXLOQ»**

(Parchalar)

Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon

qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o'qub, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganini bilur. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa, ilmni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas, o'z aybini bilib iqrur qilib tuzatmakka sa'y va ko'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir.

### *Xulq*

Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko'z ila bor narsalarni ko'rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yamondan, oqni qoradan ayirur... Ammo nafsning surati ko'zga ko'rinmaydigan, aql bilan o'rganudurgan bir narsadurki, buni xulq deb atalur...

### *Yaxshi xulq, yomon xulq*

Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikga tavsif bo'lur «yaxshi xulq», agar tarbiyasiz o'sib, yomon ishlaydurgan bo'lub ketsa, yomonlikga tavsif bo'lur, «yomon xulq» deb atalur...

*Xudoning rahmati, fayzi hamma insonga yaksardur,  
Va lekin tarbiyat birla yetushmak sharti Akbardur.  
Tug'ib tashlov bila bo'lmas bola, bo'lg'ay balo, sizga.  
Vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul rahnamo sizga...*

### *Tarbiya*

Tarbiya «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususida bir oz so'z so'ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidin maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sturmakdur.

Tarbiya qilguvchilar tabib kapidurki, tabib xastaning badanidagi kasalni davo qilg'oni kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub katta qilmog'i lozimdur.

«... Beshikdan to mozorga borguncha ilm o'rgan» demishlar. Bu hadisi sharifning ma'nosi bizlarga dalildir. Hakimlardan biri: «har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'lidir, demish. O'z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmaq otalarga farzi a'yn, o'z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmaq farzi kifoyadir.

Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlantirmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan.

... Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yib astarini yuvub ovora bo'lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog'lom bir vujud kerakdur.

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'latur...

*Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,  
Xanjar olmasdan bo'lur o'tkur.*

*Fikring oynasi olursa zang,  
Ruhi ravshanzamir, o'lur benur.*

... Fatonat aql egasi bo'luv demakdir. Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir. Inson aqli ila... e'tiqodini mahkam qilur... Janobi haq insonni hayvonlardan so'z va aql ayirmishdur...

... Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari najotidir. Ilm o'rganmak, olim bo'lmak uchun maktabga kirmak, muallimdan ta'lim olmaq lozim, aqlsiz kishilar na maktabga kirar, va na muallimni bilar...

Ilm deb o'qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o'rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzat... Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur. Savobni

gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur... Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidir...

Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmakni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yashay olmas edilar...

Vatan: har bir kishining tug'ulub o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan joyini jonidan ortiq suyar...

... Bobolarimiz «kishi yurtida sulton bo'lguncha o'z yurtida cho'pon bo'l», demishlar.

... Iffat deb nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqni aytilur... Hayo, iffat o'ylab chiqarilgan tushunchalar emas. U asrlar bo'yi inson tushunchasi bilan birgalikda shakllangan. «Hayo dilni ravshan qiladurg'on bir nurdurki, inson har vaqt shul ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdir».

Axloq solibi, iffat egasi qalbini, vijdonini poklab, tilini yolg'on, g'iybat, bo'hton... kabi so'zlardan saqlar. Chunki insonga iffatidan ko'proq til iffati lozimdir...

### «YOMON XULQLAR»

«Hasadchi kishi bir on va bir zamon rohat va farog'at yuzini ko'rmas. Dunyoda qancha mehnat va musibat bo'lsa, barchasi ul bechorani o'rab olmishdur».

\* \* \*

Dangasalik, yalqovlik -- kishilar baxtini shikastlovchi katta ofat.

G'azab insondagi tabiiy tuyg'u, «maxsus bir quvvati mudofaa».

\* \* \*

Johilning yaxshi niyati fozilning xusumatidan zararliroqdur. Inson eng yuqishlik bir kasaldan saqlangani kabi johildan hazar qilmag'i lozimdur.

\* \* \*

Jaholat deb o'qumagan, bilimsiz hech narsaga tushunmaydurgan nodonlig'ni aytilur. Jaholat insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon xulqlami boshlig'idur.

\* \* \*

Adovat deb birovga xusumat va dushmanlik qilmakni aytilur. Adovat vijdonni behuzur qiladurgan eng yomon xulqlardan o'ldig'ini inson yaxshi bilsa edi, hech vaqt aziz jonini alamlik azobga giriftor qilmas edi.

### «IKKINCHI MUALLIM»

(Parchalar)

Maktab uyi— dorulomon,  
Maktab hayoti jovidon,  
Maktab saroyi, qalbi jon  
G'ayrat qilub o'zing, o'g'lon...  
Maktab sizni inson qilur,  
Maktab hayot ehson qilur,  
Maktab g'ami vayron qilur,  
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!..  
Maktabdadur ilmu kamol,  
Maktabdadur husnu jamol,  
Maktabdadur milliy xayol,  
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!..

### «Saxiylik va baxillik»

Said ismli bolaning otasi har kuni o'g'li maktabga ketishi oldidan unga 10 tiyin ovqatga berar edi. U faqir kishini uchratadi... «O'g'lim, ikki kundan beri ochman, taom olib yey desam ustimdagi yirtiq chopondan boshqa hech narsam yo'q», — deydi u. Said qo'lidagi 10 tiyinni beradi va o'sha kunni ovqatlanmasdan o'tkazadi. Otasi o'g'lining olijanobligidan mamnun bo'ladi, «saxiy Saidim!» deb olqishlaydi. Ertasiga 20 tiyin berib yuboradi...

*Bor edi bir kishi, xat bilmas edi bechora,  
Bo'ldi betob, yurak-bag'riga chiqdi yora.  
Ertasi o'g'lina aydiki, ayo tifli adib,  
Bor, ketur boqmoq uchun qoshim, bir yaxshi tabib.  
O'g'li keltirdi tabibni atosin qoshig'a,  
O'turub boqdi tabib, ul dam oyog'u boshig'a.  
Ikki xil dori yozib berid o'shal bemora,  
Birini ichmak uchun, birisini surtora,  
... O'qimoqdin yo'q edi xastani (ng) hech ma'rifasi:  
Shishalardin birini u ushladi avval qo'lina,  
Ichdi sharbat debon og'uni— surardi dilina.  
Ul zamon bag'ri yonub, ayladi faryod fig'on,  
Bo'ldi bir necha nafas, so'ng tanidan joni ravon,  
Otasi o'ldi, o'g'li yig'ladi faryod aylabon,  
Imsizlikdan otang jondan ayrildi bu kun,  
O'qumoq yozmoq (n) i bilsaydi otang, ey o'g'lon.  
Balki boshig'a qazo kelmas edi ushbu zamon.  
Ibrat ol o'g'lim otangdek bo' (l) mag'il sarmast;  
Qilmag'il umringni zoye', dema qish— yoz o'qu yoz!..*

#### «BOLARI ILA PASHSHA»

«Bir pashsha qir tarafdin uchub kelayotgan arini ko'rub:  
— Do'stim, qaydin kelursan? — dedi.

Ari:

— Qirdin kelurman. Bir oz bol yig'dim.

Uya yasamoq uchun mum ham hozirlab keldim», — dedi.

Pashsha:

«—Oh birodar! Bir boshing uchun muncha harakat qilursan! Nima bo'lurki, san ham man kabi rohatda yashasang.

Chunki maning yashamog'imda hech bir mashaqqat yo'qdur. Insonlar tarafidan hozirlang'on dasturxonlardan har xil taomlarni yeb-ichub umr o'tkazurman.

Ba'zi vaqtlarda sani yasag'on bolingdan ham to'yganimcha yerman.

Mana! Yashamoq mana! Umr kechurmak uchun olamda mundan yaxshi turmush bo'larmi? Na manda bol hozirlamak mashaqqati va na uya solman kulfati», — dedi. Ari bu so'zlariga javoban dedi:

— «Oh do'stim! Bu sani turmushing o'z boshingdan beri kelmasun. Mashaqqatsiz taomda lazzat bo'lurmu?!



Insonlar sani sufradan quvarlar, urarlar, o'ldururlar. San olamda o'g'rilar kabi umr o'tkazursan. Oxirida bir o'rgumchak luqmasi bo'lmakdan boshqa narsaga yaramassan. Ammo maning tayyorlagan mumim hamma yerida maqbuldur. Insonlarning og'izlarini totli qilur. Shul sababli insonlar mani o'zlari tarbiya qilurlar va har yerda mani maqtarlar, — dedi-da, — qo'y birodar, mani ishim ko'b, san ila behuda so'zlarni so'zlashuv turarg'a vaqtim yo'q», — deb uchib ketdi.

Hissa: mehnat oxiri rohat, yalqovlik oxiri xorlikdur.

### «IKKI DEVONA»

O'tkan zamonda bir devona bir shaharga borub, har kim urub-so'kub nima uchun odamlar hammasi bir tarafga qarab yurmas (lar). Biri bu tarafga ketsa, biri u tarafga ketar, dedi. Odamlar javob berdilarki, har kim o'z ishi bor tarafga borur. Biri bozorga borsa, biri uyiga qaytur, dedilar. Devona bularning so'zini qabul qilmadi. Oxirida arolaridan biri turub, bu devonadur, devonaning so'ziga shoyad devona javob bersa, deb bir devonani olib keldi.

Birinchi devona so'radiki, «Yer yuzidagi odamlar nichun bir tarafga qarab yurmaslar?»

Ikkinchi devona: «Yer kemaga o'xshash suv ustinda turadur. Agar odamlar hammasi bir tarafga qarab yursalar, barchamiz suvga og'darilib keturmiz», — javob berdi.

Birinchi devona:... «Balli do'stim! Hammadan san yaxshi javob berding!» deb jo'nab ketdi.

Hissa: har kishiga o'z maslakdoshining so'zi maqbuldur.

### *Mustaqil ish*

A.Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarini o'qib tahlil qiling (T.: «O'qituvchi», 1993).

### **SADRIDDIN AYNIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI**

Buyuk adib, faylasuf-shoir va pedagog Sadriddin Ayniy 1878-yil 15 aprelda Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi Sektare qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida tug'ildi. Otasi Saidmurodxo'ja mehnatsevar va insonparvar, fan va adabiyotga

havas qoʻygan kishi boʻlgan. U iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay oʻz bolalarini maktab va madrasada oʻqitib, ularning maʼrifatli kishilar boʻlib ulgʻayishi uchun harakat qilgan.

Sadriiddin maktabda toʻrt yil oʻqigan, lekin taʼlimning eski usuli uning savodli boʻlishiga imkon bermagan. Shunga qaramay, otasi unda sheʼriyatga muhabbat uygʻotgan.

Ota-onasining vafotidan keyin moddiy va maʼnaviy qiyinchiliklarga qaramay, S.Ayniy Buxoro madrasasiga oʻqishga kiradi. Muhtojlik va turmushning ogʻirligi sababli, madrasadagi mullavacha va boshqalarning xizmatini qilib kun kechirdi va oʻqidi. U oʻzining «Esdaliklar» kitobida: «...qor-yomgʻirli kunlarda koʻchaga chiqsam, kovushimning ichi suv bilan toʻlib, oyogʻimning yorilgan joylaridan pichoq bilan tilingan kabi qon sizilib chiqar va yoriqlarga kirgan muzday suvning taʼsiri bilan yara qizdirilgan bigiz sanchilganday chidab boʻlmas darajada ogʻrirdi», — deb yozgandi.

Madrasada moddiy ahvol yomonligi sababli Ayniy qozi Sharifjon Maxdum (adabiyotda Sadri Ziyo taxallusi bilan mashhur) hovlisida xizmat qilgan. U yerda Abdulmajid Zufunun, Yahyoxoʻja, Sodiqxoʻja Gulshaniy kabi shoirlarning haftada 3–4 marta boʻlib turadigan ilmiy va adabiy majlislarida qatnashib turdi. U majlislarda, bir tomondan, amir amaldorlarining yomonligi, ularning nojoʻya harakatlari toʻgʻrisida gapirilsa, ikkinchi tomondan, mashhur olimlar va yozuvchilar toʻgʻrisida gap ketar edi. Bu suhbatlar Ayniy qarashlariga taʼsir etmay qolmasdi.

S.Ayniy Ahmad Donishning «Nomus al-aʼzam», «Navodir ul-vaqoye» kabi asarlarini oʻqib chiqadi va qattiq taʼsirlanadi.

1905-yil «Buxoroi sharif birodarligi» jamiyatining topshirigʻi bilan S.Ayniy Samarqandga borib, Abdulqodir Shakuriy tashkil etgan yangi milliy maktabning taʼlim-tarbiya ishlari bilan tanishadi. Ana shu maʼlumotlar va tajribalar asosida doʻsti Mirzo Abdulvohid Munzim bilan uning hovlisida yangi tipdagi maktab ochgan. Ular maktabni moddiy jihatdan taʼminlash uchun oʻziga toʻqroq oilalardan uch soʻmdan oʻqish haqi olib, kambagʻallarning bolalarini pulsiz oʻqitishgan.

«Buxoroi sharif birodarligi» jamiyatining taklifi bilan S.Ayniy yangi milliy maktablar uchun «Tahzib us-sibyon» («Pok bola») oʻqish kitobini tuzadi. Oʻzi mazkur kitob haqida

shunday degandi: «Tahzib us-sibyon» kitobi adabiy xususiyatga ega bo'lib, uning materiali bolalar uchun qiziqarli edi. To'g'ri, o'sha zamon sharoitiga muvofiq kitobda diniy narsalar ham bor edi. Lekin, nima bo'lsa ham yangi bir bilim berar edi».

Sadriddin Ayniy urushdan keyingi yillarda to'rt jildan iborat yirik asari — «Esdaliklar»ni yozdi. U S.Ayniyning yozuvchilik mahorati kamolotiga yetganligidan dalolat beruvchi va ta'lim-tarbiyaviy fikrlarni aks ettiruvchi asar bo'ldi.

Sadriddin Ayniy Samarqand davlat dorilfununida ham juda katta xizmat qildi. 1946-yildan 1950-yilgacha o'zbek adabiyoti kafedrasiga mudirlik qildi va bir guruh olimlarning yetishib chiqishiga madad berdi.

Sadriddin Ayniy Tojikiston fanlar akademiyasining birinchi prezidenti bo'lib, umrining oxirigacha shu vazifada ishladi. U 1954-yil 15 iyulda vafot etdi.

Sadriddin Ayniyning hayoti va faoliyati yoshlar uchun namunadir. U yoshlarni mehnat qilishga, mehnat ahlini sevishga, kuchli iroda egasi bo'lishga, qiyinchiliklardan qo'rqmaslikka o'rgatdi. Shuning uchun ham yosh avlod S.Ayniyning o'zining ustoziga va murabbiysiga deb sevadi va hurmat qiladi.

Adib yosh avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor berdi. U o'zining «Tahzib us-sibyon» asarida tarbiya va ilm maskani hisoblangan maktab haqida shunday yozgan:

*... Maktab... Yuzing o'girma maktab eshigidan:  
Odam bolasi nega ilmdan qochadur?  
Hay, sen uzoqlashma maktab eshigidan  
Kimyoyu fan, sanoat omili ila  
Yechilgandir hamma ishning tuguni  
maktab eshigidan.*

S.Ayniy darsliklarida tanlangan matnlar ta'lim-tarbiya maqsadiga qaratilgan bo'lib, ijodining har bir yo'nalishida Vatan va insonga muhabbat alohida o'rin olgan. Uning insonlarga qarata doimiy shiori «O'qishga g'ayrat qil, odam bo'l. Keyin kuching yetguncha o'z Vataningga xizmat qilasan!» — edi. S.Ayniy vatanparvarlikning bosh yo'li ona tiliga muhabbat deb hisoblagan. Shu sababli maktab ochib, bolalarni o'z ona tilida o'qitgan. Shuningdek, u o'zining «Qiz bola yoki Xolida» nomli o'qish kitobining «Odobli qiz bola», «Yaxshi qiz bola», «Qo'y

bilan qo'zi», «Qo'y o'z qo'zisi uchun jonini fido qildi» kabi boblarida insonparvarlik g'oyalarini olg'a suradi. U ta'lim-tarbiya jarayonida mehnat tarbiyasiga katta e'tibor berib, buning asosini xalqqa xizmat qilish deb tushungan. Masalan, «Tazhib us-sibyon» darsligida mehnat kishiga baxt keltiradi, uning hayotini bezaydi, deb yozgan. Darslikdagi Yo'ldosh timsoli orqali bu g'oyani ifodalab, Yo'ldoshning yomon o'qishi, dangasaligi uning doimo muhtojlikda yashashining sababi ekanini ko'rsatgan.

Sadriddin Ayniy mehnat tarbiyasining maqsadi mehnat-sevarlikni, o'qishga va jismoniy mehnatga ongli munosabatni, mehnat ahliga hurmatni shakllantirishdan iboratligini aytadi va «Yatim» nomli asarida mehnat tarbiyasini oiladan boshlash kerakligini ta'kidlaydi.

Sadriddin Ayniy oiladagi mehnat tarbiyasida ota-onalarning shaxsiy namuna bo'lishlari, o'z bolalariga mehnat va mehnat talablari haqida hikoya qilishlari, she'rlar o'qib berishlari kabi mehnat tarbiyasiga doir metodlar yuzasidan fikr yuritgan, yalqovlik, ishyoqmaslikni qoralagan, mehnat bolalarning yoshiga mos bo'lishi zarurligini qayd etgan. Mehnat tarbiyasida bajariladigan ishning natijalarini bolalar oldindan bilish kerakligini, bu esa ularni mehnatga rag'batlantirishini uqtirgan.

Sadriddin Ayniy maktabdagi mehnat tarbiyasi masalasiga ham alohida e'tibor bergan. «Qiz bola yoki Xolida» nomli asarida qo'l mehnati darslarining mazmunini ifodalagan. Uning o'zi Samarqand shahridagi I-maktabda ishlagan vaqtida mehnatga doir qiziqarli amaliy mashg'ulotlarni muntazam ravishda o'tkazgan. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, S.Ayniy soat 12 gacha maktabda, soat 12 dan keyin maktabning tajriba uchastkasida mashg'ulotlar olib borgan. Bu vaqtda bolalar mevali bog'larni parvarish qilishgan, gullar o'stirishgan. Shu jarayonda ustozning suhbatini ham tinglashgan.

Umuman aytganda, atoqli adib, zakovatli olim va donishmand ustod S.Ayniy madaniyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi. Uning yorqin qiyofasi va yozgan ajoyib asarlari kishilarni mehnatga, ijod zafarlariga da'vat etdi, yosh avlodning ta'lim va tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

### *Mustaqil ish*

S.Ayniyning «Tazhib us-sibyon» nomli asarini tahlil qiling.

## VIII BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIM FIDOYILARI

### Oqilxon Sharafiddinov — Boshlang'ich ta'lim jonkuyari

(1898—1970)

Oqilxon Sharafiddinov 1898-yilda Toshkentda o'rtahol dehqon oilasida tug'ildi. Uning otasi o'z davri, sharoitiga ko'ra har tomonlama bilimdon bo'lish kerakligini tushungan idrokli kishi edi. Shuning uchun o'g'li Oqilxonni mahalladagi maktabdor domla huzuriga yetaklab bordi va: «Taqsir, Oqilxon bugundan boshlab sizning farzandingiz, eti sizniki, suyagi bizniki», — deya unga topshirdi. Yosh Oqilxon o'sha eski maktabda boshqa bolalar qatori bir necha yil o'qib, ko'p qiyinchiliklar bilan zo'rg'a o'qish va yozishni o'rganib oldi. Shundan so'ng o'z bilimini oshirish niyatida Xo'ja Ahror madrasasiga borib o'qidi.

Otaxon murabbiy Oqilxon aka ko'p yillar mobaynida bilimga chanqoq bolalar bilan ishladi. Aniqrog'i, bir necha o'n yil davomida yosh qalb egalariga «Alifbe» o'qitib, xat-savod o'rgatib, ilm-ma'rifatdan kengroq bahramand bo'lish, hayotni to'g'ri va chuqur anglashga qimmatli yo'llanma berdi. Ularga insonning fazilati, hayotning go'zalligi, ilm, madaniyat, mehnat, fan va texnikaning qudrati, mehnat kishilarining qahramonligi va hokazolar haqida so'zlab, chuqur ma'naviy ta'sir ko'rsatdi.

Sinfdagi quvnoq, ozoda kiyingan, odobli, intizomli, o'z murabbiylariga ko'z tikib o'tirgan o'g'il-qizlar, ularning zo'r umid va ishonch to'la ko'zlari Oqilxon aka keksayib qolganida ham unga yangidan-yangi kuch-quvvat, g'ayrat, navqironlik baxsh etgan. Sinfdagi bunday jo'shqin hayot, o'qituvchining sof vijdoni, o'tkir pedagogik va psixologik didi, o'quvchilarning ichki dunyosini, ruhini yaxshi bilishi va chuqur insonparvarlik bilan sug'orilgan muomalasi, talabchanligi, mehribonligi har qanday shogirdni o'ziga maftun etmay qolmaydi. O'qituvchi-

tarbiyachiga zo'r hurmat ham ana shunday sinfda vujudga keladi. Bunga Oqilxon akaning faoliyati yaqqol misoldir. Uning o'quvchilari har kuni mehribon murabbiy o'rgatgan qimmatli so'z, tushuncha taassurotlari nash'asi bilan uylariga qaytardilar.

Oqilxon Sharafiddinov uzoq yillar asosan birinchi sinflarni o'qitdi, chunki u o'quv yoshiga yetib maktabga kelgan bolalarga ilk bor ta'lim-tarbiya berishni sevar edi. «Maktabga yangi kelib, birinchi sinf partasida o'tirgan quvnoq bolalar bilan shug'ullanish meni cheksiz quvontiradi. Ularning avji nihollik payti, qaysi tomonga yo'llasang, shu tomonga egiladigan vaqti. Ular qalam tutish, xat yozish, kitob o'qishni dastlab birinchi sinfda o'rganadilar, odob-axloq to'g'risida tushuncha oladilar, ilk mehnat malakasini hosil qiladilar, jamiyat uchun foydali kishilar bo'lib yetishish yo'llarini o'rganadilar», degan edi.

Darslarni har tomonlama to'g'ri tashkil qilish, uning yuqori saviyada, o'quvchilar uchun tushunarli, ta'sirchan, foydali, maqsadga muvofiq bo'lishi, avvalo, o'qituvchining puxta tayyorlanishiga bog'liqdir. Shuning uchun Oqilxon aka ko'p yillik, juda boy tajribaga ega bo'lishiga qaramay, kundalik darslarga atroflicha tayyorlanardi. Uning darslari o'quvchilarda mehnatsevarlikni tarbiyalash, ularda ijtimoiy foydali mehnatga ishtiyoq va havasni kuchaytirish bilan mustahkam bog'lanardi. Chunki u tajribali o'qituvchi sifatida yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyatini juda yaxshi tushunardi. Barcha moddiy va ma'naviy boylıklar manbai mehnat ekanini, mehnat kishilarni aqliy, axloqiy va jismoniy tomondan tarbiyalashning kuchli vositasi, kishilarning qadr-qimmati, or-nomusi, yuksak ma'naviy go'zalligining belgisi ekanini, yoshlarda mehnatsevarlikni tarbiyalashga doimo e'tibor berish — ularga chinakam murabbiy bo'lishning eng muhim sharti ekanini yaxshi bilar edi.

«O'qituvchining birinchi sinfda mehnat tarbiyasiga e'tibor berishi, — degan edi Oqilxon aka, — maktabga kelgan bolaning oiladagi ilk mehnat ko'nikmasini takomillashtiradi, unda nazariy bilimlarni turmushga tatbiq qila olishni, mehnatga ongli munosabatning asoslarini tarkib toptiradi, mehnat ahliga hurmat, ijtimoiy foydali ishlarda ishtirok etishga havas uyg'otadi, uni aqliy, zehniy, jismoniy jihatdan o'stiradi. Shu bilan birga, mehnat tarbiyasi bolalarni o'qish-o'rganish, bilim

va hunarni havas bilan egallashga qiziqtiradi. Ularda darslarni to'liq o'zlashti-rish ishtiyoqini oshiradi, hayotda jamoatchilik, hamkorlik, do'stlik, o'z mas'uliyatini chuqur anglashni kuchaytiradi.

O'qish o'quvchilarning asosiy vazifasidir. Bu ishda o'quvchilar erishadigan barcha muvaffaqiyatlari ularning shu muhim vazifani bajarishga qanday munosabatda bo'lishlariga bog'liqdir. Menimcha, bu munosabat ijobiy bo'lishi uchun o'quvchilar o'rtasida mustahkam intizom, o'qishda onglilik va faollikni kuchaytirish kerak. Albatta, o'quvchilarda bunday xislatlar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Chinakam axloqning muhim jihatlaridan bo'lmish ma'naviy sifatlar maktab hayotida o'qituvchining tarbiyasi, g'amxo'rligida shakllanadi».

O'quvchilardagi ongli intizom, faollik va mustaqillik ularni o'qituvchi bergan bilim, tushunchalarni yaxshi idrok etishga, o'z saviyalariga yarasha xulosalar chiqarishga yo'laydi, shu bilan birga ularning o'qituvchi oldida faqat tinglovchigina bo'lib qolmay, masalani hal etishda faol qatnashuvida, mustaqil fikr yuritishida va tegishli xulosalar chiqarishida ham katta yordam beradi. Natijada o'quvchilar bilimning, o'qish-o'rganishning kishi hayoti, jamiyat uchun nihoyatda zarur va juda foydali ekanini chuqur his qiladigan bo'ladilar va shunday havas bilan bilim oladilar. Intizom, faollik va mustaqillik o'quvchilarning o'qishga ongli munosabatda bo'lishlarini hamda tezroq bilimdon, irodali, aniq maqsadni ko'zlovchi, har tomonlama qobiliyatli, tashabbuskor bo'lib ulg'ayishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun Oqilxon Sharafiddinov didaktikaning eng muhim va asosiy jihatlaridan biri o'qishga ongli munosabatda bo'lishga asoslanib, o'z o'quvchilarida intizom va faollik sifatlarini tarbiyalashga harakat qildi.

Mehnatsevar Oqilxon aka uzoq yillik pedagoglik faoliyati natijalari sifatida boshlang'ich maktablar uchun qimmatli darslik va metodik qo'llanmalar yaratdi. Uning I-sinflar uchun «Mehnat bolalari» (1930), «Bilim va mehnat» (1929), «Alifbe» (1938), «Chiroyli yozuv» (1941), «O'qish kitobi» (1944), «Kattalar alifbesi» (1939) ana shular jumlasidandir.

Maktabda ta'lim-tarbiya ishlarini g'oyat samarali olib borishdan tashqari, Oqilxon aka keng o'qituvchilar jamoatchiligiga juda katta yordam berdi. Umuman, Oqilxon Sharafiddinov Respublikamizda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shdi.

## Kiyimxona

Maktab karidoridan kiraverishda kiyimxona bor. Biz palto va kalishlarimizni yechib, kiyimxonaga topshiramiz. So'ngra issiq sinflarga kiramiz. Sinfda hammamiz bosh yalang holda yengil va ixcham bo'lib o'tiramiz. Dars tamom bo'lgandan keyin qatorlashib kiyimxona oldiga boramiz. Birin-ketin kiyimlarimizni olamiz. Tartib bilan kiyinib, uyimizga ketamiz.

*Ochilibdi har xil gul,  
-O'rtoqjon, ter, o'yna, kul!  
Bosmangiz gullarni, deb  
Daraxtda sayrar bulbul.  
Senda qancha quvonch bor,  
Salom senga, gul bahor!*

8 Mart — Xotin-qizlar kuni. Karima 8 mart kuni erta turdi. Ozoda kiyimlarini kiyib maktabga bordi. O'rtoqlari ham yaxshi kiyinib kelishgan edi. Qizlar bir-birlarini 8 mart kuni bilan tabriklashdi.

— Karima, bugun oyingni nima bilan tabriklaysan? — deb so'radi Nodira.

— Men oyijonimni olgan «5» baholarim bilan tabriklayman, — dedi Karima.

## Ota sovg'asi

Bugun Saodat odatdagidan ertaroq uyg'ondi. U yuz-qi'lini yuvib, boqqa kirdi. U yerda Muhiddin ota daraxtlarni parvarish qilmoqda edi.

— Ota, — dedi Saodat uyalinqirab, — menga bir tup oq va bir tup pushti atir gul ko'chati bering.

— Nima qilasan, qizim?

— Maktabimizda ko'chat o'tqazish boshlandi. O'rtoqlarim qatorida men ham gul ekib, maktabimizning hovlisini chiroyli qilmoqchiman.

Muhiddin ota xursand bo'ldi, qiziga turli xil gul ko'chatlaridan berdi. Saodat esa ularni olib, sevina-sevina maktabiga ketdi.



## Momaqaldiraq

Bahor yaqinlashishi bilan, yomg'ir ko'proq yog'a boshlaydi. Yomg'ir oldidan momaqaldiraq bo'ldi.

Ana osmonda avval sekin, so'ngra qattiq gulduragan ovozlar eshitila boshladi. Ovoz borgan sari kuchaydi. Osmon gumburlab ketdi. So'ng osmondan katta-katta yomg'ir tomchilari tusha boshladi.

Bir ozdan keyin momaqaldiraqning guldurashi eshitilmay qoldi.

Shundan so'ng yomg'ir ham to'xtadi, havo ochilib ketdi...

## G'AFUR G'ULOM

(1903—1966)

G'afur G'ulom milliy madaniyatimizning rivojlanishiga va gullab-yashnashiga munosib hissa qo'shgan ulkan shoirdir.

G'afur G'ulom 1903-yil 10-mayda Toshkent shahridagi Qo'rg'ontegi mahallasida tug'ildi. Mirza G'ulom va Toshbibi aya o'z bolasining savodxon bo'lishi uchun astoydil qayg'urdilar va yosh G'afurni mahalladagi eski maktabga o'qishga berdilar. G'afur tirishqoqligi, qobiliyatligi, bilimga chanqoqligi tufayli tezda savodini chiqardi. Albatta, uning savodli bo'lishida otasi, ayniqsa, buvisi (otasining onasi) Xayriniso otinning roli katta bo'ldi.

G'afurning baxtiga Qo'rg'ontegidagi Yetti machit maktabining o'qituvchisi Hasanboy donla ancha savodxon, taraqqiyparvar, bolalar shaxsini hurmat qiluvchi, ularga vijdonan savod o'rgatuvchi kishi edi. U bolalarga savodni «Haftiyak»dan tashqari, o'sha davrning ilg'or pedagoglaridan bir qanchasi o'z maktablarida qo'llab kelgan savod o'rgatish kitobi «Ustodi avval»dan dars bera boshladi.

G'afur o'z ustози A.Soyibboyevning maslahati bilan sakkiz oylik o'qituvchilar tayyorlov kursiga kirib o'qidi. G'afur 1919-yilning mart oyida Toshkent shahrining O'rdadagi boshlang'ich maktabida o'qituvchilik qila boshladi.

G'afur G'ulom 1920-yil 3-martda Bodak mahallasidagi maktabga o'qituvchi qilib tayinlandi. Bu maktabda ishlash bilan birga 1923-yili Degrez mahallasida Ziyo Said bilan birga savodsizlar uchun kechki kurs tashkil qildi.

1926-yilda G'afur G'ulom 3-bolalar uyiga mudir qilib tayinlandi, bir paytning o'zida u «Irfon» maktabining mudirligi vazifasini ham bajardi. Shunday qilib, u yoshlik yillaridayoq xalq maorifining mas'uliyatli sohalarida o'zining butun qobiliyatini, bilimini yosh avlodni tarbiyalash ishiga bag'ishladi.

O'zbekistonda bolalar uyini ochish va ularga boqimsiz bolalarni jalb qilishga birinchi navbatda ilg'or o'qituvchilar tortildi. Ana shu o'qituvchilar orasida G'afur G'ulom ham bor edi.

G'afur G'ulom 1924–25-yillarda Toshkent shahar maorif xodimlari qo'mitasiga kotib qilib saylandi. U bu mas'ul vazifani bajarish bilan birga, ikki maktab va bir internatda mudir va tarbiyachi ham edi.

Faoliyati o'qituvchilikdan, tarbiyachilikdan boshlangani uchun ham G'afur G'ulom bolalarni juda sevar edi. Keyinchalik u garchi o'qituvchilik faoliyatini she'riyat bilan almashtirgan bo'lsa-da, maktabni, bolalarni, ularning porloq kelajagini bir daqiqa ham unutmadi. U o'zining she'rlari, qissalari va hikoyalari bilan yoshlarimizni axloq-odob ruhida tarbiyalash ishiga juda ulkan hissa qo'shdi. Uning bolalarga bag'ishlangan ko'plab asarlari vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan edi.

## BILIB QO'YKI, SENI VATAN KUTADI

(Parcha)

Sen bu kun shod yurak bilan  
Sinov navbatini kutib turasan.  
A'lo mamlakatning a'lo farzandi  
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!  
Globusda bo'lgan har kichik nuqta  
Millionlab qondoshga Vatan albatta.  
Baxtiyor xalqimiz yashar abadiy,  
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!  
Jabrla masala qo'sh muammodir,  
Xuddi shunda bir ulug' qurilish jodir.  
Sen katta injener, ertami, indin  
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!

She'rlar, lirika, balki oddiy til —  
Xalqlarning tillari bir xil emas, bil!  
Diplomat bo'larsan, shu bu kun, endi,  
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!  
Fanlar ko'p, fanlar bor, o'rganishga kuch:  
Yerda yur, suvda suz, osmon uzra uch.  
Hammasidan a'lo, barchadan oldin,  
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!  
A'lo mamlakatning a'lo farzandi  
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!

### SEN YETIM EMASSAN

Sen yetim emassan,  
Tinchlan jigarim,  
Quyoshday mehribon.  
Vataning — onang.  
Zaminday vazminu,  
Mehnatkash, mushfiq,  
Istagan narsangni tayyorlaguvchi  
Xalq bor — otang bor,  
Cho'chima, jigarim,  
O'z uyingdasan,  
Bu yerda  
    na g'urbat,  
        na ofat,  
            na g'am,  
Bunda bor:  
    harorat,  
        muhabbat,  
            shafqat.  
Va mehnat nonini ko'ramiz baham.

### AVVAL O'QI

Kecha o'ninchini a'lo tugatding,  
Qo'lingda yetuklik guvoohnomasi.  
Ipak galstukka endi ijozat,  
Yigitga munosib, yigit jomasi.

Ovozing do'rillar, demak, bu uyda  
Ikkita erkakning sharpasi hokim...  
Onang bo'yginangga tasadduq bo'lib,  
Otang maqtanadi: tayanchim, ko'rkim.

Diplomsiz umrni umr ham dema,  
Ozgina bilganni, bilmadim deb bil...  
Olim o'g'il bilan otincha kelin,  
Bir ming to'qqiz yuz elliginchi yil.  
O'g'illar toleini tilab hamma,  
Otaning bilgani yaxshi duodir,  
Siz qancha donoroq g'olib bo'lsangiz,  
Ayni muddaomiz.— shu muddaodir.

### G'AYRATIY

(1905—1976)

G'ayratiy (Abdurahim Abdullayev) 1905-yilda Toshkentning Degrez mahallasida hunarmand oilasida tug'ildi. Abdurahimning otasi Abdulla aka o'qimishli kishi bo'lmasa ham, san'at va adabiyotni sevar, olim, san'atkor, shoir kishilar bilan yaqindan aloqada bo'lar edi. Shu bilan birga, u o'z o'g'lining ham ular singari savodxon, o'qimishli, fozil kishi bo'lishini istar edi.

1912-yilda o'g'li Abdurahimni «G'ishtmachit» mahallasidagi boshlang'ich yangi usul maktabiga o'qishga beradi. Yosh Abdurahim bu maktabda uch yil o'qib, uni muvaffaqiyatli tugallaydi.

Abdurahim birinchilardan bo'lib, G'afur G'ulom bilan birgalikda o'qituvchilar kursiga yozildi. Juda og'ir sharoitlarga qaramay, 1919-yilda bu kursni tamomlagach, Ko'kcha dahasi mahallasidagi 16-xalq maktabida o'qituvchilik qilishga kirishdi. G'ayratiy yosh nasllarni bilimli, ongli, mehnatsevar, jasur, tirishqoq kishilar qilib tarbiyalashdek sharaflı ishni bajarishda astoydil mahnat qildi. U maktabda ishlash bilan birga «Degrez» mahallasidagi madrasa o'rnida kechki ishchi yoshlar kursi tashkil etishda faol qatnashdi va u yerda ham ta'lim-tarbiya ishlarini olib bordi.

G'ayratiy 1928-yilda Samarqandga borib, o'qituvchilik qilish bilan bir qatorda, yozuvchi sifatida ham tanila boshladi.

Bu yillarda uning bolalar tarbiyasiga oid qator she'r, hikoya va povestlari maydonga keladi.

Kasbi tarbiyachi bo'lganidan u uzoq yillar davomida Ostrovskiy nomidagi pionerlar saroyi va madaniyat uyi qoshidagi adabiy to'garakka rahbarlik qildi.

G'ayratiy o'zining jo'shqin she'rlari, sermazmun hikoya va povestlari orqali bolalarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shdi. G'ayratiy domla bolalarning mehribon tarbiyachisi, ustoz bo'libgina qolmay, haqiqiy do'sti ham edi. Uning bolalarga atab yozgan tarbiyaviy mavzudagi hikoyalari: «Payvand», «Qizil bayroqcha», «Maktab sahnasi», «Hamzaning bolaligi» va boshqalardir.

### O'QITUVCHIMGA

O'qituvchi mehribon ustoz,  
Hech tuganmas Sizga hurmatim.  
Ma'rifatning nur quchog'idan  
Mangu topdim baxt-saodatim.  
Bolalagim ilk bahorida  
Siz berdingiz qo'linga qalam.  
Bir qalamki, mazmuni tiyrak,  
Unda hayot, erkin mehnat ham.  
Kamolotning pog'onasiga  
Boshladingiz ko'rsatib oq yo'l,  
Minnatdorman, ustoz, umrbod,  
Hurmatlaydi Sizni yosh ko'ngil.

### MEHRIBON

... Qorong'u tunda qishloqning o'nqir-cho'nqir yo'llaridan otni yeldirib boryapmiz. Parpi aka churq etmas, butun fikri-xayoli dadamda edi. Vaqt yarim kechadan o'tganda uzoqdan qo'shchi ittifoqning oppoq binosi ko'rindi. Eshik oldida junjib o'tirgan qorovul bizni ko'rib o'rnidan turdi. Nima uchun kelganimizni so'rab, Yo'ldosh akaning uyiga boshlamoqchi bo'ldi.

— O'zim ko'rganman, ovora bo'lmang, amaki, — dedim.

— Unday bo'lsa, boraveringlar, yaqindagina majlisni tugatib, uyga ketgan edilar, — dedi qorovul.

... Bizdan bo'lib o'tgan voqeani eshitib, tezlik bilan uydan otni olib chiqdi-da, Parpi aka bilan yo'lga tushishdi. Men bo'lsam olis tunni tikanga ag'anagan kishiday arang o'tkazdim. Ertalab ham ulardan darak bo'lmadi. Noiloj qishloqqa qarab chopdim. Qanday qilib uyga yetib kelganimni bilmayman. Uzoqdan qarasam, eshigimiz oldida uch-to'rt kishi ma'yus turibdi. Yuragim urib ketdi. Eshikdan kirishim bilan oyim quchoqlab:

— Yetim bo'lib qolding, Mahmudjon bolam, — deb faryod ko'tardi.

Mol-mulkidan ayrilgan alamzada dushmanlar o'sha kuni dadam bechorani bo'g'izlab, tegirmon boshidagi zovurga tashlab ketgan ekan.

... 1926-yilning jazirama yozi edi.

O'rtoqlarim bilan maktab bog'idagi ekin-tikin ishlariga qarashib yurgan edim. Qayum aka kelib, meni chaqirdi.

— Labbay? — dedim o'qituvchimga qarab.

— Tez bo'l, bet-qo'lingni yuvib, men bilan birga yur.

— Qayoqqa? — dedim taajjulanib.

— Seni bir katta odam chaqirayapti.

— Kim ekan u?

— Prezidentimiz Yo'ldosh Oxunboboyev, — dedi o'qituvchi... otaga salom berib, gulni uzatdim. Ota ham mehr bilan boshimni siladi. O'qishim, ahvolimni so'ragach:

— Mahmudjon Zokirjonovga oliy maktabni tugatguncha hukumat moddiy yordam berib turadigan bo'ldi, — dedi. Bu mehribon kishining samimiy iltifotiga, hukumatimiz ko'rsatgan g'amxo'rlikiga yurakdan tashakkur bildirdim.

## IMOMXON HUSANXO'JAYEV

(1905—1971)

Pedagogika ilmining zabardast olimi, pedagogika fanlari nomzodi, dostent, boshlang'ich maktab asoschilaridan biri Imomxon Husanxo'jayevdir. U Toshkent shahridagi qadimiy usuliya, so'ngra rus-tuzem maktablarida ta'lim oldi. 1921 yili o'lka erlar oliygohiga o'qishga kirib, 1925 yili tugatdi. Imomxon aka 1925-yildan boshlab «Urfon» nomli boshlang'ich maktabda o'qituvchi bo'lib ishladi.

Boshlang'ich sinflarda ishlagan davrida Imomxon aka shunday hikoya qilgan edi:

«Men juda yosh edim. O'qituvchi qilib tayinlandim. Yupungina kiyimda bo'lganim uchun kiyimlarimni ehtiyot qilar erdim. Bittagina kalishim borligi tufayli maktab eshigigacha uni qo'ltig'imga solib, oyoq yalang borar erdim. Maktab eshigiga yaqinlashgach kalish kiyib, sinf xonasiga kirib, bolalarga saboq berar edim». Anchagina mashaqqat tortgan Imomxon aka o'qituvchilik faoliyatini shunday boshlagan edi.

Imomxon aka Turkistonda savodsizlikni tugatish uchun kurashgan darg'alardan biri edi. U dastlabki Turkiston maktablari uchun darslik va qo'llanmalar yaratgan edi. Uning yozgan asarlari ichida «O'smir» (O'smirlar maktabining birinchi o'quv yili uchun) «Sotsializm yo'lidan» (chalasavodlilar maktabi uchun), «O'qish kitobi» darsligi (chalasavod kattalarning boshlang'ich maktabi uchun), «O'qish kitobi» (boshlang'ich maktabning birinchi sinfi uchun), «O'qish kitobi» (2-sinf uchun), «Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya haqida» (monografiya), «Pedagogika» darsliklari ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Imomxon akaning faoliyati ko'p qirralidir. U o'qituvchilik bilan birga ilmiy tadqiqotlar ham olib bordi. Uning rahbarligida 5 ta nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan.

Ustoz umrining oxirigacha Nizomiy nomidagi Toshkent oliy bilimgo'hrining boshlang'ich ta'lim kafedrasiga boshchilik qildi.

Olimning ijodiy-pedagogik faoliyati, yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazganligi hisobga olinib, unga «Jumhuriyatda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi», «Xalq maorifi a'lochisi» nishoni, bir qator medallar, faxriy yorliqlar berilgan. Quyida uning kitoblaridan ayrim parchalar o'qiysiz.

## **O'QISH KITABI**

*(Boshlang'ich maktablarning 1-sinfi uchun, 1958-yil)*

## **MEHRIBON BOLA**

Dam olish kuni edi. Bolalar dam olish uchun dalaga chiqmoqchi edilar. Hammalari yig'ildilar. Ammo Tursun kelmagan edi.

O'rtoblari Tursunni ko'p kutdilar, daragi bo'lmadi. Uning uyiga To'xtani yubordilar.

To'xta Tursunning uyiga keldi.

— Tursun, yur, o'ynab kelamiz, — dedi.

— Yo'q, o'rtobqon, bugun men o'ynamayman, onam uyda kasal yotibdi. Mendan boshqa kishi yo'q. Men ketsam onamga kim qaraydi? — dedi.

## CHOL VA BOLALAR

Bir qari kishi qo'lida ikki chelak suv ko'tarib kelar edi. Yo'lda charchadi. Butun gavdasi titradi. Yo'l ustiga yiqilib, qo'ldan chelaklari tushib suvlari to'kildi.

Ko'chaning narigi tomonidan kelayotgan bir to'da bolalar cholni ko'tarib, achindilar, tezgina yordam qildilar. Tuyg'un bilan Odil cholni qo'litiqlab, uyigacha olib bordi.

Karim chelaklarga suv to'ldirdi va cholning uyiga eltib berdi. Chol dam olib, ko'zlarini ochdi va bolalarga ham, ularning ota-onalariga ham rahmat aytdi.

## BIR VA IKKI

— Nima uchun bizning og'zimiz bitta-yu, qulog'imiz ikkita?

— Ko'p tinglash va kam gapirish uchun.

— Nima uchun og'zimiz bitta, ko'zimiz ikkita?

— Ikki ko'z bilan ko'rib, ikki o'ylab, bir gapirish uchun.

— Nima uchun bizning og'zimiz bitta-yu, qo'limiz ikkita?

— Ikki qo'l ishlash uchun, bir og'iz yeyish uchundir.

Bolalar, boshqa a'zolarining ham vazifasini aytib bering.

## O'QISH KITABI

(2-sinf)

## ODOBLI BO'LING

O'zingizdan kattalarga yo'l bering. Ularga tramvay, avtobus va boshqa joylarda o'rin bering.



Yoningizdagi kishining biror narsasi yerga tushib ketsa, uni darhol olib bering.

Odamlar oldida uyda taltayib yotmang, stul, divanda yastanib o'tirmang, qo'lni orqaga qilib yoki cho'ntakka tiqib kekkayib turmang.

Xushmuomala bo'ling. Baqirib, jerkib, qo'lni paxsa qilib yoki birovni qo'l bilan ko'rsatib so'zlashmang, qo'rslik qilmang.

Har kun ertalab ota-onangizga, aka, opalaringizga salom bering. O'zingizdan kattalarni ko'rganingizda albatta salom bering.

Kattalarning gapiga aralashmang, kattalar qo'l uzatsagina ular bilan qo'l berib ko'rishing. «Marhamat», «rahmat», «ruxsat eting», «iltimos qilaman», «kechirasiz», «uzr» kabi so'zlarning qachon aytilishini bilib oling.

Kattalar chaqirganda «labbay» deb javob bering.

Yomon, uyat gaplarni aytmang. Oqsoq, g'ilay, soqov va boshqa shu kabi kamchiligi bo'lgan kishilarni masxara qilmang, boshqalarga laqab qo'ymang.

## O'ZINGIZNI O'ZINGIZ EPLANG

Uyda o'zingizga kerakli ishlarni o'zingiz bajaring. Uyqudan turganingizdan keyin o'rningizni o'zingiz yig'ing. Botinka va kalishingizni o'zingiz tozalang. Tugmangiz uzilsa, qadab oling. Dastro'mol va paypoqlaringizni o'zingiz yuving.

Kechqurun ustki kiyimlaringizni cho'tkalab, tegishli joyga ilib yoki taxlab qo'yishga odatlaning. Kerakli narsalaringiz har yerda sochilib yotmasin — o'z joyida tursin.

Uy ishlarida: uyni va undagi jihozlarning changini artishda, hovlini supurish-sidirishda, ukalaringizga qarashda ota-onangizga yordam bering.

Dars tayyorlab bo'lgandan keyin o'quv qurollaringizni yig'ishtirib qo'ying.

## ALISHER NAVOIY TA'LIM-TARBIYA HAQIDA

(Parcha)

... O'zbek adabiyoti, madaniyati tarixida katta o'rin olgan, o'zbek xalqining donishmand shoiri va olimi Alisher Navoiyning ta'lim-tarbiya haqida ajoyib fikr va mulohazalari bor, ularni

ilmiy asosda sinchiklab o'rganish O'zbekiston pedagogika tarixiga qimmatbaho xazina qo'shadi. Navoiy shoirgina emas, balki har tomonlama bilimli donishmand olim ham edi. U o'z zamonasida ilm-fanning otashin jarchisi edi. U yoshlarning g'amxo'ri, mehribon va samimiy murabbiysi edi. Ana shuning uchun ham bu donishmand olim, mutafakkirning deyarli barcha asarlarida ta'lim va tarbiyaga doir ajoyib fikrlar bor. Uning ta'lim va tarbiya haqidagi merosi, adabiyot sohasidagi merosi kabi, g'oyat katta ahamiyatga ega. Shoirning asarlari bir qancha yuz yillardan beri deyarli har bir oilaning tokchasida o'ziga faxriy o'rin egallab keldi, xalqning qo'lidan tushmadi, maktablarda darslik xizmatini o'tadi, g'azallari ashula qilib kuylandi. Ana shularning o'zi Navoiy asarlarining tarbiyaviy kuchi qanchalik katta ekanligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy o'zining ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlarini ifodalashda ilg'or pozitsiyada, insonparvarlik va xalqparvarlik pozitsiyasida turdi.

Alisher Navoiyning ta'lim-tarbiya va ma'rifatga oid fikrlarini o'rganish natijasida biz uning asarlarida tarbiya ideali g'oyat izchil bayon etilganligini ko'ramiz. Shuning uchun ham uning eng yaxshi insoniy fazilatlar haqidagi fikrlari, ta'lim va tarbiya metodlari haqidagi fikrlari o'z davriga ko'ra ilg'or fikrlardir. Ammo, Navoiyning falsafiy, ilmiy-adabiy va ta'lim-tarbiyaviy qarashlarini o'rganganda uning o'z zamonasi farzandi ekanligini, nazariyalarning sinfiy cheklanganligini, u davrda mehnatkash va xalq ommasining ayovsiz ekspluatasiya qilinishining, zulmatga mahkum etilganligining ildizi feodalizm tuzumida ekanligi Navoiyning xayoliga ham kelmaganligini, uning hamma adolatsizliklarni noinsof kishilarning o'zboshimchalik qilish oqibati deb tushunganligini, beistisno hammani — feodallarni ham, xonlarni ham, ruhoniylarni ham, kambag'allarni ham totuvlikka, yaxshilikka, adolatga da'vat qilganligini unutmaslik kerak.

Alisher Navoiy maktabdor yoki mudarris bo'lib dars bergan bo'lmasa ham, lekin ta'lim-tarbiya ishida juda katta xizmatlar qildi. U juda ko'p kishilarni tarbiyalab yetkazdi...

Navoiy olimlarga boshchilik qilar, ularning ilmiy ishlar olib borishiga yordam berar va doimiy ravishda ilm ahllari bilan ilmiy o'tirishlar qilib turar edi.

Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostoni, «O'n birinchi maqolati»ning sarlavhasida ilmning ahamiyatiga g'oyat yuqori baho berib, ilm so'zini mana bunday sharhlaydi:

«Ilm sehrining baland axtarlig'idakim, johil tunin yoritmoq uchun (ayn) i quyoshdan, (lom) i oydin va (mim) kunduzdin nishona aytur.

Arabchadan (ayn) ning bir ma'nosi — quyosh, lom (J) ning bir ma'nosi — oy demakdir, lom (J) ning shakli oyga o'xshaydi va abjad hisobi bilan «o'ttiz»ni bildiradi, ya'ni «bir oy» demakdur. Mimning ma'nosi — kunduz demakdir». Ravshanki, Navoiy ilmni quyosh, oy va kunduzga o'xshatadi.

Navoiy aql, ilm — insonning eng go'zal va zaruriy fazilatlaridan biridir, shuning uchun har bir insonning eng muhim burchi — ilm olishdir deb hisoblaydi.

Navoiy fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab o'qish-o'rganish kerak. Yoshligidan boshlab o'qishga mayl qo'yan va harakat qilgan odamgina ilmni to'la-to'kis egallay oladi.

Chunki bolalar kichik yoshdan boshlab o'qimoq va o'rganmoqqa moyil bo'ladilar va tez fursatda ko'p narsani o'rganadilar.

Shuning uchun har bir ota va ona o'z farzandini yoshlikdan boshlab maktabga berib o'qitishi, unga ta'lim berishi zarur. Uningcha, farzand «mehri anvar» (yorug' quyosh) dir.

Uyni yorug'lantirgan va obod qilgan bolani Navoiy «Chu farzand erur jonga payvand erur» deydi. Shuning uchun farzand ko'rgan har bir kishi — uni sevishi kerak.

... Navoiy farzandni har bir narsadan a'lo qo'yadi va sevadi.

... Kishining bolasi qanchalik yoqimsiz bo'lsa ham, o'ziga aziz ko'rinadi, boyqushning bolasi qanchalik xunuk va manhus bo'lishiga qaramay, o'z nazdida, tovus singari jilvalidir.

... Har bir oila farzand ko'rmog'i va uni tarbiyalab voyaga yetkazmog'i kerak. Farzand ota-onaning o'rinbosari. Farzand ko'rmak, uni tarbiyalab o'stirmak — har bir ota va har bir onaning burchidir.

Inson uchun kelajak avlodni yaratishdan, uni tarbiyalab, unga yozgan xatlarida ma'rifat masalalariga oid talablarni amalga oshirish zarurligini hamma vaqt uqtirar edi. U o'zining ana shunday xatlaridan birida bunday deb yozadi:

«Har masjidning imomiga tayin qilsalarkim, ul mahalla ahlining o'g'il ushog'iga maktab tutib nima o'qitsalar»...

Navoiy «Ixlosiya» madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun bir qadar sharoit yaratadi va maktabning xarajatlari hamda o'qituvchilar ta'minoti uchun o'z vaqfidan mablag' ajratadi.

Bolalar maktabga qabul etilgach, o'qituvchi ularga savod o'rgatish maqsadida, dastavval, arab alifbesi yozilgan taxtani berar edi. Taxta Navoiy davrigacha, uning davrida, undan keyingi davrda va hatto, eski maktablar tugatilgan davrgacha savod o'rgatish uchun o'quv quroli bo'lib kelgan.

Navoiy «lavhu zabarjad» yoki «lavhu muzahhab» yoki «abjad toshi» deb atagan taxtachaga har bir maktabdor tomonidan qamish qalam bilan yirik qilib arab harflari tartib bilan yozilardi.

Navoiy iborasi bilan aytganimizda, «lavh uxra saboq nigor» qilinardi — taxtaga harflar yozib borilar edi.

Navoiy aytishicha, uning davrida maktablarda Qur'ondan tashqari yana fors shoiri Shayx Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlari ham o'qitilgan. U ustoz Jomiyning quyidagi fikrini eslaydi:

«Ko'nglimga xush bo'lgan bu vaqtlarda aziz farzandim Ziyovuddin Yusuf — arab tili muqaddimasi va adabiyoti fani qoidalarini o'zlashtirish bilan mashg'ul bo'ldi va sir emasdirki, ta'blariga oshno bo'lmagan va qulog'lariga notanish istilohlarni o'rganishda o'smir bolalar va tajribasiz go'daklarning qalbi vahshat va xotiralari dahshat g'ubori bilan qoplanadi, bu holda uning qalbini yumshatish va xotirasini o'tkirlashtirish uchun atoqli mutabarruk Shayx va buyuk ustoz Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning «Guliston» kitobidan bir necha satr o'qir edi. Bu asosda tabarruk va sharafli so'zlaridan bahra olib hamda latif she'rlariga ergashib, shu turda bir necha sahifa va shu uslubda bir necha bob bitish xotiramga keldi»...

... Navoiy bolalarga tarbiya va ta'lim beradigan kishi — ma'lumotli va o'qitish yo'llarini bilgan bo'lishi lozim deyar edi.

«O'z bilimlari bilan dunyomizda ayrim bir dunyo bo'lgan bir bilimdon hakimni keltirdilar. Uning fikri oldida falak jumboqlari echilaturg'on tabiiy, riyoziy ilmlar uning oldida boshdan-oyoq alif, be, te day ayon edi. U bu hikmatlarni Yunonda o'rgangan bo'lib, Arastu uning kichik bir shogirdicha edi».

Alisher Navoiy Qays va Laylining domlasini bunday ta'riflaydi: «U ustozning dars berishida shuhrati juda ketgan edi. U ajoyib kishi qabilada izzat-hurmatli bo'lib, har ishda qabila ahliga yordamlashuvchi ham edi.

Zo'r sha'ni-shavkatga ega martabasining yuksakligi ko'kka teng bir shaxs edi».

Demak, bulardan ko'rinadiki, bolalarga ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchilar bolalarga ilm, odob o'rgatish mahoratiga ega bo'lsinlar.

### KARIMA QOSIMOVA

O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi, Respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, professor Karima Qosimova 1928-yili dehqon oilasida tug'ildi. U to'rt yoshida otadan yetim qoldi, o'rta maktabni tugatib, 16 yoshidanoq ishlay boshladi.

Xalq maorifi xizmatida voyaga yetgan, butun umrini yosh avlodni bilimdon qilish uchun sarflashga ahd qilgan Karima opa butun O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha birinchi professordir.

Karima opaning mehnat faoliyati ko'p qirralidir. U avvalo Toshkent maktablarida til-adabiyot o'qituvchisi, ilmiy mudiri, direktor bo'lib ishlab, xalq maorifini chuqur o'rgandi va uni yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shdi.

Karima opa kunduzi ishchilash bilan birga, o'z bilimini oshirish ustida tinmay mehnat qildi hamda Nizomiy nomli pedagogika bilimohining fizika-matematika kulliyotlarini muvaffaqiyatli tugatdi.

Olima mehnat faoliyatining olmos qirrasini — uning metodist olimligidir. U 1967-yilda «Boshlang'ich sinf ona tili darslarida lug'at ishlari» mavzusi-da ilmiy ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, fan nomzodi bo'ldi. O'z sohasining zahmatkashi bo'lgan olim 100 ga yaqin ilmiy va metodik asarlar yaratdi. Bular orasida «Boshlang'ich sinfda ona tili o'qitish metodikasi», «O'zbek tili», «Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlar ustida ishlash», «Beshinchi sinf ona tili darslarida lug'at ishlari», «Birinchi sinf ona tili darsligi», «To'rtinchi sinf ona tili darslari» kitoblari, bir qator jadval va ularga doir metodik qo'llanmalar, dasturlar hamda rus maktablari uchun o'zbek tilidan darsliklar shular jumlasidandir.

Karima opa 1968-yilda boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri, 1974–76-yillarda pedagogika va psixologiya kulliyoti dekani lavozimlarida ishladi.

Jumhuriyatimiz maktablari ta'limning yangi tizimiga o'tayotgan davrda ona tilidan yangi dastur va darsliklar yozib, tajribadan o'tkazdi.

Karima opa oliy bilimgo'h talabalari o'rtasida ona tili va uni o'qitish metodikasidan o'tkazayotgan ma'ruzalari o'zining sermazzmunligi va barkamolligi bilan ajralib turadi. Olimaning faoliyatiga xos yorqin qirralardan biri uning jumhuriyatimiz metodist olimlariga boshchilik qilayotganligidir.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA IMLOSI QIYIN SO'ZLAR USTIDA ISHLASH

(Parcha)

Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash o'quvchilarning orfografik savodxonligini oshiradi, ularning nutqini o'stirishga yordam beradi. Shuning uchun maktabda lug'at ustida ishlash birinchi sinfdayoq boshlanadi va bu ish yuqori sinflarning hammasida davom ettiriladi...

Boshlang'ich maktab ona tili dasturida imlosi qiyin so'zlar ustida ishlash haqida berilgan ko'rsatmada shunday deyiladi:

«Til o'qitish faqat grammatik qoidalarni o'rganishdan iborat bo'lmasligi, balki lug'atga doir aniq so'zlarning imlosini amaliy o'zlashtirishga, ulardan to'la foydalanishga qaratilishi lozim».

Ona tili dasturida imlosi qiyin so'zlar quyidagi talablarga ko'ra berilgan:

1. To'g'ri yozilishini orfografik qoidalar bilan izohlash mumkin bo'lmagan, faqat imlo lug'atidan foydalanib o'rganiladigan so'zlar: a) aytilishi bilan yozilishida farq qiladigan so'zlar: davlat, bahs, bahor, havo... b) shevalarda har xil aytiladigan so'zlar: ahvol, sochiq, yomg'ir...

2. Shu sinflarda o'rganilishi juda zarur bo'lgan, ammo imlosini izohlash qiyin bo'lgan so'zlar: Toshkent, xursand, daraxt...

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bunday so'zlarning imlosini tushuntirib bera olmaydilar, lekin o'zlarining nutqlarida ko'p ishlatadilar. Shuning uchun bunday so'zlarning imlosini boshlang'ich maktablardayoq amaliy o'zlashtirish talab qilinadi.

O'qituvchi o'quv yili boshlanishi oldidan o'zi o'qitadigan sinf dasturini, shu sinfning barcha darsliklarini, chunonchi, «O'zbek tili darsligi», «O'qish kitobi»ni sinchiklab o'rganib

chiqadi. Bunda o'qituvchi dastur materialini o'rganish bilan birga, shu sinfda yil davomida o'zlashtirib olinadigan imlosi qiyin so'zlarni hisobga olib, ayrimlarini daftarga qayd qilib boradi. Bunda har haftada ikkita yoki uchta so'zni o'rgatish nazarda tutiladi.

Imlosi qiyin so'zlarni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini tekshirganda, oldingi haftada o'rganilgan so'zlar bilan bir qatorda ilgari o'rganilgan so'zlarni ham hisobga olish o'quvchilarni lug'at daftariga yozdirilgan hamma so'zlarni doimiy takrorlab turishga majbur etadi, takrorlash esa shu so'zlarning yozilishini puxta o'zlashtirishga yordam beradi.

Birinchi sinfda qancha so'z o'rganilsa, shuncha kartochkalar bo'ladi.

	1-seriya		№ 3
	№ 1		Aprelda havo isiydi
	Aprel		Aprel-da
Aprel	– to'rtinchi oy		
	Aprel		
	№ 2		№4
	Aprel		Aprelda qushlar uchib
Aprel	– bahor oyi		keladi
	Aprel		Aprel-da
	2-seriya		№3
	№ 1		Biz «4» va «5»
	Baho		baholar bilan o'qiyimiz
Ra'no	«5» baho oldi		Ba-ho-lar
	Ba-ho		
	№ 2		№ 4
	Baho		Sinfimizda «2» baholilar yo'q
«5» baho,	eng yuqori baho		Ba-ho-li-lar
	Ba-ho		

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI**

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi amaliy fan sifatida uch vazifani bajaradi:

1. «Nimani o'qitish kerak?» savoliga javob tayyorlaydi. Demak, ta'lim mazmunini, ya'ni boshlang'ich sinflar ona tili kursining dasturini belgilab beradi, o'quvchilar uchun darsliklar va turli o'quv qo'llanmalari yaratib beradi, ularni doimiy takomillashtirib, muvofiqligi va samaradorligini tekshirib boradi;

2. Qanday o'qitish kerak? Ta'lim berishning metodlari, metodik usullari, mashqlar tizimi, u yoki bu qo'llanmani tatbiq etish tavsiyanomalarini, o'quvchilar amaliy ishlarining izchillik sistemasini, dars va uning turklarini ishlab beradi;

3. Nega xuddi mana shunday o'qitish kerak? Bunday ilmiy nuqtai nazardan eng foydali metodlarni o'rganish, tanlangan metodlarni asoslash, tavsiyalarni eksperimental tekshirish...

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasining asosiy bo'limlari quyidagilardir.

Savod o'rgatish metodikasi, ya'ni elementlar yozish va o'qishga o'rgatish... O'qish metodikasi. Boshlang'ich sinflarda o'qish predmetining vazifasi birinchi navbatda bolalarni tez (me'yorida), to'g'ri, ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi. *Grammatika va imlo metodikasi*. Bu bo'lim elementar to'g'ri yozuvga va husnixatga o'rgatishni, grammatik tushunchalarni, boshlang'ich imlo malakalarini o'z ichiga oladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish metodikasi. Bu bo'lim boshlang'ich sinflarda alohida o'rin tutadi. Bolalar birinchi marta tilni, nutqni o'quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o'ylab, rejalashtirib nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar, ular o'zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham og'zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni egallaydilar.

Ona tilini o'qitish metodikasi umumiy pedagogika bilan o'zaro bog'lanadi. Pedagogika fani bolalarni har taraflama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab chiqadi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergan ma'lumotlariga asoslanadi.

Bilimlarni o'zlashtirishda didaktik talablardan biri, bilimlarni o'quvchilar qanday o'zlashtirganini muntazam tekshirib va baholab borish hisoblanadi. Tekshirish —



o'quvchilarning bilim sifatlarini, shakllantirilgan malakalardan qanchalik foydalanishni aniqlashni ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalar og'zaki va yozma ravishda tekshirilsa-da, bunga umumiy baho qo'yiladi. Bunda o'quvchilarning grammatik aniqlik, imlo qoidalarini bilishlari, so'zni va gapni tahlil qila olishlari, bilimni yozma nutqqa (diktant, bayon, inshoga) tatbiq eta olishlari hisobga olinadi. O'quvchilar yozma ishlarni qanday bajarganliklari muntazam tekshirilib boriladi.

Ona tilidan yozma tekshirish uchun asosan diktant, bayon, inshoga, shuningdek, grammatik so'z yasashga oid, leksik va imloga doir topshiriqlarni bajarish, kontrol ish yozishdan foydalaniladi. Yakunlovchi tekshirish uchun chorakda bir marta nazorat ishi o'tkaziladi: I-sinfda o'quv yili davomida uch marta topshiriqli kontrol diktant; II va III-sinflarga to'rt marta topshiriqli kontrol diktant, to'rt marta bayon o'tkaziladi. Tekshirish ishlarining hajmi quyidagicha bo'ladi (so'z hisobida):

	1-sinf	2-sinf	3-sinf
D'ktant	20-25	45-50	50-65
O'quv yilining yarmida	30-40	55-60	70-80
Bayon yarmida	30-40	45-60	70-80

---

## IX BOB. CHET ELDAGI ILG'OR PEDAGOGIK G'OYA NAMOYANDALARI

### Yan Amos Komenskiy

Chex bo'lgan mashhur donishmand, insonparvar pedagog Yan Amos Komenskiy bashariyat tarixida demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida o'rin oldi. U o'zining ongli hayotini va amaliy-pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarini xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalashdek olibanob ishga bag'ishladi. Yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash haqidagi fan pedagogikaning vazifalarini anglabgina qolmay, balki pedagogika ilmining poydevorini ham qurdi, uning keyingi rivojlanish yo'llarini ham ko'rsatib berdi.

Komenskiy Moraviyadagi «Chex qardoshlari» jamoasiga taalluqli bir oilada tug'ildi. Lotin maktabini tugatdi. Germaniyadagi Garibaris va Geydelberg universitetlarida ta'lim oldi.

Komenskiy dunyoqarashining ko'p xususiyatlari — hayotni sevish, insonparvarlik va hokazolar o'z davri ta'sirida vujudga keldi. Uning fikricha, inson tabiatning eng go'zal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin, uning xotirasi hamma narsani qamrab oladi, tiklaydi, lekin hech qachon to'lib-toshib ketmaydi.

Komenskiy tarbiya haqida fikr yuritishda induktiv metodga asoslangan, ya'ni tajribaga tayangan faktlardan xulosalar chiqargan.

Komenskiy o'z asarlaridagi pedagogik g'oyalari bilan sxolastikaga qattiq zarba bergan. Biroq bilishning manbai ilohiy kitoblardir deb hisoblagan. U maktab bolani ma'rifat olamiga boshlaganida, uni hissiy bilishga, so'ngra esa, aqliy bilishga o'rgatishi lozimligini, bunday o'qitish jarayonini hissiy idrokdan boshlash kerak, — degan materialistik talabni ilgari surgan.

Komenskiy «Buyuk didaktika», «Tillar va barcha fanlarning ochiq eshigi», «Fizika», «Falakiyot», «Onalar maktabi», «Lotin tili muqaddimasi», «Tillarning eng yangi metodi», «O'yin —

maktab», «Hislar bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari», «Tinchlik farishtasi» kabi asarlarida o'zining muhim pedagogik g'oyalarini ifodalagan.

«Buyuk didaktika» jahon pedagogikasining nodir asarlaridan biridir. Unda ta'lim nazariyasiga doir fikrlar bilan birga maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalash usullari ham bayon etilgan. Barcha o'g'il va qizlarga ta'lim berish uchun maktablar ochish, bolalarni o'z ona tilida o'qitish, tarbiyalash, amaliy hayotga, turmushga tayyorlash, xususiy metodikalarni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, shart-sharoitlari, imkoniyatlari va amaliy ahamiyati ham keng o'rin olgan.

«Buyuk didaktika» chex tilida yozilib, uning «Buyuk didaktika» deb atalishi ham tasodifiy emas; kitob unda tilga olingan va hal etilgan masalalarning ko'lami hamda ahamiyati jihatdan buyuk mumtoz asardir.

Komenskiy umrining so'nggi yillarini xalqlar o'rtasida tinchlik o'rnatish uchun xizmat qilishga bag'ishladi. U 1667-yilda o'zining «Tinchlik farishtasi» nomli asarini yozdi. Unda davlatlar o'rtasida xayrixohlik va tinchlik bo'lishi zarurligini bayon qildi va bunga erishishning muhim omillarini tavsiya etdi.

Komenskiy 1670-yilda vafot etgan.

Komenskiyning ijodi pedagogika fanining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Xususan, uning «Buyuk didaktika» nomli asari jahon tillariga, shu jumladan, pedagogika fanlari doktori, professor M. Ochilov tomonidan o'zbek tiliga ham tarjima qilinib nashr etildi (1975).

Komenskiy, avvalo, «Birodarlik tashkiloti» qoshidagi maktab ta'limining mazmunini, bolalarning kamolot davrini asoslab bergan. Bolalarni xalqning donoligidan ibrat olgan holda o'qitish lozimligini ta'kidlagan. Uning uqtirishicha, yoshlarga ilm o'rgatish uchun maktabda ma'lum muddatni belgilash va bola ana shu muddatda (bir necha yilda) maktabni bitirishi, ma'lumotli, axloqli bo'lib chiqishi kerak. Bu davrda bola ilmlarni egallashi, o'z ruhiy layoqatlarini o'stirishi lozim. To'liq ma'lumot olish uchun kishining butun yoshlik davri (24 yoshigacha) talab qilinadi.

Ya. A. Komenskiy bolaning kamol topishini quyidagi davrlarga bo'ladi va shu davrga xos maktablarni ko'rsatadi.

## **Yan Amos Komenskiyning maktab tizimi va ta'lim mazmuni**

1. Go'daklik davri — ona maktabi.
2. Bolalik davri — boshlang'ich maktab yoki ona tili xalq maktabi.
3. O'smirlilik davri — lotin maktabi yoki gimnaziya.
4. Yetuklik davri — akademiya va sayohat.

Ona maktabi har bir oilada; ona tili xalq maktabi har bir jamoada, har bir qishloqda va aholi yashaydigan har bir joyda; gimnaziya har bir shaharda, akademiya esa har bir davlatda yoki kattaroq har bir viloyatda bo'lishi zarur.

«Bu maktablar, — deb yozadi Komenskiy, — tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qilsa ham, lekin ularning hammasida ayni bir xil material o'qitilishini, faqat o'rgatish usuli turlicha bo'lishini istaymiz, ya'ni yoshlarni haqiqiy inson qilib, xristianlarni haqiqiy xristian, donishmandlarni haqiqiy donishmand qilib yetishtiradigan material o'rgatilishi lozim, faqat u bolaning yoshi va tayyorgarlik darajasiga mos ravishda murakkablasha borsin. Biz tavsiya etayotgan tabiiy metod qonunlariga binoan, ya'ni daraxt bir joyda yuz yil turganda ham uning butun tanasi bu yil ham, kelasi yil ham baravar o'sib, yetila borgani singari, o'qitiladigan fanlarning birini ikkinchisidan ajratmaslik, balki hamma fanlarni birgalikda o'rgata borish zarur.

Onalik maktabida bolaning tashqi sezgilarini o'stirishga ko'proq e'tibor beriladi, chunki bola o'z atrofidagi narsalarni bilib, ular bilan to'g'ri muomala qilishni o'rganishi, ona tili maktabida ichki sezgilar, xayol va xotirani o'stirishga ko'proq e'tibor beriladi hamda o'qish, yozish, rasm solish, ashula aytish, hisoblash, uzunlik va og'irlik o'lchovlari kabilarni bajarish yo'li bilan qo'l va nutq mashqlari ko'proq o'tkaziladi; gimnaziya esa nima? nima uchun? kabi savollar yordamida o'rganiladigan dialektika, grammatika, aniq fanlar hamda san'at vositasida sezib, bilib olingan narsalar haqidagi tushuncha va fikrlar o'rganiladi. Nihoyat, akademiya irodaga oid xislatlarni, chunonchi, kishida garmoniyani saqlashga yordam beradigan qobiliyatlarni o'stirishga ko'proq e'tibor beriladi. Insonning ruhiga doir bunday xislatlarni ilohiyot o'rgatadi, aqlga doirlarni falsafa, tananing yashash funksiyalariga doirlarni tibbiyot, osoyishtalik va tartib-intizomga doirlarni pedagogika o'rgatadi.

Bu aqlni tezroq o'stirishning to'g'ri usulidir. Avvalo, tashqi sezgililar narsalarning o'zlari bilan olinadi, chunki narsalar bevosita sezgilarga ta'sir etadi. So'ngra, o'z navbatida, boshqalarga boshchilik qila oladigan kishilar bitirib chiqadi, shunday qilinsa, cherkov, maktab va ijtimoiy muassasalarga rahbar tanlashda tanqislikka aslo o'rin qolmaydi.

Komenskiy maktablarning to'rt turini yilning to'rt fasliga o'xshatgan. «Ona maktabi» xushbo'y o'simliklarning g'uncha va gullarga burkangan ajoyib bahomi eslatadi. «Ona tili» maktabi ayrim ertangi mevalar pishgan va yetilgan yozga o'xshaydi. Gimnaziya dalalar, bog' va terakzorlardagi mo'l hosilni yig'ib, uni aql xazinasiga joylayotgan kuz faslini eslatadi. Nihoyat, akademiya yig'ilgan hosilni umr bo'yi sarflashni mo'ljalab taqsimlayotgan qishdir. Ya.A.Komenskiy «Ona maktabi»da quyidagi fanlardan ma'lumot olishni tavsiya etgan:

1. Metafizikani umumiy tarzda bilib oladilar, chunki bolalar avvalo narsalarni umumiy va noaniq tarzda idrok etadi, ko'rgan, eshitgan, yeb ko'rgan, sezayotgan narsalarning barchasi mavjud ekanligini payqab oladi-yu, lekin, jumladan, ular nima ekanligini farqlay olmaydi va buni faqat keyinchalik sekin-asta tushuna boshlaydi.

2. Tabiatshunoslik (fizika) sohasida olti yoshli bo'lgan bolalar suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o't, qush, baliq, ho'kiz kabilarning nimaligini bilib olishi mumkin. Shuningdek, hech bo'lmasa o'z tanasidagi tashqi a'zolarining nomini va ishlatilishini bilishi kerak. Olti yoshgacha bularni bilib olish qiyin emas va bu tabiatshunoslikning asosini tashkil etadi.

3. Bola yorug'lik va qorong'ulikning farqini va nomini, shuningdek, soya, oq, qora va qizil kabi turli ranglarning farqini bilib oladi, bular optikaga doir bilimlarning negizini tashkil etadi. Osmon, Quyosh, Oy, yulduzlar nimaligini bilib olish va ular har kuni chiqishi va botishini payqash falakiyotga doir bilimlarning boshlang'ichidir.

4. Bola o'zi yashayotgan va tarbiya olayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog', vodiya, dala, daryo, qishloq, shahar, qal'a nima ekanligini bilib oladi, bu geografiyaga doir bilimlardir.

5. Soat, kun, hafta, yilning nomini, shuningdek, bahor, yoz, kuz, qish va kecha, o'tgan kun, erta, ertadan so'ng kabilarni bola tushuna borsa, demak, unda vaqtni tartib bilan anglay borish asoslari tarkib topa boshlaydi.

6. Bola yaqinda bo'lib o'tgan voqeani, ma'lum bir odam biror ishni qanday bajarганиni esda saqlab, juda sodda tarzda bo'lsa ham gapirib berish tarixini o'rgana boshlashidir.

7. Bola oz, ko'p so'zlarni tushunadi, kamida o'ngacha sanay oladigan bo'ladi, uch ikkidan ko'pligini, uch bitta orttirilsa to'rt bo'lishini tushunadi va hokazo. Bular arifmetikaga doir bilimlarning asosidir.

8. Bola nutqidagi katta va kichik, uzun va qisqa, keng va tor, yo'g'on va ingichka so'zlarini, shuningdek, chiziq, doira kabilarni tushunsa va ma'lum bir narsalar qarich, quloq, sarjin bilan o'lchanishini ko'rsa, geometriya elementlari bilan tanishgan hisoblanadi.

9. Bola narsalarning tarozida o'lchanishini kuzatsa va qo'lida biror narsani ko'tarib ko'rib og'ir yoki yengilligini aniqlasa, statistikaning asoslarini o'rgana boshlagan hisoblanadi.

10. Mexanik san'at (mehnat) sohasida dastlabki tajriba hosil qilish uchun bolaning biror ishni bajarishga ruxsat etibgina qolmasdan, balki hamma vaqt unga nimanidir bajarishni o'rgatib ham borish lozim. Masalan, narsalarni u yoq-bu yoqqa ko'chirish, ularni tartibga keltirish, biror narsani buzish va qurish, birlashtirish va hokazo. Kichkintoylar bunday ishlarni zavq bilan bajaradilar. Chunki bolada narsalarni sun'iy ravishda qayta qurishga intilish ishtiyoqi tabiatan mavjud, shunday ekan, bolaning bunday ishlarni bajarishiga to'sqinlik qilmaslik, balki, aksincha, uni qo'llab-quvvatlash va unga oqilona ko'maklashish zarur.

11. Bu davrda bola dialektik san'at sohasida ham bilim hosil qila boshlaydi. U kattalarning savol-javob yo'li bilan gaplashayotganini kuzatadi, shuningdek, o'zi ham nimalarnidir so'rash va savollarga javob berishni bilib oladi. Faqat to'g'ri keladigan savollar berishni hamda savollarga to'g'ri javob berishni bolaga o'rgatish lozim, toki bolalar ma'lum mavzu sohasida fikr yuritishga, mavzudan chetga chiqmaslikka odatlansin.

12. Ona tilida to'g'ri gapirish, ya'ni harf, bo'g'in va so'zlarni aniq talaffuz qilish natijasida bola grammatikaning asoslarini o'zlashtira boshlaydi.

13. Bola oiladagi kishilarga taqlid qilib, ular nutqida uchraydigan ko'chma ma'noli so'z va iboralarni o'rganib olsa, demak, u notiqlik san'ati asoslarini egallab oladi. Bunda eng muhimi talaffuz nutqning xarakteriga mos bo'lishi kerak, chunonchi, so'roq ma'nosida ishlatiladigan so'zning oxirgi bo'g'ini cho'zibroq

talaffuz etilishi, javob berayotganda ovozni pasaytirishi lozim. Bu tabiatning taqozosidir. Bola talaffuzida biror xato qilsa, kattalar o'z vaqtida ko'maklashib, uni tuzatishlari qiyin emas.

14. Bolalar nazm bilan ham tanishadilar, buning uchun ona tilida yozilgan, ko'pincha axloq-odob mavzusidagi vaznli kichik-kichik she'rlarni iloji boricha ko'proq yodlatish lozim.

15. Kichkintoylar musiqani ham o'rgana boshlaydi, buning uchun (marosimlarda aytiladigan qo'shiqlar) ba'zi bir osonroqlarini bolaga o'rgatish kerak.

16. Xo'jalikka doir dastlabki tushunchalar ham hosil qilinadi. Buning uchun bola oiladagi kishilarning nomlarini, otasi, onasi, enasi, xizmatkor va boshqalarning kimligini, shuningdek, uyidagi xonalar: dahliz, oshxona, molxona nomlarini va stol, idish, pichoq, cho'tka kabi uy anjomlarini esda saqlaydi va ishlatilishini bilib oladi.

17. Siyosatga doir bilimlar kamroq o'rgatiladi, chunki kichik yoshdagi bolalar uyda ko'rganlaridan tashqari narsalarni tasavvur eta olmaydilar. Shunga qaramay, siyosat bilan ham tanishtirish mumkin, buning uchun bolalar shaharning ba'zi grajdanlari dumaga to'planishlari va kengash a'zosi deb atalishini, ulardan kimdir shahar boshlig'i, boshqa birovi shahar sudyasi, uchinchisi notarius va hokazolar deb atalishini anglab olishi kerak.

18. Bola yaxshi tarbiya olib, fazilatlar uning qalbida chuqur joylashsin desak, bu davrda axloq (etika) haqidagi ta'limot asoslarini, ayniqsa, puxtaroq o'rgatishga alohida e'tibor berish kerak.

Komenskiy o'quvchiga bilim berish bilan birga unda quyidagi sifatlarni tarkib toptirish zarurligini uqtirgan:

1. Ovqat yeganda ham, kiyinishda ham tozalikka rioya qilish, o'yinchoqlarni avaylash.

2. Kattalarni hurmat qilish.

3. Buyruq va taqiqlarga so'zsiz va sidqidildan itoat etish.

4. Hamisha to'g'ri so'zlash, hech qachon yolg'on gapirmaslik.

5. Adolatli bo'lish, egasining roziligisiz biror narsani olib ketmaslik, hech kimga, hech qachon yomonlik qilmaslik, hech narsaga suqlanib qaramaslik.

6. Boshqalarni sevish, muhtojlikdan yordam so'ragan o'rtog'idan o'z narsasini ayamaslik.

Odamlar bilan muomala qilish, salomlashishni, alik olish, biror narsaga muhtoj bo'lganda kamtarona iltimos qilish, bergan yordam uchun odob yuzasidan egilib minnatdorchilik bildirish.

## **Yan Amos Komenskiyning ta'lim-tarbiya tizimi**

Yan Amos Komenskiy ta'lim-tarbiya tizimida maktablarni to'rt bosqichga bo'lgan edi: onalik, ona tili, lotin tili va akademiya. U ona tili maktabini quyidagicha bo'lishini taklif etgan edi: bu maktabning doirasi va maqsadi shundan iboratki, olti yoshdan (yoki o'n uch yoshgacha bo'lgan) hamma bolalar butun umr bo'yi zarur bo'ladigan barcha narsalarni o'rganib olsinlar.

Chunonchi, barcha qo'lyozma va bosma yozuvlarni ona tilida bema'lol o'qiy olsin. Ona tili grammatikasi qoidalariga binoan, avval chiroyli qilib, so'ngra tez va nihoyat xatosiz yozish, bularni o'quvchilarga oddiygina qilib tushuntirish va uni o'zlashtirib olishga yordam beradigan mashqlar tanlash lozim.

Zaruratga qarab, raqamlar yordamida va cho'tda hisoblashni bilish.

Hamma narsani turli usullar bilan: bo'yi, eni, masofasi kabilarga qarab to'g'ri o'lchash.

Ishlatiladigan barcha kuylarni aytish, qobiliyati kuchliroq bolalarga badiiy musiqa asoslarini ham o'rgatish lozim.

O'quvchilar qoidalarda ifodalanib, bolaning yoshiga mos misollar bilan bayon etilgan axloq haqidagi ta'limotni yodlab olishlari, uni tushunishlari va amalda qo'llashga intilishlari kerak.

Siyosiy va iqtisodiy ahvol haqida bolalar uyda va shaharda har kuni ularning ko'z oldida sodir bo'layotgan hodisalarni tushunish uchun zarur bo'ladigan darajada bilishlari lozim.

Bundan tashqari kosmografiya asoslarini, osmonning yumaloq shaklda ekanligini, yerning sharsimonligini, yerning atrofini okean o'rab turganligini, dengiz va daryolarning egri-to'g'riligini, kattaroq qit'alarni, Ovrupoda joylashgan asosiy davlatlarni bilishlari, o'quvchilar, ayniqsa, o'z vatanlaridagi shaharlar, tog'lar, daryolar va boshqa barcha diqqatga sazovor narsalarni bilib, o'rganib chiqishlari zarur.

Nihoyat, o'quvchilar barcha ommaviy kasblarning yo'l-yo'rig'ini bilishlari kerak, bu qisman, xo'jalik ishlari masalasida uquvsiz bo'lib qolmaslik uchun, qisman, hatto kelgusida biror sohada tabiiy qobiliyati kuchli ekanligini osonroq aniqlash uchun zarur.

Ona tili maktabida ana shu aytilganlarning barchasi ko'ngildagidek bajarilsa, lotin maktabida o'qishni muvaffaqiyatli davom ettiradi.



Lotin tili maktabida bola 6 yil o'qiydi. Olti yilga mo'ljallangan ta'limning vazifalari turlicha bo'lganligi sababli bu maktablarda oltita sinf ta'sis etish mumkin.

Bular:

- |               |               |
|---------------|---------------|
| 1. Grammatika | 4. Axloq      |
| 2. Fizika     | 5. Dialektika |
| 3. Matematika | 6. Ritorika   |

Bunday o'qitish tartibini Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» asarining XXX bob 4-bo'limida keng tahlil etilgan (219-222-betlar).

Akademiya — bu oliy maktab hisoblanib, asosan quyidagi fakultetlardan iborat edi:

Geologiya — tabiat;

Yuridik — adliya — fiqh;

Medisina — tabobat.

Yan Amos Komenskiy bu akademiya kimlar o'qishi kerakligini quyidagicha tavsiflagan edi:

Akademiya faqat aqli o'tkir yoshlar sarasini qabul qilish.

Har kimni tabiatan nimaga layoqatli ekanligini uning tashqi belgilariga qarab bilib olish mumkin;

Qobiliyati kuchli bolalarni har tomonlama quvvatlash;

Akademiyaning vazifasi — mehnatsevar, vijdoni pok kishilarni tarbiyalab yetkazish.

Yan Amos Komenskiyning dars berish tartibi: Sinflar, o'quv mashg'ulotlari olti yil davom etadigan ona tili maktabining barcha o'quvchilari oltita sinfga ajratilishi lozim, biri ikkinchisiga xalaqit bermasligi uchun iloji boricha, har bir sinf mashg'ulotni alohida xonada o'tkazishi kerak.

Alohida sinflarning o'z darsliklari bo'lishi lozim, bu kitoblar shu sinf uchun zarur bo'lgan barcha ilmiy, axloqiy materiallarni o'z ichiga olsin, shu sinfda o'qiyotgan bola boshqa hech qanday kitobga zarurat sezmasin va shu kitoblar yordamida yangilishmasdan, ko'zlangan maqsadga erisha olsin. Albatta, bu kitoblar ona tilining barcha masalalarini, ya'ni shu yoshdagi bolalar o'zlashtira oladigan barcha narsalarning nomlarini va nutqda ko'proq ishlatiladigan asosiy iboralarni o'z ichiga olishi zarur.

Turli sinflar uchun yozilgan kitoblarning mazmuni bir xil bo'ladi, ular faqat shakl jihatidan farq qiladi. Demak, sinflarning soniga qarab bunday kitoblar oltita bo'ladi, ular

bir-biridan mazmuni jihatidan emas, balki shakl jihatidan farq qiladi. Bu kitoblarning har birida hamma narsa to'g'risida fikr yuritiladi, lekin, oldin o'qiladigan kitoblarda narsalar haqida umumiyroq, hamma biladigan, osonroq fikr yuritiladi, keyin o'qiladigan kitoblarning har biri juz'iyroq, qiyinroq narsalarni tushunishga imkon beradi yoki shu narsalarning o'ziga qiziqib esda qoldirish uchun biror yangi metod qo'llanishi lozim bo'ladi. Bunday fikrlarni biz keyinroq batafsil tushuntiramiz.

Barcha narsalar bolalarning yosh xususiyatiga mos bo'lishi lozim. Shuni nazarda tutish lozimki, bola tabiati quvnoqlik, hazilkashlik, sho'xlikka moyil bo'lib, jiddiylik va rahmsizlikni xush ko'rmadi. Demak, turmushda qachondir zarur bo'ladigan jiddiy narsalarni o'rganishi, shunda ham oson va mamnuniyat bilan o'rganishi uchun foydali narsalarni qiziqarli shaklda bayon etish, shu yo'l bilan bola aqlini biz istagan tomonga qaratish lozim.

O'quvchilar diqqatini jalb etish uchun kitoblarning nomi qiziqarli bo'lib, kitobning mazmunini to'liq ifodalab bersin. Menimcha, bu sohada mavjud narsalardan eng chiroylisi bog'ning turli manzara-laridan namuna olish mumkin. Masalan, maktabni bog' bilan taqqoslashni olib ko'raylik. Nega endi birinchi sinf uchun bitilgan kitobni — gunafsha jo'yagi deb, ikkinchi sinf kitobini — atirgul tupi deb, uchinchi sinf kitobini — istirohat bog'i va hokazo deb atash mumkin emas?

Texnika iboralarining barchasi ona tilida ifodalanishi lozim. Nega? Lekin bu kitoblarning mazmuni va shakli masalasida boshqa joyda batafsilroq to'xtalamiz. Bu yerda quyidagi fikrni ta'kidlamoqchimiz: bu kitoblar ona tilida yozilgani uchun texnika iboralarini ham lotincha yoki grekcha so'zlar bilan emas, balki ona tilidagi so'zlar bilan ifodalash zarur. Bu fikrimizning dalilidir.

Biz yoshlarning hamma narsani tez fahmlab olishiga yordam berishni istaymiz. Chet tilidan olingan so'zlarni bilib olish uchun esa avvalo ularning ma'nosini tushuntirish zarur, hatto tushuntirilgandan so'ng ham, bola uni to'la anglay olmasdan, bu so'z shu ma'noni bildiradi degan gapga ishonib, uni zo'rg'a esda saqlab qoladi. Vaholanki, biror buyumni ifodalagan so'z ona tilida tushuntirilsa, bola uni tez tushunib oladi va darhol esda qoldiradi. Bizning maqsadimiz, o'qitilishning bu birinchi bosqichida har xil to'siq va qiyinchiliklar iloji boricha kamroq bo'lib, hamma narsani bolaga mumkin qadar oson o'rgatishdir.

Bundan tashqari, biz ona tilini fransuz tili singari xalq tushunmaydigan grekcha va lotincha soʻzlarni zoʻrma-zoʻraki ishlatish yoʻli bilan emas, balki hamma narsani tushunadigan soʻzlar bilan ifodalab rivojlantirishning tarafdorimiz.

1. Maktabda oʻquv mashgʻulotlari har kuni faqat toʻrt soat (ikki soat ertalab va ikki soat tushdan keyin) davom etsin. Qolgan vaqtda oʻquvchilar uy-roʻzgʻor ishlarini (ayniqsa, kambagʻal bolalar) bajarishi yoki tuzukroq hordiq chiqarishi mumkin;

2. Ertalabki mashgʻulotlar paytida bolaning aqlini va xotirasini oʻstirishga, tushdan keyingi mashgʻulotlarda qoʻli va ovozi rivojlantirishga eʼtibor qilish zarur;

3. Albatta, ertalabki mashgʻulotlarda muallim hammaning diqqatini jalb etib, saboqni oʻqib beradi va takrorlaydi, agar biror narsani tushuntirish lozim boʻlsa, juda oddiy qilib shunday tushuntirish kerakki, tinglovchilardan birortasi ham uni tushunmay qolmasin. Soʻngra navbat bilan oʻquvchilar ham shuni takrorlashadi, bu ish oʻquvchilar ovoz chiqarib aniq va ravshan qilib oʻqiy olguncha davom etadi, boshqalari esa, oʻz kitoblariga qarab tovush chiqarmay oʻqib boradi. Mashq yarim soat yoki koʻproq davom etgach, zehni oʻtkirroq bolalar mashqni yoddan aytishga harakat qiladi va natijada hatto zehni pastroq oʻquvchilar ham buni yodlab oladi. Axir bir soat davomida bu materialni oʻzlashtirib olish, ayniqsa bola xotirasining oʻtkirligi eʼtiborga olinadigan boʻlsa, oʻquvchilar uchun hech bir ogʻirlik qilmaydi.

Tushdan keyingi mashgʻulotlarda ham shu material mustahkamlanadi, yangi mashqlar oʻtilmaydi, balki oʻshaning oʻzi takrorlanadi. Takrorlash qisman oʻsha kitobdan koʻchirib yozish yoʻli bilan, qisman musobaqa usulida (kim mashqning hammasini tezroq yodlab oladi va aytib bera oladi yoki kim toʻgʻri va chiroyliroq koʻchira oladi, kim tezroq sanaydi, kim yaxshiroq ayta oladi va hokazo) bajariladi.

Oʻquvchilar darslikdagi materiallarni iloji boricha chiroyliroq qilib koʻchirib chiqsinlar deyishimizning sabablari bor, albatta.

1. Koʻchirib yozish kitobdagi barcha fikrlarni toʻgʻriroq esda qoldirishga yordam beradi, chunki bunda bolaning diqqati shu materialga koʻproq jalb etilgan boʻladi;

2. Oʻquvchilar yozishni har kuni mashq qilaverishi natijasida chiroyli, tez, toʻgʻri yozish malakasini hosil qiladi, bu esa yuqori sinflarda oʻqish uchun ham, hayot uchun ham juda zarur;

3. Bu maktabda bola nima ishlar qilishi lozimligi va nimalar qilayotganini ota-onalarga yaqqol ko'rsatish imkonini beradi. Ular bolalarning kundan-kunga o'zgarib, ilgarilab borayotganini ko'rib, ularning o'qishdagi yutuqlari haqida fikr yuritishlari osonlashadi.

**Yan Amos Komenskiy o'qitishning qoida va metodlari haqida.** Komenskiy o'qitish qoidalarini quyidagicha tavsiflagan edi:

1. **Onglilik va faollik** qoidasi. Bunda o'quvchiga beriladigan bilim ravshan, chuqur va asosli bo'lishi kerak;

2. **Ko'rsatmalilik** qoidasi. O'qitishda ko'rsatmalilik qoidasini bola sezgisini tashqi olam bilan bog'lanuvchi oltin kalit deb baho bergan edi.

Ko'rsatmali o'qitishni quyidagi tartibda belgilagan edi:

1. Mavjud narsalarning o'zini ko'rsatish yoki tabiiy holatini kuzatish;

2. Narsalar modelini ko'rsatish;

3. Tasvirlangan suratlar.

Buning uchun o'quvchi diqqatini markazlashtirish, sof aqlga ega bo'lish, kuzatish — lozim bo'lgan narsalarni ketma-ket kuzatish;

3. **O'qitishda izchillik va sistemalilik qoidasi.** Komenskiy o'qituvchilarga quyidagilarni tavsiya etadi: materialni mantiqan to'g'ri taqsimlash; o'qitishni nimadan boshlab oxiriga yetkazishni bilish; yangi material bilan keyingisini bog'lash.

O'qituvchining har bir beriladigan bilimi keyingisi bilan bog'lanib to'ldirilishi kerak deb ta'kidlaydi;

4. **Mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash.** O'quvchi bilimini mustahkamlash uchun takrorlash va mashqlarni tartibli olib borish. Shu sababdan, takrorlash — o'qitishning onasi, deb baho bergan edi.

Bu qoida o'quvchilarning ongliligi va faolligini oshirishga ham xizmat qiladi.

## Axloqiy tarbiya

Komenskiy axloqiy tarbiyaga doir g'oyalarni o'zining «Buyuk didaktika», «Yaxshi yo'lga qo'yilgan maktab qonunlari» asarlarida asoslab berdi.

Insonning o'z-o'zini boshqarishi, ijobiy xatti-harakatlari uning axloqiyligidan dalolat beradi. Komenskiy axloqiy fazilatlariga donishmandlik, mardlik, matonatlilik, odillik,

sogʻlom fikr yuritishni kiritgan edi. U «axloq tarbiyalashning asosiy maskanlaridan biri maktabdir», — degan edi. Maktabda axloqiy tarbiya yuqori darajada berilishi lozimki, toki maktablar «Insonlar tarbiyalanadigan ustaxona» degan nomga munosib boʻlsin. Maktabda axloqiy tarbiya berish uchun quyidagi qoidalarga amal qilishni taklif etadi:

Tarbiya jarayonida yaxshi fazilatlarning barchasini eʼtibordan qoldirmay berish kerak.

Poydevorsiz uy qurib boʻlmaganidek, axloqiy tarbiyani ham poydevorsiz yaratib boʻlmaydi.

Bola doimo oʻzini tiyish va boshqarishga oʻrgansin. Komenskiy buni quyidagicha sharhlab bergan edi: «Axir inson aqlli mavjudot, demak, u aql bilan ish tutishi, nima uchun, qanday qilsa toʻgʻri bajarilishini oʻylab olishga odatlansin. Inson oʻz xatti-harakatlariga chindan hukmronlik qilsin».

Maktabda axloqiy tarbiyaga doir fazilatlarni tarbiyalashda adolatli boʻlish, jasurlik, samimiylilik, mehnatsevarlik boʻlishi lozim.

Komenskiy axloqni tarbiyalash metodlari sifatida quyidagilarni koʻrsatgan edi:

1. Ota-onalar, oʻqituvchilar va bolalar oʻrtoqlarining shaxsiy namunasi bolalarning hayot yoʻlini yoritadi;

2. Komenskiy fikricha, bola tabiatan taqlidchan boʻlganligi tufayli ota-ona doimo oʻzlari uy intizomlariga qatʼiy rioya qilishlari, oʻqituvchilar esa jamiyatdagi eng yaxshi xushaxloq kishilar boʻlmogʻlari kerak;

3. Bolaga pand berish orqali mustahkamlash metodlari;

4. Ehtiyotkorlik metodi, yaʼni bolani axloqiy buzuv odamlar davrasidan ehtiyot qilish (yaʼni bekorchilikdan, buzuv oʻrtoqdan, maʼnisiz kattalardan...).

Yan Amos Komenskiy axloqiy tarbiyaning asosi boʻlgan intizom tarbiyasiga katta eʼtibor berib, «Intizomsiz maktab — suvsiz tegirmon», — degan edi.

Yan Amos Komenskiy intizom tarbiyasi maqsadini quyidagicha koʻrsatgan edi:

1. Intizom oʻrnatish uchun uning qonun-qoidalarini oʻrganib amal qilish kerak.

2. Intizom oʻrnatishdan maqsad nima ekanligini anglay olish zarur.

Uning fikricha, «Intizom tartib buzuvchilarga nisbatan qoʻllanishi kerak». Lekin biror kishi gunoh qilib qoʻygani uchun emas, balki gunohkor kelgusida bunday xatoga yoʻl qoʻymasligi uchun intizomga boʻysundirish kerak. Intizomni oʻrnatayotgan paytda jahl, nafrat, gʻazab qilmaslik, balki tabiiy va sidqidil boʻlish lozim.

### *Intizomni tarbiyalash vositalari:*

1. Maktabning hamma sohasida doimiy shaxsiy namuna koʻrsatish.
2. Tushuntirish, pand-nasihah.
3. Tanbeh berish.
4. Jazo berish.

Yuqoridagi vositalardan yana bir muhimrogʻi — oʻqituvchilar samimiy kayfiyat, yaxshi namunasi, shirin soʻzi, samimiyati va ochiq koʻngilligi bilan tarbiyalanuvchilarni tarbiyalasa qoʻyilgan maqsadga albatta, erishadi.

Komenskiy pedagogik merosini oʻrganish har bir oʻqituvchi uchun quyidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi: pedagogika ilmiy-nazariy asoslari, didaktika olamidagi sir-asrorlar, taʼlim-tarbiya tizimi, taʼlim mazmuni, dars-sinf tartib-qoidalari, axloqiy tarbiya masalalari, oʻqituvchi shaxsi.

Komenskiy merosi jahon pedagogika fani rivojlanishida yoʻlchi yulduzdir.

### *Mustaqil ish*

Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» asarining XVIII-XIX, XX, XXI boblarini oʻqib oʻrganing.

## **I. G. PESTALOTSSI**

Shveysariyalik mashhur pedagog Iogan Genrix Pestalotssi 1746-yilda Syurix shahrida shifokor oilasida dunyoga kelgan. Boshlangʻich va lotin (oʻrta) maktabni tamomlagandan keyin yuqori maktab (Kollegium Karolinum) da oʻqigan. Asosan ijtimoiy fanlar oʻqitiladigan bu maktab XVIII asr Fransiya maʼrifatchilarining taʼsiri ostida rivojlangan Shveysariya burjua-demokratik fikrlarining markazi edi. Unda Pestalotssi Shveysariyadagi burjua-demokratik islohotlar oʻtkazilishini

talab qilgan ilg'or talabalar safiga qo'shilgan. Bu sohada targ'ibot yurgizgani uchun u va yana bir necha talaba qamoqqa olingan.

Pestalotssi zamonasida Shveysariya aholisi qashshoq yashagan qoloq mamlakat bo'lib, ayniqsa, dehqonlarning ahvoli og'ir, ular orasida yeri yo'q kambag'allar ko'p edi. Xalq maorifi, xususan, xalq maktablari achinarli holda bo'lgan. Shu sababli XVIII asrning ikkinchi yarmida dehqonlar ommasi va shahar mehnatkashlari o'rtasida norozilik kuchaya borgan va feodal aslzodalar hokimiyatiga qarshi kurash keng tus olgan.

Pestalotssining dunyoqarashi xalq ommasining mashaqqatli hayotini yaxshi bilish va uni bevosita kuzatish hamda fransuz ma'rifatchilarining, xususan, J.J.Russoning g'oyalari bilan tanishish natijasida shakllandi. U o'z umrini xalq xizmatiga bag'ishladi, dehqonlarning ahvolini yengillashtirishga harakat qildi. Shu maqsadda u «Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi», «Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish bo'yicha qo'llanma», «Kuzatish alifbesi» yoki o'lchash haqida ko'rsatmali qo'llanma», «Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim», «Oqqush qo'shig'i» kabi kitoblarni yaratdi. Pestalotssi dastlab 1761-yili Neygof qishlog'idan narida Martina plantoyda maktab tashkil qildi. So'ngra Pestalotssi o'zining ijodiy faoliyatini amalda sinash uchun 1774-yilda «Neygof»da «Kambag'allar muassasasi»ni ochib, unga 50 nafar yetim va boqimsiz bolalarni to'plab, ularni o'qitish bilan mehnat ta'limini bog'lab olib bordi.

Bu yetimxonada bolalar o'qish, yozish va hisob o'rganish bilan birga ip yigirish, to'qish va dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Mazkur muassasani saqlab qolish imkoni bo'lmadi, chunki bolalarning mehnati evaziga yashash og'ir edi. Shu sababli Pestalotssi yetimxonani yopishga majbur bo'ldi. U 18 yillik faoliyatini dehqon bolalarining hayotini o'rganish va ular uchun maktablar ochishga bag'ishladi.

Iogann Genrix Pestalotssining buyuk kashfiyotlaridan biri Shveysariyada dastlabki xalq maktablarini tashkil etishidir. Uning fikricha, xalq maktabining maqsadi: bolalarga keyinchalik ular eslaridan chiqarib yuboradigan ma'lum darajada muayyan bilimlar berish emas, balki maktab, o'z tevaraklaridagi tabiatga va ijtimoiy munosabatlarga ongli qarashni ularda tabiiy suratda vujudga keltirish va ularni mustaqil ravishda oqilona hayot kechirish va ishlashga qobiliyatli kishilar qilib yetishtirish edi.

Pestalotssining bu g'oyasi Shveysariyada dastlab qattiq qarshilikka uchradi. Chetdan turib «Neygof»da tashkil etilgan maktablardagi g'alati, sodda urinishlarini ko'rganlar uning ustidan kuldilar. Lekin uning zamondoshi Fellenbergning Gofvil maktabi bu g'oyani rivojlantiruvchi dargohga aylanadi. «Neygof»dagi maktab tajribasini Pestalotssi quyidagi risolalarida bayon etgan edi: «Qishloq kambag'al yoshlar tarbiyasi haqida» (1777-yil), «Kishilik hayoti tarixidan lavhalar» (1777-yil).

Pestalotssi 1798-yil dekabr oyidagi Shveysariya inqilobi natijasida yetim qolgan 80 bolaga mo'ljallangan yetimxona ochadi. Bu etimxonaning ish mazmuni uni 1799-yili yozgan «Stansdan bo'limi to'g'risida do'stlaridan biriga xat» risolasida shunday deyiladi: «Ertalabdan to kechgacha ularga o'zim hamroh edim... Ular yig'lasa, men ham yig'lar edim, ular kulsa, men ham kular edim... Ular nima yesa, men ham shuni yeyman, nima ichsalar, men ham shuni ichar edim. Mening o'shalardan boshqa uyim ham, do'stim ham, xizmatchim ham yo'q edi...»

Pestalotssi yetimlarning sevimli otasi edi. Urush harakati boshlangandan keyin yetimxona yopildi. Pestalotssi o'zining pedagogik g'oyalarini, ayniqsa elementar ta'lim nazariyasini 1800–1804-yillarda Burgdorfdagi, 1805–1825-yillarda Iverdon shahrida amaliy ravishda rivojlantirdi. Pestalotssi dastlab kichik yoshdagi bolalar shahar maktabiga (5–8 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'qir edi) ishga joylashdi. Asosiy e'tiborini bu yoshdagi bolalarda nutq va matematik tasavvurni rivojlanishiga qaratdi.

1800-yili Pestalotssi rahbarligida institut tashkil etildi. Institut tarkibiga, internat shaklidagi o'rta maktab hamda o'qituvchilar tayyorlash seminariyasi kiritilgan edi.

Pestalotssi Iverdondagi institutda elementar ta'lim nazariyasiga asoslanib o'qitishni ishlab chiqarish va mehnat tarbiyasi bilan bog'langan holda o'quv-tarbiya jarayonida o'z g'oyalarini amalga oshirdi. 1825-yili Iverdon instituti o'qituvchilari orasidagi kelib chiqqan kelishmovchiliklar natijasida u o'z qishlog'i «Neygof»ga qaytadi. Olim 1827 yili vafot etadi.

Pestalotssining dunyoqarashi Kant falsafasi ta'siri ostida rivojlandi. Pestalotssi ham bilim sezgi organlarini kuzatishdan boshlanadi va tasavvurlar qayta ishlash yo'li bilan g'oyalar darajasiga ko'tariladi, g'oyalar esa, garchi ravshan bo'lmasa



ham, odamning ongida tarkib toptiruvchi kuch tariqasida mavjuddir. U Xudoga ishonib inson uchun ato etgan «Koʻz koʻrishni, quloq eshitishni, oyoq yurishni, qoʻl ushlashni» istaydi. Aql fikrlashni istaydi. Yaratuvchining oʻzi odamni bu dunyoga kelgan birinchi kundan boshlaboq jismoniy va maʼnaviy faoliyatga intiladigan qilib yaratgan, tarbiya esa shu intilishni roʻyobga chiqarishga yordam beradi.

Tarbiyaning maqsadi, odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini bir-biriga uygʻun qilib oʻstirishdan iboratdir. Tarbiyaning bolaga koʻrsatayotgan taʼsiri tabiat bilan uygʻun boʻlishi kerak. U Yan Amos Komenskiy, Jan Jak Russolarning tarbiyaning tabiat bilan uygʻunlik gʻoyasiga amal qildi. Ularning taʼlimotidan uning taʼlimotining ustunligi shundaki, u Russo kabi bola tabiatini uygʻunlashtirmadi. Uningcha, insoniy kuchlarning oʻsishi uchun tabiat qilayotgan harakatga yordam berilmasa, bu harakatlar odamlarni hayvoniy-hissiy xususiyatlardan sekinlik bilan qutqaradi. Toʻgʻri tarbiya esa ulami, yaʼni barcha insoniy kuchlarni oʻstirishga yordam beradi. Shu sababdan barcha insoniy kuchlar va qobiliyat kurtaklarini tabiiy tartibda elementlaridan boshlab rivojlantirmoq lozimdir.

Pestalotssi didaktikasida taʼlim elementar nazariyasi asosiy oʻrin egallaydi. Bu taʼlimotga koʻra, tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib asta-sekin murakkablashtirishdir.

Elementar tarbiyaning bosh masalasi bolani jismoniy jihatdan tarbiyalashdir. Uning fikricha: «Hayot — yetilgan jismoniy nihollarning uygʻonishidan boshqa narsa emas, bu nihollar endi oʻzining butun kuchi bilan, oʻzining hamma novdalari bilan oʻsishga va kamolotga yetishga intiladi va insonga aylanishi lozim boʻlgan jonivorning uygʻonishidan boshqa narsa emas». Shuning uchun bolaning jismoniy kuchlarini mashq qildirish va rivojlantirish muhimdir.

Pestalotssi jismoniy tarbiyada bolaning barcha jismoniy kuchlarini rivojlantirish uchun uni turli harakatlarga yoʻnaltirishga alohida eʼtibor bergan. Jismoniy tarbiyani aqliy, axloqiy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bogʻlab olib borish zarurligini uqtirgan, oʻzi esa jismoniy barkamollikning asosi mehnat tarbiyasi deb tushungan. Shuning uchun: «Mehnat ishga daxli yoʻq soʻzlariga eʼtibor bermaslikni oʻrgatadi va bolada yuksak insoniy fazilatlarini shakllantiradi. Toʻgʻri tashkil qilingan jismoniy mehnat bolalarning aqliy va axloqiy kuchlarini oʻstiradi», — deb yozgan.

Pestalotssi bolani axloqiy jihatdan tarbiyalashda avvalo onaga mehr uyg'otishni zarur deb hisoblagan.

Onani sevgan bola insonlarni sevadi, insonlarni sevgan bola vatanni sevadi. Pestalotssi axloqiy tarbiyaning eng oddiy masalasi insonga muhabbatdir, bu muhabbat oiladan boshlanadi. «Ota-onaning uyi axloq maktabidir», degan edi.

Pestalotssining fikricha, har bir fazilat to'g'risidagi gaplardan ko'ra shu fazilatlarni jonli ravishda sezdirish bolalarning hissiyotlariga chuqur ta'sir ko'rsatib, ularning axloqiy mayllarini o'stiradi.

Bolalarning axloqiy kuchlarini maktabda davom ettirish lozimdir. Pestalotssi axloqiy tarbiyani din bilan chambarchas bog'laydi va bu to'g'rida shunday yozgan edi: «... Xudoni odamlar bir-biriga mehru muhabbat ko'rsatayotgan joydan qidingin. Agar odam Xudoni sevsa, u hamma odamlarni ham sevadigan bo'lib qoladi, uning uchun hamma odam bir otaning bolasi kabi aka-uka va opa-singildir», — deydi. U bolalarni insoniy mehrlil bo'lishga da'vat etadi.

Pestalotssining pedagogik tizimida aqliy ta'lim alohida o'rin egallaydi. Pestalotssi aqliy ta'limni axloqiy tarbiya bilan bog'lashni zarur deb hisoblaydi, chunki intizomli, axloqiy xatti-harakatlari shakllangan bolalarning aqliy taraqqiyoti ham yuksakdir.

Pestalotssi bolalarning aqliy kamolotini o'stiruvchi quyidagi didaktik qoidalarni olg'a surdi:

1. Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi.
2. Oddiydan murakkabga yo'naltirish.
3. Bolani kuch va qobiliyatiga moslashtirish.
4. Ko'rgazmalilik.

U bunday didaktik qoidalardan boshlang'ich ta'lim jarayonida keng foydalanishni nazarda tutdi.

Pestalotssi boshlang'ich ta'lim xususiy metodikasining asosini yaratdi. Bunda u ona tili, hisob, geografiya, o'lkashunoslik fanlaridan elementar ta'lim berish mazmunini asoslab berdi.

Ona tili darslari bola nutqining ravonligi va boyligini ta'minlashi lozim. Bola tilining boyligi uchun geografiya, tabiiyot fanlarini ham uzviy ravishda olib borishni tavsiya etgan edi. Hisob darslarida o'lchashni o'rgatmoq uchun Pestalotssi dastlab to'g'ri chiziq, kvadrat chizishni va kvadratni bo'laklarga bo'lishni o'rgatish, bolalarda geometrik shakllar va ularni o'lchash malakalariga ega bo'lishini ta'kidlagan edi. Mehnat bola faoliyatining oddiy turlaridagi urish, ko'tarish, tashlash, irg'itish, quloch yozish, kurashish va boshqa jismoniy harakatlarni o'z ichiga olishi kerak edi.

«Bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish, — degan edi Pestalotssi, — o'qituvchiga bog'liqdir. O'qituvchi dastlab bolalarni sevishi, ular uchun otalik yoki onalik vazifasini bajarishi, har bir darsni ko'rsatmalilik asosida o'tishi lozim. U ona tili, tarix, geografiya, arifmetika, tabiiyot fanlarining bilimdoni bo'lishi va ulardan to'g'ri saboq berishi lozimdir».

Pestalotssi pedagogika fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Uning ulug' kashfiyoti shundaki, tarixda birinchi marta kambag'al xalq farzandlari uchun maktab ochdi va uni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'ladi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasini yaratib, unda elementar ta'lim nazariyasidan foydalanish yo'llarini asoslab berdi. K.D.Ushinskiyning ta'biricha, Pestalotssining o'sha davrdagi ijodi sodda ko'rinsa-da, o'sha vaqtda uning bu g'oyasi uning kashfiyoti edi, bu kashfiyot insoniyat uchun Amerikaning kashf etilishidan ko'ra ko'proq foyda keltirdi va keltirmoqda. Pestalotssi maktabi va ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyasi jamiyatni harakatga keltiruvchi oz miqdordagi hayotiy va faol g'oyalari qatoriga, qo'shish uchun o'zining butun azob-uqubatli hayotini bag'ishladi. Pestalotssining pedagogik g'oyalari uning shogirdi Fellenberg tomonidan rivojlantirildi. Rossiyada esa K.D.Ushinskiy uning g'oyalariidan ijodiy foydalanishni quyidagicha yozgan edi: «Maktab uchun Pestalotssining son jadvalini topganimda qanday xursand bo'lganim va uzoq vaqt bu jadval bilan durustroq natijaga erisha olganim esimda». Pestalotssi dunyo pedagogika fanining taraqqiyotiga katta hissa qo'shib o'z asarlari bilan o'ziga haykal yaratgan olimdir.

### *Mustaqil ish*

Pestalotssining «Lingard va Gertruda» asarining pedagogika tarixini xrestomatiya kitobidan o'rganing.

### **K. D. USHINSKIY**

Rus milliy pedagogikasining asoschisi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy 1824-yilda Tula shahrida tug'ildi. 1812-yil urushida ishtirok etgan otasi harbiy xizmatdan bo'shagach, o'ziga qarashli 30 ta krepostnoy dehqon bilan Novgorod-Severskdagi kichik mulkida yashagan. Ushinskiy o'sha joydagi gimnaziyani tamomlab, Moskva universitetining yuridik fakultetiga o'qishga kirdi, o'sha davrda

ma'lum va mashhur bo'lgan professor Redkinning bevosita rahbarligi ostida ta'lim olib, ilmiy dunyoqarashini kengaytirdi.

Ushinskiy 1845-yilda Yaroslavl liseyiga kameral (yuridik) fanlar professori vazifasini bajaruvchi bo'lib xizmatga kirib, muvaffaqiyat bilan ish boshladi. Ammo Rossiya hukumatining 1848-yilgi inqilobdan keyin sal o'tmay chiqargan farmoyishi Ushinskiyning o'qituvchilik faoliyatiga katta zarba berdi, chunki farmoyishda rus hukumati professorlarni o'z leksiylarining to'la matnini va ularda o'qiladigan ko'chirmalarni yozib berishni talab qilgan edi. Ushinskiy litsey kengashida hukumatning bu farmoyishi noto'g'riligini aytib, unga mutlaqo qarshi chiqqani va uni bajarishdan bosh tortgani uchun litseydan bo'shatildi.

Ushinskiy 1854-yilda Yaroslavl litseyi sobiq direktorining tavsiyasi bilan Gatchino institutida til-adabiyot va qonunshunoslik o'qituvchisi bo'lib ishga kirdi va tez fursatda shu institutning klasslar inspektori vazifasiga ko'tarildi. Uning pedagogik faoliyati tom ma'nosi bilan o'sha vaqtdan boshlandi. U 1859-yilda Smolniiy institutining klasslar inspektori vazifasiga tayinlanib, unga institutning juda achinarli holga tushib qolgan ilmiy bo'limi ishlarini qaytadan tartibga solishdek muhim vazifa yuklandi. Ushinskiy bu vazifani puxta bajarib, pedagogik jarayonni uyushtirish bo'yicha katta qobiliyati borligini ko'rsatdi. Shuningdek, Ushinskiyning pedagogika masalalariga bag'ishlab yozilgan nazariy ishlari uning faqat amaliyotchi emas, balki o'z ixtisos bo'yicha kuchli nazariyotchi ekanligidan ham dalolat beradi.

Ushinskiyning 1857-yildan boshlab avval, «Tarbiya jurnali»da, so'ngra «Xalq maorifi jurnali»da juda mazmundor qator maqolalari e'lon qilindi. 1860-yilda u «Xalq maorifi jurnali»ning muharriri qilib tayinlandi. Ushinskiy 1861-yilda o'zining birinchi asari — «Bolalar dunyosi» nomli o'qish kitobini nashr ettirdi. Bu kitob o'sha yilning o'zidayoq ikki marta nashr etildi.

Ushinskiyning samarali pedagogik faoliyati 1862-yilda uning ustidan yozilgan imzosiz xat sababli to'satdan to'xtab qoldi. Bu xatda uni ateist va siyosiy jihatdan ishonchsiz kishi deb ayblangan edi. Natijada Ushinskiy chet ellardagi xotin-qizlar maorifining ahvolini o'rganish va pedagogikadan darslik yozish uchun chet ellarga ijodiy safarga ketishga majbur bo'ldi.

Ushinskiy chet ellarda o'zining eng muhim asarlarini nashrga tayyorladi. 1861-yilda uning 1 va 2 o'qish yillari uchun «Ona tili» darsligi nashr ettirildi va unga «Muallimlar uchun qo'llanma» degan metodik asari ilova qilindi. 1870-yilda esa yana «Muallimlar

uchun qo'llanma» ilova qilindi. Shu o'quv yili uchun ham «Ona tili» darsligi bosilib chiqdi. Bundan tashqari, Ushinskiyning pedagogika sohasidagi asosiy nazariy asari hisoblangan «Kishi — tarbiya predmeti sifatida» («Pedagogik antropologiyadan tajriba») nomli asari ayrim tomlarga bo'linib nashr qilina boshlandi. 1867-yilda bu asarning 1-tomi, 1869-yilda 2-tomi bosilib chiqdi.

K.D.Ushinskiy ta'lim-tarbiyaga doir bir qator maqolalar ham yozgan edi. «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi to'g'risida», «Pedagogik adabiyotning foydasi haqida», «Maktabning uch elementi», «Ona tili» kabilar shular jumlasidandir.

«Ona tili» risolasi tilni o'rganishning tarbiyaviy ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan. Unda, Ushinskiyning yozishicha, ona tili necha asrlardan buyon davom etayotgan xalq hayotining mahsulidir. Yosh avlod ona tilini o'zlashtirishda xalqning ming-ming yillik tarixidagi ma'naviy taraqqiyoti samalarini ana shu til bilan birga bilib oladi, degan falsafiy-psixologik qarashni ilgari surdi.

«Ta'limning psixologik va mantiqiy asoslari» asarida muallifning diqqat, xotira, tafakkur to'g'risidagi nazariy qarashlari bayon qilingan.

Ushinskiy xalqni har tomonlama tarbiyalash uchun o'zining umuminsoniy tarbiya g'oyasini olg'a surdi.

Ushinskiy «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» nomli asarida ta'kidlashicha, oila bolalar organizmida ota-onalar xarakterining takrorlanishi va yanada rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy tarbiyada xalqning ruhi shu qadar kuchli bo'ladiki, insonda mavjud barcha olijanob hislar yo'qolsa, xalqning ruhi ham asta-sekin yo'qolib ketadi. Xalq ruhi Vatanni, tilni va o'tgan avlodlar merosini saqlashga bog'liqdir.

### **K.D. Ushinskiy asarlarida didaktika**

K.D.Ushinskiy xalq maorifi sohasiga bag'ishlangan «Maktab-maorif ishlarini o'rganish uchun Shveysariya bo'ylab sayohat» risolasida Bernning maorif sohasidagi ishlariga xatlar orqali o'zining munosabatini bildiradi.

Ushinskiy Bern tomonidan tuzilgan maktab reformasi asosida maktablarni chuqur o'rganib, o'qituvchilik qilish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rgan kadrlar kamligini ko'rsatgan edi:

«Bolalar bir necha o'qituvchi tomonidan o'qitilganda o'qitish o'zining bolalarni tarbiyalash va kamolotga yetkazish kuchini yo'qotadi» (boshlang'ich maktabni nazarda tutadi).

K.D.Ushinskiy chet el maktablarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyani o'rganib o'zining «Boshlang'ich ta'lim metodikasi» asarini yozdi.

Unda boshlang'ich maktabdagi ta'lim mazmunini asoslab berish bilan birga uning qoida, qonun, tartib, metod va vositalarini ham ishlab chiqib didaktika faniga katta hissa qo'shdi. Bu esa ajoyib yangilik sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. U eng avvalo, o'qitishni bolalar mehnati bilan bog'lashni tavsiya qildi. Ushinskiyning fikricha, har bir fanni o'qitishda, tarbiyalanuvchining hissasiga tushadigan mehnat uning yoshi va kuchiga loyiq bo'lishi kerak. Shifokor bemorni davolar ekan, unga yordamlashadi, xolos, shuningdek, murabbiy ham tarbiyalanuvchiga ma'lum bir fanni o'rganishda uchraydigan qiyinchiliklarni yengish uchun kurashuvida yordam berishi lozim. Bolani o'qitish emas, balki unga o'qib-o'rganib olishda ko'maklashish zarur. O'quvchiga yordam berishga asoslangan mana shu ta'lim usulining yaxshi tomonlaridan tashqari, yana bir afzalligi ham borki, bu usul o'quvchini aqliy mehnatga o'rgatish bilan birga, shunday mehnatning og'irligini eng olishga va undan zavqlanishga ham o'rgatadi. Aqliy mehnatni eng og'ir mehnat desa bo'ladi. Xayol surish oson va yoqimli narsadir, ammo o'ylash ancha qiyin ish. Faqat bolalargina emas, katta yoshdagi kishilarda ham miyani ishlatishdan qochish hollari ko'p uchraydi. Bola bir necha daqiqa jiddiy fikrlashdan ko'ra kun bo'yi jismoniy mehnat qilishni yoki kitobning bir betini ochib qo'yib, aql ishlatmay, soatlab quruq yod olishni afzal ko'radi.

Tarbiyalanuvchining dam olishini ham ana shu jihatdan foydali yo'sinda tashkil qilish mumkin.

Aqliy mehnatdan keyin dam olish hech ish qilmay, vaqtni bekor o'tkazish, degan so'z emas, balki ishning turini o'zgartirishdir. Aqliy mehnatdan keyin jismoniy ish qilish ko'ngilli va foydalidir. Dam olishning bunday yo'li g'oyat foydaliligi Germaniyadagi ko'pchilik yopiq o'quv yurtlarida to'g'ri tushuniladi, ulardagi tarbiyalanuvchilar o'qishdan bo'sh vaqtlarida atayin belgilangan ishlar: xo'jalik iker-chikirlari, sinf xonalarini tozalash, bog' yoki ekinzorlarda ishlash, duradgorlik, tokarlik, kitoblarni muqovalash va hokazolar bilan bajonidil shug'ullanadilar. Bu ishlarni tanlash tarbiyalanuvchining mayl va havasiga zid bo'lmasligi kerak, ana shundagina ishning o'zi haqiqiy va foydali dam olish bo'ladi. Tarbiyalanuvchilarning yoshiga qarab o'yin uchun vaqt berilishi, ammo u chinakam o'yin bo'lishi, bolaning joniga tegib bezdirmasligi, ishga o'tish talab qilinganda bola uni

majburiyatsiz, bermalol tashlab ketishga asta-sekin odatlanishi kerak. Hammadan ham tarbiyalanuvchi qo'lda bir ish, boshida bir fikr yo'q bekorchi odamlar kabi o'z vaqtini bekorga laqillatib o'tkazishga o'rganmasligi lozim, chunki qo'l ham, miya ham mashg'ul bo'lmagan paytda insonning fikri va axloqi buziladi.

Yoshlikdan o'rganilgan bu yomon odat keyinchalik ulfatchilik bilan vaqtni bekor o'tkazishga aylanib qoladi.

Ushinskiy, Komenskiy va Pestalotssi kabi buyuk pedagoglar ta'limning didaktik jihatlarini quyidagicha belgilaydilar:

**Ta'limning bolalar kuchiga mosligi va izchilligi.** Bu qoidaga rioya etishda bolani o'quv materialini bilan haddan tashqari band qilmaslik kerak.

**Ta'limning ko'rsatmaliligi, ongliligi va puxta o'zlashtirilishi.** Dars jarayonida ana shu didaktik qoidalardan o'rinda foydalanish uning sifati va samaradorligini oshiradi.

Ushinskiy darsni o'quvchilar ta'limiy faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishning shartlaridan biri deb hisoblagan va sinf-dars sistemasining o'ziga xos xususiyati, o'quvchilar guruhi, uning doimiyligi, maktabning asosiy bo'g'inni tashkil etuvchi sinfdan iboratligini ta'kidlagan. Sinfdagi mashg'ulotlarni qat'iy jadval asosida olib borish, o'qituvchi hamma o'quvchilar bilan umumiy mashg'ulot olib borishi va bunda har bir o'quvchi bilan yakka tartibda mashg'ulot ham o'tkazishi, uning yetakchilik vazifasini bajarishi zarurligini uqtirgan va darslarni yangi bilim berish, mashq qilish, takrorlash, o'quvchilar bilimini hisobga olish darslari va boshqa turlarga bo'lgan edi.

Ushinskiy o'qitishning uchta asosiy vazifasi mavjudligini ular bolalar nutqini o'stirish, ularga til xazinasidan ongli ravishda foydalanishni o'rgatish va tilning mantig'ini o'zlashtirishdan iboratligini bayon qilgan. Shu vazifalarni amalga oshirish uchun u o'zining «Ona so'zi» asarini yaratgan. Unda bolaning qalbiga nur ziyosini tarqatuvchi ulug' zot o'qituvchiga katta baho bergan.

K.D.Ushinskiy «Pedagogik adabiyotning foydasi» nomli asarida ota-onaning tarbiyachilik san'ati, mahorati, maqsad va vazifalarini ham asoslab berdi.

«Yaxshi tarbiya olgan odam» degan tushuncha juda keng bo'lib, uni har kim har xil tushunadi. Har qanday ota-ona o'z bolasiga har jihatdan yaxshilik istaydi, lekin uning mazmunini turlicha tushunadi.

Ota-onalar o'z bolalari uchun munosib tarbiya yo'lini belgilash uchun farzandlarini chuqur o'rganishi, ularning xohish-istaklarini bilishlari kerak.

Bola go'daklik paytida tevarak-atrofdagi narsa-hodisalar haqida juda yorqin va aslo unutilmaydigan taassurotlar oladi.

Oilada bola bilan tarbiyachi o'rtasida juda yaqin va samimiy munosabat o'zining tabiiyligi va oddiyligi, mazmundorligi, iliqligi, hech qanday rasmiyatchilikning yo'qligi bilan ajralib turishi uchun ham Ushinskiy oila tarbiyasiga yuqori baho bergan edi.

Ushinskiy ayol kishining pedagogik qobiliyatlarini hamda tartib-qoidalarni yaxshi ko'rish, mehribonlik, matonatlilik, intizomlilik, sabr-toqatlilik, diqqatini bir yerga to'play olishlik, odoblilik, didli-farosatlilik bolalarga nisbatan tug'ma muhabbat singari xarakter xususiyatlarini e'tirof etib, oila tarbiyasida onaning roliga g'oyat katta ahamiyat berar edi. Xarakterning faqat ana shu xususiyatlarining o'zi ayolga onalik burchlarini ado eta olish uchun aslo kifoya qilmasligini Ushinskiy yaxshi tushunar edi.

Ushinskiy ayollarga oilada va jamiyatda erkaklar bilan teng huquq berilishiga ularning bolalar tarbiyasiga doir o'z muqaddas burchlarini bajarish imkonini beradigan omil deb qaradi. Ushinskiy «ayollar tarbiyasi individual va oilaviy ahamiyatga ega ekanligi va fan hamda madaniyat yutuqlari faqat ayollar vositasidagina xalq hayotiga kirishi mumkin» deb hisobladi.

Ushinskiy ayollarning pedagogikani o'rganishlariga alohida ahamiyat berdi. U pedagogikani ayollar gimnaziyalari yuqori sinflarining o'quv dasturiga kiritish g'oyasini ilgari surdi. U pedagogika dasturini tuzdi va darslik yozmoqchi bo'ldi. Ushinskiy qizlar pedagogikadan tashqari fiziologiya, psixologiya va gigiyenani ham o'rganishlari lozim, shundagina bo'lajak ona, inson haqidagi mukammal bilimlarni egallab, bolalarini muvaffaqiyatli tarbiyalay oladi, degan xulosaga keldi.

Ushinskiy oila tarbiyasiga yuqori baho berib, oila tarbiyasini ota-onalarning xususiy ishi emas, balki ularning fuqarolik burchi deb qaradi. Ushinskiy bolalar tarbiyasi va ta'limi haqida g'amxo'rlik qilishni butunlay maktab zimmasiga yuklab qo'yishga intiladigan ota-onalarni qoraladi. Shu munosabat bilan u bunday deb yozgan edi: «Ota-onalar bolalarni tarbiyalaganlaridan keyin tarbiyani kuzatib borishdek muqaddas burchdan qutulmaydilar».



---

## X BOB. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMINING ISTIQLOLI VA ISTIQBOLI

«O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat. U mustaqil, demokratik, huququy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e‘tiqodlaridan qat’i nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta‘minlab beradigan davlatdir».

Haqiqatan ham, mustaqillik barkamol inson uchun bebaho qadr-qimmatimizni tiklash, o‘zligimizni chuqurroq anglash, unutilayotgan ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarimizni hayotga tatbiq etish, shu yurtning fuqarosi ekanligimizdan faxrlanish, ona tilimizning sohibi bo‘lish kabi baxtni ato etdi. Mustaqillikning maqsadi, mohiyati hamda vazifalarini yoshlar ongiga singdirish, komil insonlarni voyaga yetkazish xalq ta‘limi tizimini yanada rivojlantirishni talab qiladi.

O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 8 dekabrda o‘n birinchi sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining eng asosiy qoidalari — xalq manfaatlarini ko‘zlovchi mustaqil iqtisodiy siyosatni amalga oshirish, xalqlarning ma‘naviy va axloqiy rivojlanishida ularning erkinligi, huquq va burchini odilona asoslab berilganligidir.

Jamiyatimizning kichik bir qismi bo‘lmish oilada bolani tarbiyalashda dastlab umumiy insoniy qadriyat, ma‘naviy merosga sodiqlik his-tuyg‘usini shakllantirishdan boshlash zarurdir. Shuningdek, har bir fuqaroni o‘zbekligi va o‘z ona tilisi bilan g‘ururlanishini tarbiyalash lozimdir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalq ta‘limining rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Uning IX-bob 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir»

deyilgan. Shu qoidaga asosan faqat O'zbekistonda emas, balki chet ellardagi maktab va oliy o'quv yurtlarida ham ta'lim olish huquqiga ega bo'ldik. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tavsiya etgan chet tillarni chuqur o'rganish asosida O'zbekistonda ko'rik-tanlovlar o'tkazilib, iqtidorli yoshlar xorij davlatlariga «Umid» jamg'armasi orqali ta'lim olishga yuborilmoqdalar.

O'zbekiston yoshlarining ta'lim olish erkinligi ulardan kelajakda ilm va ma'naviyat muammolarini hal qila oladigan ilm sohiblarini yetishtirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonun va boshqa hujjatlariga asosanib ta'lim Qonuni ishlab chiqildi va u Respublika Oliy Kengashi sessiyasida qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi to'g'risidagi qonunining vazifalari fuqarolarning ilm olish huquqini va O'zbekiston Respublikasida ta'lim erkin rivojlanishining huquqiy kafolatlarini belgilab berishdan iboratdir. Unda ta'lim sohasidagi siyosatning asosiy qoidalari qatorida quyidagi yangi qoidalar ifodalangan: «Ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarning ustuvorligi»; «Davlat ta'lim standartlari doirasida hammaning ta'lim olishi uchun imkoniyat yaratilganligi»; «Tayanch (to'qqiz sinf hajmida) ta'limning majburiyligi».

Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'rganish, din tarixi va jahon madaniyati bo'yicha bilim olish uchun sharoitlar yaratish hamda pedagog shaxsini, uning ijtimoiy malakasini hurmatlash, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushunchalari va tamoyillarini singdirish va hokazolar.

Xalq ta'limi tizimining maqsadi jamiyatning aqliy kuch-qudrati, ilmiy-ijodiy imkoniyatlarini oila, jamiyat va davlat oldidagi o'z burchini anglab yetadigan har tomonlama barkamol shaxsni yetishtirishdir.

O'zbekiston Respublikasining xalq ta'limiga doir asosiy hujjatlar:

1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Asosiy qonuni);

2) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi to'g'risidagi Qonun;

3) Prezident farmonlari va O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari;

4) Xalq ta'limini rivojlantirishning davlat rejasi;


5) Ta'lim va tarbiya bo'yicha dasturi;

6) O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

«O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining talablariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'la bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqloq vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan.

### Kadrlar tayyorlash milliy modeli

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiyadagina iborat bo'lib qolmay, bir-biriga bog'liq ko'pgina hayotiy bosqichlarni ham o'z ichiga oladi. Milliy model — bu shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligi, ularning bir-biriga aloqasini aks ettiradi.



Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish sohaslarini isloh qilishga nihoyatda katta zaruriyat sezila boshladi. Busiz jamiyatimizning biron-bir sohasini o'zgartirishga kirishib bo'lmas edi. Islohotlarning taqdiri va samarasi birinchi navbatda kadrlarning saviyasiga, ularning zamon va taraqqiyot talablariga nechog'lik javob berishiga taqalib qolar edi. Yurtimizning ertangi hayoti va taqdiri, avvalambor, shu muammolarni uzil-kesil yechish bilan chambarchas bog'langanini har qaysi fikrlovchi odam anglashi qiyin emas.

Islom Karimov «Barkamol avlod orzusi» asarida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni amalga oshirgan taqdirdagina ta'limning yangi modeli yaratilishi mumkinligini alohida uqtiradi. Ular:

Birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizda mavjud muhit butunlay o'zgaradi;

Ikkinchidan, ta'limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotda o'z o'mini topish jarayoni tezlashadi. Har qanday odam ham o'smirlik chog'ida, endigina voyaga yetib kelayotgan davrida jamiyatdan munosib o'rini topishi kerak. Aks holda bu narsa noxush oqibatlariga, ba'zan esa og'ir fojialarga, hatto ijtimoiy larzalarga ham sabab bo'ladi. Yosh yigit-qizlarimizning ishda, turmushda, oila va jamoa orasida o'z o'mini topolmaslik holatlari ularning jamiyatda o'z qadrini yo'qotishiga olib keladi. O'z qadriga, o'z sha'niga ega bo'lmagan inson hayotda ko'p to'siqlarga duchor bo'ladi, beqaror va salbiy ta'sirlarga tez beriladi, uning shaxs sifatidagi yemirilishi ham tez kechadi.

Biz joriy etilayotgan mazkur ta'lim modeli orqali, avvalo, ana shu vaziyatning oldini olamiz. Qolaversa, yoshlarni muayyan bir ixtisosga ega qilib, hayotga yo'llanma beramiz. Dunyoga umid bilan qadam qo'yib kelayotgan navnihol inson hayotdan munosib o'mini topsa, turmushidan, taqdiridan, vatanidan rozi bo'lib yashaydi, umr bo'yi bunyodkorlik faoliyati bilan mashg'ul bo'ladi.

Bu g'oyat muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir;

Uchinchidan, ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, imoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo'lib, har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha, o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan, ongli tarzda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma'naviy-ruhiy muhitni soxta aqidalar, baqiriq-chaqiriqlar, havoyi shiorlar bilan aslo buzib bo'lmaydi. Ularni o'zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlardan chalg'itib ham bo'lmaydi;

To'rtinchidan, ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb

etadi. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi. Va har qaysi inson Olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va ist'edodni avvalo, o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxti-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas. Oldimizda turgan buyuk maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a'zosi qo'shadigan hissa shu hisobdan beqiyos bo'lishi muqarrar. Men «portlash effekti» deganda aynan shunday holatni nazarda tutmoqdaman;

Beshinchidan, biz fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz. Bu sohada dastlabki, ammo muhim qadamlar qo'yildi. Ishonchim komilki, vaqti-soati kelib, bugungi o'tish davri uchun zarur bo'lgan kuchli davlat funksiyalari va alomatlari asta-sekinlik bilan tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tadi. Mana shu yo'l, mana shu nazariy masalaning mohiyatini atroflicha yoritish, uni hayotimizda, amaliyotimizda hal qiluvchi siyosatga aylantirish nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizning ham eng muhim va dolzarb vazifasidir. Taraqqiyotning umumbashariy qonuniyatlari, insoniyatning ko'p yillik hayotida sinovlardan o'tib, ijobiy natijalar bergan tajribalar xuddi shu yo'lni taqozo etadi.

Biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri har xil «izm»lardan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan insonlargina fuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo'ladi.

Bu modeldan ko'zlangan yana bir maqsad bor. Uning vositasida biz dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyishga erishamiz.

### **O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi uzviylik**

Uzviylik ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim mezonlari asosida, turli darajadagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'lim-tarbiya ishlari amalga oshiriladi.

Jahon bozorida integratsiya, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sur'atlari xalq ta'limining barcha bo'g'inlari o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlashni talab etmoqda. Binobarin, bu hol tarbiya, ta'lim, siyosiy va kasbiy tayyorgarlik masalalarini hal etishga jamuljam yondashishni taqozo qilmoqda.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasida belgilangan islohotlarni hayotgatatibq qilishning bosqichma-bosqich prinsipi qo'yilgan.

Birinchi bosqich — o'tish davri bo'lib, u 1997–2001-yillarda, ya'ni 4 yil davomida joriy etiladi. Bunda kadrlar tayyorlash tizimi salohiyatini saqlab qolish, uning rivojlanishi uchun huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish lozim. Bu bosqichda asosan quyidagi vazifalarni bajarish kerak;

Milliy dasturni amalga oshirishning boshlanishi: yangi talablarga javob bera oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash; o'quv standartlarini yaratish va yangi o'quv programmalari ustida ishlash; umumta'lim maktablarini tuzilish jihatidan qayta qurish; uch yillik ta'lim — o'rta maxsus va kasb-hunar bilim yurtlari (kasb kolleji va akademik litsey) tizimiga zamin tayyorlash; uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimiga asos soladigan tadbirlarni amalga oshirish; ijtimoiy himoyani kafolatlash kabi masalalarni yechish bosqichi;


Ikkinchi bosqich — 2001–2005-yillarni o'z ichiga oladi. Bunda Milliy dasturni keng miqyosda to'liq amalga oshirishga erishish darkor. Tabiiyki, tizim faoliyatining samaradorligini, mehnat bozorini inobatga olib, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib, dastur g'oyalari va qoidalariga kerakli o'zgartirishlar kiritiladi;

Uchinchi bosqich — 2005 va keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish zarur.

Milliy dastur umumiy madaniyatni yuksaltirishga, farzandlarimizning jamiyatda munosib o'rmini topishiga xizmat qiladi. Ularning kasbiy va ta'limiy dasturlarni ongli ravishda tanlash va egallashlari uchun huquqiy me'yorlarni, tashkiliy, ruhiy-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlashga ko'maklashadi. Yigit-qizlarimizning jamiyat, davlat, oila oldida o'z mas'uliyatini chuqur anglab yetuvchi shaxslar etib tarbiyalashga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Xalq ta'limining asosiy bo'g'inini uzluksiz ta'lim tizimi tashkil etadi. Shuning uchun umumta'lim dasturlarini maktabgacha tarbiya, boshlang'ich, umumiy ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim tarzida tuzsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi.




Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyor darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta'lim bolaning olti-yetti yoshga to'lgunga qadar oilasi, maktabgacha tarbiya muassasalari (yaslilar — 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun; bolalar bog'chalari — 3 yoshdan 6–7 yoshgacha bo'lgan bola uchun) va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar har tomonlama rivojlanadilar va ta'lim-tarbiya oladilar. Ularning sog'lig'i mustahkamlanadi, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini hosil qiladilar. Ularda mehnatga muhabbat uyg'onadi, kattalarga hurmat, vatanparvarlik tuyg'ulari tarbiyalanadi. Bolalar maktab ta'limi uchun tayyorgarlik ko'radilar. Maktabgacha ta'lim muassasalari umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinflari bilan uzluksiz aloqani amalga oshirishlari lozim.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshiriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ish mazmuni va vazifasi o'quvchilarga fan asoslarini o'rgatish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga ularni tayyorlashdan iboratdir.

Umumiy o'rtta ta'lim quyidagi bosqichlardan iborat:



Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadilar. Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi va ish mazmuni umumiy o'rtta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishdan iboratdir.

Umumiy o'rtta ta'lim boshlang'ich ta'lim negizida tashkil etilib, u o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi (umumiy o'rtta ta'lim DTSda belgilangan), ularda mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Umumiy o'rtta ta'lim doirasida bolalarning qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish maqsadida muayyan yo'nalishdagi ixtisoslashtirilgan, maxsus ta'lim muassasalari (maktab-internatlar, musiqa, sport, xoreografiya hamda tasviriy san'at, shuningdek, ijtimoiy, gumanitar va tarbiyaviy fan yo'nalishlari bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim beruvchi maktablar va boshqalar)ni tashkil etish mumkin.

O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'limning tarkibiy qismi bo'lib, uning vazifasi va ish mazmuni o'quvchilarga muayyan yo'nalishda mutaxassislik yoki kasb-hunar ma'lumotini berish va ularda bu boradagi amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishdan iboratdir. O'quvchilar to'qqiz yillik umumiy-majburiy ta'limni tugatganlaridan so'ng yana uch yil o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limini majburiy-ixtiyoriy tarzda o'zlashtiradilar. O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda olib boriladi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan, shuningdek, ixtisoslik faoliyati yoki ta'limini navbatdagi bosqichda davom



ettirish uchun asos bo'luvchi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini jadid o'stirish, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va muayyan mutaxassislikka yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydi. Akademik litsey uch yillik o'rta maxsus o'quv yurti hisoblanadi. Ushbu o'quv yurtida o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Oliy ta'limni tashkil etishdan maqsad — jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojini ta'minlashga hissa qo'shuvchi, tanlangan mutaxassisligi bo'yicha bozor munosabatlari sharoitida mustaqil ishlash layoqatiga ega, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat.

Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash oliy o'quv yurtlari (universitetlar, institutlar, akademiyalar hamda oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalari)da o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichda: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistratura ta'limini berish asosida tashkil etiladi.

Bakalavriat — mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliyot bilimini beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limi.

Bakalavrluk dasturi tugallangandan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb yo'nalishi bo'yicha «bakalavr» darajasi beriladi va hukumat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim yo'nalishidagi tanlangan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis sanaladi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi. Biroq bakalavr ilmfan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsata olmaydi.


Magistratura — aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavr negizida kamida ikki yil muddatda tashkil etiladigan oliy ta'lim. Magistraturadagi ta'lim yakuniy kvalifikasion davlat attestatsiyasi va magistrlik

dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga yetkaziladi. Magistratura ta'limini tugatganlarga «magistr» darajasi hamda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom beriladi.

Magistr — bakalavrdan farqli ravishda ma'lum ixtisoslik bo'yicha yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. U aspiranturaga kirish huquqiga ega.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga, shaxsning ijodiy ta'lim, kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga va uzluksiz ta'lim tizimini ta'minlashga qaratilgan. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari (aspirantura, doktorantura, ad'yunktura va mustaqil tadqiqotchilik asosi)da yo'lga qo'yiladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim ikki bosqichda amalga oshiriladi:



«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablariga asosan, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarining kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga, ularni zamon talablariga javob bera oladigan darajaga yetkazishga qaratilgan.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish va ularni oqilona qondirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonini tabaqalashtirish, qayta tayyorlash va malaka oshirish natijalari asosida xodimlarni

ma'naviy va moddiy rag'batlantirib borish, mazkur jarayonlarni tashkil etishning davlat, jamiyat va nodavlat shakllarini birga qo'shib olib borish kabilar qayta tayyorlash ta'limining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanib, mutaxassislar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash universitetlarda, malaka oshirish institutlarida va kasbiy qayta tayyorlash huquqiga ega bo'lgan o'quv markazlarida amalga oshiriladi. Ushbu jarayon ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladi. Uning shakli malaka oshirish ta'lim muassasasi tomonidan ta'lim dasturining murakkabligi e'tiborga olingan holda va buyurtmachining u bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq ravishda belgilanadi.

Kadrlarni kasbiy qayta tayyorlash jarayoni yakuniy davlat attestatsiyasi bilan yakunlanadi. Attestatsiyani o'tkazish tartibi ta'limni boshqarish bo'yicha tegishli davlat organlari tomonidan belgilanadi.

O'quv rejasining barcha talablarini bajargan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilar qayta tayyorgarlik va malaka oshirishdan o'tganligi to'g'risida belgilangan namunadagi diplom yoki sertifikat oladilar.

### *Mustaqil ish*

Kadrlar tayyorlash milliy modeli asosiy tarkibiy qismlarining bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsating (333-bet).

---

## «PEDAGOGIKA TARIXI» DAN TESTLAR

1. «Pedagogika tarixi» qanday fan?

- a) siyosiy
- v) huquqiy
- s) ijtimoiy
- d) didaktik
- e) ma'naviy-ma'rifiy

2. «Xalqimiz tayanchi — ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosining o'zi bir xazina ... Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim» — iborasi yurtboshimiz Islom Karimovning qaysi asarida ta'kidlangan.

- a) Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik
- v) Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q
- s) Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman
- d) Amir Temur — faxrimiz, g'ururimiz
- e) Yuksak malakali mutaxassislar — taraqqiyot omili

3. Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba — bu haqqoniy yoritilgan tarixdir. Ushbu ibora Islom Karimovning qaysi asarida bayon etilgan?

- a) Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q
- v) Milliy istiqloq mafkurasi — xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir
- s) O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida
- d) O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li
- e) Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik

4. Prezident Islom Karimov o'zining qaysi asarida milliy istiqloq g'oyasi va milliy mafkurasining asosiy mohiyatini yoritib bergan?

a) Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori  
v) Milliy istiqbol mafkurasi — xalq e‘tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir

s) O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

d) O‘zbekistonning o‘z istiqbol va taraqqiyot yo‘li

e) O‘zbekiston XXI asr bo‘sa‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari

5. Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o‘rganishdagi manbalar qaysi javobda to‘liq o‘z aksini topgan?

a) xalq og‘zaki ijodi materiallari

v) buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi

s) xalq og‘zaki ijodi, buyuk adiblar, allomalarning asarlari, arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyolar

d) etnografiya va arxeologiya materiallari

e) eng qadimgi yozma manbalar

6. Ibtidoiy jamiyat davrida kishilarning mehnat faoliyati uch guruhga bo‘lingan. Bular qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) go‘daklar, bolalar va o‘smirlar hamda keksalar

v) bolalar va o‘smirlar, hayot va mehnatda to‘la ishtirok etuvchilar, keksalar

s) bolalar va o‘smirlar, balog‘at yoshiga etgan yigitlar va qizlar, mehnatga layoqatsiz kishilar

d) yoshlar, yigitlar, faxriylar

e) o‘smirlar, hayot va mehnatda to‘la ishtirok etuvchilar, ayollar va keksalar

7. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi kishilar, ularning bir-biriga, atrof-muhitga, kasb-koriga munosabat borasidagi ilk fikr va tasavvurlar ifodalangan manba.

a) yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix» kitobi

v) axmoniyalar hukmdori Doro I ning «Bexistun yozuvlari»

s) «Avesto»

d) «Qur‘oni karim»

e) «Alpomish» dostoni

8. Zardushtiylik axloqining asosi bu ...

a) ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal

v) ezgu niyat, ezgu ixlos, ezgu amal

- s) ezgu kalom, ezgu xayol, ezgu tilak
- d) falsafa, siyosat, e'tiqod
- e) saodat, e'tiqod, tafakkur

9. «Mehnat axloqiylilikning asosi, saxovatlilik belgisi» -- deb qaysi ta'limotda ko'rsatilgan?

- a) zardushtiylik
- v) mazdakiylik
- s) naqshbandiya
- d) kubraviya
- e) A va V

10. O'rta Osiyoda musulmon maktablari tizimi qaysi tarixiy davrda tashkil topgan?

- a) VII asr
- v) VIII–XII asr
- s) XII–XIII asr
- d) XIV–XVII asr
- e) XIII asr

11. Dastlabki arab tilidagi maktablarning yaratilishiga nimalar ta'sir etdi?

- a) savodlilikning tarqalishi
- v) Qur'oni karimning tarqalishi
- s) bolalarni tarbiyalash zarurligi
- d) bolalarni mehnatga tayyorlash zarurligi
- e) axloqiy tarbiyaga e'tiborni kuchayishi

12. O'rta Osiyoda ilmiy-pedagogik asarlarning paydo bo'lishi qaysi tarixiy davrga to'g'ri keladi?

- a) VII–VIII asrlar
- v) XIII–XV asrlar
- s) IX–XII asrlar
- d) XVI–XIX asrlar
- e) XVII–XVIII asrlar

13. Hadis ilmining yaratilishida oltin davr qaysi asrga to'g'ri keladi?

- a) VII asr
- v) VIII–IX asrlar

- s) XV asr
- d) XVI asr
- e) X–XII asrlar

14. «As-sahih» to'plami qaysi muhaddis-vatandoshimiz ijodiga mansub?

- a) Imom Ismoil al-Buxoriy
- v) Imom Ismoil al-Nishopuriy
- s) Imom ibn Mojjja
- d) Imom ibn Iso at-Termiziy
- e) Imom Abu Dovut Sulaymon Sijistoniy

15. Hadis ilmida «Sahih» yo'nalishining asoschisi kim?

- a) Imom al-Buxoriy
- v) Abu Iso at-Termiziy
- s) Imom Ahmad an-Nasoniy
- d) Imom Abu Dovut Sulayman Sijistoniy
- e) Imom Abu Abdulloh ibn Mojjja

16. «Al-jome as-sahih» asarining muallifi kim?

- a) Imom Buxoriy
- v) At-Termiziy
- s) An-Nasoniy
- d) Ahmad Yassaviy
- e) Imom Abu Abdulloh ibn Mojjja

17. Sharq «Uyg'onish davri»ga oid ilm-fan rivojlanishida uch yo'nalish bu ...

- a) matematika-tibiiyot; ijtimoiy-iqtisodiy; ta'limiy-axloqiy
- v) ta'limiy-falsafiy; ta'limiy-axloqiy; matematika-tabiiyot
- s) matematika-tabiiyot; ijtimoiy-falsafiy; ta'limiy-axloqiy
- d) matematika-tabiiyot; ijtimoiy-gumanitar; ta'limiy-axloqiy
- e) barcha javob noto'g'ri.

18. Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib ta'lim-tarbiyaga ta'rif bergan alloma ...

- a) al-Xorazmiy
- v) al-Forobiy
- s) al-Farg'oniy
- d) al-Beruniy
- e) Ibn Sino

19. Forobiyning qaysi asarida davlat rahbarining o'n ikki fazilati ko'rsatiladi

- a) «Fozil shahar aholisi»
- v) «Aql to'g'risida risola»
- s) «Musiqqa to'g'risida trakt»
- d) «Ruh madaniyati haqida risola»
- e) «Aflotun qonuniyatlari»

20. «Inson kamolotida uch narsa — «irsiyat», «muhit», «tarbiya» muhim rol o'ynaydi» degan fikrni ilk bor ilgari surgan olim ...

- a) Forobiy
- v) Beruniy
- s) Ibn Sino
- d) al-Moturidiy
- e) al-Marg'inoniy

21. «Donishnoma» asarining muallifi ...

- a) al-Forobiy
- v) al-Beruniy
- s) al-Moturidiy
- d) Ibn Sino
- e) al-Farg'oniy

22. Turkiy tilda yaratilgan dastlabki ta'limiy-axloqiy asar qaysi?

- a) «Devonu lug'otit-turk»
- v) «Qutadg'u bilig»
- s) «Hibat ul-haqoyiq»
- d) «Mahbub ul-qulub»
- e) «Donishnoma»

23. «Devonu lug'otit-turk» asaridagi she'riy parchalarni yig'ib tarjima qilgan, ularning lug'atini tuzgan va kitob holda nashr etgan o'zbek olimi ...

- a) Abdulla Avloniy
- v) Abdurauf Fitrat
- s) Cho'lpon
- d) Mahmudxo'ja Behbudiy
- e) Shakuriy



24. «Hibat ul-haqoyiq» asarining muallifi ...

- a) Yusuf Xos Hojib
- v) Alisher Navoiy
- s) Kaykovus
- d) Ahmad Yugnakiy
- e) Najmiddin Kubro

25. Movarounnahrda davlat arboblardan kim XV asrda maktablar islohotini o'tkazdi?

- a) Amir Temur
- v) Ulug'bek
- s) Bobur
- d) Alisher Navoiy
- e) Husayn Boyqaro

26. «Bilimga intilish har bir musulim va muslima uchun farzdir» degan iborani qaysi alloma aytgan?

- a) Amir Temur
- v) Mirzo Ulug'bek
- s) Bobur
- d) Alisher Navoiy
- e) Ali Qushchi

27. «Men har doim insof bayrog'ini baland ko'tardim va imon tarqatishni o'z buyukligimning qudratli zamini deb bildim. Men inson bir onadan tug'ilgan deb ishonganman. Shuning uchun mustahkam qudratga tayangan qudrat buyuk bo'ladi» iborasi qaysi bobokalonimizning fikriga mansub?

- a) Jaloliddin Manguberdi
- v) Amir Unsurulmaoliy Kaykovus
- s) Bobur
- d) Amir Temur
- e) Mirzo Ulug'bek

28. Amir Temur tuzuklarida jamoani boshqaruvchi rahbar fazilatlari:

- a) ishbilarmonlik, mard, shijoatli, uzoqni o'ylashi, har bir ishda maslahat olmoq, adolatli bo'lmog'i
- v) adolatli, jasur, ishchan bo'lish
- s) o'ylab ish tutish, sabr-qanoatli, maslahat olmoq

- d) oila boshlig'i, mard, jasur
- e) shijoatli, mard, sabr-qanoatli

29. Boburning bola tarbiyasiga doir qo'llanishi lozim bo'lgan usullari haqidagi fikri:

- a) ota-ona farmonini bajarish, barcha insonlarga yaqinlikni his etish, ota-ona ibrati, to'g'ri talablarni qo'yish
- v) talabchan, uddaburon, qat'iyatli
- s) ota-ona ibrati, talabchanligi
- d) mehr, talabchanlik, yaqinlik
- e) inoqlik, mehr-oqibat, ibrat-namuna

30. «Yer surati», «Al-jabr va al-muqobala» asarlarining muallifi:

- a) Forobiy
- v) Beruniy
- s) al-Xorazmiy
- d) al-Farg'oniy
- e) Umar Xayyom

31. O'rta Osiyo mutafakkirlaridan qaysi alloma birinchi marta bolalarni jamoa bo'lib maktabda o'qitishning ahamiyatini ilmiy asoslab bergan?

- a) Beruniy
- v) Forobiy
- s) al-Xorazmiy
- d) Ibn Sino
- e) Yusuf Xos Hojib

32. «O'quv qut beradi, bilim sharaf-shon. Shu ikkov tufayli, ulug'dir inson» iborasi qaysi asardan olingan?

- a) «Tadbir al-Manozil»
- v) «Qobusnoma»
- s) «Qutadg'u bilig»
- d) «Shohnoma»
- e) «O'tmishdan qolgan yodgorliklar»

33. «Bilgil aql bir moldirki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvda oqmas» — ushbu fikrning muallifi ...

- a) Ahmad Yugnakiy
- v) Yusuf Xos Hojib

- s) Mahmud Koshg'ariy
- d) Kaykovus
- e) Forobiy

34. «Ey farzand, ogoh bo'лки, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'лur, hech kishiga naf yetkirmas». Bu fikr qaysi asardan olingan?

- a) «Ash-Shifo»
- v) «Geodeziya»
- s) «Qobusnoma»
- d) «Donishnoma»
- e) «Hotamnoma»

35. «Qobiliyatini tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya hayf». Yuqoridagi fikrning muallifi kim?

- a) Kaykovus
- v) Yusuf Xos Hojib
- s) Navoiy
- d) A. Yugnakiy
- e) A. Jomiy

36. Navoiyning «Hayrat ul-abror» asarida odob-axloqqa doir asosiy g'oyalar ...

a) adolat, muruvvat, saxiylik, odob, kamtarlik, qanoat, insof, ishq-vafo

- v) sevgi, kamtarlik, olijanoblik, odoblilik
- s) axloq, qanoat, sabr, toqat
- d) to'g'rilik, rostgo'ylik, mehr
- e) adolat, ishq, mehr, kamtarlik

37. «Ustoz, muallimsiz qolganda zamon, nodonlikdan qaro bo'лurdi jahon». Bu fikrning muallifi?

- a) Navoiy
- v) Davoniy
- s) Jomiy
- d) Yusuf Xos Hojib
- e) Yugnakiy

38. Muallim bu ... «Ma'naviy padar» — iborasi qaysi allomaning fikriga mansub?

- a) Voiz Koshifiy

- v) Yusuf Xos Hojib
- s) Kaykovus
- d) Davoniy
- e) Navoiy

39. «Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud juvonmardlik tariqati» deb nomlangan asarning muallifi kim?

- a) Yugnakiy
- v) Jomiy
- s) Voiz Koshifiy
- d) Davoniy
- e) Navoiy

40. «Men ikki mahbubni ko'rdim. Ikkisin kindigi bir, Gar alar orasiga tushsang Bo'lursen kasir». Ushbu satrlar qaysi otinning qalamiga mansub?

- a) Anbar otin
- v) Dilshod otin
- s) Jahon otin
- d) Qamar bonu
- e) Samar bonu

41. Rus muhojirlari Turkiston general-gubernatorining farmoniga binoan qanday maqsadda maorif islohotini o'tkazgan edilar?

- a) rus maktablari, rus-tuzem maktablari, gimnaziya ochish maqsadida
- v) rus-tuzem maktablari ochish maqsadida
- s) savodsizlikni tugatish maqsadida
- d) mahalliy maktablar, maktab madrasalarini siqib chiqarish maqsadida
- e) milliy g'ururni yo'qotish maqsadida

42. Yangi usul maktablari ochish uchun birinchi bo'lib «Ustodi avval» alifbosini kim yaratgan?

- a) Shakuriy
- v) Saidrasul Aziziy
- s) Behbudiy
- d) Hamza
- e) Avloniy

43. «Taraddud birla maktabda o'qing o'g'lonlar, o'g'lonlar, Bo'lursiz bir kuni olamda zo'r insonlar, o'g'lonlar». Bu to'rtlikning muallifi ...

- a) Niyoziy
- v) Fitrat
- s) Avloniy
- d) Behbudiy
- e) Munavvar qori

44. «Pedagogiya, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir». Pedagogikaga bu ta'rif kim tomonidan berilgan?

- a) Shakuriy
- v) Hamza
- s) Avloniy
- d) S. Ayniy
- e) Behbudiy

45. «Rahnamoi savod» alifbosini va «Tovush harf» metodini ishlab chiqqan pedagog olimning nomi ...

- a) Behbudiy
- v) Hamza
- s) Avloniy
- d) Shakuriy
- e) Fitrat

46. «O'qish kitobi» va «Yengil adabiyot» o'quv qo'llanmalarining muallifi kim?

- a) Fitrat
- v) Behbudiy
- s) Shakuriy
- d) Hamza
- e) S. Ayniy

47. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qachon qabul qilingan?

- a) 1992-yil
- v) 1995-yil
- s) 1996-yil
- d) 1994-yil
- e) 1997-yil

48. «Ta'lim to'g'risida»gi yangi Qonun qachon qabul qilingan?

- a) 1992-yil
- v) 1996-yil
- s) 1995-yil
- d) 1997-yil
- e) 1994-yil

49. «Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak» — iborasi Islom Karimovning qaysi asarida ta'kidlangan?

- a) «Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori»
- v) «Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik»
- s) «Barkamol avlod orzusi»
- d) «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat»
- e) «O'zbekiston buyuk kelajak sari»

50. «Sinflararo tizimi»ning asoschisi ...

- a) Avloniy
- v) Hamza
- s) Komenskiy
- d) Ushinskiy
- e) Shakuriy

51. Xiredin kechgil ul g'inodurkim,

Haddu g'oyat emal anga paydo.

Tut qanoatki, ul erur mole

Ki, nihoyat emas anga paydo.

Yuqorida keltirgan hadis kimning qalamiga mansub?

- a) at-Termiziy
- v) Alisher Navoiy
- s) az-Zamaxshariy
- d) Ahmad Yugnakiy
- e) Imom al-Buxoriy

52. Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ma'rifatparvar kim?

- a) Abdulla Qodiriy
- v) Ismoilbek G'aspirali o'g'li
- s) Ishoqxon Ibrat
- d) Shakuriy
- e) Hamza Hakimzoda

53. 1495-yili yozilgan 253 sahifa 40 bobdan iborat «Axloqi Muhsiniy» asarining muallifi kim?

- a) Alisher Navoiy
- v) Poshoxo'ja
- s) Sayfiy Saroyi
- d) Husayn Voiz Koshifiy
- e) Bedil

54. Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,  
Xanjar olmasdan bo'lur o'tkur.

Qaysi asardan olingan?

- a) Mahbub ul-qulub
- v) Qobusnoma
- s) Turkiy guliston yoxud axloq
- d) Odobnoma
- e) To'rt ulus tarixi

55. Turkistonda alifbolar tarixiga bag'ishlab asar yozgan olim

- a) Hoji Muyin
- v) Hamza Hakimzoda
- s) G'afur G'ulom
- d) Imom Husanxo'jayev
- e) Mashrab

56. Yan Amos Komenskiyning qaysi asari dunyoda mashhur bo'ldi?

- a) «Tillar va ularni o'rganish uchun ochiq eshik»
- v) «Buyuk didaktika»
- s) «Onalik maktabi»
- d) «Tinchlik farishtasi»
- e) «Lotin tili muqaddimasi»

57. Ota-onaning uyi axloq maktabidir. Bu satrlar kimga tegishli?

- a) Yan Amos Komenskiy
- v) I.T. Pestalotssi
- s) Ulug'bek
- d) Bobur
- e) K.D. Ushinskiy.

## MUNDARIJA

I BOB. Pedagogika tarixi fanining predmeti, maqsad hamda vazifalari.....	3
II BOB. Qadimgi davrdan VII asrgacha Markaziy Osiyo va Yunonistonda ta'lim-tarbiya va pedagogik g'oyalar.....	8
III BOB. VII-VIII asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogik fikrlar.....	17
IV BOB. Sharq uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.....	37
V BOB. Temuriylar davrida madaniyat va ta'lim-tarbiya.....	93
VI BOB. XIX asrning oxiri –XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lim-tarbiya.....	144
VII BOB. Turkistonda jadidchilik harakati va uning maorif rivojlanishidagi o'rni.....	186
VIII BOB. Boshlang'ich ta'lim fidoyilari.....	244
IX BOB. Chet eldagi ilg'or pedagogik g'oya namoyandalari.....	265
X BOB. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining istiqloli va istiqboli.....	288
«Pedagogika tarixi»dan testlar.....	299



**O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, H. Homidov**

**PEDAGOGIKA TARIXI**

Darslik

Nashr uchun mas'ul *N. Xalilov*

Muharrirlar: *D. Xolmatova, J.Subhon-*

Rassom *H. Qutluqov*

Texnik muharrir *T.Smirnova*

Musahhih *M.Nasriddinova*

Kompyuterda sahifalovchi *Z.Ahmedova*

IB №4190

Bosishga 23.11.2004-y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108  $\frac{1}{32}$ . Tayms garnitura. Ofset bosma. 16,38 shartli bosma tobog'i. 20,5 nashr tobog'i. Jami 1000 nusxa. 19-2004 raqamli shartnoma. 278 raqamli buyurtma. Bahosi shartnoma asosida.

«O'AJBNT» Markazi, 700078, Toshkent,  
Mustaqillik maydoni, 5.

Andoza nusxasi O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi «O'AJBNT» Markazining  
kompyuter bo'limida tayyorlandi.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy // 700128, Toshkent, Usmon Yusupov ko'chasi, 86-uy.

